

# PROSPECTS OF IMPROVING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE TRAINING OF COMPETITIVE PERSONNEL

## International scientific-practical conference



**RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA FAN – TA'LIM – ISHLAB  
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**XA'LQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ  
И ПРОИЗВОДСТВА В ПОДГОТОВКЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ КАДРОВ**

**Международная научно – практическая конференция**

II

**November 22  
2023 year**





**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**“RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA FAN – TA’LIM –  
ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH  
ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA  
MATERIALLAR TO‘PLAMI  
2-qism  
2023-yil 22-noyabr**

**COLLECTION OF MATERIALS  
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE “PROSPECTS OF IMPROVING THE INTEGRATION OF  
SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE TRAINING OF  
COMPETITIVE PERSONNEL”  
Part 2  
November 22, 2023**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ  
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ  
“ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ,  
ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА В ПОДГОТОВКЕ  
КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ КАДРОВ”  
Часть 2  
22 ноября 2023 г.**

Collection of materials from the international scientific and practical conference  
**“Prospects of improving the integration of science, education and production in the training  
of competitive personnel”**, Part 2. November 22, 2023- T.: Science and Innovation, 2023. – 432p.

**“Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan - ta’lim – ishlab chiqarish integratsiyasini  
takomillashtirish istiqbollari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar  
to’plami, 2-qism. 2023-yil 22-noyabr - T.: Science and Innovation, 2023. – 432b.

#### **Tahrir hay’ati a’zolari (Members of the editorial board)**

<b>Sh.I. Mustafakulov</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti rektori, i.f.d., professor.</i>
<b>A.R.Jurayev</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti Boshqaruv Kengashi raisi, i.f.d.</i>
<b>O.A.Qo‘ysinov</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, p.f.d., professor.</i>
<b>Petri Raivo</b>	<i>Karelia amaliy fanlar universiteti rektori, professor (Finlandiya).</i>
<b>Johanna Järveläinen</b>	<i>Xalqaro Nordik universiteti o‘qituvchisi (Finlandiya).</i>
<b>A.Amonboyev</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti Akademik ishlar bo‘yicha prorektor, i.f.n., dotsent.</i>
<b>Q.B. Panjiyev</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti Musiqa ta’limi kafedrasini mudiri, p.f.d., professor.</i>
<b>N.X.Lutfullayeva</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti “Psixologiya va maktabgacha ta’lim” kafedrasini mudiri, ps.f.n., dotsent.</i>
<b>D.T.Miraliyeva</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri, p.f.b.f.d. (PhD).</i>
<b>D.A.Nasriddinov</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti “Xorijiy tillar” kafedrasini mudiri, f.f.b.f.d. (PhD).</i>
<b>M.S.Tulaev</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti “Iqtisodiyot va biznesni boshqarish” kafedrasini mudiri, dotsent.</i>
<b>X.N.Sabirov</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti “Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar” kafedrasini mudiri, i.f.b.f.d. (PhD).</i>
<b>S.H.Shomurodova</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti “Pedagogika” kafedrasini dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD).</i>
<b>B.N.Rustamov</b>	<i>“Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnali bosh muhariri.</i>
<b>F.S.Irisqulov</b>	<i>Xalqaro Nordik Universiteti Ilmiy va innovatsion tadqiqotlar bo‘limi mutaxassisi.</i>

**MUTAXASSISLIK FANLARNI O‘QITISHDA  
INNOVATSION TA’LIM  
TEKNOLOGIYALARI**

**\*\*\***

**INNOVATIVE EDUCATIONAL  
TECHNOLOGIES IN SPECIALIZED  
SUBJECT TEACHING**

**\*\*\***

**ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ  
ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ  
ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ**

## **BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING AFG‘ON RUBOBI VOSITASIDA MUSIQIY CHOLG‘U IJROCHILIGI MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Ro‘zimurodov Ilyos Azamatovich**

Xalqaro Nordik universiteti “Musika ta’limi” kafedrası katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159021>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining afg‘on rubobi vositasida musiqiy cholg‘u ijrochiligi mahoratini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va kasbiy ijrochilik kompetentsiyalari hamda uning umumnazariy xususiyatlari tahlili bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, pedagogika, afg‘on rubob, musiqa, ijrochilik, cholg‘u, mutaxassis, kadr, ta’lim yo‘nalishi, ta’lim, mahorat.*

***Аннотация.** В данной статье описаны педагогические возможности совершенствования навыков игры на музыкальных инструментах и профессиональных исполнительских компетенций будущего учителя музыки с помощью афганского рубабa, а также проведен анализ его общетеоретических особенностей.*

***Ключевые слова:** педагог, педагогика, афганский рубоб, музыка, исполнение, инструмент, специалист, кадр, сфера обучения, образование, мастерство.*

***Abstract.** This article describes the pedagogical possibilities of improving the skills of playing musical instruments and professional performing competencies of a future music teacher with the help of the Afghan rubab, as well as an analysis of its general theoretical features.*

***Keywords:** teacher, pedagogy, Afghan rubob, music, performance, instrument, specialist, personnel, field of study, education, skill.*

**Kirish.** Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining cholg‘u ijrochiligi kompetentsiyasini takomillashtirish ularning kasbiy faoliyatini mustaqil ravishda bajarishi mahalliy pedagogikaning doimiy izlanayotgan muammolaridan biridir. Ertangi musiqa o‘qituvchisi cholg‘u ijrochisi o‘z kasbiy faoliyatini qay tarzda amalga oshirishi va u jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan talablarni, pedagogik ta’limning ilg‘or nazariyasi va amaliyotini inobatga ola oladimi – bu bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir [9].

Mazkur muammolarni hal etish, faqat va faqat bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. D.B. Kabalevskiyning fikriga ko‘ra, “...agar biz o‘quvchilarni har tomonlama, barkamol rivojlantirishni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘ysak, birinchi navbatda aynan musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi haqida qayg‘urshimiz kerak” degan edi [8].

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga oid yuqoridagi olimlar, musiqashunoslarning ilmiy tadqiqotlari tahlili asosida musiqa o‘qituvchisining faoliyati musiqiy-pedagogik sifatida belgilanadi. Mazkur tadqiqot nuqtai nazaridan olib borilgan ishlarimiz natijasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyatida “o‘qituvchi” tushunchasi va “musiqa ijrochisi” tushunchasini o‘zida mujassam etadi degan xulosaga keldik.

L.G. Archajnikov [5], O.A. Apraksina [4] va boshqalar musiqa o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyatini tarkibiy qismlar belgilangan va faoliyat yondashuvi nazariyasining umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi tuzilma sifatida taqdim etishgan. Maxalliy olimlardan Q.B. Panjiyev bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyat turini asosiy uchta guruhga ajratgan. Ya’ni, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi umumiy o‘rta ta’lim maktabida to‘laqonli faoliyat olib borishi uchun “cholg‘u ijrochiligini egallaganligi”, “xonandalik jarmlarida kuylay olish malakasiga egaligi” hamda “musiqiy-nazariy bilimlarni egallagan” bo‘lishi shart deb hisoblaydi. Shuningdek,



uning fikricha bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi pedagogika sohasi, bakalavriat bosqichi musiqa ta’limi ta’im yo‘nalishida musiqa nazariyasi, sol’fedjio, garmoniya, xor va xorshunoslik, dirijyorlik, cholg‘u ijrochiligi, fortepiano va qo‘shimcha cholg‘u, o‘zbek xalq musiqa ijodi, an’anaviy xonandalik, vokal va zamonviy musiqa, musiqa o‘qitish metodikasi kabi fanlarni ixtisoslik fan sifatida, musiqa tarixi, notalashtirish va kompyuter dasturlari ishlash, musiqa to‘garaklarini tashkil etish, maktab repertuari, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarni umumkasbiy fanlar sifatida tahsil olishi kerak deb hisoblaydi [10].

Demak, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyati faollik jihatidan ko‘p qirrali va aniq bilim, ko‘nikma va malakalarni ifodalashda murakkabdir.

**Asosiy qism.** Musiqa-pedagogik faoliyatning ko‘p qirrali va murakkabligi shundan iboratki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi hamisha tayyor turishi uchun ham musia nazariyotchisi, ham dirijyor, ham musiqa tarixchisi, ham musiqa xonandasi, vokal ijrochisi, cholg‘u ijrochisi vaho kazo bo‘lishi kerak. Bu umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari bilan ishlashda, ularni musiqa san’atiga qiziqtirish va musiqa sohasi vakili bo‘lishida, barcha diqqat-e’tiborni musiqa darsiga u yoki bu yo‘nalishda qaratishga yordam beradi [10].

Musiqiy-pedagogik faoliyatning ko‘p qirrali va murakkabligi musiqa darsini o‘tkazishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shunchaki tushuntirmaydi, nazariy bilim beradi, balki musiqaning, kuy-ohangni o‘zi bilan o‘rgatadi, nafaqat gapiradi, balki o‘z so‘zini tegishli asarlar ijrosi bilan mustahkamlaydi, ijro ohanglarni o‘rgatadi [1].

Tadqiqot ishi jarayonida olib borilgan kuzatishlar amaliyoti shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi har doim ham ko‘p qirrali mutaxassislik bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaviy kompetensiyalar majmuasiga ega bo‘lish talab etiladi. Ayniqsa, musiqa pedagogikasi kasbiy faoliyatida o‘zini musiqiy-pedagogik faoliyatning bir sohasida ifodalagan bo‘lsa, boshqa turdagi musiqiy-pedagogik faoliyatda kam ifodali bo‘lib chiqqanini aniqlandi. Masalan, musiqa o‘qituvchisi musiqa tarixini yaxshi biladi, lekin musiqa nazariyasidagi bilimlari yetarli darajada emas, dirijyorlikni biladi, lekin cholg‘u ijrochiligini yaxshi bilmaydi, xonandalik mahorati yaxshi va yoki aksincha.

Musiqa pedagogikasi olimlari (G.B. Krilov, A.A. Trifonov, T.A. Trunilova, A.I. Tsyganov, G.M. Tsipin va boshqa)ning fikrlariga qaraganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining qo‘shiq ijrochiligi yoki dirijyorlik kabi mahorat va qobiliyatlari musiqashunoslik adabiyotlarida yetarlicha yoritilganligini bildiradi. Biroq, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy ijro tayyorgarligi masalalariga bir qator o‘rganishlar bajarilganligi va bu keyingi davrlardagi o‘zgarishlar uchun yetarlicha deb bo‘lmaydi deb izohlaganlar [3].

Musiqiy kasbiy ta’lim doimiy o‘zgarishlar sharoitida, milliy qadriyatlar va aholi orasida tarixan tarkib topgan urf-odat, an’ana, qadriyatlar, marosimlarda ta’lim yo‘nalishi o‘quv fanlarini baholashda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorlash maqsadi islohotning asosiy g‘oyalaridan biri sifatida kompetetsiyaga asoslangan yondashuvga muvofiq o‘zgartirilib, yangi mazmun bilan to‘ldirilmoqda. Hozirgi bosqichda kompetetsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish sharoitida umuman musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetetsiyasini rivojlantirish va ayniqsa, uning musiqiy-nazariy va cholg‘u-xonandalik ijrochilik kompetetsiyasini takomillashtirish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijrochilik kompetetsiyasini takomillashtirish masalasi doirasida maqsadni belgilash “musiqiy-nazariy va ijro (cholg‘u-xonandalik) mahorati”

tushunchasini nazariy tahlil qilish zarurligini oldindan belgilashga yordam beradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijrochilik kompetentsiyasini takomillashtirishda nazarimizda cholg‘u ijrochiligi muammosi asosiy masalalardan biri sanaladi. Shu sababdan ham bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy cholg‘u ijrochilik kompetentsiyasining tuzilishi va mazmunini ochib berish vazifasini qo‘ygan holda biz tabiiy ravishda “kompetentlik”, “kasbiy kompetentsiya”, “musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetentsiyasi”, “bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-ijrochilik kompetentsiyasi”, “bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining cholg‘u ijrochiligi kompetentsiyasi” kabi tushunchalarni izoh berish lozim deb hisoblaymiz.

Bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida “kompetentsiya” tushunchasiga bir qator ta’riflar berilgan. Ochig‘ini aytish kerakki O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan tadqiqotlarda ham keyingi davrlarda eng ko‘p murojaat etilgan atama aynan anashu tushunchadir.

“Kompetentlik” atamasi (lotincha *competere* – biror narsaga qodir bo‘lish) kompetentsiyaga ega bo‘lgan holda bilish, bilimdon, malakali, shaxs bilimga ega bo‘lgan masalalar majmuasi sifatida talqin qilinadi [2]. Bu tushunchalar pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng qo‘llanilganligi bilan ham ahamiyatga egadir.

Psixologik adabiyotlarda [3], “kompetentsiya” insonni ixtisoslashgan faoliyat sub’ekti sifatida tavsiflovchi, maqsadlarga oqilona va muvaffaqiyatli erishishga olib keladigan baholovchi kategoriya sifatida qaraladi. Shu bilan birga, uning bilim va ko‘nikmalarning tuzilishi, qadriyat yo‘nalishlari, o‘ziga va o‘z faoliyatiga munosabati, faoliyat samaradorligi va uni takomillashtirish qobiliyati kabi tarkibiy qismlari baholanadi.

Tadqiqot jarayonidagi o‘rganishlar natijasida mazkur atamaga quyidagicha ta’rif berib o‘tdik. “Kompetentsiya” – bu shaxsning “belgilangan mavzuni tushuna bilishi” bilan harakat qilishga doimiy tayyorligi va qobiliyati. Ushbu tushunchani quyidagi asosiy komponentdan iborat deb hisoblaymiz:

- bajarilgan vazifalarning mohiyatini va hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolarni chuqur anglash;

- ushbu sohada mavjud bo‘lgan tajribani yaxshi bilish, uning eng yaxshi yutuqlarini faol o‘zlashtirish;

- joy va vaqtning o‘ziga xos sharoitlariga mos keladigan harakat vositalari va usullarini tanlash qobiliyati;

- kasbiy faoliyatda erishilgan natijalar uchun javobgarlik hissi;

- xatolardan saboq olish va maqsadga erishish jarayonida tuzatishlar kiritish qobiliyati.

“Kasbiy kompetentsiya” tushunchasi shaxsning istalgan kasbni egallashiga nisbatan qo‘llaniladi. Ma’lum bo‘lgan talqin shundan iboratki, ijtimoiy ishlab chiqarishning biron bir sohasida bilimga ega bo‘lgan shaxs odatda malakali deb ataladi. Agar ta’lim muassasasi mutaxassislarining malakasi ularning asosiy faoliyati jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, unda talabalarning kompetentsiyasini, birinchi navbatda, kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni taqdim etadigan ta’limning bunday xususiyatini tushunish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, bo‘lajak mutaxassislar kompetentsiyasining o‘zagi bu – bilimdir. Bu haqiqatni nazariy tadqiqotlar natijalari tahlili O.A. Abdullina, Yu.N. Kulyutkin, M.N. Skatkin, V.A. Slastenin, N.Narzullaev, O.Qo‘ysinov, J.Tolipova, M.O‘razova tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Bundan tashqari, aksariyat pedagogik tadqiqotlarda quyidagilar ta’kidlanadi:

bilim – kompetentsiyaning o‘ziga xos xususiyati sifatida ikki komponent (nazariy va amaliy) dan iborat. Talabalar mazkur kompetentsiyaning nazariy tomonini har bir mutaxassis o‘zining kasbiy tayyorgarligini boshlagan, tanlangan kasbiy faoliyatning asosi bo‘lgan bilimlarni o‘z ichiga oladi. Amaliy tomoni shundaki keyinchalik ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshirilgan nazariy bilimlarni sifatli qo‘llashdir. G.N. Serikov “kasbiy kompetentsiya” tushunchasining talqini mutaxassislarning kasbiy faoliyati predmetiga asoslanib, u kompetentlik “bir yoki bir nechta ilmiy fanlar bo‘yicha, insonshunoslik (psixologiya, pedagogika, antropologiya, sotsiologiya va boshqalar) gumanitar fanlar (falsafa, fanlarning rivojlanish tarixi va boshqalar)” [5] bilan bog‘liq fanlar tsiklidagi bilimlarni, shuningdek, tsiklni tavsiflaydi, degan xulosaga kelgan.

To‘g‘ri, “kasbiy kompetentsiya” tushunchasini talqin qilishga tadqiqot jarayonida mualliflik yondashuvga oid quyidagi nuqtai nazar keltirib o‘tamiz. “Kompetentsiya” bir so‘z bilan an’anaviy “bilim, ko‘nikma, malaka” kabi tushunchalarning birgalikdagi ma‘nosini ifodalaydi va uning tarkibiy qismlari o‘rtasida bog‘lovchi bo‘lib xizmat qiladi. Keng ma‘noda fanni chuqur bilish yoki o‘zlashtirilgan mahorat sifatida ta‘riflanadi.

Bu borada M.A. Choshanovning fikrlarini keltirib o‘tishimiz joiz. “Vakolatli mutaxassis – yechimlar majmuasi orasidan eng maqbul, to‘g‘ri yechimni tanlash qobiliyatini ajratib ko‘rsatadi. Shu bilan birga, vakolatli mutaxassis noto‘g‘ri qarorlarni asosli ravishda rad eta oladigan mutaxassisdir” [10]. Bundan tashqari, muammoni hal qilishning o‘ziga xos shartlariga qarab, vakolatli mutaxassis ushbu shartlarga eng mos keladigan bir yoki boshqa usulni qo‘llashi mumkin. Usulning o‘zgaruvchanligi bilimlarning harakatchanligi va fikrlashning tanqidiyligi bilan bir qatorda kompetentsiyaning yana bir xususiyatidir. Shunday qilib, M.A. Choshanovning fikriga ko‘ra, "qobiliyat formulasi", bilimlarning harakatchanligini, uslubning moslashuvchanligini, tanqidiy fikrlashni o‘z ichiga olishi mumkin [10].

M.A. Choshanovning fikrlarini chuqur tahlil etgan sari “Kasbiy kompetentsiya” – “muayyan faoliyatni amalga oshirishda katta yoki kichik muvaffaqiyatga erishish imkoniyati bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarning (xususiyatlar, parametrlarning) o‘ziga xos birikmasi” deb tushunishimizga to‘g‘ri keladi. Kompetentsiya nafaqat yangi faoliyat sharoitida o‘z “men” ni qurish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, balki o‘zini o‘zi anglashda shaxsni ochib berishga qaratilgan bo‘lishi kerak, bu o‘zini yangi faoliyat sub’ekti sifatida “topish”da, kashf etishda muhim vositadir. Biroq, taxmin qilish oson, kasbiy kompetentsiyani olingan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni kasbiy faoliyat amaliyoti bilan bog‘lamasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. “Bunday korrelyatsiya jarayonida, – deb yozadi G.N. Serikov, – olingan bilimlarning sintezi (ta‘lim elementi sifatida) ularni kasbiy faoliyatda qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan amalga oshiriladi” [2].

Ilmiy pedagogik tadqiqotlar kasbiy kompetentsiyaning mohiyati tadqiqotning ishonchligini va stereotipik va nostandart vaziyatlarda professional faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi. Ya‘ni, kasbiy kompetentsiya kasbiy muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati bilan bog‘liq. Bu fikr bizning tadqiqotimiz uchun juda muhim. Shu sabadi ham “kasbiy kompetentsiya” ta‘rifining turli talqinlarining mohiyatini umumlashtirgan holda kasbiy kompetentsiya shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini, uning amalga oshirilishi tabiati va samaradorligini tavsiflaydi, degan fikrga kelamiz. Tayyorlik kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun bilim, ko‘nikma va kasbiy yo‘nalishdan tashqarini o‘z ichiga oladi. Kasbiy faoliyatni bajarish samaradorligi o‘qitish sifatiga bog‘liq. Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish asosida mutaxassis – bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini



takomillashtirishning haqiqiy darajasini tavsiflashda “kasbiy kompetetsiya” atamasi juda mos keladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetetsiyasi haqida so‘z yuritilinar ekan, olimlar quyidagilarni ta’kidlaydilar: “bu tushuncha o‘qituvchining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi birligini ifodalaydi” [4].

Tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik kompetetsiya o‘qituvchi shaxsining ajralmas sifati bo‘lib, “kasbiy-pedagogik faoliyatni o‘zlashtirish, ularni ishlatish darajasini kasbiy bilim, ko‘nikma, ularga nisbatan munosabati va darajasi asosida belgilaydigan shaxsiy va kasbiy xususiyatlar majmuidir. Bu o‘qituvchiga kasbiy faoliyatni eng samarali tarzda amalga oshirish imkonini beradi, shuningdek, kasbiy faoliyatda shaxsning o‘zini o‘z rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi” [4].

Kasbiy faoliyat – inson faoliyatining asosiy turi - psixologik-pedagogik tadqiqotlarda “o‘z predmetiga muvofiq amalga oshirishning maxsus usullari va maxsus dastlabki tayyorgarlikni talab qiladigan faoliyat” deb ta’riflanadi [2].

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida asosiy faoliyat cholg‘u musiqchi ijrochiligidan biridir. Demak, aytishimiz mumkinki, yuqorida tadqiqotchi olimlarning tahlili natijasida mahalliy olimlardan Q.Panjiyevning “bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi faoliyat turlari” ancha haqiqatga yaqin deb qarash mumkin. Bunda aytish kerakki, faqatgina cholg‘u ijrochisini yoki birgini xonandalik ijrochiligi bilan bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi “musiqa o‘qituvchisi” bo‘lib qolmaydi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-nazariy bilimlari hamda cholg‘u va xonandalik ijrochilik faoliyatini birgalikdagi uyg‘unligi musiqa asar matnini o‘zlashtirish, kompozitorning asar maqsadi mazmunini yetkazish, musiqa asarida mujassamlangan musiqiy obrazlarni qayta yaratish, ifodali vositalarni tanlashda muhim komponent bo‘lib xzmat qiladi [10].

A.L. Gotsdiner shunday yozadi: “Musiqa sanoatining ijodiy tabiati musiqa o‘qituvchisi ijodi uchun ayniqsa katta imkoniyatlar ochib beradi, bu esa kompozitorning niyati, g‘oyasi, badiiy obrazi va asar mazmunini anglash asosida musiqa asarlarini talqin qilishda namoyon bo‘ladi. Interpretatsiya, ya’ni musiqiy asarni talqin qilish jarayoni o‘z davriga xos bo‘lgan estetik ideallar, ijro variantlari va ijro uslublarini umumlashtirish va kristallashtirish bo‘lib, ular har safar muayyan ijrochining individual ongi orqali sinadi” [2].

Musiqiy asarning majoziy mazmunini to‘liq ochib berish musiqiy ijrochilikning asosiy markaziy yadrosi muammosidir. Zamonaviy frantsuz musiqashunosi J. Brelening bu boradagi o‘rinli ifodasi eslab o‘tish kifoya, u cholg‘u musiqa ijrochisining musiqiy va ijrochilik faoliyatining mohiyatini quyidagi ibora bilan ifodalagan: “Ijro san’atisiz musiqa mavjud bo‘lmaydi” [1].

O‘zbek milliy cholg‘ularida ifoda etilayotgan jarangdor musiqiy obraz bo‘lsjak musiqa o‘qituvchisi faoliyatining sintetik mahsuli bo‘lib, u ikki ijodkor – bastakor va cholg‘u ijrochisining yuksak g‘oya va keng tasavvurini o‘z ichiga oladi. Bastakor yaratgan musiqa bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy va cholg‘u ijrochilik faoliyatida mustaqil ravishda amalga oshiriladigan, o‘zining keyingi mavjudligini davom ettiradi. Uning ijodiy va kasbiy shuningdek, cholg‘u ijrochisining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarining sifat darajasi pirovard natijada badiiy mahsulotning estetik qiymatini belgilaydi. Nazarimizda musiqa asari ham mazmuni, ham jozibadorligi, ham ohang qurilmalarini tinglovchining tinglovchilik faoliyatiga mos kelishi, mazkur ohanglar shunday qurilishi kerak-ki undagi g‘oya o‘zida milliy-falsafiy ma’no kasb etishi bilan o‘zining ta’sir kuchiga ega bo‘lsin.

Musiqqa bilan tanishish harakatida muallifning niyatining tashuvchisi, S.E. Feynberg fikricha musiqqa asarining nota yozuvi bo‘lib xizmat qiladi, u bastakor va ijrochi o‘rtasida vositachi bo‘lib, muallif niyatining oboektiv mazmunini va muallifning badiiy tasvirni rivojlantirish mantiqining umumiy yo‘nalishini aks ettiradi [1].

Asarning musiqiy sahifalari ijrochiga muallifning niyati, shakli, tempi, metraji, dinamikasi, ijro ko‘rsatmalari, iboralar, artikulyatsiya, ko‘pincha asarning dasturiy mazmuni, nomini yetkazadi. Biroq, bu ma‘lumotlarning barchasi faqat musiqiy tasvirning rivojlanishining umumiy yo‘nalishini ko‘rsatadi. G.M.Tsipin, ijrochi musiqiy matnни o‘zlashtira olishi uchun uni o‘zining hissiy dunyosiga kirishini ma‘qullaydi [3].

Tadqiqot jaaryonida olib borilgan o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, sharhlash masalalarida tasavvur alohida ahamiyatga ega – bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilarini kelajakdagi faoliyatini tasvirini shakllantirish yoki umumiy g‘oya yoki faoliyatning yakuniy mahsulotining aniqroq tasviri shaklida yangisini yaratishning aqliy jarayoni hisoblanadi. Bu har doim o‘zining moddiy jihatdan mujassamlangan shaklidan oldinroq, keyingi faoliyat dasturining aqliy qurilishidir. Rekreativ va ijodiy tasavvurni farqlaydigan bo‘lsak, ijodiy tasavvur bu yangi g‘oyalar va tasvirlarni yaratish. Qayta yaratish – bu musiqqa yoki badiiy matn, chizma yoki eskiz asosida tasvirlarni qurish. Tasavvurni qayta yaratish musiqiy ijro talqinini yaratishning psixologik asosidir. Musiqiy tasvirni ijrochi uchun eng ifodali vositalar bilan ochib berish, musiqqa o‘qituvchisi eshitish tasavvurida musiqqa asarini o‘qishning o‘ziga xos asl nusxasini yaratadi.

Musiqqa asarining badiiy va obrazli mazmuniga subektiv baho berish natijasida bo‘lajak musiqqa o‘qituvchisi uni o‘z ruhiyati prizmasidan o‘tkazib, mantiqdagi musiqiy va eshitish g‘oyalariga ko‘ra obrazning turli qirralarini o‘zgartiradi va urg‘u beradi. Asarni o‘qishni uning shaxsiy musiqiy tafakkurini aks ettiruvchi va sub‘ektiv hissiy munosabat bilan bo‘yalgan ichki hissiy sezgisi ma‘lumotlarining o‘zgarishi bo‘lgan intonatsiya topilmalari bilan to‘ldiradi. Boshqacha aytganda, cholg‘u musiqqa ijrochichining ruhiyatida singib ketayotib, musiqiy asar tovushining yangi sifatlarini oladi.

Ayniqsa, milliy cholg‘u (qashqar rubobi)larda musiqiy asarni ijro etish g‘oyasi badiiy va ifodali ijro harakatlari tizimi tufayli amalga oshiriladi. Ishlash sifati sezilarli darajada inson ongli faoliyatining turli tomonlari bo‘lgan bilim, ko‘nikma va ijro-mahorati qobiliyatlariga bog‘liqdir. Bu borada, “cholg‘u ijrochisining asar ijrosini professional xizmati va mahoratiga tushirib bo‘lmaydi” deb hisoblash mumkin bo‘ladi [7].

Tadqiqot mavzusining asosiy ob‘ekti hisoblangan bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilarining cholg‘u (qashqar rubobi)da ijro mahorati o‘zi – shaxsining barcha qirralarining ifodasi bo‘lib, musiqiy asarlarni chuqur va haqqoniy talqin qilish qobiliyati shaxsning ichki mazmunini tashkil etuvchi dunyoqarash, umumiy madaniyat, ko‘p qirrali bilim va fikrlash tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. SHunday qilib, asar ijro muallifi hisoblangan bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilarining musiqqa ijrosida sub‘ektiv tomonni istisno qilib bo‘lmaydi [6].

Mazkur tadqiqot ishi uchun psixologik pozitsiya muhim va bu har qanday faoliyatda ikki muhim jihati ajralib turadi: operatsion-texnik va motivatsion. Musiqqa ijrochilik faoliyatiga nisbatan bu lahzalar uning texnologik va badiiy-mazmuniy tomonlari vazifasini bajaradi. Birinchisi, harakatlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi; ikkinchisi – asarga ijtimoiy shartli va shaxsan ahamiyatli munosabat sifatida badiiy idrok etish qobiliyati kiradi. Tajribali musiqqa ijrochisi uchun bu ikkala tomon ham bittaga birlashtirilgan bo‘lishi kerak. Biroq, texnologik va badiiy tarkibni farqlash o‘quv jarayoni uchun muhimdir.

Olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida musiqaning hissiy-irodaviy komponenti tajribasi (majoziy ko‘rish) qobiliyati aniq ijro etuvchi vositalarni topishni nazorat qiladi. Ushbu xulosadan biz oliy ta’lim muassasalari pedagogika sohasi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy ijro mahoratini samarali shakllantirishning pedagogik shartlarini belgilashda foydalandik. Talabalarda afg‘on rubobi cholg‘usi ijrosining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi hisoblangan – mutaxassisning musiqiy ijro mahoratini shakllantirish turli darajadagi murakkablikdagi o‘ziga xos musiqiy asarlarni ijrosini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Qaytish va takrorlash falsafiy germenevtikada doira bo‘ylab bilishning zaruriy operatsiyasidir [8]. Sof rasmiy nuqtai nazardan qaraganda, germenevtik doira modeli mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bo‘lib ko‘rinadi, chunki undagi bilim butundan qismlarga boradi va keyin yana butunga aylanadi. Biroq, bu “doirani yovuz doiraga aylantirmaslik kerak” (M.Xaydegger), chunki tafakkurning qaytishi unda qismlardan avvalgisiga emas, balki uning qismlarini o‘rganish bilan boyitilgan yangisiga sodir bo‘ladi. Demak, bilim doirasi kengayib, – bilimning kengroq sohalarini ochib beradi. Bu juda muhim, chunki, fikrlash apparati kelishlarni yaratuvchi va ulardan doimiy ravishda foydalanadigan tizimdir” [3]. Germenevtik doiraga (spiral) ko‘ra bilish texnologiyasi fiziologlarning tadqiqotlari natijalariga yaxshi mos keladi.

Cholg‘u ijrochiligi faoliyatining tuzilishi masalasi mazkur tadqiqot muammosi uchun o‘ta dolzarbdir. Muhokama qilingan barcha faoliyat turlari, asosan, bir xil tuzilish va tarkibiy tarkibni o‘z ichiga olishini ko‘rsatdi[9]. Cholg‘u ijrochiligi asarlarida xissiy-irodaviy komponentlar faoliyat atributlari holatida berilgan, ya’ni ularsiz faoliyat mavjud bo‘lishi yoki tasavvur qilinishi mumkin emas. Bu atributlar ro‘yxati cheklangan bo‘lib, atributiv faoliyat nazariyasida quyidagicha ko‘rsatilgan: 1) sub’ekt – faoliyatni amalga oshirish niyatida bo‘lgan shaxs (talaba shaxsi, guruh, jamiyat); 2) maqsad – sub’ekt nimani olmoqchi bo‘lsa, uning ongida yakuniy natijaning to‘liq namunasi mavjud; kutilgan natija qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi haqidagi savolga yechim 3) ehtiyoj va motiv – nima uchun faoliyat o‘ylab topilganligi; u nimani va qanday rag‘batlantiriladi; mazkur ijrochilik bilan bog‘liq ehtiyojlar to‘liq amalga oshirildimi? 4) cholg‘u asaridagi usul, uni o‘rganish, o‘rgatish masalalaridagi usul – qanday maqsad amalga oshiriladi; Maqsadga erishish (natija olish) jarayoni haqida yetarlicha to‘liq va aniq g‘oyalar mavjudmi? 5) predmet – nimadan, qanday xomashyodan natijani ob’ektiv olish mumkin; maqsad sari harakat shu materialning qaysi holatidan boshlanadi? 6) usul – ob’ektni boshlang‘ich holatidan yakuniy holatiga (natijaga) o‘zgartirish ("o‘tish") qanday usulda ob’ektiv ravishda amalga oshiriladi; qanday holatlar orqali va qanday ketma-ketlikda o‘tadi; 7) vosita – faoliyatning o‘zgarishini haqiqatda ta’minlaydigan narsa. Bu narsa shubhasiz afg‘on rubobi cholg‘usi bo‘lishi mumkin; 8) mahsulot – faoliyat natijasi – jarayon oxirida haqiqatan ham qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan kuy-ohang, musiqa asaridir.

Musiqiy ijroning asosiy atributlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu – shubhasiz talaba. Tadqiqot kontekstida ushbu faoliyatning mavzusi ham aynan – talaba, ya’ni, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisidir. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy ijrochilik faoliyatini amalga oshirishga undaydigan asosiy ehtiyoj – bu biologik va ijtimoiy darajada namoyon bo‘ladigan o‘zini o‘zi namoyon qilish ehtiyojidir[11].

Musiqiy cholg‘u asar ijrochiligi faoliyatining sub’ekti bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining o‘zi bo‘lib, u ma’lum bir musiqiy asar ijrochiligi bilimlari, hissiy-irodaviy va obrazli tajribalar (individual bilimlar bazasi va ijrochilik mahorati tajribalari), shuningdek, musiqa asarlari repertuarlariga ega bo‘lishlik. Har qanday cholg‘u ijrochisi o‘zi tanlagan cholg‘uda shu cholg‘u

imkoniyatiga mos mavzudagi asarlarni o‘rganishi va uni mohir ijrochiligi ko‘nikmasiga ega bo‘lishligi kerakligidir.

Etakchi cholg‘u sifatida afg‘on rubobi o‘zining musiqiy koloriti hamda ijro jarayonlari bilan musiqa asari ohangdorligi, mavzusi hamda uning materialini tahlil qilish; musiqa asarining mazmuni, badiiy va tovushli obrazini anglash; aniq bajaruvchi vositalarni ishlab chiqish; musiqiy asarini talqin qilish va tinglovchilarga taqdim etishning kompetentsiyaviy mazmunini belgilaydi [7]. Musiqa asari ijrochiligining faoliyat metodlari pedagogik faoliyatning umumiy tamoyillariga, cholg‘u musiqasi ijrochiligining umumiy va xususiy tamoyillariga asoslanadi, ular birgalikda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijrochilik kompetentsiyasini takomillashtirish hamda ularning musiqiy asar ijro mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarning mohiyatini umumlashtirgan holda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy ijrochilik faoliyati ijrochi (o‘qituvchi) va musiqa asarining muallifi o‘rtasidagi bilvosita o‘zaro ta’siri bo‘lib, uni talaba doimiy ravishda takrorlab borishi, asar mazmunini yuqori professional ijro davomida ochishi va tinglovchiga (kontsert dasturi asosida) yetkazishga qaratilgan deb taxmin qilishimiz mumkin. Asarning badiiy obrazi asar ijrochisi – muallifi hisoblangan talabaning mohirona ijrosi hioblangan musiqa asari hisoblanadi.

Afg‘on rubobi vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijrochilik kompetentsiyasini takomillashtirish musiqiy asar ijrochiligi faoliyati vositalarining ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkinligini ko‘rsatdi. Bular: badiiy – mazmunli va ijro texnikasi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining individual o‘quv mashg‘uloti asosida musiqiy asar ijrochiligi faoliyatining natijasi asar maxsuloti (musiqiy asar tasviri)ni yaratish va uni tinglovchiga taqdim etishdir. SHuni ta’kidlab o‘tish kerakki, musiqa asari ijrochiligi faoliyati jarayonida nafaqat musiqiy asarning talqini va ijrosi sifat jihatidan o‘zgaradi, balki ijrochining individual bilim bazasi, mahorati, shaxsiyati, ”men” texnologiyasi obrazida, boshqacha aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy ijro kompetentsiyasini rivojlantirish, ijro bardavomiyligida takomillashtirib boradi.

## **REFERENCES**

1. Абдуллин Э.Б. Методологический анализ проблем музыкальной педагогики в системе высшего образования. – М.:,1990. – 38 с.
2. Абросимова Г.В. Теория и практика дидактико-методической подготовки будущих учителей к педагогическому творчеству: дисс...д-ра пед. наук / - Челябинск, 1996. – 403 с.
3. Алексеев Х.А. Формирование у студентов творческих умений решать педагогические задачи в области воспитания: дисс... канд. пед. наук / - Л.: 1972. – 198 с.
4. Апраксина О.А. Современные требования к школьному учителю музыканту / Музыкальное воспитание в школе, вып. 15: - Сборник статей / Сост., 1982. – 45 с.
5. Арчажникова Л.Г. Профессия - учитель музыки / - М.: Просвещение. 1984. – 110 с.
6. Hamidulla Nurmatov Qashqar rubobi G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2003.
7. G‘ulomqodir E. Afg‘on rubobi darsligi. O‘quv qo‘llanma O‘MKHTM, Bilim nashriyoti. Toshkent 2004.
8. Mirzayev O‘. Cholg‘u ijrochiligi va ansambli o‘quv qo‘llanma “Musiqa nashriyoti” Toshkent 2019.

9. Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiglari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2022 y. 204 b.
10. Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq musiqa ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022. 274 b.



## **BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING NAZARIY BILIMLARINI OSHIRISHNING METOD VA VOSITALARI**

**Ibraximjanova Gavhar Amanbaevna**

Xalqaro Nordik universiteti Musiqa ta’limi kafedrası dotsent v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159073>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqani elementar nazariyasi hamda solʼfedjio bo‘yicha o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlarning nazariy, amaliy hamda metodik tavsiflari bayon etilgan. Bunda talabalar elementar nazariyani chuqur o‘rganish asnosida uning musiqiy-nazariy komponentlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lish bilan bir qatorda musiqaning murakkab ifodali vositasi, ya’ni kuy va uning xossalarini o‘zlashtiradilar.*

***Kalit so‘zlar:** musiqa, musiqaning elementar nazariyasi, kuy, ritm, usul, o‘lchov, nota yozuvi.*

***Аннотация.** В данной статье дано теоретическое, практическое и методическое описание знаний, которые должны получить будущие учителя музыки в процессе изучения курса элементарной теории музыки. В ходе углубленного изучения элементарной теории музыки студенты имеют возможность освоить основные составляющие музыки, а также изучить сложное выразительное средство музыки – мелодию и ее свойства.*

***Ключевые слова:** музыка, элементарная теория музыки, мелодия, ритм, метод, метр, нотная запись.*

***Abstract.** This article provides a theoretical, practical and methodological description of the knowledge that future music teachers should receive in elementary music theory. Through an in-depth study of elementary music theory, students have the opportunity to master the basic components of music, as well as study a complex expressive means of music - melody and its properties.*

***Keywords:** music, elementary theory of music, melody, rhythm, method, meter, musical notation.*

**Kirish.** Bugungi kuning eng dolzarb masalaridan biri, har tomonlama kamol topgan, hozirgi davr talablariga to‘la javob beradigan, o‘zida maonaviy boyligni, ahloqiy poklikni mujassamlashtirgan ijtimoiy jihatdan faol kadr tayyorlash masalasidir [1]. Bunday muhim vazifani hal etishda musiqa ta’limi sohasida tayyorlanayotgan kadrlarning salohiyati o‘ta muhim vositalardan biri. Shunday ekan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini nafaqat ijrochilik balki, musiqiy-nazariy bilimlarini har tomonlama oshirish va ularga puxta bilim berish va ularni amaliy jihatdan yetuk tayyorlash nihoyatda muhim ekanligi uzluksiz ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan malaka talbalaridan ma’lum. Musiqiy nazariy bilimlar yuqori malakali musiqa o‘qituvchilarini tarbiyalab yetishtirishga imkon beradi. Bulajak musiqa o‘qituvchilari uchun “Musiqa nazariyasi” fani eng asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Musiqa nazariyasi — bu musiqaning ongi. Musiqa nazariyasiga asarlar shaklining mantiq va rivojlanish tamoyillari, shuningdek, cholg‘u asboblarning texnik imkoniyatlari asoslanadi. Bilamizki, musiqaning mazmuni hayot taassurotlarini tovushlar orqali ifodalangan fikr va his tuyg‘ulardir. Musiqani ifoda etish vositalari - musiqaning elementlari deb atalib, musiqa elementlari va ularning o‘zaro bog‘lanishlari haqidagi boshlang‘ich fan musiqaning elementar nazariyasi fanidir. Bu fan musiqaning elementlari haqida ta’lim berish bilan bir qatorda o‘qituvchilarning barcha musiqiy fanlar bo‘yicha o‘tiladigan darslariga yordam berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi, bu esa musiqaga oid mavzuni ongli o‘zlashtirishga imkon beradi. Barcha

musiqa fanlari: Solfedjio, xor, dirijorlik, musiqa asboblari ijrochiligi, xonandalik va boshqa hamma fanlar ham musiqaning elementar nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liq holda talabalarning bu fandan olgan nazariy bilim va ko‘nikmalariga asoslanib ta’lim tarbiya berib boradi. Musiqa asarini tahlil qilishda talabalar oladigan elementar bilim va eshitish ko‘nikmalari mutaxassisligi bo‘yicha mustaqil ishlashiga, hilma hilliklar kiritishiga va o‘z navbatida o‘quvchilariga musiqa asarini ijro etayotganlarida uning mazmunini tug‘ri ochib berishga yordam beradi[2].

Musiqaning elementar nazariyasi fanini o‘rganish amaliy jihatdan tegishli yordam berishi uchun undagi asosiy qoidalarni har tomonlama chuqur o‘zlashtirish zarurdir. Ana shundagina yetuk musiqa o‘qituvchisi darajasiga yetishish mumkin bo‘lib, umuman barcha musiqiy fanlar: xor, dirijorlik, vokal va zamonaviy musiqa, anovanaviy xonandalik, cholg‘u ijrochiligi, o‘zbek xalq musiqa ijodi, musiqa tarixi, musiqa o‘qitish metodikasi kabi bir qator boshqa fanlardan olgan bilim va malakalar natijasida yuqori malakali musiqa o‘qituvchilari yetishib chiqadi[2]. Bu maqsadga to‘la yetishishda boshqa fanlar kabi musiqa nazariyasi va solfedjio fanlarining ahamiyati nihoyatda katta. Solfedjio fani musiqa nazariyasi fani bilan bog‘liq bo‘lib, musiqa nazariyasidan olingan bilimlarga tayangan holda amaliy mashg‘ulot olib boriladi.

**Asosiy qism.** Nota bilan kuylash jarayonida eng avvalo intonatsion aniqlikka va musiqiy tekstni tug‘ri ijro etishga erishish lozim. Solfedjio darslarida nota bilan kuylash usullari xilma-xil, ya’ni o‘tilayotgan kuylarni alohida-alohida yoki guruh-guruh bulib kuylash, kuyning bir qismini bir kishi kuylasa ikkinchi qismini ikkinchi birlari kuylashi, fortepiano jo‘rligisiz kuylash mashqlarida esa o‘quvchi mazkur kuyning tonalligini saqlab qolishga, ritm va o‘lchovini o‘zi mustaqil ravishda to‘g‘ri olib borishga intiladi va muvaffaq bo‘ladi.

Ikki ovozlik asarlarini ijro etishda esa har bir ovoz partiyasini aytayotgan o‘quvchi o‘zi ijro etayotgan partiyani to‘g‘ri, tiniq, sof ijro etishga intilishi bilan birga boshqa ovoz partiyasini ham eshitib ulguradi[3]. Kuyni nota bilan aytishga dinamik ko‘rsatmalarga amal qilib kuylashida nazariy bilimlarga tayanadi. Solfedjio darsi jarayonidagi barcha mashg‘ulot bo‘limlari: nota bilan kuylash, melodik va ritmik diktantlar yozish, turli garmonik tuzilmalarni tuzish va tahlil qilish (sluxda), alohida pog‘onalarni kuylash, tanish bo‘lmagan nota tekstini tahlil qilib jo‘rsiz mustaqil kuylash va boshqa turli ish shakllari jarayoni o‘quvchilarning musiqiy idrokini, qobilyatini shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Nota bilan kuylash jarayoni har bir o‘quvchida ichki musiqiy idrokini ham rivojlantirib boradi, yakka ijro paytida mustaqil, to‘g‘ri, sof kuylashga intilib, kuylash malakasi oshib borar ekan - musiqiy idrok ham shakllanib boraveradi.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlari barobarida bo‘lg‘usi musiqa madaniyati o‘qituvchilari zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarining egallash bilan bir qatorda musiqa ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar, zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablar, boy maonaviy, madaniy, musiqiy merosimizga yangicha yondashuvlarni o‘rganadilar.

Musiqiy-nazariy fanni o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarning musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, boyitish, ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, musiqani idrok qilishni shakllantirish, badiiy didini o‘stirish, musiqa ifodasi tarkibiy qismlari soxasi bo‘yicha bilimlar berib, musiqiy asarni o‘rganishda uning mazmunini to‘g‘ri ochishga yordam berishdir[4].

Oldimizga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish barobarida quyidagi asosiy vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan:

- talabalar musiqaning asosiy ifoda vositalarini tushunishlari uchun ularga kerakli malaka va bilimlarni berish;

- talabalarning estetik didlarini to‘g‘ri yo‘naltirish;

- talabalarni musiqa nazariyotining asosiy omillari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqaviy tizim va garmoniyaning unda egallagan o‘rni haqida aniq tushunchalar berish;

- musiqiy asarlar shaklining tuzilishini asosiy qonuniyatlar orqali tushuntirish, xar xil tipdagi musiqiy shaklni taxlil qilish uchun musiqaning asosiy elementlari, musiqiy rivoji, printsiplari, shaklning qismlari va funktsiyalari yuzasidan bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Respublika oliy ta‘lim muassasalari pedagogika sohasi musiqa ta‘limi yo‘nalishi talabalarining mazkur fan bo‘yicha bilimi, ko‘nikma va malakasiga bir qator talablar qo‘yiladi. Albatta bo‘ljak musiqa fani o‘qituvchisi mazkur qo‘yiladigan talablar quyidagi tartibda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Ya‘ni, ushbu o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr [2]:

turli hil major va minor gammalar, kvarta–kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, xalq ladlari, transpozitsiya, tonnalliklar pog‘onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og‘ishma, musiqa bezaklari, garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlar imkoniyatlarini, tuzilish hususiyatlarini bilishlari, musiqa asarlarining garmonik tahlil usullari: musiqiy shaklning eng muhim asoslari, musiqaviy elementlarning shakl yaratuvchi harakati; shaklning qismlarga bo‘linishi; uning funktsiyalari; musiqani rivojlantirish printsiplari; alohida qismlarning funktsiyalari; bayon etish turlari va uslublarining; har bir tipdagi shaklning tuzilish qonunlarini bilishi kerak;

barcha major va minor gammalarini tuzish va ijro eta olish, intervallarni, akkordlarni yechimlari bilan tuzish, xilma-xil tovushlardan xalq musiqasining yetti pog‘onali tovush qatorlarini, major va minor pentatonika tovushlarini tuzib, chalib berish, berilgan tonnallikda intervallar va akkordlar ketma ketligini, diatonik sekvensiyani chalib berish, xromatik major va minor gammalarini tuzish; o‘tilgan akkordlarni to‘rt ovoqli tuzilmada xilma-xil tonalliklarda tuzish va yechib berish, shu jarayonda akkordlarning qonun qoidasiga binoan amal qilish, berilgan raqamlar bo‘yicha ko‘rsatilgan ketma-ketliklarni tuzish va fortepianoda ijro etib berish, musiqiy asar (shakl) ning qismlariga bo‘linishini aniqlash, uning kuy, garmoniya, ritmlarni o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatish, musiqa shaklida rivojlantirish printsiplarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko‘rsatib, har xil tipdagi shakllarning o‘ziga xos hususiyatlarini ifodalay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish kerak;

intervallar, akkordlar, gammalar tuzish; uncha katta bo‘lmagan musiqa asarlarining ladi, tonalligi, obrazlar xarakterini aniqlab tahlil qilish: berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, garmonik ketma-ketliklarni davriya shaklida chalib berish, oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik taxlil qilish:

berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, shakldagi yirik belgilarning raqamli sxemasi; har bir asosiy qismning tahlili va ularning bir biriga umumiy bog‘lanishini tahlil qilishi;

musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi xarakterini ochib bera olish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Musiqiy-nazariy fanning ta‘limdagi o‘rni beqiyos. Mazkur fandan bo‘ljak musiqa o‘qituvchisi umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, akademik-litseylar, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalariga tayyorlashda asosiy o‘rinni egallaydi. Fan o‘zining

nazariy va amaliy faoliyatni o‘z ichiga olib, musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini musiqa madaniyati o‘qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlaydi[4]. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan hisoblanib, shu bilan birga ixtisoslik fanlarni tushunishga asosiy zamin yaratadi.

Bugungi kunda pedagogik kadrlar tayyorlashda musiqiy-nazariy bilimlar hajmini oshirish talab etiladi. Bunga sabab, pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari kontingenti ularning universitetgacha olgan musiqiy ta’lim darajalari turli xil bo‘lganligi tufayli, aksariyat hollarda, yetarlicha musiqiy-nazariy tayyorgarlikka ega emaslar. Musiqa o‘qituvchisi kasbi musiqiy nazariy materialni o‘zlashtirishda, avvalom bor, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi. Bu esa fanni amaliy o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan yondashuvdan to‘liqroq foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Fanni o‘zlashtirish uchun talabalarining bilim olishda faolligi va mustaqilligini oshirishga qaratilgan ta’limning muammoli, rivojlantiruvchi o‘qitish, pedagogik o‘yinlar, interfaol usullar, individual yondashuv kabi zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Muammoli o‘qitish talabalarda musiqiy fikrlash mustaqilligini rivojlantiradi, ularning kognitiv faoliyatini "asosiy" bilimlarni izlashga qaratadi. Rivojlantiruvchi o‘qitish talabalarda badiiy obrazlar yordamida fikrlash, nazariy bilimlarni tez va chuqur o‘zlashtirish ko‘nikmalari va musiqiy eshitish qobiliyatini, musiqiy xotira va mantiqlarini rivojlantiradi. Pedagogik o‘yinlar talabalarining o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi, dunyoqarashini kengaytiradi, badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, xotirani, kuzatishni, sezgini faollashtirish, ularning ichki dunyosini rivojlantiradi va yorqin, faol o‘qituvchi shaxsini tarbiyalashga hissa qo‘shadi. Interfaol usullar bitta guruhda o‘qiyotgan turli mutaxassislikdagi musiqachilarga teng darajada to‘liq nazariy-amaliy ta’lim olish imkonini beradi.

Fanni o‘qitish jarayonida quyidagi interfaol metodlar ishlatish mumkin: “muammoli savollar”, “asosiy terminlar”, “aqliy hujum”, “bumerang”, “tarmoqlash”, “fikrlar bo‘yicha almashuv”, “birgalikda izlash”, “markaziy nuqtasiga qaratilgan savollar”, “tasviriy vizualizatsiya”, “yetakchi savollar”, “taqqoslash va umumlashtirish”, “adidaktik vaziyatlar”, “o‘rgatish orqali o‘rganish” va boshqalar.

Zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda hissiy intellekt va badiiy did, tabiiy qobiliyatlar va analitik tafakkurning yaxlit va uyg‘un rivojlanishiga yo‘l qo‘yadi. Bundan tashqari, maxsus nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga ko‘maklashib, talabalarining musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Musiqa nazariyasi musiqiy tilning quyidagi tushuncha va atamalarini hamda ulardan barcha musiqiy fanlarda keng va erkin foydalanishni o‘rgatadi.

Musiqa tizimi: Musiqa san’ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Musiqaning asosiy ifoda vositalari: metro-ritm, lad, kuy, garmoniya va h.k. Musiqa asari turli ifoda vositalarining sintezi sifatida. Badiiy obraz. Musiqa asarlarida shakl va mazmunining o‘zaro aloqadorligi. Musiqa tizimi. Tovushqator. Tovushlar engarmonizmi. Diatonik va xromatik yarim hamda butun tonlar. Tovushlarning harfiy sistema bo‘yicha yozilishi[6].

Nota yozuvi, asosiy cho‘zimlar: Nota belgilanishi va uning maonosi. Pauza. Cho‘zimlar, ularning bo‘linishi va asosiy turlari. Kalitlar, kalit atamasini taoriflash. Kalitlarning asosiy turlari.

Tovushlar engarmonizmi, diatonik hamda xromatik yarim ton va butun tonlar. Tovushlarning harfiy sistemasi.

Ritm va metr: Ritm - o‘zaro bog‘lanib, izchil kelgan tovushlar cho‘zimidir. Metr – kuchli va kuchsiz xissalarning tekis almashinib turishi. Oddiy metrlar va o‘lchovlar. Oddiy o‘lchovli taktlardagi cho‘zimlarning turkumlanishi. Cho‘zimlarning asosiy va erkin ravishda bo‘linishi.

Lad va tonalliklar: Musiqa ladining axamiyati. Lad pogonalari. Tonika-ladning asosiy tayanchi. Tonika uchtovushligi. Ladning noturgun pogonalari turg‘un tovushlarga tortilishi.

Major ladi. Tabiiy major gammasi. Major ladi pogonalarining nomi, yozilishi va xususiyatlari. Minor tonalliklar. Parallel tonalliklar. Kvinta davrasi garmonik va melodik minor gammalarini taqqoslovchi jadval. Nomdosh tonalliklar. Engarmonik tonalliklar.

Akkordlar. Uchtovushliklar va ularning aylanmalari. Akkord – musiqiy tuzilmaning birgalikda eshitaladigan yaxlit vertikal kompleksidir. Kompozitorlik ijodiyotining zamonaviy bosqichida vertikal tuzilmaning notertsiyali bo‘lishidir. Zamonaviy pedagogik amaliyotda akkordlarni bir vaqtda eshitaladigan tertsiya bo‘yicha joylashgan yoki tertsiya bo‘yicha joylashishi mumkin bo‘lgan uch yoki undan ortiq tovushlarning ohangdoshligi sifatida aniqlanishining saqlanib qolishi. Akkordlarning turlari. Uchtovushliklarning turlari va ularning tuzilishi. Uchtovushliklarning aylanishi. Ohangdosh va nohangdosh uchtovushliklar. Beqaror akkordlarning yechilishiga xos xususiyatlar. Orttirilgan uchtovushliklarning engarmonizmi.

Septakkordlar. Ularning turkumlari. Ularning intervallar bo‘yicha tuzilishi. Tovushlarning nomlari. Dominantseptakkord, uning tuzilishi, tovushlarning nomlari. Dominantseptakkordning aylanmalari. Kichik va kamaytirilgan septakkordlar. Ularning aylanmalari. Tonikaga yechilishi. Yetakchi septakkordlar va ular aylanmalarining dominantseptakkord va uning aylanmalariga o‘tishi[7].

Insonda ikkita signal tizimi bor. Birinchi signal harakatga predmetlarni ta’siri natijasida, predmetlarni ta’siri natijasida predmet qo‘zg‘atuvchilar asosida qarashiga tushadi, ikkinchi signal tizimi so‘z qo‘zg‘atuvchi asosida (so‘zlar ta’sir qilib kuzatish asosida) harakatga tushadi. Shuning asosida qabul qilish birinchi signal tizimi, tushunish esa ikkinchi signal tizimidir. Qabul qilish hissiy bo‘lib, sezib tushunish (dir, birinchi signal tizimining chegaralangan ish faoliyatidir, tushunish esa ongli qabul qilishidir. Bu ikkinchi signal tizimining shartlangan ish faoliyatidir, tushunish esa ongli qabul qilishidir. Bu ikkinchi signal tizimining shartlangan ish faoliyatidir. Ikkinchi signal tizimi faqatgina birinchi signal tizimi asosida vazifasi (funksiyasi) ni bajara oladi. Birinchi signal tizimi esa ikkinchi signal tizimisiz bajara oladi, ikkinchi esa birinchisiz bajarilmaydi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki — tushunish qabul qilishsiz bo‘lmaydi, qabul qilish esa tushunishsiz bo‘ladi. Psixologik nuqtai nazardan matnni to‘g‘ri talaffuz qilib, uning mazmunini tushunmay o‘qish bu o‘qish emasdir. O‘qish ko‘nikma-malakalarini hosil qilish, ko‘rish, qabul qilish, talaffuz qilish, tinglash, tushunish jarayonlarini bir-birini bilan to‘g‘ri chambarchas bog‘lab, bir jarayon hosil qilaolishidir.

Amaliy ingliz tilida o‘qish ustida ishlash mobaynida quyidagi metodik usullarni etiborga olishimiz kerak. Til oliy o‘quv yurtida amaliy ingliz tilida o‘qish ustida ishlanadi, o‘qish rivojlantiriladi. O‘rta maktabda o‘qish o‘rgatilgan, unga asos solingan, talabalarga o‘qish to‘g‘risida tushuncha bor.

### **NATIJALAR**

O‘qish malakasi ustida ishlash pedagogik professional yo‘nalishiga solinadi, o‘qishning rivojlantirish bilan birga, o‘qish bo‘yicha pedagogik professional malakalar shakllantiriladi.

O‘qish texnikasiga ko‘ra o‘qish texnikasi, o‘qiganni mazmunini tushunish o‘rgatiladi, u rivojlantiriladi.

O‘qish texnikasini o‘rgatishda bir necha metodlardan foydalanilgan.

1. The phone method — fonik metod. Oldin tovushlarni ko‘rsatilib, keyin grafika (simvoli) — yozuv belgisini ifodalovchi harf ko‘rsatiladi, o‘qitiladi. Bu metodni Z. M. Tsvetkova metodi deb ham ataladi [2].

2. The word method — butun so‘zni o‘qib berish va uni qaytartirib o‘qitish orqali

o‘qitish texnikasi o‘rgatiladi.

3. The sentence method — gapni o‘qib berish va uni qaytartirib o‘qitish orqali o‘qish texnikasi o‘rgatiladi. Bu metod S.K. Folomkina va Kaar metodi deb ham yuritiladi.

4. Hozir analitiko-sintetik metod — ham o‘qish texnikasini o‘rgatish ustida ishlaganda qo‘llaniladi.

Hammamizga ma’lumki, oliy o‘quv yurtlarida Presett dasturi joriy qilinmasdan oldin o‘qituvchi talaba bilan o‘qishni o‘rgatish jarayonida matn yuzasidan savol javobni o‘zbek tilida muhitdan kelib chiqqan holda olib borish imkoniyatiga ega edi. Ammo Hozirgi zamon oliy o‘quv yurtlarida dars jarayoni qa’iy ingliz tilida olib borilishi lozim.

Ingliz tilini o‘qitishda katta samaralarga erishish uchun oliy o‘quv yurti auditoriyalarida to‘liq ingliz tili muhitini yaratish lozim, yani o‘qilgan matn to‘liq ingliz tilida bayon etish, o‘qituvchi tomonidan matn yuzasidan o‘tkaziladigan savol-javoblari to‘liq holda ingliz tilida o‘tkazish lozim. O‘qituvchi o‘qishni o‘qitish jarayonida oliy o‘quv yurti talabasi qaysi bosqichda ta’lim olishini, yoshini, bilim darajasini etiborga olgan holda matn tanlashi maqsadga muvofiqdir.

#### **XULOSA VA MUNOZARA**

O‘qib tushunishni o‘rgatish – nutq faoliyati turini o‘rgatish deb qaralmog‘i lozim. Ushbu qoidani inobatga olib ish yuritilganda, talabalarga o‘qish haqida to‘g‘ri yo‘llanma beriladi. Tajribada kuzatiladigan metodik xatolardan bo‘lmish til materialini o‘zlashtirish yoki matnga yaqin gapirib berishni yagona o‘quv vazifasiqilmasdan, matn faoliyatida qo‘llash materialiga aylantirish oldingi o‘rniga chiqarilishi tavsiya etiladi. Oliy o‘quv yurti talabalariga matn o‘qib axborot olishni mashq qildirish birlamchi yakuniy maqsad amalda tadbiiq etilishi kerak. Bunga nutqiy amallarni bajarish bilangina erishiladi, bu jarayonda muayyan natijaga erishish mazmunni bilib olish, axborotni egallash ko‘zda tutiladi. Matn o‘qish manaviy boyishga, yangi yangi axborotlarni olishga qaratilgan o‘quv-metodik tadbiridir. Yuqorida aytib o‘tilgan metodlarni qo‘llash orqali, o‘qishni o‘rgatish mashqlarini dars jarayonida qo‘llash nutq malakalarini o‘stirishga katta xizmat qiladi.

#### **REFERENCES**

1. Chet tillarda o'qishni o'rgatish metodikasi bo'yicha insholar - T.: /
2. Ed. I.M.Berman va V.A.Buchbinder. - Kiev: Oliy maktab, 2017 yil.
3. Hoshimov O‘. Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. - T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyat, 2013.
4. Jalolov J. J. Chet tili o‘qitish metodikasi O‘qituvchi nashryot-matbaa ijodiy uyi T. 2012.
5. Rogova G.V. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. - Leningrad, 2015 yil.
6. Hagboldt P. Chet tillarni o'rganish. - M., 2013 yil.



## **DAVLAT BOSHQARUVIDA DAVLAT XIZMATIDAGI RAHBAR KADRLAR FAOLIYATINING TAKOMILLASHISH JARAYONI**

**Esonov Fazliddin Dushayevich**

O‘zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159294>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada davlat boshqaruvida davlat xizmatidagi rahbar kadrlar faoliyatini takomillashtirishning ahamiyati va dolzarbligi haqida batafsil yoritilgan. Rahbar kadrlar faoliyatining takomillashish jarayonida qo‘llash zarur bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar yuzasidan taklif, tavsiya va xulosalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** davlat xizmati, boshqaruv tizimi, funktsiya, kadr, modernizatsiya, integratsiya, Elektron hukumat.*

***Аннотация.** В данной статье подробно описывается важность и актуальность совершенствования деятельности руководящих кадров государственной службы в органах государственного управления. Были даны предложения, рекомендации и выводы относительно современных технологий, которые следует использовать в процессе совершенствования деятельности руководящего состава.*

***Ключевые слова:** государственная служба, система управления, функция, кадры, модернизация, интеграция, Электронное правительство.*

***Abstract.** This article describes in detail the importance and urgency of improving the activities of the leading personnel in the public service in public administration. Proposals, recommendations and conclusions were given regarding the modern technologies that should be used in the process of improving the activities of the leading personnel.*

***Keywords:** public service, management system, function, personnel, modernization, integration, Electronic government.*

### **Kirish**

Davlat xizmatida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqaruv kadrlari faoliyati va mamlakat kadrlari potensialini boshqarishda ularning rolini oshirish yuzasidan quyidagi masalalar muhim hisoblanadi: davlat xizmati va lavozimlar reestrini belgilash to‘g‘risida qonun qabul qilish; kadrlar siyosatida davlat xizmati va tarmoqlar bo‘yicha boshqaruv kadrlari ta‘minoti tizimini modernizatsiyalash; davlat xizmati sohasida kadrlarni kasbiy, ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlari nuqtai nazaridan baholashning yagona mezonlarini ishlab chiqish; kadrlar siyosatida ko‘zda tutilgan ma‘naviy-axloqiy talab va tamoyillarni rasmiy hujjat tarzida qabul qilish; turli daraja va sohada kadrlar tayyorlash muassasalarini ko‘paytirish, o‘quv dasturlari xilma-xilligini ta‘minlash; kadrlar siyosatining integrativ va innovatsion funksiyalari samaradorligini oshirish; boshqaruv tizimi uchun talab etiladigan kadrlarni muntazam tayyorlashning uch bosqichli, ya‘ni, kollej, oliy ta‘lim va oliy ta‘limdan keyingi bosqichni qamrab oluvchi tizimini shakllantirish; rahbar kadrlarning ilm-fan, maorif, amaliy faoliyat sohaslaridagi o‘zgarishlarni, yutuqlarni e‘tiborga olib yuksak taraqqiyot tendensiyalariga integratsiyalanishiga yordam berish; kadrlar siyosatini amalga oshirishda davlat, jamiyat va shaxs maqsadlarining yuqori darajada o‘zaro mos tushishiga erishish va boshqalar.

### **Metodlar**

Davlat xizmati kadrlarini tanlashda ular o‘zlari boshqarayotgan sohalari va vakolatlarini yaxshi bilishlariga yuksak darajada e‘tibor qaratish rahbar kadrlar tanlashning bosh tamoyillaridan

biri sanaladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi bo’lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o’z aravasini o’zi tortishi, o’z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o’zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o’zgarish bo’ladi, rivojlanish bo’ladi”. [2] Davlat xizmatidagi kadrlarni tayyorlash holatini o’rganish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko’ra, amaldagi oliy o’quv yurtlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari o’quv qo’llanmalari, davlat xizmatidagi axloqiylik muammolariga tegishli mavzular bilan yetarli darajada boyitilmagan. Bundan tashqari, ta’lim jarayonida turli kasb-korlar o’rtasidagi aloqadorlikni tushunib yetishga yordamlashuvchi modellashtirish prinsiplariga yetarlicha e’tibor berilmayapti.

Davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda uning strategik maqsadlarini amalga oshirishda rahbar faoliyati va uning o’rni juda muhim ahamiyatga ega. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Odamlar orasida yashash, ularning dardiga quloq solish, alohida ehtiyojlari va qonuniy talablarini amalga oshirish uchun tezkor choralar ko’rish – har bir rahbarning asosiy vazifasi, deb hisoblayman”. [3] Shunday ekan bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda rahbar faoliyatining o’ziga xos xususiyati, tamoyil va talablari ish samaradorligi odamlar turmush-tarzidagi real va pozitiv o’zgarishlar negizida o’rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalar, albatta, turli sohalarida yetishib chiqayotgan mutaxassislarni o’z sohasining yetuk kadrlari bo’lib shakllanishlariga bog’liq. O’zbekistonda oliy ta’lim tizimida turli sohalar bo’yicha zarur mutaxassislar tayyorlash maqsadida yangi oliy ta’lim muassasalari va viloyatlarda ularning filiallari ochildi, ta’lim olishning maxsus sirtqi bosqichi faoliyati ham yo’lga qo’yildi. Rivojlangan davlatlar tajribasini o’rganish asosida oliy ta’limdan keyingi ikki bosqichli tizim asosida ilmiy darajalar berish tartibi amaliyotga joriy qilindi.

### **Natijalar va muhokama**

Mazkur jarayonda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tinglovchilarini rivojlangan davlatlardagi turdosh akademiyalarda malakasi oshirilib, zamonaviy davlat xizmati kadrlarini tayyorlashda samarali boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish va yuksaltirish asosidagi mexanizmi ishlab chiqildi va xorijiy davlatlar tajribasini o’rganish bo’yicha o’zaro hamkorlik aloqalari yo’lga qo’yildi. Davlat xizmati kadrlari faoliyatini yanada takomillashishida bugungi kun talablaridan kelib chiqib, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimi amaliyotga joriy qilinib, ularni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari bo’yicha muhim tashkiliy-huquqiy hujjatlar asosidagi faoliyat yo’lga qo’yildi. [4]

Davlat xizmatlarini ko’rsatish yangicha asosda tashkil etilib, tashkilot va tuzilmalar bevosita joylarga, mahallalarga chiqib, aholining real muammolarini chuqur o’rganish, tasniflash asosidagi davlat xizmatlarini ko’rsatish tizimi yo’lga qo’yildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev topshirig’iga muvofiq, “Davlat xizmati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish hamda davlat xizmati kadrlarini muvaffaqiyatga erishishida “har bir davlat xizmatchisi har kuni o’zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyiqqligini isbotlashi shart” [5]ligi bugungi kunda davlat xizmati sohasidagi kadrlarning asosiy vazifasiga aylangan. Ayniqsa, 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo’nalishidagi “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirishga kirishilgani, yurtimiz fuqarolari davlat va jamiyat

hayotiga daxldor muhim masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishlari uchun Oliy Majlis internet tarmog‘ida “Mening fikrim” deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etilgani va joylarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarini tashkil etilishi o‘ziga xos institut sifatida eng muhim yangiliklardan biri bo‘ldi. Natijada davlat hokimiyatining aholi bilan samarali muloqoti tashkil etilib, fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqishning sifat jihatidan yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi va “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyiliga ko‘ra, davlat xizmatlari ko‘rsatishning yangi tizimi shakllantirildi. Ammo hanuzgacha davlat xizmatchilarining maqomi belgilanmagan, davlat xizmatiga qabul qilishning oshkora mexanizmlari ishlab chiqilmagan.[6]

Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o‘rtasida keng muhokama qilish, qonunlar loyihasini ishlab chiqishda fikr va takliflarni quyidan, ya‘ni, fuqarolardan olish tartibini samarali amalga oshirish hamda normativ-huquqiy hujjatlar, ya‘ni qonunlarni hayotga qanday tatbiq etilayotganini o‘rganish maqsadida Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi.[7]O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi va faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2018-2020 yillarda joriy etilishiga qarab Davlat xizmatlari markazlarida “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha ko‘rsatiladigan 58 ta davlat xizmatining ro‘yxati tasdiqlandi. [8]Davlat boshqaruvida 2017-yildan boshlab kadrlar masalasiga yondashuvda yangi davr boshlandi. Davlat hokimiyati organlarida kadrlar masalasi zamonaviy darajada tashkil qilinmoqda. Bu o‘z navbatida mahalliy boshqaruvni zamon talablari darajasida olib borish imkonini bermoqda.

Davlat xizmatchisiga xos me‘yorlar: odoblilik, xushfe‘llik; davlat organiga u yoki bu xizmat uchun kelgan har bir fuqaroga nisbatan hurmat; o‘zining ba‘zi fuqaroviy huquqlarini ongli va ko‘ngilli ravishda cheklash (masalan, davlat siyosatini ko‘pchilik oldida tanqid qilish, hokimiyat organlari va davlat arboblarni muhokama qilish; u yoki bu masalani hal qilishda shaxsan o‘z nomidan va‘da berish va hokazolar); xizmat sirini saqlash va boshqalar.

### **Xulosa**

Har bir xizmatchining o‘z xizmat burchlariga sadoqati va bilim darajasi tashkilot rahbariyati tizimiga muvofiq ravishda shakllanadi. Ammo talabchanlikni ko‘r-ko‘rona oshirish, imkonsiz natijalarni talab qilish xizmatchining o‘z burchiga salbiy munosabatlarini yuzaga keltiradi. Aksincha, talablar sust va unga nisbatan loqayd munosabatda bo‘linsa, rahbarning bu kayfiyati xizmatchiga ham ta‘sir ko‘rsatib, intizom pasayadi, tashkilotga sadoqat, muhabbati so‘nadi va kashfiyotchilik xislati butunlay yo‘qoladi. Xizmatchining bilim darajasi turg‘un holga kelib qoladi. Turg‘unlik esa, tashkilot taraqqiyotining ashaddiy kushandasidir. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun rahbariyat o‘sha tashkilot bilan aloqador jahonning eng ilg‘or yutuqlarini xizmatchi tomonidan o‘zlashtirilishini, uni tashkilotning kerakli tarmoqlari bo‘ylab tarqalishini ta‘minlashi talab etiladi. Buning uchun davlat xizmatchilarini tanlash va tayyorlash texnologiyasiga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu texnologiya taxminan quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanishi kerak: tashabbuskorlik; rejalashtirish; qaror qabul qilish; tashkillashtirish; muvofiqlashtirish; ijro etish; boshqarish; nazorat qilish; baholash; taftish qilish. Ushbu tamoyillarga javob bera oladigan davlat xizmatchilari faoliyati va mehnat natijalari tez ko‘zga tashlanadi va rivojlanish kuchaygan sari raqobatbardoshligi oshaveradi.

### **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O‘zbekiston, 2017. 26-32 betlar.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. 53-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O‘zbekiston. 2017. 481-bet.
4. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni; 2017-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-sonli Farmoni. Ma’rifat gazetasi. 24.01.2018 y., № 7.(9072) 3-bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr, [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz).
7. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O‘zbekiston, 2018, 27-bet.
8. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5278-sonli Farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

## ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Калонова Зилола Аминовна

Преподаватель русского языка кафедры

«Иностранных языков» Международного университета Нордик

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159329>

**Аннотация.** В данной статье приведен ряд примеров при обучении русского языка для учащихся с нерусским языком обучения. В современном обществе одним из быстроразвивающихся методик и вызывающий огромный интерес со стороны учащихся является применение интернет-ресурсов как инновационный подход к обучению. Современный подход к изучению русского языка имеет важную роль при усвоении нового материала.

**Ключевые слова:** инновация, обучение, учитель русского языка, технология, учащиеся, методика, современный.

**Abstract.** This article provides a number of examples of teaching the Russian language to students with a non-Russian language of instruction. In modern society, one of the rapidly developing methods that is of great interest on the part of students is the use of Internet resources as an innovative approach to learning. The modern approach to learning the Russian language plays an important role in mastering new material.

**Keywords:** innovation, training, russian language teacher, technology, students, methodology, modern.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rus tilidan yetarli bilimga ega bo‘lmagan talabalarga rus tilini o‘rgatishning bir qator misollari keltirilgan. Zamonaviy jamiyatda jadal rivojlanayotgan va talabalarda katta qiziqish uyg‘otadigan usullardan biri bu Internet resurslaridan ta‘limga innovatsion yondashuv sifatida foydalanishdir. Rus tilini o‘rganishga zamonaviy yondashuv yangi materialni o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, trening, rus tili o‘qituvchisi, texnologiya, talabalar, metodika, zamonaviy.

Русский язык – это не только учебный предмет, но и ещё познавательная ценность, которая чрезвычайно высока: на уроках русского языка ученик или студент должен осмысливать общечеловеческие ценности, он учится любить русский язык, через этот язык формируется мышление, воспитывается личность, с помощью русского языка происходит интеллектуальное развитие ребенка, усвоение всех других учебных дисциплин. Через обучение языка выражается гуманность общества, состоит в стремлении расширить планку познания, повысить знания интеллектуального развития ребёнка.

По традиционной системе обучения на данный момент обучать неактуально, поскольку в век современных технологий ученик изучает язык через интернет. Для того чтобы на уроках русского языка было понятно и интересно в нынешнее время (мир интернета), учителю надо быть на один шаг впереди от учеников, так как это требование времени и поэтому современный учитель должен работать над собой очень много, быть в поиске новых знаний, которые заинтересуют обучаемых и заинтересовать его на уроках русского языка. Концепция современного образования определила цель профессиональной деятельности учителя – сформировать у учащихся способность к успешной социализации



в обществе, активной адаптации на рынке труда. И поэтому нам необходимо при обучении русского языка использовать инновационные технологии. Следствием этого становится разработка новейших разработок по обучению языкам. Инновационные методики обучения характеризуются новым стилем организации учебно-познавательной деятельности учеников. Современный обучаемый теперь должен видеть, ощущать, узнавать быстро новое на уроках, потому что для него традиционная форма обучения имеет скудный характер и может найти всё это через социальную сеть. В настоящее время педагоги признаются, что в развитии творческих способностей, интеллектуальной деятельности максимальные возможности представляют технологии проблемного обучения. Учитель должен учесть одну деталь, что обучающийся ученик будет осваивать знания тремя способами: зрительно, письменно и через аудирование. Поэтому стоит отметить об эффективности обучения русскому языку через призму современных технологий. Педагог при обучении должен учесть еще одну деталь, а именно обучаемый является носителем какого-либо языка. Исходя из этого мы педагоги должны подобрать подходящую методику преподавания с использованием инновационных технологий при обучении языка. Моя методика показала, что носитель русского языка быстро изучает английский язык, потому что грамматика английского языка ближе русскому языку. Значительный вклад в раскрытие проблемы интеллектуального развития, проблемного и развивающего обучения внесли Н.А. Менчинская, П.Я. Гальперин, Н.Ф. Талызина, Т.В. Кудрявцев, Ю.К. Бабанский, И.Я. Лернер, М.И. Махмутов, А.М. Матюшкин, И.С. Якиманска, А.К. Мынбаева, З.М. Садвакасова.

Можно выделить две группы стратегии: непосредственно влияющих на учёбу и получение навыков:

1. когнитивной стратегии, которую используют обучаемые для осмысления материала, стратегии запоминания – для его сохранения в памяти.
2. компенсаторные стратегии – помогают справиться с затруднениями, возникающими в процессе общения.
3. стратегии, связанные с созданием условий для обучения и способствующие преодолению психологических трудностей в овладении языком.

Прежде всего хотелось бы выделить особенности инновационного обучения: работа на опережение, предвосхищение, открытость к будущему, направленность на личность, её развитие, обязательное присутствие элементов творчества, партнёрский тип отношений, сотрудничество, сотворчество, взаимопомощь и др.

Инновациями в образовании называют новшества, нововведения в содержании образования, в формах и методах обучения, в отношениях «преподаватель – студент», использовании информационных технологий обучения, внедрение нового оборудования, в организации учебно- воспитательного процесса, его управлении и др.

Для развития интереса к русскому языку следует включать в урок исторические, этимологические справки, которые могут заинтересовать детей, проводить игровые формы работы: «Составь слово», «Третий лишний», «Переводчик», «Эрудит», «Собери пословицу», «Шеренга», «Перевёртыш», «Паутина слов» и др., использовать творческие эксперименты, метод проектов, нестандартные уроки, конкурсы, олимпиады.

В современном обществе одним из быстроразвивающихся методик и вызывающий огромный интерес со стороны учащихся является применение интернет-ресурсов как инновационный подход к обучению.

Идея использования Интернета в образовании не новая. Уже с начала 1990-х годов национальные и интернациональные компьютерные сети стали широко использоваться в учебных целях в рамках разных образовательных подходов. И учащиеся, и учителя смогли обмениваться информацией в режиме, не зависящем от времени и места. Новые двигательные технологии освободили человеческий разум для более креативных задач, что способствует развитию личности. Это позволяет ученикам творчески взаимодействовать и с одноклассниками, и с учителями.

В последние десятилетия учителя в своей работе активно применяют современные образовательные технологии. Каждый педагог отбирает более приемлемую для себя и учащихся технологию. И это не случайно. Сегодня основная цель обучения - это воспитание творческой, активной личности, умеющей учиться, совершенствоваться самостоятельно. Инновационный подход к обучению позволяет так организовать учебный процесс, при котором ребенок вовлекается в общий учебный труд, вызывающий в нем, чувство успеха, движения вперед. Нетрадиционные формы урока реализуются, как правило, после изучения какой-либо темы или нескольких тем, выполняя функции обучающего контроля. Они позволяют повысить интерес учащихся не только к предмету, но и обучению в целом. Творчество на таких уроках проявляется не в развлекательности, а в подборе таких заданий, такого дидактического материала, который своей новизной, необычностью подачи (путешествие, конкурс, игра и т.д.), вызывая удивление, активизирует внимание, мышление ученика. Такие уроки проходят в необычной нетрадиционной обстановке. Это создает атмосферу праздника при подведении итогов проделанной работы, снимает психологический барьер, возникающий из-за боязни совершить ошибку. Нетрадиционные формы урока осуществляются при обязательном участии всех учащихся, реализуются с неизменным использованием средств слуховой и зрительной наглядности, а также создаются условия для мобилизации творческих резервов и учителя, и ученика.

Инновационный подход к обучению позволяет так организовать учебный процесс, что ребёнку урок и в радость, и приносит пользу, не превращаясь просто в забаву или игру.

Определение «инновация» как педагогический критерий встречается часто и сводится, как правило, к понятию «новшество», «новизна». Между тем инновация в точном переводе с латинского языка обозначает не «новое», а «в новейшее». Именно эту смысловую нагрузку вложил в термин «инновационное» в конце прошлого века Дж. Боткин. Он и наметил основные черты «дидактического портрета» этого метода, направленного на развитие способности ученика к самосовершенствованию, самостоятельному поиску решений, к совместной деятельности в новой ситуации.

«Инновационный подход требует от каждого словесника овладения методикой преподавания русского языка как иностранного, понимания, что законы русского языка учащиеся воспринимают через призму законов родного языка, а это является причиной многих орфографических и даже пунктуационных ошибок. Такие ошибки относят к разряду интерференционных. Трудности усвоения русского языка как неродного можно разделить на три уровня: - трудности, общие для любого нерусского - трудности для носителей определенной группы языков (близкородственные, неродственные) - трудности для

учащихся конкретной национальности». Для решения таких проблем во время проведения занятий по русскому языку очень эффективно использовать разнообразные инновационные технологии. А именно такие как инсерт, мозговая атака, групповая дискуссия, чтение с остановками, «Вопросы Блума», кластеры, синквейн, «Продвинутая лекция», эссе, ключевые термины, дидактическая игра, исследование текста, работа с текстами и другие. Инновационные подходы к преподаванию русского языка как иностранного требуют не только чёткой организации учебного процесса, но и умение правильно и уместно использовать инновационные и интерактивные методы обучения. Таким образом, инновационный подход к обучению помогает учителю так организовать учебный процесс, что урок уже не становится для учащегося скучным процессом, а превращает процесс обучения в игру, принося и пользу, и радость, который в конечном итоге может привести ученика к успеху. В последние десятилетия очень большое внимание уделяется использованию инновационных технологий в сфере образования, потому что, как мы выше сказали, инновационные подходы обучения делают учебный процесс интересным и занимательным. Ведь недаром когда-то Ян Амос Коменский так писал: «Спеши в школу как на игру. Она и есть такова». Исходя из этого мы можем сказать, что инновационные подходы обучения являются важнейшим стимулом обучения. В особенности продуктивные инновационные технологии насчитываются 35 в обучении русского языка как иностранного.

#### **REFERENCES**

1. Бахвалов В.А. Методики и технологии образования. Рига, 1997.
2. Горбич О.И. Современные педагогические технологии обучения русскому языку в школе // Русский язык. Первое сентября, 2009. № 23.
3. Гостева Ю.И. Особенности современного этапа использования мультимедийных средств и информационно-коммуникативных технологий при обучении русскому языку. М.: Современное образование, 2012. № 6.
4. Никишина И.В. Инновационные педагогические технологии и организация учебно-воспитательного и методического процессов в школе. Волгоград: Издательство «Учитель», 2008.
5. Рыжова В.Н. Дифференциация обучения как важный фактор развития познавательных интересов школьника // Журнал «Завуч», 2008. № 8.
6. Шаламов И.К. Мотивационное программно-целевое управление: теория, технология, практика. Барнаул, 2002.

## **ZAMONAVIY NOTA YOZUVIGA ASOSLANGAN NOTA YOZUVI**

**Xuramov Ulug‘bek Karimjonovich**

Termiz davlat pedagogika instituti, musiqiy ta’lim kafedrasini mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159363>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada musiqa san’ati sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan nota yozuvi hadiqa, uning tarixi, rivojlanish bosqichlari haqidagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Hozir zamon nota yozuvida bayonida ishlatiladigan nota yo‘llari, takt chiziqlari va uning vazifalari, akkolada turlari hamda, kalitlar va ularning turlari haqida ma’lumot berilgan. Keltirilgan ma’lumotlarni musiqa o‘quvchilari uchun boshlang‘ich ma’lumotlar sifatida foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.*

***Kalit so‘zlar:** yozuv, nota, nota yozuvi, notatsiya, harfiy notatsiya, tabulatura, nota yo‘li, qo‘shimcha chiziqlar, takt chizig‘i, sol kaliti, fa kaliti, do kaliti.*

***Аннотация.** В данной статье даны сведения о нотной грамоте, ее истории и этапах развития. Предоставляется информация о путях нот, тактовых линиях и их функциях, типах похвал, а также клавишах и их типах, используемых в современной нотной записи. Данную информацию целесообразно использовать в качестве отправной точки для студентов-музыкантов.*

***Ключевые слова:** нотная запись, нота, нотная запись, нотация, буквенная запись, табулатура, нотоносец, дополнительные строки, тактовая линия, ключ, ключ Фа, ключ До.*

***Abstract.** In this article, information about musical notation, its history and stages of development is given. Information is provided about note paths, bar lines and their functions, types of accolades, and keys and their types used in modern musical notation. It is appropriate to use the given information as a starting point for music students.*

***Keywords:** notation, note, musical notation, notation, literal notation, tablature, stave, extra lines, bar line, clef, F clef, C clef.*

**Kirish.** Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Boshqacha qilib aytgancha yozuv – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma’nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo‘lgan. Tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan bo‘lsa, yozuvning paydo bo‘lganiga esa 4-5 ming yillar bo‘lgan deb taxmin qilinadi. Yozuv paydo bo‘lishining boshlang‘ich davrlarida ma’lumotni xotirada saqlab qolish vositasi tabiat predmetlari bo‘lgan. Predmetlar simvolikasi shunday vazifani bajargan. Masalan, qarama-qarshi qabila vakillarining navbatma-navbat trubka chekishi tinchlik simboli bo‘lgan. Slovyan qabilalarida ilgari va hozir ham mehmonni non va tuz bilan kutib olish do‘stlik va hurmat belgisidir. Og‘zaki til yoxud nutqning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Og‘zaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda tovush to‘lqinlari yetib borishi mumkin bo‘lgan muayyan masofadagi kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo‘lishi bilan inson tafakkuri bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat yozuv dunyoga kelgan. Yozuvning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o‘zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati

bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Jumladan, kishilarning, jamiyatning, xalqlarning estetik va ma’naviy dunyoqarashlarini yuksaltirish vositalaridan biri bo‘lgan bu musiqadir. Musiqa inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at turi hisoblanadi. Musiqa san’atida yozuv juda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa dunyo xalqlarini bir xil musiqiy tilda asarlar ijro etishini misol keltirishimiz mumkin. Dunyo xalqlari musiqiy durdonalarining ijro etilish jarayoni vaqt va makon nuqtai nazarlarini chetlab o‘tishini tushunishimiz kerak. Ya’ni turli xalqlar bir-birlarining musiqiy asarlarini boshqa vaqtda, boshqa makonda bir xil ijro etilishlarini ta’minlash uchun maxsus musiqiy yozuvga ehtiyoji borligini bildiradi. Bu maxsus musiqiy yozuv esa o‘zida turli xalqlarning musiqiy koloritlarini aks ettiruvchi ijro uslublari, lo‘nda va tushunarli ko‘rinishdagi belgilarni aks ettirishi kerak bo‘ladi.

Bilamizki musiqiy asarlarni ijro etishda biz nota deb ataluvchi maxsus belgilardan foydalanamiz. Nota bu – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, musiqa asarlarini yozib olish uchun qo‘llaniladigan yozuv belgisidir. Boshqacha qilib aytganda tovushning grafik ko‘rinishidir. Nota yozuvi yoki notatsiya musiqa tovushlarining balandligi, uzunligi va boshqa xususiyatlarini ifodalovchi nota ya’ni belgilardan iborat yozuv usuli, qisqacha aytganda musiqa asarining yozuv ifodasi. Nota yozuvi qadimdan turli xalqlar musiqa amaliyoti va ilmiy izlanishlarning mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Nota yozuvining bizgacha yetib kelgan dastlabki namunasi ya’ni qadimiy notatsiya yunon harflaridan tashkil topgan. Musiqiy tovushlarni yunon harflari bilan ifodalash notatsiyasi miloddan avvalgi III asrdan milodiy X asrgacha iste’molda bo‘lgan (1-rasm).

$\text{C } \bar{\text{Z}} \ \dot{\text{Z}} \ \text{K I Z } \bar{\text{I}} \ \bar{\text{K}} \ \text{I } \dot{\text{Z}} \ \text{IK} \ \text{O } \bar{\text{C}} \ \text{O}\Phi$   
 "Ο σον ζῆς, φαί νου, μη δέν ὄλ ως σὺ λυ ποῦ·  
 $\text{C } \text{K Z } \dot{\text{I}} \ \text{K } \bar{\text{I}} \ \bar{\text{K}} \ \text{O}\Phi \ \text{C K O } \dot{\text{I}} \ \dot{\text{Z}} \ \dot{\text{K}} \ \text{C } \bar{\text{C}} \ \text{CX}\dot{\text{T}}$   
 πρὸς ὄλ ἰγον ἐ στίτὸ ζῆν, τὸ τέ λος ὁ χρόνος ἀπαι τεῖ.

1-rasm.

Keyinchalik ya’ni, ilk o‘rta asrlarda g‘arbiy yevropa musiqa madaniyatida yunon harfiy notatsiyasi lotin harflari bilan almashtirilgan. Hamda o‘sha davrdagi ikki oktava diatonik tovushqatorni A, B, C, D, E, F, G, a, b, c, d, e, f, g, harflari bilan ifodalashgan. Sharqda ham bunday nota yozuvining ma’lum turini Abu Nasr Forobiy ishlab chiqqan. Harfli nota yozuvi tovushlar balandligi va parda tuzilmalarini aniqlashga yordam bergan. Shu tariqa musiqa nazariyasining rivojiga salmoqli hissa qo‘shganligi uchun ham Forobiy ilk musiqashunoslardan biri sifatida sanaladi. Afsuski Forobiyning bizgacha bajargan ishlarining salmog‘i yoxud mazmuni turli manbalarda e’tirof shaklida yetib kelgan xolos. Musiqa sohasidagi asl risolalari yetib kelmaganligi uchun ham hozirda aniq ma’lumotlar bilan misollar keltirish qiyin.

O‘rta asrlarda ya’ni XI – XII asrlarda Yevropa musiqasidagi harfiy notatsiya vokal musiqasida joriy etilgan nevmalarga asoslangan nota yozuvi keng tarqaldi. Nevmada matn so‘zlari ustiga ko‘yilgan ohang yo‘nalishini ko‘rsatuvchi maxsus belgi hisoblangan. Tovush balandligini aniqroq ko‘rsatish uchun bu belgilar gorizontal chiziqqlarga yozila boshlangan. XI asrda Gvido d’Aretso mazkur nota yozuvi turini takomillashtirib 4 chizikli nota yozuvini kashf qilgan. Shuningdek Gvido hozirgi nota do, re, mi, fa, sol, lya nomlari taraqqiy etishida asosiy rol ni o‘ynadi. U do talaffuzi o‘rnida ut bo‘g‘inini ishlatgan. Keyinchalik nota nomlari taraqqiy etishi ya’ni ut bo‘g‘ini do bo‘g‘iniga almashi hamda yettinchi si tovush paydo bo‘lishi bilan boshlangan.



Shuningdek nota yozuvining mukammalashishida ko‘p mamlakatlarda yuzaga kelgan turli tabulaturalar muhim rol o‘ynagan. Tabulatura nota yozuvining ilk shakllaridan biri hisoblanadi. Tabulatura muayyan cholg‘u asbobiga mo‘ljallangan bo‘lib, unda musiqa asari jadval shaklida, musiqiy tovushlar esa harflar, raqamlar va boshqa maxsus belgilar yordamida ifodalanadi. Mazkur nota yozuvi musulmon Sharqi musiqa ilmida X asrdan ma‘lum. O‘rta Osiyoda XIII asrda Safiuddin al-Urmaviy tomonidan ud cholg‘u asbobi pardalariga mo‘ljallab yaratgan 2 xil tabulaturalar ma‘lum bo‘lgan. Ular jadval shaklida bo‘lib, tovushlar balandligi turli harflar bilan, davomiyligi esa raqamlar yoki nuqtalar yordamida ifodalangan. Mazkur yozuv uslubi Yevropada XVI-XVII asrlarda rivoj topib taraqqiy etdi. Shuningdek, XIX asr oxirida Xorazmda “tanbur chizig‘i” deb nomlangan tabulatura shaklidagi nota yozuvi joriy etilgan.

XVI asr oxirida gomofoniya uslubida ayniqsa italiya musiqasida generalbas nota yozuvi joriy etilgan. Unda bas ovozi tovushlari tagida yozilgan raqamlar muayyan akkordlarni ifodalagan. Aniqroq qilib aytganda ma‘lum akkord yoxud garmoniyadan tashqari ixtiroiy garmoniyalarni jro etilishini chetlaydi. Barokko davri janrlarining boshqa davr janrlaridan o‘ziga xos farqli tarafi ham shunda hisoblanadi. Shu tariqa barokko davri XVII – XVIII asrlarda gomofoniya va polifoniya musiqalarida o‘zining taraqqiy boshqichlarini bosib o‘tdi. Keyinchalik mazkur nota yozuv uslubi kompozitorlik ijodiyotining keng ko‘lamligini yoxud garmonik tilning ifodaviy imkoniyatlarini cheklaganligi tufayli amaliyotdan chiqarildi. Ayniqsa bu holat Vena klassik maktabi kompozitorlari asarlaridan boshlandi. Shu ta‘riqa musiqadagi garmonik til, garmonik tafakkur murakkablashib bordi.

**Asosiy qism.** Hozirgi nota yozuvi 5 ta gorizontall chiziqlar ya‘ni nota yo‘lining ustiga, yuqorisi yoki pastiga yoziladigan notalardan tashkil topgan. Notalar tovushlarning uzun-qisqaligiga qarab oval shaklidagi bo‘sh va ichi bo‘yalgan doirachalardan iborat bo‘lib, ulardan dumli yoki dumsiz chiziqchalar tortilib yoziladi. Bu chiziqlarni yoki tayoqchalarni nemis tilidagi nomi bilan shtillar deb ataymiz. Notalar nomi 7 ta bo‘lib, ya‘ni ular do, re, mi, fa, sol, lya, si muayyan kalitlarda turlicha chiqizlarda yoziladi.

Nota yo‘li nota yozuvining asosiy elementlaridan yoxud unsurlaridan biri bo‘lib u beshta gorizontall parallel chiziqlardir. Nota yo‘lining chiziqlari har doim pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Uning ustiga va atrofiga nota, pauza, alteratsiya belgilari va ijroga taalluqli bo‘lgan barcha belgilar yoziladi. Notalar nota yo‘lining asosiy beshta chizig‘i ustiga va oralariga kalit va o‘lchov belgilari yordamida oktavalar kesimida takrorlanib yoziladi (1-misol).



1-misol.


Asosiy chiziqlardan tashqari qo‘shimcha chiziqlardan ham foydalaniladi. Ular nota yo‘lining ostidan qo‘yilsa tepadan pastga tomon, nota yo‘lining ustidan qo‘yilsa pastdan tepaga qarab sanaladi (2-misol).



2-misol.


Nota yo‘liga qo‘shimcha chiziqlardan tashqari uni ko‘ndalak kesib o‘tuvchi takt chiziqlari ham qo‘llaniladi. **Takt chizig‘i deb bir yoki bir nechta nota yo‘llarini gorizontall kesib o‘tuvchi**

**chiziqqa aytiladi.** Bunda bir chiziqli takt chizig‘i har bir takti ya’ni kuchli xissalarni ajratib tursa, ikki chiziqli takt chizig‘i asarning parchalarini, qismlarini ajratib turadi (3 va 4-misollar).




3 va 4-misollar.

Takt chiziqlarining vazifalari nafaqat kuchli hissalarining orasini yoki asar qismlarini ajratish uchun qolaversa, murakkab metrli uzun taktdagi notalarni o‘qish jarayonini soddalashtirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Misol uchun nuqtali takt chizig‘i yoki qisqa ko‘rinishdagi takt chizig‘i (5-misol).




5-misol.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, takt chiziqlarini musiqa o‘lchov birliklaridan biri sifatida ham qabul qilsak bo‘ladi. Fortepiano, arfa, organ kabi cholg‘u musiqa asarlarni matnini ikkita nota yo‘lida ifodalaydigan asarlarda takt chiziqlari mazkur ikki nota yo‘lini birlashtirib turishda ham xizmat qiladi (6-misol).




6-misol.

Albatta asarlarning tugashi ham takt chizig‘i yordamida aniqlanadi (7-misol).



7-misol.

Bilamizki musiqiy asarlar matni bitta nota yo‘lidadan tashqari bir nechta nota yo‘llarida ham bayon etiladi. Ko‘p ovozli musiqiy asarlar bayon etilgan bir necha nota yo‘llari umumiy boshlang‘ich chiziq bilan birlashtiriladi. Boshlang‘ich chiziqqa qo‘shilib qavs ya’ni akkolada ham yoziladi. Akkolada turlari figurali va to‘g‘ri ko‘rinishlarga ega. Figurali akkolada fortepiano, organ, arfa, bayan kabi cholg‘ular uchun yozilgan asarlar nota matnida qo‘llaniladi (8-misol).



8-misol.

To‘g‘ri akkolada ko‘pchilik hollarda xor, ansambl va orkestr partituralarida foydalaniladi. Ayniqsa orkestrda bir vaqtning o‘zida bir nechta to‘g‘ri akkoladalar qo‘llaniladi. Bunga sabab orkestrni tashkil etuvchi turli cholg‘u guruhlarini ajratib olishdir (9 a, 9 b-misollar).

Musical score for vocal parts, consisting of four staves: Soprano, Alt, Tenor, and Bas. Each staff is empty, with a treble clef for Soprano, Alt, and Tenor, and a bass clef for Bas.


9 a-misol.

Musical score for instrumental parts, consisting of twelve staves: Fleyta, Goboy, Klarnet in B, Fagot, Valtorna in F, Truba in B, Litavra, I Skripka, II Skripka, Alt, Violonchel, and Kontrabas. Each staff is empty, with various clefs and key signatures indicated.

9 b-misol.


Nota yo‘liga bir ovozning tovushlarini notalashtirish jarayonida uning tessiturasidan kelib chiqib, ya‘ni ko‘p marotaba ijro etiladigan tovushlarini mo‘ljallagan holda yozishimiz kerak bo‘ladi. Ammo mazkur ovoz yoxud cholg‘u asbobining past yoki yuqorigi ovozlari nota yo‘liga qo‘shimcha chiziqsiz yozib bo‘lmaydi. Shuningdek boshqa ovozning tessiturasini ham notaga tushirish uchun ko‘p sonli qo‘shimcha chiziqlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Natijada qo‘shimcha chiziqdagi yozilgan notalarni ayniqsa ijro davomida o‘qish jarayoni bir muncha murakkablashadi. Nota o‘qish jarayonini murakkablashtirmasdan, asar matnini besh chiqizning o‘zida bayon etish uchun maxsus belgi ya‘ni, kalitlardan foydalaniladi. Shuningdek keng diapazonga ega bo‘lgan cholg‘ular ijro vaqtida registri o‘zgarganda turli kalitlardan foydalanadi. Kalitlarning har biri alohida bir ovoz yoki registr uchun mo‘ljallangan bo‘lib, skripka bas, soprano, alt, tenor, bariton va boshqa kalitlar vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Sol kaliti yoki skripka kaliti. Bu kalitning markazidagi spiral ko‘rinishidagi qismi nota yo‘lining ikkinchi chizig‘idan boshlanadi. Ikkinchi chiziqda esa birinchi oktava sol tovushi yozilishini ko‘rsatadi, shuning uchun ham sol kaliti deyiladi. Zamonaviy nota yozuvlarida keng tarqalgan kalit hisoblanadi (10-misol).




10-misol.

Skripka kaliti deb atalishiga bir necha sabablar bor, shulardan ishonarlisi, ilk barokko davrida skripka cholg‘usi yaratilishi va ko‘rinishidan mazkur cholg‘u asbobigaga o‘xshashligi bilan bog‘liq deb ta‘kidlashadi. Haqiqatdan ham skripka cholg‘usiga diqqat bilan qarasangiz uning ikki chekkasida skripka kalitiga o‘xshash darcha ochilganligini ko‘rishingiz mumkin. Mazkur kalitni ilk bor XVI asrda fransuz kompozitorlarining nota matnlarida aks etgan. Shuning uchun ham uzoq vaqt davomida fransuzcha kalit yoki eski fransuzcha kalit deb ham yuritilgan. To‘g‘ri eski fransuzcha kalit nota yo‘lining birinchi chizig‘idan boshlab yozilgan va birinchi oktavaning sol tovushi o‘rnashgan joyini bildiradi. (11-misol).



11-misol.

Fa kaliti yoki bas kaliti. Bu kalitning boshlang‘ich nuqtasi nota yo‘lining to‘rtinchi chizig‘idan boshlanadi. To‘rtinchi chiziqda esa kichik oktavaning fa tovushi yozilishini ko‘rsatadi, shuning uchun ham fa kaliti deyiladi. Skripka kalitidan keyingi o‘rinda keng tarqalgan kalit hisoblanadi. Musiqiy tovushlarning pastki registrini o‘zida mujassam etgan cholg‘u asboblari ya‘ni fagot, trambon, tuba, litavra, violonchel, kontrabas, fortepiano va arfaning pastki registrlaridagi bas ovozini aks etganligi va notalari mazkur kalitda bayon etilganligi uchun bas kaliti ham deyiladi (12-misol).



12-misol.

Bas kalitining ilk ko‘rinishi hozirgisiga nisbatan teskari ko‘rinishga ega bo‘lgan (13-misol).




13-misol.

Bas kalitining iste’moda asar nota bayonida kam ishlatiladigan turlari ham mavjud. Bular bariton va bas-profunda<sup>1</sup> kalitlaridir. Bariton kaliti kichik oktavaning fa tovushini nota yo‘lining o‘rta ya’ni uchunchi chizig‘ida yozilishini anglatadi (14-misol).




14-misol.

Bas-profunda kaliti esa kichik oktavaning fa tovushini nota yo‘lining beshinchi chizig‘ida yozilishini anglatadi (15-misol).




15-misol.

Do kaliti yoki alt kaliti. Bu kalitning nomlanishida ham bir nechta ta’riflar mavjud. Kalitning o‘ng tomonidagi ikki jingalak ko‘rinishidagi shakli birlashgan chiziqda birinchi oktava do tovushi joylashishini anglatadi. Agar nota yo‘lining markaziy ya’ni uchunchi chizig‘ida do kalitining jingalaklari birlashgan bo‘lsa u holda uning nomi alt kaliti deb nomlanadi. Mazkur kalit ko‘pchilik holatlarda alt cholg‘usining nota matnida qo‘llaniladi (16-misol).




16-misol.

Do kaliti nafaqat alt ovozi registriga mos holda qo‘llaniladi, balki, qolgan ovozlarning ham nota matnlarini bayon etishda ham ishlatiladi. Quyida tenor, bariton, metso-soprano va soprano kalitlarini misol keltiramiz. Tenor kalitining jingalaklari nota yo‘lining to‘rtinchi chizig‘ida birlashadi. Qo‘llanilishi bo‘yicha fagot, violonchel, trombon va kontrabas cholg‘ularining nota matnlarida qo‘llaniladi (17-misol).




17-misol.

Bariton kalitining jingalaklari nota yo‘lining beshinchi chizig‘ida birlashadi va ushbu chiziqda birinchi oktavaning do tovushi yozilishini anglatadi (18-misol).




18-misol.

Metso-soprano kalitining jingalaklari nota yo‘lining ikkinchi chizig‘ida birlashadi va ushbu chiziqda birinchi oktavaning do tovushi yozilishini anglatadi (19-misol).



19-misol.

Sop-rano yoki diskant kalitining jingalaklari nota yo‘lining birinchi chizig‘ida birlashadi va ushbu chiziqda birinchi oktavaning do tovushi yozilishini anglatadi (20-misol).




20-misol.

Zarbli cholg‘ular kaliti. Uning ikki ko‘rinishi mavjud. Bu kalitlarni neytral kalit ham deb atasak bo‘ladi. Aniq balandlikka ega bo‘lmagan musiqiy tovushlarni ijro etadigan urma-zarbli

<sup>1</sup> Italyancha: basso profundo – chuqur bas ma’nosini anglatadi.




cholg‘ular uchun qo‘llaniladi. Haqiqatdan ham aniq balandlikka ega bo‘lmagan tovushlarni nota yo‘lida aks ettirishning ma’lum bir usuli sifatida shu kalitlardan foydalansak maqsadga muvofiqdir. Bu zarbli cholg‘ular uchun mo‘ljallangan kalitlarning hozirda ikkita ko‘rinishi mavjud (21 va 22-misollar).



21 va 22-misollar.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki urma-zarbli cholg‘ulardan chiqayotgan tovushlarni balandligi-ga qarab shartli ravishda ikki, uch, to‘rt xilga ajratib ularni nota mat-nini bir, ikki, uch xatto to‘rt chiziqli nota yo‘lida ifodalash ham mumkin. Shunda neytral nomi o‘z isbotini topadi (23 va 24-misollar).




23 va 24-misollar.

Diatonik tugmachali akkordeon kaliti. Bu kalit diatonik tugma-chali akkordeon uchun yozilgan nota matnini ifodalashda qo‘llaniladi (25-misol).




25-misol.

Tabulatura kaliti. Tabulatura ilk nota yozuv uslublaridan biri bo‘lib unda musiqaning yozuv bayoni raqamlar, harflar va maxsus belgilar bilan ifodalangan. Hozirda u 6 torli gitara cholg‘usi nota matnlari uchun ishlatiladi (26-misol).



26-misol.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki kalitlar nafaqat ovozning tessiturasidagi tovush-larni balki oktava yuqori yoki pastki tovushlarni nota yo‘lida aniq ifodalashi ham mumkin. Bunda kalitning pastki yoki ustki qismida qo‘yilgan 8, 15 raqamlari shu kalit qo‘yilgan nota yo‘lidagi barcha tovushlarni bir okvata, ikki oktava tushurib yoxud ko‘tarib ijro etishni anglatadi. Ba’zida ikkita skripka kalitini yonma-yon qo‘ysak tovushlarni oktava ko‘tarib ijro etishni bildiradi. Aynan shu usul hozirda arxaik hisoblanadi. Bularni oktava kaliti deb ham atasak bo‘ladi (27-misol).



27-misol.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida kalitlarga nisbatan quyidagicha ta’rifni qo‘llasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya’ni, kalitning vazifasi unga nota yo‘li bilan biriktirilgan notaning qaysi tovush ekanligini yoxud musiqiy tovushning nota yo‘lidagi joylashuvini ko‘rsatib turishdir.

## **REFERENCES**

1. Vaxromeyev A. Musiqaning elementar nazariyasi. Toshkent, O‘qituvchi. 1965.
2. Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiqa nazariyasi. Toshkent. 2013.
3. Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. Toshkent, Musiqa. 2007.
4. Raxmatullayev X. Musiqa tarixi. Buxoro, Kamolot uchqunlari. 2023.
5. N.Yusupova. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Toshkent, Musiqa. 2017.
6. Aziz o‘g‘li S., Azizov N., Azizov F. Musiqaning elementar nazariyasi. Qarshi, Nasaf. 2005.
7. Mark Feezell. Music Theory Fundamentals - High-Yield Music heory, vol. 3. Copyright c 2011 All Rights Reserved.
8. Michael Filhofer and Holly Day. “Music Theory for dummies”. – Indiana USA 2007 Wiley Publishing Inc.
9. Хуррамов У.К. Процессы формирования исполнительных традиций на народных инструментах // Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. 2021. № 9. Б. 186–192.
10. Khuramov U. K. FORMATION, DEVELOPMENT AND HISTORY OF HARMONY //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – С. 77-82.
Olingan natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’limda sifat samaradorligi eksperimental guruhda nazorat guruhiga nisbatan 57 % dan 67 % ga oshdi (3.1-diagramma).



1-diagramma. Sifat samaradorligi

Ushbu diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida olib borilgan tadqiqot ishlari samarali natija berdi. Tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 1.07 ga oshgan, ya’ni samaradorlik ko‘rsatkichi 7% ga yuqori ekanligi statistik usullar yordamida isbotlandi.

**Xulosa.** Ta’limni kompyuterlashtirish hozirgi zamonning zarur tendentsiyasi bo‘lib, “Ta’lim muassasalarida multimediani joriy qilish kerakmi yoki yo‘qmi?” degan savol anchadan beri ijobiy hal etilgan.

O‘quv jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning o‘quv va kognitiv faoliyatining xarakterini o‘zgartirishga, o‘quv maqsadlaridagi turli elektron vositalar bilan talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beradi. Talabalar tomonidan boshlang‘ich bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida multimedia vositalaridan eng samarali foydalanish.

O‘qituvchining o‘zi bunday ta’lim istiqbollarini anglab yetsa va amalga oshirsa, o‘z amaliyotida ta’limning zamonaviy uslub va shakllaridan foydalansagina bu mashg‘ulotning samaradorligiga erishiladi.

## REFERENCES

1. Жук Юлия Александровна Мультимедийные Технологии Сыктывкар. 2012 й
2. <https://www.lisedunetwork.com/impact-of-e-resources/>
3. <http://inf.yspu.yar.ru/>. Мультимедийные технологии.
4. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/view/3171>

**TEKNOLOGIK TA’LIM YO’NALISHIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI  
O’QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEKNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI**

**<sup>1</sup>Umarova Fotima Abduraximovna, <sup>2</sup>To‘xtasinova Shodiyaxon Javlonbek qizi**

<sup>1</sup>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti „Texnologik ta’lim metodikasi“ kafedrasida dotsent v.b., p.f.f.d., PhD

<sup>2</sup>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Texnologik ta’lim yo’nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159778>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda Texnologik ta’lim yo’nalishida mutaxassislik fanlarini o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi to’g’risida so’z borgan.*

***Kalit so’zlar:** innovatsiya, innovatsion ta’lim, innovatsion texnologiya, interaktiv metodlar, innovatsion pedagogika.*

***Аннотация.** В данной статье говорится об эффективности использования инновационных образовательных технологий в преподавании профильных предметов в сфере технологического образования сегодня.*

***Ключевые слова:** инновации, инновационное образование, инновационные технологии, интерактивные методы, инновационная педагогика.*

***Abstract.** This article talks about the effectiveness of using innovative educational technologies in teaching specialized subjects in the field of technological education today.*

***Keywords:** innovation, innovative education, innovative technology, interactive methods, innovative pedagogy.*

### **1. Kirish.**

Hozirgi kunda ta’lim jarayonlarida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga, shu bilan bir qatorda olgan bilimlarini amaliyotda qo’llay olishlariga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funksiyalarini bajaradi. Ta’lim jarayonida o’quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun barcha ta’lim muassasalarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o’qitish metodlari-interaktiv metodlar, Innovatsion texnologiyalarning o’rni va ro’li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o’quvchi-talabalarining bilimli, yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

### **2. Tahlil va natijalar.**

Innovatsiya- (inglizcha innavation)-yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to’liq foydalaniladi.



Interaktiv metodlar- bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya‘ni pedagogik ta‘sir etish usullari bo‘lib ta‘lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi yoki talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Ma‘lumki, hozirgi paytda ta‘lim jarayoni jamoaviy xarakterga ega, ya‘ni turli o‘quv predmetlari o‘qituvchilari o‘quvchilar jamoasi bilan xamkorlik faoliyatini amalga oshiradilar. Bundan ta‘lim ishtirokchilari orasidagi uzviy aloqadorlikni, o‘qituvchilarni o‘quvchilarga ko‘rsatadigan o‘zaro ta‘sirlaridagi muvofiqlikni ta‘minlashni tadqiq etish kelib chiqadi [1].

Innovatsion ta‘lim – ta‘lim oluvchida yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta‘limdir [2].

So‘ngi yillarda AKT yangi ta‘lim siyosati va loyihalarini ishlab chiqishda muhim ro‘l o‘ynaydi, chunki ular bilimga kirish uslubiga ta‘sir ko‘rsatdilar. Ular shaxsan yoki masofadan turib ma‘lumot olish imkoniyatini yengillashtirish imkoniyati bo‘lgan, ammo shu bilan birga ular bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu ma‘noda ta‘lim uchun Internet protokoli xizmatlari va platformalari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu o‘qitish va o‘qitish modellarini qayta ko‘rib chiqishga imkon berdi [3].

Respublikamizning pedagogik olimlari va metodistlari tomonidan ta‘limni takomillashtirish, ya‘ni sifatini yaxshilash jarayonini texnologiyalashtirish, jadallashtirish va mazmunini boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga oid nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘pgina ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda. Masalan, H.Rashidov tomonidan “O‘zbekistonda o‘rta maxsus, kasb- hunar ta‘limini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik va nazariy-metodologik asoslari” ishlab chiqilgan. N.A.Muslimov “Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish muammolari”ni tadqiq etganlar. Ushbu izlanishlar ta‘lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitish va ishlab chiqarish ta‘limini takomillashtirish masalalari bo‘yicha olib borilgan.

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch- malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo‘naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan extiyoj ishlab chiqarish korxonalarini paydo bo‘lgan, sanoat sohasini rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lsada hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangi-yangi yo‘nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo‘lishi, ular bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyati yuzaga kelishi, o‘zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarining kasbiy bilim, malaka va mahoratini izchik ravishda oshib borishiga bo‘lgan extiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mexnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo‘lgan talablarning ortishi sanaladi.

Hozirgi davr ta‘lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish –innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotla G‘arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo‘ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi. Innovatsiya (inglizcha innovation) –yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin Innovatsiya



deganda muayyan ijtimoiy birlikka -tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'ununsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Ta'lim berishda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini amalda qo'llash mexanizmini har bir ilm ma'rifat dargohida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim beruvchilar mukammal bilishlari lozim. Inkori qila olmaymizki, hozirgi kun ta'lim oluvchilari, avvalgi ta'lim oluvchilardan o'z salohiyatlari bilan tubdan farq qiladilar. Masalan, zamonaviy o'qitish texnologiyasini dars jarayonida foydalanilishi uchun o'qituvchi:

- kommunikasiya-axborotlarni qabul qilish va yetkazib berish;
- o'quvchilarni ta'lim olishga motivasiya
- qiziqtirish;
- o'qitishni vizuallashtirish
- ko'rgazmalilik tamoyili (yuqori darajada amalga oshirish) asosida boshqarish kabi mahoratlariga ega bo'lishi zarur.

Zamonaviy o'qitish texnologiya usullarini o'zida shakllantira olgan, ko'nikma hosil qilgan o'qituvchi, o'z ish faoliyatida, ya'ni dars berish jarayonida albatta, kompyuter, kodoskop, flipchart va pinbord o'quv xona taxtasi kabi texnik vositalardan foydalanish mahoratiga ega bo'ladi. Dars jarayonida ta'lim maqsadini amalga oshirish ya'ni ta'lim oluvchilarga ta'lim mazmunini yetkazib berishda motivasiya (qiziqish) uyg'otish va vizuallashtirish usullari, didaktik materiallar, texnik vositalar majmuasidan jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun iqtisodiy o'sish omillarining sifat jixatdan takomillashib borishi jarayoni xos. Fantexnika taraqqiyotining ilg'or natijalarini qo'llash, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, yuqori samarali innovatsion texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda eng muhimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bu boradagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi [4].

“Ma'lumki o'qituvchilik kasbi o'ta ma'suliyatli kasb bo'lib, turli integratsion bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Texnologiya fani o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma'lum kasb-hunarga oid ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o'qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo'lmog'i kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko'nikmalardan tashqari o'qituvchining o'z sinalgan uslubi, ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati bo'lishi lozim. Dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko'nikmalarini o'stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lishni talabalarga oliy ta'lim muassasalarida shakllantirish lozimdir [5].

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasining rivojlanishi natijasida ixtiyoriy soha pedagog-kadrlari, turli fan o'qituvchilari va talabalar tomonidan zamonaviy axborot resurslarini yaratish imkonini beruvchi ko'plab dasturiy ta'minot va onlayn xizmatlar taklif etilmoqda. Ana shunday vositalardan bittasi – Canva onlayn xizmati hisoblanadi [6].

Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish, talabalarni ijodiy va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni berish, talabalarning hamkorlikdagi loyihalarini tashkil etishda ham canvadan foydalanish mumkin. Natijada, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning faol qatnashishi ta'minlanadi, ularning fanga bo'lgan qiziqishi ortadi, shu bilan birga talabalar ham zamonaviy axborot resurslarini o'zlari mustaqil ravishda yaratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar [6].

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga nisbatan kata talab qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi

Qonunida ta’kidlanganidek, bugungi kunda jamiyatda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga bo’lgan ehtiyoj mavjud bo’lib, uni qondirish masalasitobora dolzarblik kasb etayotgan bir vaqtda kafolatlangan ta’lim xizmatlarini tashkiletish muhim ahamiyat kasb etadi. Kafolatlangan, samarali natijaga asoslangan ta’lim tizimigina malakali kadrlarni tayyorlab bera oladi. Shu sababli ayni vaqtda pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish, innovatsion xarakterdagi texnologiyalarni yaratish va ularni ta’lim amaliyotida samarali ,faol qo’llash talab etilmoqda. Pedagogik jarayonda qo’llaniladigan innovatsion texnologiyalar o’z mohiyatiga ko’ra shaxsga individual lyondashuv masalasini ilgari suradi.Shaxsning individualligiga asoslangan uning faolligini oshirish, qobiliyatlarining to’laqonli namoyon bo’lishini ta’minlash, ma’naviy-axloqiy va shaxsiy sifatlarin irivojlantirish sanaladi. Shu bilan birga innovatsion xarakterdagi texnologiyalar har bir shaxs uchun tanlash va erkin rivojlanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Innovatsion harakterga ega pedagogik texnologiyalarning amaliy didaktik va texnik imkoniyatlari haqida so’z yuritish dastlab “innovatsiya “tushunchasi mohiyatini anglab olishni taqozo etadi. Lug’aviy jihatdan “innovatsiya” (“innovation”) tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “yangilik yaratish” degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimining ichki tuzilishini o’zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Darhaqiqat, innovatsiya (yangi) lotintilida 17- asrning o’rtalarida paydo bo’lgan va ma’lum bir sohaga yangining kirishi,unga implantatsiyasi va bu sohada butun bir qator o’zgarishlarning paydo bo’lishini anglatadi. Bu shuni anglatadiki ,innovatsiya, bir tomondan, yangilik yaratish, amalga oshirish, amalga oshirish jarayoni bo’lsa,ikkinchi tomondan, uumuman ob’ekt emas, balki yangilikni ma’lum bir ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyatidir [7].

**3.Xulosa.** Xulosa o’rnida shuni aytish joizki hozirgi rivojlanib borayotgan axborot asrida har bir sohada hamda mutaxassislik fanlarida innovatsion g’oya va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanib qoldi. Elektron kutubxonalar, AKT vositalari bilan o’qitishda samari yo’llari juda ham talaygina. Innovatsion texnologiyalar asosida o’qitish, o’quvchilarga bilim berish hozirgi kunda muhim o’rin kasb etadi.

## **REFERENCES**

1. X.A.Umarov Uzluksiz ta’lim tizimini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o’rni. “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent TDPU-30.05.2023 yil
2. Z.D.Rasulov, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo’rayev, Texnologiya fanini o’qitish metodikasi’’(Buxoro-2020).
3. F.A.Umarova, X.E.Tohirova Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent TDPU-30.05.2023 yil
4. Nurmamatov, Z. MUTAXASSISLIK FANLARINI O’QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH . Физико-технологического образование 2022
5. M.A.Xolmuxammedova, D.X.Tursunov Texnologiya fanini o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o’quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni

shakllantirish Academic research in educational sciences ISSN: 2181-1385 Volume 3 Issue 3  
2022

6. Z.A.Umarova Canva onlayn xizmati – zamonaviy axborot resurslarini yaratuvchi interaktiv vosita sifatida “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent TDPU-30.05.2023 yil
7. [L.A.Xalmamatova S.O. Shatmanova Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovatsion va ilg‘or texnologiyalardan foydalanish](#) INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN CONSTRUCTION 2023/1, PART 1

## **INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TAMOYILLARI**

**Zokirova Dilnoza Nematillaevna**

Namangan muhandislik-qurilish instituti, katta o‘qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159820>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning klasterli modeliga asoslangan metodik modeli maqsadli, mazmunli, jarayonli, baholash va natija komponentlari uzviylikida integrativ-modulli o‘qitishning texnologik tuzilmasini ishlab chiqish hamda metodologik yondashuvlar va didaktik tamoyillarni shakllantirish asosida takomillashtirish tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** interativ yondashuv, kasbiy faoliyat, integratsiya, metodologik yondashuv, didaktik tamoyil, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dastur, pedagogik mahorat.

**Аннотация.** В данной статье предложена методическая модель на основе кластерной модели совершенствования подготовки студентов к профессионально-инновационной деятельности на основе интегративного подхода, разработки технологической структуры интегративно-модульного обучения в связности целенаправленного, содержательного, процесса, анализируются оценочная и результативная составляющие, а также совершенствование на основе формирования методических подходов и дидактических принципов.

**Ключевые слова:** интерактивный подход, профессиональная деятельность, интеграция, методический подход, дидактический принцип, передовые педагогические технологии, учебная программа, педагогическое мастерство.

**Abstract.** This article proposes a methodological model based on a cluster model for improving the preparation of students for professional and innovative activities on the basis of an integrative approach, the development of a technological structure of integrative-modular training in the coherence of a purposeful, meaningful process. The evaluation and effective components are analyzed, as well as improvement based on the formation methodological approaches and didactic principles.

**Keywords:** interactive approach, professional activity, integration, methodological approach, didactic principle, advanced pedagogical technologies, curriculum, pedagogical skills.

**Kirish.** Ta’lim mazmunini yangilashning asosiy birliklaridan biri intekratsiya tushunchasidir. U shaxsning integrativ xususiyatini, boshqacha aytganda, bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy sifatleri - bilimi. Ko‘nikmalari, amaliy tajribasi, qobiliyatlari, qadriyat yo‘nalishlarini ifodalaydi. Interativ yondashuv kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta’minlaydi va kuchaytiradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanish yo‘lining tanlab olinishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini

yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish [2], talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish vazifalari ilgari surilgan.

**Asosiy qism.** O‘quv fanlarini integratsiyalashning nazariy asoslari, tamoyillari, integratsiyaga bo‘lgan yondashuv, integratsiya yo‘nalishlari, integrativ dasturlar, integrativ dars, integratsiyalashgan kurs modelini yaratish kabi masalalar o‘z yechimini kutayotgan eng muhim pedagogik muammo hisoblanadi.

Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va pedagogik mahoratni takomillashtirish muammolari ustida professor N.N.Azizxodjaeva izlanishlar olib borib, o‘z tadqiqotlarida kasbiy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlashini ta’kidlab o‘tgan [3].

O‘.Q.Tolipov “Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari” mavzusida tadqiqot ishlarini olib borib, talabalarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni va uni ta’lim jarayoniga qo‘llashning muhim tomonlarini tadqiq qilgan [4].

D.O.Ximmatalievning tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va pedagogik faoliyatida texnologik yondashuvning o‘ziga xosligi yoritib berilgan [5].

D.N.Zokirovaning ilmiy tadqiqotlarida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining intellektual salohiyatini o‘stirish, izlanish, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashkilotchilik malakalarini shakllantirish kabi muammolarning yechimini topish hozirgi davrda muhim vazifalardan ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan [6].

D.N.Zokirovaning tadqiqotlaridada kasbiy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak muhandis-pedagoglarning umumkasbiy tayyorgarligini imitatsion model qurilmalari vositasida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini yaratishga harakat qilingan [7].

Kasb ta’lim o‘qituvchilarini tizimli yondashuv asosida tayyorlash muammosi D.N.Zokirovaning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan [8].

Yu.K.Babanskiy [9] majmuaviy yondashuvni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan, u topshiriqlarni majmuaviy rejalashtirish optimallashtirish usullari rolini o‘ynaydi, deb ta’kidlaydi, ta’lim mazmunini tanlashga majmuaviy yondashuv faqatgina turli faoliyat usullarni hisobga olmay, balki materiallar takrorlanishini bartaraf etishga yordam beruvchi fanlararo yo‘naltirishni ham ko‘zda tutadi.

O.U.Otamirzayev va D.N.Zokirovalar [10] bu muammoga yaqin integratsiya muammosini o‘rgandi va shunday yozadi: “majmuaviy yondashuv jihatdan tarbiyani, ko‘plab ob’ektlar singari qonuniy munosabatlar va aloqalar vositasida belgilangan tuzilma, tizim sifatida tasvirlash mumkin”. Binobarin, majmuaviy yondashuv asosida integratsiyani paydo bo‘lishi uchun yaxlitlik va birlik g‘oyalari yotadi.

Integratsiyaning nazariy, falsafiy, psixologik-pedagogik, metodik asoslari Ye.N.Kabanova-Meller, Yu.A.Samarina. S.L.Rubinshteyn, S.E.Kamenskiy, I.D.Zverev, V.N.Maksimova. G.Spenser, M.G.CHepikov, N.K.CHapaev, R.G.Safarova, R.SH.Axlidinov,

UD.Musaev, I.V.Makuxina, P.Musaev, M.G.Nishonbaeva, M.X.Lutfullaev, M.Jumaniyozova kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

Respublikamiz pedagog olimlaridan tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha B.Mirzaxmedov, E.O.Turdiqulov, M.M.Mamadazimov, Yu.G.Maxmudov, P.Musaev, M.G.Nishonbaeva, M.Jumaniyozova, kasb ta‘limi bo‘yicha A.R.Xodjaboev, U.Nishonaliev, A.I.Avazboev, O.A.Abduquddusovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘qitishni integrativ mazmundagi bilimlar doirasida tashkil etish ilmiy asoslangan. Predmetlararo integratsiya I.D.Zverev, V.N.Maksimova, M.G.CHepikov, N.K.CHapaev, B.D.Komissarovlar fanlar integratsiyasi va pedagogik integratsiyani ta‘minlashning nazariy-metodologik asoslari, mazmuni, tuzilishi haqida; B.M.Mirzaxmedov, Yu.G.Maxmudov fizika o‘qitishda texnik ta‘limni amalga oshirishda integrativ yondashishi, M.Jumaniyozova fizika va astronomiya fanlari integratsiyasi haqida; E.O.Turdiqulov, S.M.Fayzullaev, M.G.Nishonbaevalar tabiiy fanlarni integrativ mazmuniga tayanilgan holda o‘qitish orqali talabalarga ekologik ta‘lim berish (ekologik ta‘limning fizik, biologik asoslari) to‘g‘risida; A.R.Xodjaboev, U.Nishonaliev, R.CHorievlar oliy va kasb-hunar ta‘limida integratsiya muammosi haqida A.A.Abduqodirov, M.X.Lutfullaev, U.SH.Begimqulovlarning oliy ta‘limda o‘quv jarayonini axborot texnologiyalari yordamida integratsiyalash va takomillashtirish to‘g‘risida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan [11].

Integrativ yondashuv didaktik tamoyillar (ilmiylik, politexnizm, kasbiy yo‘nalganlik, muntazamlik, tizimlilik, uzviylik, tushunarlilik, ko‘rsatmalilik, tabaqalashtirish) bilan uyg‘unlik va aloqadorlikda faoliyat yuritadi.

Integrativ yondashuv ko‘p hollarda yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillarning biror ma‘nodagi bir ko‘rinishida to‘la va aniq amalga oshirishni o‘rganilayotgan ob‘ektning yaxlit tizim sifatida tasavvur qilishga imkon beradi.

O‘quv materiali mazmunini integratsiyalash didaktik jarayon sifatida ko‘p o‘lchovli, ko‘pqirrali, tizim sifatidagi o‘rganilayotgan tadqiqot ob‘ekti hisoblanadi va uni tahlil qilish tizimli - tuzilmali yondashuvni talab etadi. CHunki uning tarkibi, funktsiyasi, tuzilishi kabi xususiyatlarini o‘rganish ko‘zda tutiladi.

O‘rganish jarayonida dialektik tahlil metodini qo‘llanilishi bilimlarni sababdan oqibatga, oddiydan murakkabga, tasodifdan zarur yoki aks tomonga harakatlanishini talab etadi. SHunday qilib, bir so‘z bilai aytganda tahlilning eng yuqori nuqtasi yaxlit ob‘ekt hisoblanadi.

Sintezlash natijasida dialektik tahlilning eng yuqori darajasi vujudga keladi.

Integratsiyalash (birlashtirish, umumlashtirish, yaxlitlash) mohiyatiga ko‘ra sintezning vazifasi bo‘lib, o‘rganilayotgan ob‘ektning ichki aloqadorligi, birligi, va munosabatlari kabi tomonlari tiklanadi. SHu yo‘l bilan ob‘ektning o‘zgarishi va rivojlanishi haqida tasavvurga ega bo‘lamiz.

Integratsiyalash asosan o‘quv fanlari orasidagi nazariy sintez vositasi sifatida va fanlararo sintez sifatida namoyon bo‘ladi hamda bevosita umumilmiy bilimlarni tarkib topdirishni ko‘zda tutadi.

Integrativ jarayonlar uzluksiz ta‘lim jarayonida bir nechta vazifa, yo‘nalish, intilish, turli daraja va aniq shakllarning qandaydir o‘zaro bir-biriga tobe bo‘lgan modelini hisobga oladi.

O‘quv fanlarining mantiqiga muvofiq integratsiya quyidagilar asosida namoyon bo‘ladi:

- mavjud fanlarning ob‘ektlari orqali;
- mavjud fanlarning ob‘ektlari mohiyatini izohlovchi qoida qonuniyat hamda nazariyalar orqali;



- tadqiqot uslublari va amaliy faoliyat orqali;
- o‘lchov-hisob tarzidagi aloqalar yordamida;
- ishlab-chiqarish jarayonlari haqidagi ilmiy bilimlar orqali;
- ta’lim va tarbiya vositasi bo‘lgan zamonaviy integrallashgan pedagogik texnologiyalar orqali.

Buning uchun, o‘qituvchi integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirishda, birinchi navbatda:

- o‘rganilayotgan jarayon va hodisalar mohiyatini tahlil qilishga umumiy yondashuvni aks ettiradigan maqsadni aniqlab oladi;
- fanlararo aloqalardan foydalanishni yetarli darajada o‘rganishi va amalda qo‘llay olishi;
- o‘qitishni tabaqalashtirish asosida, ularni integratsiyalash uchun predmetlar doirasida o‘rganiladigan o‘quv materiallarining umumiy o‘zaro aloqadorlik jixatlarini bilishi;
- fanlarni integratsiyalash uchun qo‘yiladigan asosiy g‘oyani aniqlash mahoratiga ega bo‘lishi kerak.

A.L.CHEKIN “Oliy ta’lim: integrativ yondashuv” nomli monografiyasida ta’lim jarayonida integratsiyaning asosiy jihatlari e’tibor qaratildi, integrativ komponentlarni ajratdi va tahlil qildi, “mutanosib jarayon samaradorligining katalizatori sifatida” ularni amalga oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi [12].

O‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish sohasida tajribali olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda pedagogik mahoratni rivojlantirish haqida turli mulohazalar bildirilib, bu jarayonning asosiy zahirasi o‘qituvchining ta’lim muassasalarida o‘z pedagogik faoliyati tahliliga doimiy intilishida (V.I.Zagvyazinskiy, Yu.K.Konarjevskiy, Yu.P.Lvova, I.P. Rachenko, L.I.Ruvinskiy, V.P.Simonov, V.A.Suxomlinskiy, Ya.S.Turbovskiy, T.I.Shamova va boshqalar); uning o‘z refleksiv qobiliyatlarini takomillashtirishi (A.A.Bizyaeva, V.V.Vetrova, N.V.Kuzmina, Ye.N.Pexota, I.A.Stetsenko va boshqalar); refleksiv yondashuvni (A.V.Xristeva) rivojlantirishning o‘ziga xos pedagogik refleksiyasiga bog‘liq bo‘lganligi uchun uni pedagogik fikrlashni shakllantirish bilan bog‘lab, shu tariqa (Yu.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya) o‘qituvchi pedagogik refleksiyasini rivojlantirish mumkin deb ta’kidlaydilar.

Kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil qilish va o‘z-o‘zini tahlil qilishni o‘qituvchi faoliyati va refleksiv yondashuv nuqtai nazaridan tuzatish va takomillashtirish maqsadida pedagogik vazifalarni hal qilishga qaratilgan pedagogik malakalar yig‘indisi sifatida qarab, A.V.Xristeva analitik malakalar tizimini analitik faoliyat tizimi bilan nisbatlaydi [13].

A.V.Xristeva ta’limoti bo‘yicha kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishning bosqichlari:

1. Mazmunli – diagnostik (tayyorlov - moslashuv) bosqich;
2. Maqsadli loyihalashtirish (tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishdan maqsadni aniqlashtirish) bosqichi;
3. Texnologik (kasbiy pedagogik faoliyatjarayonini va o‘z-o‘zini tahlil qilish) bosqich;
4. Tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishning nazariy (pedagogik faoliyatning mohiyati, natijalari bilan pedagogik faoliyatjarayoni o‘rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini nazariy anglash) bosqichi;
5. Faoliyatni refleksiv baholash (faoliyatni baholash va refleksiv tahlil) bosqichi;

6. Korrektsiyalash (ijodiy bosqich bo‘lib, o‘z pedagogik faoliyatini nazariy jihatdan anglash va baholash asosida takomillashtirish va hamkasblarining samarali pedagogik tajribalaridan ijodiyfoydalanish yo‘llari va usullarini belgilash) bosqichi.

Bugungi innovatsion pedagogik faoliyat tanlash va tadqiqotchilik tavsifiga ega ekanligi bilan ham e‘tiborga loyiqdir. SHuning uchun ham pedagogik jamoalar rahbarlari, ilmiy tadqiqot institutlarining metodik xizmatchilari faoliyatining muhim yo‘nalishi o‘qituvchilar tomonidan yaratilayotgan innovatsiyalarning tahlili va baholanishi, ularning samaradorlarini yaratish va qo‘llash uchun zaruriy sharoitlarni yaratishdan iborat.

Talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolarini tahlil qilish, shuningdek, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetentlikning alohida komponentlarini (va keyinchalik baholash mezonlarini) aniqlash "kompetentlik" tushunchasining mohiyatini hal qilishni talab qildi. "Kompetentlik" atamasi lotincha "competens" so‘zidan olingan bo‘lib, qobiliyatli degan ma‘noni anglatadi: 1) kompetentsiyalarga ega; 2) ma‘lum bir sohada bilimdon. SHu bilan birga "kompetentlik" tushunchasi "kompetentsiya" tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot muammosi bo‘yicha zamonaviy ma‘lumotnoma va ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bizga bir qarashda turli xil va bir xil ma‘noda ishlatiladigan "kompetentlik" va "kompetentsiya" kabi o‘xshash ikkita chalkashlikni aniqlashga imkon berdi.

D.I.Ushakov kompetentlik va kompetentsiyalar farqini ko‘rsatishga harakat qildi: kompetentlik — xabardorlik, avtoritetlik; kompetentsiya - shaxsning bilimi, tajribasi" [14]. Britannika entsiklopediyasida "kompetentsiya" atamasi inson egallagan bilim va ko‘nikmalar sifatida talqin etiladi [15].

O.M.Mutovkinaga ko‘ra "vakolat"-bu "kompetentsiya" "kompetentlik"dan olingan ikkilamchi tushunchadir va insonning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini qo‘llash doirasini bildiradi, "kompetentlik" esa ularning ichki umumiyligini aks ettiradi.

O‘z yondashuvimizni asoslash uchun biz I.A.Zimnaya, A.V.Xutorskiy va boshqalarning asarlariga murojaat qiladigan bo‘lsak, xususan, I.A.Zimnaya kompetentsiyalarni quyidagicha belgilaydi: "ichki salohiyat, yashirin psixologik hosilalar: bilim, g‘oyalar, harakatlar, munosabatlar yig‘indisi" [16, 35-b]. A.V.Xutorskiy kompetentsiyalarni ta‘limga tayyorgarlik, mahorat, shaxsiy sifatlar yig‘indisi deb ta‘kidlaydi [17, 11-b].

E.S.Zair-Bekka ko‘ra [14]:

1. Pedagogning *maqsadli kompetentsiyasi* eng turli xil maqsadlarni qo‘yish qobiliyatini ko‘zda tutadi. Kasbiy o‘qitish maqsadi yoshlarda texnologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan, ta‘lim jarayoni mazmunini aniqlaydi, shakllangan bilim va qobiliyatlarni baholash mezonini bo‘lib xizmat qiladi.

2. *Mazmuniy kompetentsiya* kasbiy o‘qitish bosqichlaridan har birida ta‘lim, tarbiya va rivojlanish mazmuni maqsadlariga ko‘ra aniqlash qobiliyatidan iborat. Ta‘lim mazmuni muhimi Davlat ta‘lim standarti hisoblangan me‘yoriy hujjatlar bilan aniqlanadi.

3. Pedagogning *monitoringli kompetentsiyasi* qayta bog‘liqlik (nazorat muammosi) va real olingan natijalarni rejalashtirilganlar bilan qiyoslash, ya‘ni ta‘lim sifatini ta‘minlashni qo‘llab quvvatlashda pedagog qobiliyatini tavsiflaydi.

4. *Kommunikativ kompetentsiya* pedagog kommunikativ faoliyati xususiyatlari, bo‘lajak kasb ta‘limi pedagoglari bilan o‘zarota‘siri o‘ziga xosligini tavsiflaydi. Urg‘u didaktik (tarbiyaviy va ta‘limiy) maqsadlarga erishishga qaratilgan pedagogik faoliyat samaradorligi bilan

kommunikatsiya aloqasiga beriladi. Kommunikativ kompetentsiya yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullarni o‘z ichiga oladi.

5. *Ijtimoiy kompetentsiya* metodik tayyorgarlik darajasini oshirish ijtimoiy ahamiyatini anglash, taklif qilingan yangi metodik yondashishlar va ularning qo‘llanilishiga javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyati ko‘rsatkichi, shaxsiy qiziqishlarning aniq bo‘lajak kasb ta’limi, ta’lim muassasasi, jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liqligining namoyon bo‘lishi hisoblanadi.

Ko‘pgina olimlarning fikriga ko‘ra, [K.V.Aksenov, Ye.A.Budarin, A.V.Gladkov, M.V.Kirgintsev, V.S.Nabiev, A.N.Protasov va boshqalar] talabalarning kasbiy kompetentsiyalari integral va analitik qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan bo‘lishi kerak. SHu munosabat bilan tadqiqotimizning maqsadlaridan biri talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish, ularning bo‘lajak kasbiy faoliyatda o‘zgarishi mumkinligini hisobga olish edi.

Kompetentli yondashuv tadqiqotchilari [18] kompetentlikni shakllantirishning asosiy sharti sifatida talabalarning muayyan yo‘nalishga ega bo‘lgan kognitiv faoliyatini belgilaydi. Kognitiv faoliyati ma’lumot to‘plash, intellektual rivojlanishga yo‘naltirilgan va kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishga yordam beradigan bilish usullarini egallashga imkon beradi. SHunday qilib, kompetentlik tushunchasi nafaqat bo‘lajak muhandislarning kognitiv va operatsion-texnologik komponentlari, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va xulq-atvor komponentlarini ham birlashtiradi. Bundan tashqari, shakllangan kompetentsiyalarni asoslashni va kasbiy kompetentlikni talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ta’lim mazmuni bilan bog‘ladik, chunki kompetentsiyalar o‘quv jarayonida olinadi.

Kompetentli yondashuvdan foydalanish yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik asosiy texnik va texnologik ta’limga, har qanday faoliyat turiga hissiy va qadriyatli munosabatga, kasbiy-innovatsion faoliyatga ega bo‘lishiga asoslanadi.

SHunday qilib, kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan metodik modelini ishlab chiqish zarurati talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlash bo‘yicha mavjud amaliyotni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligini aniqlash vazifasini qo‘ydi.

Yuqorida keltirilgan pedagogik qadriyatlar ijtimoiy va kasbiy komponentlarni o‘z ichiga oladigan, predmetli mazmuniga ko‘ra farq qiluvchi shaxsiy va vositali ko‘rinishlarga ajraladi. SHaxsiy qadriyatlar – bu pedagog mehnatining ijodiy tavsifini, nufuzlilik, ijtimoiy ahamiyatlilik, davlat oldidagi mas’uliyat, o‘z-o‘zini namoyon qilish imkoniyati, bolalarga mehr va g‘amxo‘rlikni o‘z ichiga oluvchi maqsadli qadriyatlardir. Bu turga xos qadriyatlar o‘qituvchi, ta’lim oluvchilarning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Maqsadli qadriyatlar boshqa pedagogik qadriyatlar tizimida hal qiluvchi aksiologik funktsiyalar sifatida namoyon bo‘ladi, chunki uning maqsadida o‘qituvchi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish uchun ishlab chiqiladigan modelda ishlash tamoyillari aniqlandi. Umumiy tamoyillarga talabalarning kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga qo‘yiladigan ob‘ektiv talablarni aks ettiradiganlar kiradi: *tizimlashtirish*, *ierarxiy*, *rivojlanish*. *Tizimlashtirish tamoyili* modelning barcha komponentlarining o‘zaro bog‘liqliklari birligida ko‘rib chiqishga imkon beradi. *Ierarxiya tamoyili* quyi darajadagi elementlarning yuqori darajadagi elementlarga bo‘ysunishiga asoslangan model elementlarini tashkil qilishni ta’minlaydi. *Rivojlanish tamoyili* o‘quvchi shaxsi xususiyatlarining sifat jihatdan o‘zgarishini nazarda tutadi.

**Xulosa.** Umuman olganda kasbiy-innovatsion faoliyatni samaradorligiga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bular, o‘qitilayotgan fan bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘zlashtirish; mustaqil faoliyat davomida talaba qaysi muammolarni o‘rganishi kerakligi aniq ko‘rsatilishi; tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati; talaba tomonidan muammoni qaysi metodlar bilan o‘rganishga oid tavsiyalar; baholash turi va mezonlari aniq ko‘rsatilishi kerak. Erishilgan natijalar (tamoyillar) talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratadi degan mulohazadamiz.

## REFERENCES

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi” 8.10.2019 yil, PF-5847.
2. Зокирова Д.Н. Интеграция yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodik modeli. //Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2-son, 2023-yil
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. –Т.: Молия, 2003. – 192 б.
4. Толипов Ў.Қ. Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. Т.:”Фан” 2006 йил 76 бет.
5. Химматалиев Д.О. Бўлажак ўқитувчиларда касбий компетентликни ривожлантириш механизми // Современное образование (Узбекистан). 2020. №7 (92).
6. Зокирова, Д. Н. (2021). Integration Of Professional And Educational Disciplines Into Training Of Self-Learning Motivated Students. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 24-28.
7. Zokirova, D. N. (2021). Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 179-182.
8. Nematillaevna, Z. D. (2021). Problems in providing independent learning education and ways to prevent them. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 1431-1436.
9. Бабанский Ю.К. Педагогический эксперимент// Введение в научное исследование по педагогике: Сб. науч.тр./ Под ред. В.И. Журавлева.-М.: Просвещение, 1998.
10. Usubovich, O. O., & Ne'matillaevna, Z. D. (2022). Methodology of using connecting elements of science in the organization of independent work of the science of hydroelectric power stations.
11. Абдураимов Ш.С. Касб таълими уқитувчиларини тайёрлаш сифатини таъминлашда тармоқлараро амалий интеграция. Монография. -Тошкент, 2014. - 144 б.
12. Аликулов С.Т.Ўқувчиларнинг умумтехник билим ва кўникмаларини фанлараро алоқадорлик воситасида шакллантиришнинг услубий асослари (умумпрофессионал фанларни ўқитиш мисолида) Пед.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2008. – 146 б.
13. Ҳамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси. Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc)диссертацияси автореферати. –Т. 2017.
14. Зеер Э. Ф. Психология профессий : учеб. пособие для студентов вузов / Э. Ф. Зеер. - М. : Акад. проект ; Фонд «Мир», 2005. - 336 с.

15. Зокирова, Д. Н. (2021). Талабаларга Мустақил Ўрганишга Ундовчи Таълим Беришда Касбий Ва Умумтаълим Фанларининг Интеграцияси. *Современное образование (Узбекистан)*, (6 (103)), 24-28.
16. [Лернер, И.Я.](#) Дидактические основы методов обучения : монография / [И.Я. Лернер](#). – Москва : Педагогика, 1981. – 186 с.
17. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения /А.В. Хуторской. - М.: Изд-во МГУ, 2003. - 416 с.
18. Sayfullayeva, D. A., Tosheva, N. M., Nematova, L. H., Zokirova, D. N., & Inoyatov, I. S. (2021). Methodology of using innovative technologies in technical institutions. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7505-7522.



## PRAGMA-STYLISTIC FEATURES OF TIME PERCEPTION IN THE FRAMEWORK OF LITERARY TEXT

**Boltakulova Gulnoza Farruxovna**

Head of the Department at SamSIFL, Samarkand city, Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159847>

**Abstract.** *The focus of the research article is on the principles of pragma-stylistic language elements and how crucial they are for expressing time in literary texts. Writing fascinating and engrossing stories requires the ability to express time in literary texts through these pragma-stylistic elements. These elements can provide the reader a stronger feeling of time and a more intense sensory experience. Effective use of the pragma-stylistic features allows authors to create truly captivating stories that keep readers hooked from beginning to end. This article therefore will explore each of these features and discuss their role in expressing time in literary text.*

**Keywords:** *pragma-stylistic features, literary texts, significance, elements, time, mood: pleasant or negative, voice: first-person and third-person, temporal adverbs, tense: present, past, future, aspects: length, conclusion, continuance.*

**Аннотация.** *В центре внимания исследовательской статьи находятся принципы прагмо-стилистических языковых элементов и то, насколько они важны для выражения времени в художественных текстах. Написание увлекательных и увлекательных рассказов требует умения выражать время в художественных текстах с помощью этих прагмо-стилистических элементов. Эти элементы могут дать читателю более сильное ощущение времени и более интенсивный сенсорный опыт. Эффективное использование прагмо-стилистических особенностей позволяет авторам создавать по-настоящему увлекательные истории, которые держат читателей на крючке от начала и до конца. Поэтому в этой статье мы рассмотрим каждую из этих особенностей и обсудим их роль в выражении времени в художественном тексте.*

**Ключевые слова:** *прагмо-стилистические элементы, художественные тексты, значение, элементы, время, настроение: положительное или отрицательное, залог: первого и третьего лица, временные наречия, время: настоящее, прошедшее, будущее, аспекты: объем, заключение, продолжение.*

**Annotatsiya.** *Tadqiqot maqolasida asosiy e'tibor tilning pragma-stilistik elementlari tamoyillari va ularning badiiy matnlarda vaqtni ifodalashda qanchalik muhim ekanligiga qaratilgan. Qiziqarli va jozibali hikoyalar yozish uchun badiiy matnlarda vaqtni ushbu pragma-stilistik elementlar orqali ifodalash qobiliyati talab etiladi. Ushbu elementlar o'quvchiga kuchliroq vaqt hissi va kuchliroq hissiy tajribani taqdim etishi mumkin. Pragma-stilistik xususiyatlardan samarali foydalanish mualliflarga o'quvchilarni boshidan oxirigacha qiziqtiradigan haqiqatan ham jozibali hikoyalar yaratishga imkon beradi. Shuning uchun ushbu maqola ushbu xususiyatlarning har birini o'rganadi va ularning badiiy matnda vaqtni ifodalashdagi rolini muhokama qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *pragma-stilistik xususiyatlar, badiiy matnlar, ahamiyat, elementlar, vaqt, kayfiyat: yoqimli yoki inkor, ovoz: birinchi va uchinchi shaxs, zamon qo'shimchalari, zamon: hozirgi, o'tmish, kelajak, aspektlar: hajm, xulosa, davom.*

### Introduction



Literary texts are genuine works of art that are expertly crafted by writers. The way literary works represent time is just one of the numerous factors that make them exquisite. Time can be a tricky thing to convey and is a significant factor in shaping the meaning, the plot and character development of literary texts. Pragmo-stylistic features of language are the elements in writing that contribute to the style and meaning of the text. One of the important aspects of pragmo-stylistic features is the expression of time in literary text. Different writers use different techniques to express time in their writing, and this helps to create different literary styles that readers can appreciate and engage with [1, p. 2-3]. Pragmo-stylistics is also a linguistic approach that examines how language is used in different contexts to achieve specific purposes. It examines the relationship between language and society, and how language is used to convey social identity, social distance, and social power. In literary texts, pragmo-stylistics can be used to examine how authors use language to create specific effects and convey particular meanings [1, p. 4-5].

In this article, we will explore the ways in which time is expressed in literary texts through the use of pragmo-stylistic features of language, examining their origins and meanings and the contexts in which they are commonly used.

### **Materials**

It is clear that academicians have not given much consideration to the ways in which pragmo-stylistic elements have been used in literary texts that represent time. Nevertheless, a few studies have been written concerning them. For example, in “The Use of Tense and Aspect in English Fiction” by Louise Sylvester: She analyzes the pragmatic and aesthetic roles of tense and aspect in English fiction. As it may be utilised to represent the chronological framework of a narrative and influence the reader's interpretation of events, she contends that the choice of tense and aspect is a crucial component of literary style. Marcin Grygiel’s “The Pragmatic Use of Tense in Narrative Fiction” also explores the practical and aesthetic functions of tension in narrative storytelling. He demonstrates how authors may employ multiple tenses to emphasise the present or past nature of events, construct narrative distance or immediacy, and stress the agency of various characters, among other narrative consequences. Also, “The Pragmatics of Literary Tense” by Richard Walsh: he explores the pragmatic uses of tense in literary texts, making the case that it may be used to construct various degrees of narrative immediacy and distance, as well as various methods of delivering information and narrational styles. [2, p. 24]. It could be stated that the pragmo-stylistic principles and their function in representing time in literary works are covered in all of these topics.

### **Methods**

In this study, the data is organized under pragmatic stylistic features as suggested by Alina Villalva and Richard Walsh in their “Toward a Pragma-Stylistic Analysis of Temporal Expressions in English Fiction” and “The Pragmatics of Literary Tense” respectively. Sarwet Rasul’s conceptions in her ‘Pragmo-Stylistic features as an interpretative tool’ were also used to organize the data [1, p. 1-15]. So, it is crucial to communicate time in literary texts since the current study analyses pragmatic elements in a descriptive and interpretive manner. It bases its rules on the presumption that the writers' primary means of expressing time is through the use of pragmo-stylistic components.

### **Results**

To start with, the analysis showed that the pragmo-stylistic features are the main source of ideal in expressing time in literary texts. Despite the fact that academics 'Louise Sylvester', 'Marcin

Grygiel', and 'Richard Walsh' have studied this topic extensively, the unambiguous representations of pragmo-stylistic aspects with instances and data were not covered. Because of this, the next chapter will go in details on the key concepts related to these elements.

### **Discussion**

The significance of representing time in literary works cannot be overstated, it must be said. The advancement of a story's storyline depends heavily on time. Time is a tool that writers use to build tension, surprise, and mystery into their stories. Writers can achieve the tone they want for their work by adjusting the order and length of occurrences [3, p. 5-6]. The representation of time in literary works may also aid in the growth and perspective-shaping of characters. Through the representation of a character's experiences and interactions with other characters across time, a writer can use time to demonstrate character development, maturation, or deterioration. For instance, because to their experiences through time, a character who begins as a shy and self-conscious individual may change into a more confident and aggressive person by the story's conclusion [4, p. 3]. Furthermore, the writer can more effectively convey their desired topic by using pragmo-stylistic qualities to describe time. A writer may make their text have several meanings and interpretations by employing the proper tools. The sense of transience, permanence, or even the cyclical nature of existence may all be expressed via the manifestation of time. Writers may depict the passage of time and how it affects people, places, and events via their writing [5, p. 6]. The way time is expressed in literary works may also add a feeling of reality and authenticity to the narrative. Writers may convey the scene vividly and convincingly by employing specific details, and they can aid the reader in fully engrossing themselves in the narrative by appropriately portraying time. For instance, it is crucial to appropriately portray time while writing historical fiction since it increases the story's authenticity [6, p. 2-6].

When it comes to writing fiction, poetry, or any other form of literature, time is a crucial component that helps to convey a tale and keep the reader engaged. Time may be expressed in literary texts in a variety of ways employing a variety of pragmo-stylistic language qualities. Tense, aspect, mood, voice, and temporal adverbs are some of these characteristics. Each of these elements will be examined in this paragraph along with how they are used to portray time in literary works.

The time when an action or occurrence takes place is referred to as the tense. In literary texts, tense is used to provide a feeling of time and highlight how the many plot points are connected. The past, present, and future are the three primary tenses. Different tenses can be used in literary texts to denote temporal changes, flashbacks, or foreshadowing. For instance, a writer may use the present tense to describe a current situation and create tension while using the past tense to describe events that happened in the distant past [7, p. 4]. Another linguistic device used to illustrate the interrelationships between the events in a tale is the aspect. The length, conclusion, or continuance of an activity are all considered aspects. Simple, progressive, perfect, and perfect progressive are the four categories. They may, for instance, use the ideal aspect to demonstrate how a previous occurrence is essential to the present circumstance or the progressive aspect to denote a drawn-out action that is developing tension [8, p. 6-9]. The attitude or feeling that a writer expresses via their writing is referred to as mood. In addition to indicating a sense of time, such as nostalgia or anticipation, mood can be either pleasant or negative. Readers may feel different emotions depending on the atmosphere, such as suspense, dread, or delight [9, p. 5]. Also, the

point of view from which a tale is conveyed is referred to as voice. The two primary voice tenses are first-person and third-person.

[10, p. 4-9]. And finally, in literary text, writers may use temporal adverbs to indicate a shift in time, to create suspense and anticipation, or to create a sense of nostalgia or regret. The words that denote time are called temporal adverbs. They are helpful in literary texts because they provide the reader a feeling of time and contribute to a richer sensory experience. Temporal adverbs comprise the words "yesterday," "tomorrow," "now," and "later." [11, p. 8].

### **Conclusion**

In conclusion, it is evident that pragmo-stylistic language qualities are crucial for accurately representing time in literary texts. Time is a key component of literature and plays a critical role in the development of characters, the storyline, and the meaning of literary works. In order to develop diverse literary styles that readers can understand and connect with, writers employ a variety of time-expression approaches in their work. Writers may convey their desired subject clearly and engender a feeling of reality in their work by appropriately conveying time. In the end, the way time is expressed in literary works gives the narrative more depth and significance while also improving the reader's reading experience. Time may be portrayed in literary texts using a variety of pragmo-stylistic linguistic elements. Tense, aspect, mood, voice, and the usage of adverbs and verb tenses are some of these aspects.

### **REFERENCES**

1. Sarvet Rasul (2021)., “Pragmo-Stylistic Features as an Interpretative Tool”.
2. Nielsen, H. (2015). Pragmo-Stylistic features. Available from [https://www.researchgate.net/publication/279038549\\_Ten\\_Theses\\_about\\_Fictionality](https://www.researchgate.net/publication/279038549_Ten_Theses_about_Fictionality).
3. *Pragmo-Stylistics Devices and Performative Study of Selected Oral Text*. (no date).
4. Time in Literature – Exactly What Is Time? (no date). Available from <https://www.exactlywhatistime.com/other-aspects-of-time/time-in-literature/>.
5. Awad , R. (2021). Pragmo- Stylistics. Available from [https://www.researchgate.net/publication/351780019\\_Pragma- Stylistics](https://www.researchgate.net/publication/351780019_Pragma- Stylistics).
6. Hickey, L. (1993). Stylistics, Pragmatics and Pragmastylistics. *Revue belge de philologie et d'histoire*, 71 (3), 573–586.
7. Helena High Honors English Guide / Verb Tense for Literature Analysis Essays. (no date). *hhswritingguide.pbworks.com*.
8. Literary Elements Of A Story: The Complete Guide. (no date). *www.linkedin.com*. Available from <https://www.linkedin.com/pulse/literary-elements-story-complete-guide-leaderspress>.
9. (2023). *Twinkl.com*. Available from <https://www.twinkl.com/teaching-wiki/mood-in-literature>.
10. SuperSummary. (no date). *SuperSummary*. Available from <https://www.supersummary.com/voice/>.
11. Smith, C.S. (1978). The Syntax and Interpretation of Temporal Expressions in English. *Linguistics and Philosophy*, 2 (1), 43–99. Available from <https://www.jstor.org/stable/25000977> [Accessed 29 June 2023].

## **TA’LIMNING MASOFAVIY SHAKLIDA INTERNET TEXNOLOGIYALARINING O’RNI**

**Sharopova Nigora Amonovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159854>

***Annotatsiya.** Masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida o’qitish ko’pincha o’qituvchi va talaba o’rtasida to’g’ridan-to’g’ri (real) aloqalarsiz ta’lim jarayonini ta’minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanganda "masofaviy ta’lim" sifatida qabul qilinadigan masofaviy ta’lim deb ataladi.*

***Kalit so’zlar:** masofaviy ta’lim texnologiyasi, o’qitish metodikasi, ta’lim tizimi, ta’lim sifati, internet tezligi, autentifikatsiya.*

***Аннотация.** Обучение на основе дистанционных образовательных технологий часто называют дистанционным обучением, которое воспринимается как "дистанционное обучение" при использовании современных средств информационных технологий, обеспечивающих учебный процесс без прямых (реальных) связей между учителем и учеником.*

***Ключевые слова:** технология дистанционного обучения, методика преподавания, система обучения, образовательная поездка, скорость интернета, аутентификация.*

***Abstract.** Learning based on distance learning technologies is often called distance learning, which is perceived as "distance learning" when using modern information technology tools that provide the learning process without direct (real) connections between teacher and student.*

***Keywords:** distance learning technology, teaching methods, learning system, educational trip, Internet speed, authentication.*

**Kirish.** Ma’lumki, masofaviy ta’lim texnologiyalari o’quv jarayoni samaradorligini oshirishning yangi istiqbollarini ochadi, bu esa asosan talabalarning o’quv materiallari bilan bevosita o’ziga mos keladigan rejim va hajmda ishlash imkoniyatiga ega ekanligiga asoslanadi. Bir tomondan, an’anaviy yuzma-yuz o’qitishni to’liq shaxsiylashtirish mumkin emas, talabaning imkoniyatlari (iqtidori, sog’lig’i va boshqalar) darajasiga qarab, u muayyan faoliyat turlarini o’zlashtira oladi va bajara oladi, ijodiy darajaga yetadi, motivatsiyaning yuqori darajasini ko’rsatadi.

Boshqa tomondan, o’qituvchilar kunduzgi ta’lim jarayonida o’zlarining kasbiy resurslaridan to’liq foydalanishdan uzoqda (ularning muhim ta’lim salohiyati ko’pincha auditoriya chegarasi, ajratilgan vaqt va boshqalar bilan cheklanadi), ular buni qilmaydilar. Talabalarning ushbu guruh talabalari tomonidan kursning muayyan bo’limlarini o’zlashtirish muvaffaqiyati to’g’risida har kuni ishonchli fikr-mulohazalarga ega bo’lish ko’pincha faqat nazorat tadbirlarida o’rganiladi.

Yuqori sifatdagi va yuqori texnologik axborot-o’qitish muhitini yaratish, asosan, ta’lim tizimining texnologik bazasini tubdan modernizatsiyalash, jamiyat talablariga javob beradigan ochiq ta’lim tizimiga o’tish imkoniyatini yaratadigan yetarlicha murakkab bo’lgan texnik masala sifatida ko’riladi. Shu bilan birga, axborot ta’lim muhitini yaratish faqat texnik masala emasligini inkor etib bo’lmaydi. Uni yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish uchun barcha ta’lim tizimining ilmiy-uslubiy, tashkiliy va pedagogik potensialini to’liq ishga solish kerak bo’ladi. Shu

munosabatda, zamonaviy axborot-ta’lim muhiti ishlatilayotgan sharoitda pedagogika munosabatlarini ham hisobga olmoq lozim.

**Asosiy qism.** Zamonaviy axborot jamiyatida ta’lim sifati, intensivligi va foydalanish imkoniyati muammosi juda keskin. Hozirgi rivojlanish sur’ati shundayki, bilim juda tez eskiradi va yangi bilimlarga bo’lgan ehtiyoj juda katta. Agar ilgari o’quv dasturlari o’nlab yillar davomida o’zgarmagan bo’lsa, endi ular deyarli har yili qayta ko’rib chiqiladi. Masofaviy o’qitish yoki bolalar uchun o’quv teledasturlarini yaratish bo’ladimi, bitta imkoniyatni qo’ldan boy bermasdan, o’quv jarayonlarini imkon qadar faollashtirish zarur.

Axborot-ta’lim muhiti ta’riflari to’plamining tahlilidan shu xulosaga kelish mumkinki, bu axborot, texnik, o’quv-uslubiy podsystemalar jamlanmasi bo’lib, o’quv jarayoni va uning qatnashchilarini ta’minlashga maqsadli qaratilgandir.

**Axborot ta’lim muhiti** - pedagogik tizim va uning ta’limotidan iboratdir, ya’ni, moddiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, me’yoriy-xuquqiy, boshqaruv va marketing tizim ostilaridir. Nazariy jihatdan butun Axborot o’quv markazi (AO’M) ning negizi aynan pedagogik tizimdan iboratdir. AO’M deb ataluvchi yangi tuzilmadagi pedagogik jarayonlarni tadqiq etuvchi pedagogika fanining yangi yo’nalishi haqida gapirish mumkin. Shunday yangi yo’nalishni biz, shartli ravishda “Elektron pedagogika” deb ataymiz.

O’qitish metodikasiga muvofiq har bir o’quv guruhi uchun o’quvchilarning jamoa vositasi kabi elektron auditoriyasi yoki forumlari yaratilishi (ochilishi) mumkin. Bunda o’quv yurtining virtual vakilligi (VV) o’quv jarayonini olib borish uchun zarur bo’lgan o’quv va ma’muriy resurslarni shakllantiradi, ushbu resurslar u yoki boshqa fan bo’yicha o’qitish jarayonida qo’llaniladigan ishlab chiqarish moduli deb nomlanadi va zaruriyatga qarab yaratiladi. Bunday modullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ayrim fanlar bo’yicha o’quv guruhining ChAT (on-line auditoriyalar - seminarian maslahatlar);
- fanlar bo’yicha telekonferensiyalar (forumlar) (on-line auditoriyalar - seminarian maslahatlar);
- e’lonlar taxtasi;
- yakka tartibda (ta’riflanadigan) maslahatlar tizimi.

O’quv muassasaning VVdagi bunday modullar soni o’qituvchilar ehtiyojlari va ular tomonidan amalga oshiriladigan o’qitish metodikasi bilan belgilanishini ta’kidlab o’tish kerak.

Shunday qilib, axborot-ta’lim muhiti pedagogik tizim kabi quyidagi funksiyalar yuklanadigan o’qituvchining yangi rolini belgilaydi:

- bilish jarayonini muvofiqlashtirish;
- o’qitiladigan fanni to’g’irlash;
- yakka tartibda o’qitish rejasini tuzishda maslahat berish;
- o’quv rejasi, o’quv loyihalariga rioya qilish.

O’qituvchi-konsultant (yoki tyutor) o’z bilimlarini namoyish qilish, texnologik, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarni olish, maksimal pedagogik natijalarni olishi kerak.

Zamonaviy jamiyatda Internet orqali masofaviy ta’limning rivojlanishiga quyidagi ikki sababni ko’rsatish mumkin:

1. Yosh avlodlarning ta’lim potensialiga bo’lgan talabning ortishi, axborot



texnologiyalarini o‘zlashtirish, jamiyatdagi bilimlarni tezkor almashinuvi, insonni butun umri davomida o‘qishi kerakligi, uzluksiz ta’limni zaruriylashishi.

2. Internet tarmog‘ining va kompyuter texnologiyalarining rivoji, ishlarni kompyuter va kompyuter dasturlari orqali bajarilishi soddalashishi.

Internetning o‘qituvchi uchun qulay bo‘lgan omillari qaysilar ?

Bu omillarini asosiyalarini sanab o‘tamiz:

• Tijorat hamda notijorat tashkilotlarining Internet tarmog‘idagi masofaviy ta’limini o‘zlashtirishi jarayonida o‘z malakasini oshirish.

• Mustaqil ravishda tarmoqdagi axborotlar orqali o‘z malakasini oshirish.

• Dars o‘tish uchun Internet tarmog‘idan materiallar qidirish.

• Hokimiyat serveridan normativ hujjatlar qabul qilish.

• Yangi pedagogik texnologiyalarga oid axborotlar olish.

• Talabnomalar jo‘natish, konferensiya, tanlov va grantlar, hisobot va konferensiyalarga chiqish haqidagi axborotlarni olish.

• Dasturiy ta’minot olish.

• O‘z ishlarini chop qilish va o‘z ishlari to‘g‘risida ma’lumotlar yuborish.

• Hamkasb va do‘stlar bilan xat yozishmalar. Fikrdoshlar va hamkasblarni boshqa shaharlar va davlatlardan qidirish.

• Internet magazinlarida savdo qilish.

• Ish qidirish.

Internet texnologiyalarini ta’lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o‘tish mumkin:

• bu fanlarni o‘zlashtirilishni yaxshilanishi;

• kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar,

• o‘rganishga bo‘lgan munosabatni yaxshilanishi;

• mustaqil ta’lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;

• amaliy malaka samaradorligini oshishi.

Vaqt o‘tishi bilan Internetda eng muhim fanlarning eng yaxshi ma’ruzalari chop qilinishi kutilmoqda. O‘qituvchilar bu ma’lumotlardan o‘z darslariga asos sifatida foydalanishlari mumkin. Ma’lumotlar jo‘natishda tezlikning ortishi bugungi matn ko‘rinishidagi Internetni multimediyali interaktiv telekanalga aylanishi bashorat qilinmoqda. Bugungi kunda Internetdan ajralishlik mukammal bo‘lgan ta’limdan mahrum bo‘lishlikdir.

Yangi metodlar va texnologiyalar bilan birga olib boriladigan masofaviy o‘qitish metodi nazariy pedagogika va ta’lim amaliyotiga yangi tushunchalar va atamalarni kiritadi, ularga:

• Virtual klass (guruh);

• O‘qitishni quvvatlash (o‘quvchilarni quvvatlash);

• O‘quv telekommunikatsion loyihalar;

• Teskari aloqa;

• Dialogli texnologiya;

• Kompyuterli aloqa;

• Telekonferensiya;

• Kordinator, moderator, telekommunikatsion loyihaning fasilitatori (telekonferensiya) va boshqalar.



Telekommunikatsiyaviy o‘quv loyihasi - masofaviy ta’lim(MT) transformatsion modelning birdan-bir kelajakli shakli bo‘lib, qandaydir modeli maqsadga yetish uchun yo‘naltirilgan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan. U o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan qandaydir ilmiy yoki ishlab chiqarishni modellashtirish maqsadidagi loyihadan iborat. Bunday modeldan maqsad o‘quvchilarning loyihalari faoliyatida u to‘plovchi bo‘lib, ularda jamoat bo‘lib ishlashdagi bilim va ko‘nikmalarni faollashtiradi.

O‘quv telekommunikatsion loyihaning zaruriy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- uning vaqti aniqligi va chegaralanganligi (ikki haftadan uch oygacha);
- loyihaning barcha qatnashchilari orasida axborot almashtirish uchun kompyuterli telekommunikatsion tarmoqlar va dasturli vositalardan foydalanish, ular ko‘pincha virtual yoki kvazivirtual guruhni tashkil etadi;
- loyiha koordinatori tomonidan o‘rnatiladigan o‘quvchilar orasidagi aniq faoliyatning zarurligi.

To‘plangan tajriba shuni ko‘rsatadiki, mavjud amaliyotda masofaviy ta’limni tashkil etishning nafaqat afzalliklari, balki bir qator kamchiliklar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘qituvchi va tinglovchilar o‘rtasida yuzma-yuz muloqotning yo‘qligi va shuning uchun tarbiyaviy ta’sir;
- masofaviy ta’lim uchun zarur bo‘lgan talabalar o‘rtasida motivatsiya va o‘z-o‘zini intizomni rivojlantirish uchun o‘qituvchi tomonidan boshqaruvning yetishmasligi;
- tinglovchilarning masofaviy ta’lim texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalari (ko‘pincha) shakllanmagan;
- hamma fanlarda ham tinglovchilarni masofaviy kurslarda samarali tayyorlash mumkin emas.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o‘zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo‘lmoqda. Har bir kunimiz kuchli informatsiya oqimi ostida kechmoqda. Informatsiya oqimi bizni uyda, ishxona va ta’tilda ta’qib etadi. Inson informatsiya ta’siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o‘rganish informatsiyalarni yig‘ish va o‘zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma’lum davr ichida shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan informatsiyalarning ko‘p yoki ozligi bilan belgilanadi.

**Xulosa:** Ushbu uslubning ko‘plab afzallik tomonlari borligi ko‘pchilikka ayon. Barcha oliy o‘quv yurtlarida masofadan o‘qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarni rivojlanishi masofadan o‘qitishni tashkil etishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Masofadan o‘qitishni tashkil etishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi.

Masofali o‘qitish asosida ta’lim berish uchun o‘qitish istagida bo‘lgan aholining muayyan qismini ta’lim muassasasi joylashgan yerga yig‘ish shart emas. Ikkinchidan, tinglovchi yoki o‘quvchi tomonidan ortiqcha sarf - xarajat qilish zarurati bo‘lmaydi. Uchinchidan, bu ta’lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin.

## REFERENCES

1. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании. Учебное пособие. М.: Изд. МГТУ им. Н.Баумана.2002-336с.

2. Ishmuxamedov R., Abduqadirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. -T, Iste’dod, 2008, 180 bet.
3. Sharapova N. A. Opportunities, problems and differences of distance education from traditional education //Science and Education. - 2020. - Vol. 1. - No. 9. - S. 372-379.
4. Sharapova, N. (2023). METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE IN THE PROCESS OF DISTANCE LEARNING OF STUDENTS. *Confrencea*, 2(02), 46-48.

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ZAMONAVIY DIDAKTIK TA’MINOT  
VOSITASIDA TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna**

Andijon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159864>

**Annotatsiya.** *Bo‘lajak o‘qituvchilarning tarixiy tafakkurni rivojlantirishda o‘quv jarayonidagi metodlarning ahamiyati katta. Mutaxassislik fanlarini tarixiylik tamoyiliga asosan o‘rganishi ularni ilmiy asoslangan o‘rganish strategiyasini rivojlanishiga asos bo‘ladi. Tarixiy tafakkur bo‘lajak o‘qituvchilarda ko‘plab ma‘lumotlar ichidan konstruksiya va dekonstruksiya qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *tarixiy tafakkur, tarixiy xotira, didaktik ta‘minot, tashabbuskorlik, konstruksiya, kreativ va yangicha fikrlash.*

**Аннотация.** *Методы в учебном процессе имеют большое значение в развитии исторического мышления будущих учителей. Изучение профильных предметов на основе принципа историчности является основой для разработки научно обоснованной стратегии обучения. Историческое мышление посвящено проблемам развития у будущих учителей умения конструировать и деконструировать из большого количества информации.*

**Ключевые слова:** *историческое мышление, историческая память, дидактическая поддержка, инициатива, лидерство, креативно-инновационное мышление.*

**Abstract.** *Methods in the educational process are of great importance in the development of the historical thinking of future teachers. The study of specialized subjects based on the principle of historicity is the basis for the development of a scientifically based teaching strategy. Historical thinking is devoted to the problems of developing the ability of future teachers to construct and deconstruct from a large amount of information.*

**Keywords:** *historical thinking, historical memory, didactic support, initiative, leadership, creative and innovative thinking.*

### **Kirish**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim tizimidagi islohotlar, innovatsion o‘zgarishlar, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta‘lim sifat va samaradorligini oshirish yo‘lida ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun zaruriy hamda yetarli shart-sharoitlarni yaratib berilishi oliy o‘quv yurtlari rahbarlari va professor-o‘qituvchilariga ham o‘ziga xos katta mas‘uliyat yuklaydi.

Yangi O‘zbekiston ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talablariga mos keluvchi malakali kadrlarni tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g‘oyasini amalga oshiradigan yangi avlodni voyaga etkazish maqsadida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlari oldiga kasbiy va kundalik faoliyatda ijodiy mahorat ko‘rsatishga qodir bo‘lgan kreativ kompetensiyaga ega yoshlarni tayyorlash O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevordir, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “Bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”. [1. B.9]

Dunyo bo‘yicha yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish strategiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan oliy ta‘lim tizimiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Tarixiy tafakkurning ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi kuch ekani, jamiyatda uni shakllantirish zarurligi juda qadim zamonlardayoq anglab yetilgan. Asrlar davomida afsona va rivoyatlarda, ertak va dostonlarda madh etilgan xalq kaqramonlari xar bir yosh avlod uchun ibrat namunasi bo‘lib kelgan. Tarixiy tafakkurni nazariy jihatdan tadqiq etish xam dunyoning deyarlik barcha mintaqalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning turli vakillari tomonidan amalga oshirilgan va bu tadqiqotlar davom etmoqda.

Kasbiy tayyorlashning oliy ta‘lim bosqichida tarixiy tafakkurni bo‘lajak pedagog uchun zarur bo‘lgan nazariy va metodik hamda amaliy yo‘naltirilgan asoslarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

### **Material va metodlar**

O‘liy o‘quv yurtlari talabalarida tarixiy tafakkurini rivojlantirish muammosi bo‘yicha ilmiy -tadqiqot ishlari va ustovor yo‘nalishlar olib borilmoqda. Zamonaviy didaktik ta‘minot vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning, tarixiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganib chiqildi. Muommoni o‘rganishda tarixiy badiiy asarlardan foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishning uslubiy yondashuvlari, tamoillari, mezonlari va bosqichlari tayanch konsepsiya vazifasini bajardi.

### **Natijalar va ularning tahlili**

Zamonaviy sharoitda oliy ta‘lim muaasasasi bitiruvchilarining ko‘pmillatli va ko‘p madaniyatli muhitda yashashga, turli madaniyat egalari bilan kasbiy hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, madaniy, etnik qadriyatlar va farqlarni to‘g‘ri idrok etishga o‘rgatish ilm-fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunday vaziyatda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ijtimoiy tendensiyalarni tahlil qilish va ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda talabalarni o‘qitish mahoratini shakllantiri uchun zarur bo‘lgan muayyan qadriyatlar va tarixiy tafakkur tizimiga ega shaxsni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida yuzaga chiqadi. Binobarin tarix bilan bog‘liq fanlarni o‘rganish jarayonida oliy o‘quv yurtlari talabalarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularda yuksak ma‘naviyat va axloq, vatanparvalik, o‘z Vatani, o‘z xalqi va tarixiy o‘tmishi bilan faxrlanish [2. B. 4] tuyg‘ularini shakllantirish zarur.

Tafakkur dastlab psixologik bilimlar darajasida o‘rganilgan bo‘lsada, keyinchalik bir qator fanlarning tatqiqot predmetiga aylanib ulgurgan. Shuning uchun tafakkurni har tomonlama o‘rganish bu borada yaxlit tassavvur shakllantiish imkonini beradi.

Demak, tafakkur atrofdagi olam obe‘yektlari va hodisalarning xususiyatlari va mavjudlik qonuniyatlarini izlashga qaratilgan murakkab psixologik va fiziologik jarayon bo‘lib, inson nuqtai nazari bilan izchil va uzviy bog‘langan.

Tarixiy tafakkur bag‘rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan gumanistik, madaniy-tarixiy, milliy diniy qadriyatlarni saqlash va yetkazishni o‘z ichiga oladi hamda talabalarning bilim asoslarini yaratish orqali o‘qituvchilarning samarali faoliyati uchun muhim omil sifatida hizmat qiladi.

Tarixiy ong, tarixiy tafakkur haqidagi qarashlar uzoq o‘tmishdan boshlab shakllanganligi barchaga ma‘lumdir. Buyuk Sharq allomalarining o‘z tarixiga oid dunyoga mashhur asarlar yaratganlar. Ulardan o‘rganish, ulardan ta‘lim jarayonida maqsadli foydalanish tarixiy tafakkurni shakllantirishning muhim vestisi hisoblanadi. Albatta, tarixiy voqea va hodisalar avlodlar tomonidan o‘ziga xos ravishda talqin etiladi. Fikrimizni asoslash uchun buyuk alloma Abu Nasr

Farobiyning quyidagi fikrini keltirish joiz deb hisoblaymiz: “Har qanday xalqning yoki shahar aholosining atrof-muhit, borliq, undagi voqea va hodisalar haqidagi keng tarqalgan tasavvurlar ham ma’lum darajada farqlanadi, chunki ularning har biri voqea va hodisalarning o’ziga xos ravishda idrok etadi va ongida aks ettiradi” [3.B.222]. Buyuk allomaning ushbu fikri asosida har qanday xalqning tarixiy xotirasi faqat o’ziga xosligi hamda umumbashariy qadriyatlar bilan bog’liqligi haqida xulosa qilishi mumkin.

Oliy ta’lim muassalalarining zamonaviy o’quv jarayonida, jumladan, bo’lajak o’qituvchilarning tayyorlashda didaktik o’yinlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Didaktik o’yinning yutuq va afzalliklaridan biri uning moslashuvchangligi va undan sinfda ham, darsdan tashqari ta’lim shakllarida ham foydalanish mumkinligidir. Birinchi holda, pedagogik jarayonning quyidagi algoritmiga rioya qilish kerak:

- ✚ o’yin vazifasida ifodalangan maqsadni aniq qo’yish;
- ✚ barcha ishtirokchilar uchun majburiy bo’lgan o’yin qoidalarini e’lon qilish;
- ✚ o’quv materialidan dars maqsadiga erishish vositasi sifatida foydalanish, masalan, ishtirokchilar guruhlarida o’rtasidagi musobaqalar shaklida;
- ✚ kutilgan natijaga erishishgacha bo’lgan o’yin harakatlarini loyihalash;

Bo’lajak o’qituvchilarda didaktik ta’minot vositasida tarixiy tafakkurni rivojlantirish o’quv jarayoniga keng ko’lamli badiiy adabiyotni jalb qilishni nazarda tutadi. Ushbu o’quv vositalari talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga yo’naltirilgan: mutolaa, tadqiqot, didaktik, siyosatshunoslikka oid, akmeologik, kommunikativ, loyihaviy, vatanparvarlik. Fikrimizcha, kasbiy tayyorlashning oliy ta’lim bosqichida tarixiy tafakkurning bo’lajak pedagog uchun zarur bo’lgan nazariy va metodik hamda amaliy yo’naltirilgan asoslarini shakllantirishga alohida qaratish lozim. Zero, ular tarixiy tafakkurni idrok etish va rivojlantirishning muhim asosini tashkil etadi.

Professor B.Xodjayevning fikricha, “tarixiy tafakkur insonning mohiyatini, tarixiy mavjudligini sifatida uning dunyosining ifodalovchi tushunchadir. Darhaqiqat, inson o’zining ijtimoiy tabiatiga ko’ra faqat ob’yektiv borliq bo’libgina qolmay, katta ma’naviy-ma’rifiy o’lchovlar orqali tarixiy davomiylik va tarixiy vorislik, kelajak uchun ma’sul qadriyat ham hisoblanadi. Faqatgina tarixiy tafakkur orqali odamlar o’tmish va kelajak o’rtasidagi bog’lovchi vazifasini bajarishi mumkin. Bu ijtimoiy borliq o’zini jamiyat rivojlanishi bilan bevosita bog’liq hodisa sifatida nomoyon qiladi”. [4. B. 112]

Jahon ijtimoiy taraqqiyotining bugungi bosqichida tarixni, o’tmishda yuz bergan voqea-hodisalarni bilish, anglash, ularga xolisona baho berish muammosi doim dolzarb bo’lib kelgan. Ayniqsa, bugungi kunda, ulkan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlar yuz berayotgan globallashuv, qutblashuv jarayonlari avj olayotgan bir davrda, tarixni anglash, jahon hamjamiyatida o’z o’rnini aniqlab olish ko’pgina xalqlar uchun o’ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan hayotning insoniyat oldiga qo’yayotgan keskin savollarga javobni inson jamiyatlar tarixi, o’tmishdan izlashi bejiz emas. Mazkur voqea-hodisalarga baho berish bizga bugungi kun muammolari xususida to’g’ri fikr yuritish, ularga ob’yektiv yondashish, kelajakda o’tmish xatolarini takrorlanmaslikka yordam beradi.

Dunyo ilm-fanida tarixiy tafakkurining mohiyati va tabiatini, uning global xususiyatga ega bo’lgan o’zgarish jarayonlarini o’rganish bo’yicha keng qamrovli ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, an’analarni saqlab qolish, ularni kelajak avlodga yetkazish yo’llari va avlodlar davomiyligini ta’minlash, yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishning fundamental asoslarini ishlab chiqish, tarixiy xotirani tiklash masalalari ilmiy muassasalarning asosiy tadqiqot



yo‘nalishiga aylandi. Zero, bugungi globallashuv jarayonida bu voqealar o‘tmishda yuz bergan, ya‘ni keksa avlod boshidan kechirgan xodislardan tubdan farq qilib, yosh avlodni tarixga murojaat qilishga, taqqoslashga, undan qandaydir xulosalar chiqarishga, saboqlar olishga undaydi. Chunki, ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida yoshlar tarixiy tafakkurida yangi innovatsiyalarga asoslangan kelajakni yaratish ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta‘lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish orqali yoshlarni vatvanparlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy ma‘suliyat, fuqorolik burchi va milliy g‘urur tuyg‘usini tarkib toptirishdan ta‘lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta‘minotini yaratish, talabalarning shaxsiy-kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta‘lim tizimining ta‘lim sifatini ta‘minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganilmoqda.

Tarixiy ong va tarixiy tafakkur tiplari nazariyasini yaratgan nemis olimi Yorn Ryuzen,[5. B.8-27] tarixiy ongning milliy madaniy mansublik shakllanishidagi hal qiluvchi ahamiyatini o‘rgangan amerikalik Samuel Xantington, [6. B.635] XX asrda tarixiy ongni o‘rganish metodologiyasini ishlab chiqqan fransuz faylasuf va sotsiologi Raymon Aron, [7. B.196] xizmatlari ajralib turadi. Shuningdek, xorijda shaxs tarixiy ongini shakllantirish va rivojlantirishga oid tadqiqotlarda masalaning quyidagi nazariy va amaliy jihatlari qamrab olingan: a) etnik- madaniy, fukarolik va milliy identiklikni rivojlantirishda tarixiy tafakkurning ustuvor ahamiyati belgilangan (the Department of Integrated Studies in

Education at McGill University - Kanada); 6) 2011 yilda Stefan Levek tomonidan Ottava universitetida tashkil qilingan Virtual tarix laboratoriyasida talabalarning tarixiy tafakkurini shakllantirish uchun yangi axborot texnologiyalari, innovatsion yondashuvlarga asosiy e‘tibor qaratilgan (the Virtual History Lab (VH Lab) at the Faculty of Education, University of Ottawa - Kanada); v) tarixiy tafakkurning rivojlanishida tarixiy me‘moriy obidalarning o‘rni ochib berilgan (The Bartlett School of Architecture - UCL - London's Global University - Angliya); g) xalkning tarixiy ongi va tafakkuri yo‘qolib borishi va uning o‘rnida yangi tarixiy ongning shakllanish jarayonlari o‘rganilgan (FUER (zur Forderung und Entwicklung von reflektiertem Geschichtsbewusstsein) - Germaniya); d) yoshlar tarixiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi sinfdan tashqari tarix, tarixiy uchrashuvlar, muzeylarda tarixni o‘rganish va xokazo usullar ishlab chiqilgan (Centre for the Study of Historical Consciousness; The Historical Thinking Project - Kanada).

Ta‘limda bo‘lajak o‘qituvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda aynan o‘yin tarzida modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy didaktik ta‘minot vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishning uslubiy yondashuvlar, psixologik-pedagogik shart-sharoitlari va tarixiy tafakkurni shakllantirish tamoillarini hsobga olgan holda *forsayt texnologiyasidan* foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.


*Forsayt texnologiyasi*- Forsayt- bu qabul qilingan qarorlar sifatini oshirirish va hamkorlikdagi harakatlarni tejlantirishga qaratilgan kelajakka qarashni shakllantirishning tizimli, hamkorlikdagi jarayoni.

Ushbu mashq talabalarni o‘tmish hayotini tahlil qilib, buguni va kelajagi to‘g‘risida o‘ylashga, kelajakni tasavvur qilish va rejalashtirishga imkon beradi.

Talabalarga o‘tmishdagi hayotini, hozirgi kuni va kelajagini quyidagi chizma asosida tasvirlashlari so‘raldi. Ular o‘z e‘tiborlarini ko‘proq “Istakdagi kelajak” kataklariga qaratdi va deyarli hammalari orzusidagi kelajakni katta ijodkorlik bilan tasvirlagan. Biz ularga “Istakdagi

kelajak”ka erishish uchun shunday motiv berdik: “Bir vaqtlar hozir hammangizni qo’lingizda turgan, istalgan sotuv rastasidan sotib olishingiz mumkin bo’lgan ruchka ham insoniyat uchun orzu bo’lgan, cho’ntagingizdagi telefonni ixtiro qilish hatto inson zotining xayoliga kelmagan, lekin inson tafakkuri, uning ijodiy tasavvuri juda ulkan ekanki, ko’z ko’rib – quloq eshitmagan narsalarni yaratishga qodir yekan. Buning uchun o’z ustida izlanishi, bor kreativlik sifatlarini yanada rivojlantirishi kifoya qilarkan. Sizlar ham mavjud imkoniyatlardan to’la-to’kis foydalaning. O’zingizni kashf eting!”

**Jadval № 1**



1. Talabalarining tarixiy tafakkurini rivojlantirishda quyidagi muammoli vaziyatlardan foydalanildi:

Amaliy tadqiqot jarayonida talabalardan ta’lim muassasalarining kitob mutolaasi bilan shug’ullanish xonalari bor-yukdigi, muassasa kutubxonalarini va axborot-resurs markazlarining tarixiy adabiyotlar bilan ta’minlanganlik darajasiga oid bir qator savollarga javoblar olinganda ulardan bor-yo’g’i 37 % i ijobiy javob bo’lib chiqdi xolos. Namangan davlat universitetining tarix yo’nalishi talabalari o’rtasida o’tkazilgan so’rov- anketa savollarida yuqori kurs talabalarining 72 % i tarixiy-badiiy mavzudagi adabiyotlarni yoshlar tarixiy ongini mustahkamlashdagi asosiy vositalardan biri, deb hisoblashlari ma’lum bo’ldi. 55 % respondent esa shu mavzularga oid internet saytlarini ko’paytirish kerakligini ta’kidlashgan.

Tadqiqot jarayonida talabalarining tarixiy tafakkurining rivojlantirishga amaliy yordam beruvchi vositalar, milliy urf-odat va marosimlar, an’analar, milliy xalq o’yinlariga bo’lgan munosabatlarini ham o’rgandik. Respondentlarning 9 % i milliy urf-odat va marosimlarni jamiyat taraqqiyotiga desa, yana 9 % i milliy urf-odat va marosimlarni zamonga moslab borish kerak, deb xisoblaydi, 11 % i milliy urf-odat va marosimlar hozirda o’z ahamiyatini yo’qotib bormoqda degan fikrda, 33 % respondent milliy urf-odat va marosimlarning o’z ahamiyatini yo’qotmasligi uchun ularni bolalikdanoq singdirib saqlab qolishni zarurligini, 38 % i milliy urf-odatlarimiz bilan faxrlanaman va uni umuminsoniy an’analariga aylantirish zarur, deb hisoblaydi.

Tadqiqot natijalariga ko’ra 88 % ota-ona farzandlariga o’z ajdodlari hakida gapirib berishar ekan.

«O’tmish ajdodlarimizdan mardlik, jasorat ramzi sifatida kimlarni ko’rsatgan bo’lar edingiz?» so’rov-anketasiga respondentlarning 6,5 % i - «Sobir Raximov, To’ychi Eryigitov, Mamadali Topiboldiyev», 3,8 % i - «Ozod Sharafiddinov, Zulfiya, Oydustbiy», 7,6 % i - «Usmon Nosir, Pulatxon, dukchi Eshon, Fayzulla Xo’jayev, Chulpon», 21,4 % i - «Mahmudxo’ja Bexbudiy, Munavvarqori, Fayzulla Xo’jayev, Cho’lpon, Abdulla Qodiriy» 7,1% i - «Shyerg’ozixon, Po’latxon, dukchi Eshon, Namoz Pirmqulov, Qurbonjon dodhoh», 93,8 % i - «Amir Temur, Islom Karimov, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik» deb javob berishgan. Hozirgi globallashuv jarayonlarini ta’siri ostida yoshlar tarixiy tafakkurining rivojlanishi hamda shakllanishining salbiy tomonga

o‘zgartirishini biz ushbu so‘rov anketasiga berilgan javoblar orqali ham bilib olishimiz mumkin. Respondentlar hamma uchun ma’lum va mashhur bo‘lgan shaxslarni bilgan holda, milliy tariximizda muhim o‘rin tutgan millat va davlatchiligimiz tarixida ulkan xizmatlar qilgan shaxslar haqidagi bilimlari, ular haqidagi tasavvurlari pastligini ko‘rsatdi. Agar ushbu jarayonni oldi olinmasa, yaqin kelajak avlod o‘z tarixiy ajdodlari haqidagi bilimlaridan butunlay mahrum bo‘ladi.

Shaxs tarixiy ongi rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining, madaniyat va san’atning roli beqiyos ekanligi hamma ilmiy adabiyotlarda bot-bot qayd etiladi. Hozirgi globallashuv davrida ular har bir inson, millat yoki butun boshli xalqlarning tarixiy ongi va dunyodarashiga katta ta’sir o‘tkazmoqda. Buni biz turli telekanallarda namoyish etilayotgan filmlarning yoshlarga ta’siridan ham ko‘rishimiz mumkin. Surov-anketa ishtirokchilarga berilgan «Milliy telekanallarimizda namoyish etilgan yoki etilayotgan film qahramonlaridan qaysilari yodingizda qolgan?» anketa savoliga respondentlarning 9,6 % i - «Jumong, Pulat, Arjun, Krishna, Sagar, Iso Masix, Kosey», 15,5 % i - «Chaplin, Nesh, Gladiadorlar, Kdzrol Artur, Merlin, Kosem», 20,8 % i - «Ulugbek, Alpomish, Sezar, Ibn Sino, Vikinglar, Maksimus», 22 % i - «Kosem, Jumong, Oshin, Jek, Gandi, Robin Gud», 68,4 % i - «Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Ulugbek, Navoiy, Bobur» deb javob qaytarishdi.

### **Jadval № 2**

Milliy telekanallarda namoyish etilgan yoki etilayotgan tarixiy film qahramonlarining yoshlar xotirasida saqlanib qolishi.

Milliy telekanallarimizda namoyish etilgan yoki etilayotgan tarixiy filmlar qahramonlaridan qaysilari yodingizda qolgan?	O‘g‘il bolalar		Qiz bolalar	
	Soni	fo%	Soni	fo%
Kosem, Jumong, Oshin, Jek, Gandi, Robin Gud	90	7,5%	174	14,5%
Amir Temur, Jaloliddin, Ulugbek, Navoiy, Bobur	357	29,8%	463	38,6%
Ulug‘bek, Alpomish, Sezar, Ibn Sino, Vikinglar, Maksimus	143	11,9%	107	8,9%
Jumong, Pulat, Arjun, Krishna, Sagar, Iso Masix, Kosem	49	4,1%	54	4,5%
Chaplin, Nesh, Gladiadorlar, kirol Artur, Merlin, Kosem	90	7,5%	96	8,0%

Ushbu so‘rov javoblaridan shuni anglasa bo‘ladiki, yoshlarimiz milliy tarixiy qahramonlarimiz haqida berilayotgan badiiy, ma’rifiy, xujjatli filmlarni xotiralarida yaxshi saqlanib qolgan. Bundan tashqari respondentlar bilan suxbat jarayonida badiiy- ommabop filmlar yoshlar tarixiy tafakkurini rivojlantiruvchi muhim vositalardan biri ekanligi anglashimiz mumkin.

O‘zbek kinosi bugungi kunda asosan melodrama, komediya, ishqiy- sarguzasht kabi arzon, kassabop filmlar ishlab chiqarish bilan cheklanib qolgan. Xozirda O‘zbekiston telekanallarida namoyish etilgan yoki etilayotgan xorijiy mamlakatlarning o‘nlab tarixiy seriallari, ularning milliy tarixlariga bulgan munosabatlari naqadar baland ekanligini ko‘rsatmoqda.

Qolaversa ushbu filmlar boshqa millat vakillari orasida keng targ‘ib qilinmoqda. Bunday targ‘ibotlar kishilar tarixiy dunyokarashiga taʼsir etib, ularning tarixiy tafakkurini o‘zgartirib yubormoqda. Buning yorqin dalilini biz o‘tkazgan sotsiologik tadqiqot natijalari ham ko‘rsatib turibdi. O‘quvchilarning 68,4 % i tarixiy ajdodlarimiz haqidagi badiiy, maʼrifiy, xujjatli filmlarni tomosha qilish orqali yodda saqlab qolgan.

Ushbu so‘rov javoblaridan shuni anglasa bo‘ladiki, bugungi kunda o‘quvchi yoshlarimiz nafaqat milliy tarixiy qahramonlarni, balki jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy yoki afsonaviy shaxslar haqidagi maʼlumotlarni bilish darajalari yaxshi emas.

O‘zbekistonda o‘kuvchilar tarixiy ongining yangilanishi va rivojlanishi tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

- Kishining yuksak maʼnaviyat soxibi bulishi uning tarixiy tafakkuri darajasiga, tarixiy xotirasining boy va teranligiga bevosita bog‘liqdir. Farzandlarimizda tarixiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish xar bir ota-onaning, ustoz-murabbiylarning, ziyolilarning muqaddas burchi, davlatning esa, strategik vazifasidir.

- global mafkuraviy taxdidlar kuchaygan hozirgi davrda kishilarda, ayniqsa, yoshlarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirib va muttasil rivojlantirib borilsa, begona mafkura va g‘oyalar ular ongiga yo‘l topolmaydi. Tarixiy tafakkurni shakllantirish taraqqiyotda vorisiylik prinsipini bilishni, nazariy va amaliy faoliyatda undan foydalanishni talab etadi.

- mustakillikning dastlabki yillarida sho‘rolar xokimiyatining ham sinfiy, ham milliy siyosati oqibatida biryoqlama shakllangan tarixiy ongga putur yetdi. Jamiyatdagi tub ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tufayli tarixga o‘tmishdagi voqea va xodisalarga baho berish inqilobiy tarzda o‘zgardi. Ushbu reallik negizida O‘zbekiston yoshlarining tarixiy tasavvur va ongi shakllandi. Mustakillik davrida milliy urf-odat va qadriyatlarning tiklanishi, xalqimizning necha asrlar mobaynida bunyod etilgan, lekin kommunistik mafkuraning tazyiqi ostida unutilgan, oyoqosti qilingan qadamjolar, tarixiy obidalar, meʼmoriy yodgorliklar qaytadan taʼmirlanishi, eʼtibor markaziga aylanishi, buyuk ajdodlarimizning muborak nomlari yana ulug‘lanishi odamlarda tarixga yangicha munosabatni jonlantirdi.

- bu umummilliy ommaviy tarixiy tafakkur holati farzandlarimizga, o‘quvchi yoshlarga ham o‘tmasdan qolmadi. Ularning tarixiy tasavvurlari va tarixiy ongida keskin burilish, yangilanish hosil qildi.

Biz ta’limga yuqorida tafakkurga oid ta’riflardan farqli ravishda Oliy ta’lim talabalari uchun “tarixiy tafakkur va tarixiy baho” tushunchasini ta’lim amaliyotiga tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb bildik. Negaki, yoshlar aynan talabalik davridan mustaqil xayotga qadam qo‘yadi, nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik holatlarda ham o‘z shaxsiy qarashlarini ustun deb biladi. Biror bir vaziyatga, kutilmagan muammolar jarayonida o‘z shaxsiy fikrini, xoh u to‘g‘ri bo‘lsin, xoh noto‘g‘ri shaxsiy yechimini tadbiq etish muhim deb hisoblaydi. Shu sababli, bu davrda talabalar kutilmagan har qanday vaziyatlarga nisbatan o‘z shaxsiy ijodkorligiga, kreativligiga ega bo‘lishi lozim. Biz oliy taʼlim talabalari ko‘proq vaqtini taʼlim muassasasida taqsimlanishini hisobga olgan holda talabalarning tarixiy tafakkurini o‘qish faoliyati jarayonida rivojlantirish samarali natijaga olib keladi deb hisobladik. Shaxsiy-kreativ kompetensiya rivojlantirish uning jamiyatda o‘z imkoniyatlarini to‘la ruyobga chiqarishiga taʼsir qilib, talabada ma’lum davrda shakllangan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilganligini alohida hisobga olish lozim. Chunki talabada oliy taʼlim muassasasiga kelgunga qadar ma’lum kompetensiyalar shakllangan bo‘ladi. Tanlangan metodika ularni rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Bugungi kun jamiyatimiz tomonidan yoshlarni, xususan oliy ta’lim talabalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘z iqtidorini, ijodini namoyon etishlari, shaxsiy-kreativlik sifatlarini rivojlantirishlari uchun bir qancha imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, ular:

✚ davlat rahbari tomonidan oliy ta’limning sifat va samaradorligini oshirish, talabalarni bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini rag‘batlantirishga oid bir qancha qaror, farmonlarning qabul qilinishi va amaliyotga tadbiq etilishi;

✚ ilm-fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanib, zamon talablari darajasida takomillashib borishi;

✚ ajdodlarimiz qoldirgan manbalar va xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatining cheksizligi.

Shunday bo‘lishiga karamay oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonida bilim darajasi yuqori, o‘rta, past darajadagi talabalar mavjud bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotimizda alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan bir kancha ijtimoiy muammolar mavjudligini aniqladik:

- talabalarning yashash tarzining bir xil emasligi (shahar-qishloq; ziyoli-oddiy oila kabi);
- o‘tmish hayoti davomida etarlicha bilim, ko‘nikmalarni egallamaganligi;
- fikr-mulohazalari, tafakkur yuritish qobiliyatlari, xayotiy qarashlaridari tafoutlar (sodda, o‘rta, yuqori);

Talabalar sub’yektiv sabablarga ko‘ra quyidagi xususiyatlarni ko‘rsatish mumkin:

- turli vaziyatlarga nisbatan lokaydlik;
- o‘z shaxsiy fikrining mavjud emasligi yoki noto‘g‘ri yoki barqaror emasligi;
- o‘z o‘tmish tajribalarini tahlil etgan holatda bugungi kun va kelajak uchun aniq maqsadni belgilamaganligi;

Talabalarning shaxsiy-kreativ kompetensiya rivojlantirishga ta’sir qiluvchi ob’yektiv sabablar ham mavjud:

- pedagogning o‘zida kreativ sifatning rivojlanmaganligi;
- pedagogik faoliyat uchun yetarlicha kasbiy kompetentlikning (ijtimoiy kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, texnologik, ekstrimal kompetentlik, [8. B.6]) shakllanmaganligi;

– talaba shaxsini ta’lim jarayonining sub’yekti sifatida ko‘ra olmasligi, uning qarashlarini e’tiborsiz qoldirish;

– auditoriyada talabalar sonining ko‘pligi va ular bilan alohida, maxsus shug‘ullanish uchun vaqtning yetishmasligi;

– ijodiy topshiriklarni, muammoli masallarni berilishi yoki berilmasligi;

– shaxsiy-kreativ kompetensiya rivojlantiruvchi manbaaning mavjud emasligi.

Maqsadni qo‘yish va maqsadga erishir yo‘lida har qanday ob’yektiv-sub’yektiv sabablar yuzaga kelmasin, “o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi katta baxt, katta sharafdir”. [9. B.13] Uchinchi Renessansni qurishda, albatta, shaxsiy-kreativ kompetensiyaga ega yoshlar va ularning amaliy faoliyati zarur. Shu nuqtai nazardan, talabalarning shaxsiy-kreativ



kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan zaruriyat ekanligiga ishonch hosil qilindi.

Xulosa

Ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning tarixiy tafakkurni zamonaviy didaktik ta’minot asosida rivojlantirish jarayoni o‘zida xujjatlashtirilgan tarixiy faktlar va ularning badiiy – tarixiy asarlarda aks ettirilishini taqqoslashga o‘rgatishni ta’minlaydi. Taqqoslash natijasida talabalar tahliliy faoliyatni amalga oshiradilar hamda tarixiy hodisani ongli ravishda idrok etish malakalarini shakllantiradilar. Zamonaviy didaktik ta’minotlar bilan ishlash tarixiy muommolarni turli jihatlardan tahlil qilish imkonini beradi va uni hal qilish bo‘yicha o‘z qarashlarini shakllantirishga hissa qo‘shadi.

#### **REFERENCES:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 9-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 18 iyuldagi “O‘zbekiston tarixi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2562-son qarori. 4-b.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1993.-222 b.
4. Xodjayev B. Razvitiye istoricheskogo myshleniya u studentov obrazovatelnych shkol.- Latviya: LAB LAMBET Akademik Publishing,2018-C.112.
5. Ryuzen Y. Utrachivaya posledovatelnyost istorii // Dialog so vremenem. Almanax intellektualnoy istorii. M., 2001. Выр. 7. S. 8—27;
6. Xantington S. Kto my?: Vyzovy amerikanskoй natsionalnoy identichnosti / S. Xantington; Per. s angl. L. Bashkirova. - Moskva: OOO «Izdatelystvo AST»: OOO «Tranzitkniga», 2004. - 635 s.
7. Aron R. Izmereniya istoricheskogo soznaniya. Moskva: «URSS». 2014.196 s.
8. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev. pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent, “Sano standart” nashriyoti, – 2015 yil, - b. 6.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2010 yil, - b. 13.



## **YASHIL TURIZM SOHASIDA AHOLI SAVODXONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

**Rasulova Nigora Yusupovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Mehmonxona biznesini boshqarish kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159872>

***Annotatsiya.** Maqolada yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Jumladan, O‘zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirishning ahamiyati, yashil turizmni shakllantirishda hududlarning turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish masalalari bo‘yicha ilmiy taklif va xulosalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** yashil turizm, aholi savodxonligi, xorijiy sayyohlar, sayyohlik imkoniyatlari, turistlarning yashil turizm tasavvurlari, turistik yo‘nalishlar.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы повышения грамотности населения в сфере зеленого туризма. В частности, научно проанализированы важность повышения грамотности населения в сфере зеленого туризма в Узбекистане, вопросы эффективного использования туристского потенциала регионов в формировании зеленого туризма. Также представлены научные предложения и выводы по вопросам повышения грамотности населения в сфере зеленого туризма.*

***Ключевые слова:** зеленый туризм, грамотность населения, иностранные туристы, туристические возможности, представления туристов о зеленом туризме, туристские дестинации.*

***Abstract.** The article discusses the issues of increasing the literacy of the population in the field of green tourism. In particular, the importance of increasing the literacy of the population in the field of green tourism in Uzbekistan, the issues of effective use of the tourism potential of the regions in the formation of green tourism, were scientifically analyzed. Scientific proposals and conclusions on improving public literacy in the field of green tourism are also presented.*

***Keywords:** green tourism, population literacy, foreign tourists, tourism opportunities, tourists' ideas about green tourism, tourist destinations.*

Kirish. O‘zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish masalalari turizm sohasi uchun dolzarb vazifadir. Yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish barqaror turizmni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish, mamlakatda yashil turizmni rivojlantirish, mazkur sohada aholini ish bilan bandligini oshirish va shuning bilan bir qatorda tabiiy turfa xillikni, ya’ni biobalansni saqlash, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish maqsadida davlat organlarining yashil turizmni rivojlantirish sohasida aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish maqsadida zamonaviy innovatsion ta’lim platformalarni amaliyotga keng tatbiq etishning yaxlit tizimini yaratish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko‘rsatishga to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yilning 16 oktabr kuni Samarqandda Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ochilishida mamlakatlar o‘rtasida turizm sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Global turizmning eng dolzarb muammosi — bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta’minlashdir. Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan nizo va beqaror vaziyatlar soha rivojiga pandemiyadan ham ko‘ra ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda”.

audition. Employing audio recordings, visual aids, and video clips can substantially enhance the learning experience. Engaging in discussions and dialogues also proves instrumental in cementing acquired knowledge.

8. Adult learners are best navigated and supported rather than subjected to scrutiny. A considerable number among them harbor self-critique, thus rendering competition potentially injurious due to apprehensions regarding public judgment.

The panorama of interpersonal interactions assumes an indispensable role in the effective tutelage of a foreign language to adult learners. Adhering to the psychological nuances of student interaction can optimize the pedagogical process and conduce to the attainment of superior results in adult education.

In my perspective, to ensure the effective instruction of a foreign language to adult learners, sustained and comprehensive interaction between the student and the teacher is indispensable at every phase of the educational process, spanning from the initial planning stages to the subsequent assessment of outcomes. G.A. Kitaygorodskaya underscores the significance of cultivating learning situations that stimulate students to unlock their creative potential, marshal their cognitive resources, and infuse their memory with emotional resonance, thereby enhancing the overall educational experience. For adult learners, the immediate and practical application of freshly acquired knowledge, skills, and competencies assumes a pivotal role, thus rendering the utilization of role-playing exercises and lifelike simulations notably efficacious.

Furthermore, it is imperative to acknowledge that adult learners exhibit heightened levels of intrinsic motivation. Consequently, it is of paramount importance to nurture and channel this motivation toward the attainment of predefined educational objectives. To facilitate the more effective retention of newly acquired vocabulary, I propose the integration of visual imagery and mnemonic associations. Moreover, in lieu of conventional grading methods, educators may encourage students to engage in self-assessment, thereby enabling a more accurate evaluation of their own progress, which can subsequently be discussed with the teacher.

The afore-discussed "competency-based" approach, oriented toward the cultivation of diverse skill sets, the shaping of opinions and attitudes, and the cultivation of a penchant for personal development, distinctly aligns with the expectations and aspirations of an adult audience in the realm of foreign language education.

## **REFERENCES**

1. Nemov, R. S. (2003). *Psychology: A textbook for students of higher pedagogical educational institutions* (4th ed.). Humanitarian Publishing Center VLADOS.
2. Ballastov, A. V. (2012). Practical application of information technology in teaching adults professionally oriented foreign language communication in non-linguistic universities. *Vestnik TPGU*, (4), 74–79.
3. Kozlova, O. V. (2005). Integrative technology for teaching adults a foreign language. *Modern High-Tech Technologies*, (8), 135–137.
4. Kitaygorodskaya, G. A. (1978). *Optimal organization of the educational process in intensive adult foreign language learning. Psychology and Methods of Teaching Foreign Languages*. Moscow.

**KASB-HUNAR MAKTABI O‘QUVCHILARINI KIMYO FANIGA DOIR AMALIY  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA “SELFED” METODIDAN  
FOYDALANISH**

**S.O.Otamirzayev**

Mustaqil izlanuvchi. Namangan muhandislik-qurilish instituti, Sanoatni axborotlashtirish  
fakulteti dekan o‘rinbosari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160019>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Professional ta’lim o‘quvchilarini kimyo faniga doir amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muammolar tahlil qilingan va ularni bartaraf etishda “Selfed” metodidan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** professional ta’lim, “Selfed” metodi, amaliy kompetensiya, kimyo, maqsadni belgilash, rejalashtirish, sinash, bajarish, baholash.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются проблемы в развитии практических компетенций учащегося профессионального образования по химии и приведены рекомендации по использованию метода “Selfed” при их устранении.*

***Ключевые слова:** профессиональное образование, метод “Selfed”, практическая компетентность, химия, постановка целей, планирование, проверка знаний, выполнение, оценка.*

***Abstract.** This article analyzes the problems in the development of practical competencies of students of vocational education in chemistry and provides recommendations for using the “Selfed” method to eliminate them.*

***Keywords:** vocational education, Selfed method, practical competence, chemistry, goal setting, planning, check of knowledge, implementation, evaluation.*

**Kirish.** Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, kimyo fani mazmuni va aniq-tabiiy fanlarning tayanch tushunchalarini o‘zaro integratsiyalash, metodik ta’minot mazmunini baholashning halqaro dasturlar talablari asosida ishlab chiqish, o‘quvchilarning amaliy ish ko‘nikmalarini shakllantirish ishlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kimyodan tashkil etiladigan ta’lim- tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, kelajakda kasbiy va ijtimoiy faoliyati davomida qo‘llay olish kompetensiyalari shakllantiriladi. O‘quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarni yechimini hal etish, eng muhimi o‘z sohasi va kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni bilishi zarur [1].

Kimyo fanida mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar, davlat ta’lim standartlari, professional ta’lim muassasalari o‘quv dasturlari tahlillari kimyo fanidan amalga oshiriladigan o‘quv mashg‘ulotlari jarayonlarini kuzatish natijalari professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kimyo faniga oid amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga e’tiborni oshirish zarurati mavjudligini ko‘rsatib berdi. Shu bilan birga ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni qoidaga ko‘ra, asosan tizimsiz va stixiyali xususiyatga ega bo‘ladi. Kimyoviy tajribalar kimyo darslarida kam taqdim etilgan. Ular asosan kreativ emas, balki illustrativ xususiyatga ega, bundan kelib chiqadiki o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlanishiga yetarlicha yordam bera olmaydi.

Kimyo o‘qituvchisi o‘quvchilarda kompetensiyani tarkibi toptirish maqsadida o‘quv fani mazmunini tahlil etishi, o‘qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ishlab chiqarish korxonalariga sayohat va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalash lozim.

Kimyo faniga doir amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish asosan auditoriya mashg‘ulotlari davomida amalga oshiriladi, lekin fanni o‘zlashtirish uchun ajratilgan soatning 50% mustaqil o‘rganishga ajratilgan. Dars jarayonlarida o‘qituvchilar talabalarni mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishi va ularda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini xosil qilishi kerak bo‘ladi.

Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga qiziqishlari til o‘rganish bo‘yicha o‘quv markazlaridagiga nisbatan anchagina pastligi kuzatiladi. O‘quvchilar til o‘rganish bo‘yicha o‘quv markazlarida o‘qiganlarida o‘z ustilarida mustaqil ishlaydilar, izlanadilar va topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaradilar [2].

O‘quvchilar ta’lim muassasalarida o‘qishni boshlaganlaridan so‘ng bu harakatlar anchagina susuyib qoladi yoki umuman to‘xtab qoladi.

Buning sabablarini o‘quvchilardan va o‘qituvchilardan so‘ralganda juda ko‘pgina sabablarni ko‘rsatilgan. Ta’lim tizimidagi shunga o‘xshash muammolarni kelib chiqish sabablarini o‘rganish va uni bartaraf qilish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Yuqorida keltirilgan muammolarni kelib chiqish sabablarini o‘rganish va ularni bartaraf qilish bo‘yicha izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida o‘quvchilarni amaliy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi..

**Asosiy qism.** Buni amalga oshirish uchun an’anaviy o‘qitish usullari yaxshi foyda bermaydi, shuning uchun auditoriya mashg‘ulotlarida, asosan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida muallif tamonidan ishlab chiqilgan o‘qitishning “Selfed” metodidan foydalanish tavsiya etiladi [3].

“Selfed” metodi - inglizcha “Selfeducation” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘z-o‘zini tarbiyalash” yoki “o‘z-o‘zini o‘qitish” ma’nosini anglatadi. Mazkur metodni qo‘llash talabalarni mustaqil fikrlashga va o‘rganishga undaydi hamda ularni izlanuvchanlikka undovchi faoliyatini tashkil etadi. Ushbu metodni asosan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borishda qo‘llash tavsiya etiladi.

Metodni mohiyati shundan iboratki, talabalarda mustaqil o‘rganish faoliyati, ya’ni laboratoriya ishlarini mustaqil bajarish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

O‘quvchilarda mustaqil o‘rganish faoliyati, ya’ni laboratoriya ishlarini mustaqil bajarish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Bunda o‘quvchilar o‘zlariga berilgan vazifani (laboratoriya ishini) maqsadini aniqlab oladilar.

2-bosqich. O‘quvchilar kerakli bosqichlarni o‘zlari alohida yoki guruh bo‘lib belgilaydilar, ya’ni laboratoriya ishini qanday bajarishni rejalashtiradilar.

3-bosqich. O‘quvchilar o‘z rejalariga asosan laboratoriya ishini bajarish uchun nazariy bilimlarga ega ekanliklarini sinab ko‘radilar.

4-bosqich. O‘quvchilar o‘z ish rejalariga asosan laboratoriya ishlarini bajaradilar.

5-bosqich. O‘quvchilar laboratoriya ishini bajarishda o‘zlarini faoliyatlarini o‘zlari baholaydilar.

“Selfed” metodining qo’llanilishi: Laboratoriya mashg’ulotlarini “Selfed” metodini qo’llab quyidagi besh bosqichda olib borish mumkin bo’ladi:

**1-bosqich. Maqsadni belgilash.** Bunda o’quvchilar o’zlariga berilgan laboratoriya ishini bajarishda o’zlari muayyan maqsadni belgilaydilar. O’quvchilar o’zlarining alohida maqsadlarini belgilashlari, ya’ni laboratoriya ishini bajarishdan maqsadni belgilashlari lozim bo’ladi.

O’qituvchi esa o’quvchilarga o’z maqsadlarini belgilashlari uchun harakatlar majmuini, kerak bo’ladigan materiallar va vaqtni aniqlashda ko’maklashadi hamda o’z maslahatlarini beradi.

**2-bosqich.Rejalashtirish.** O’quvchilar laboratoriya ishini qanday bajarishni belgilaydilar, ya’ni rejalashtiradilar. Bunda ishni bajarish uchun kerakli asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari, didaktik materiallar mavjudligi tekshirib chiqiladi. Laboratoriya jihozlarini sonini hisobga olgan holda, bir vaqtning o’zida necha kishi ishni bajarish mumkinligiga qarab, ishni bajarish rejasini ishlab chiqadilar, bunda laboratoriya ishlarini bajarish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar asos bo’ladi.

O’qituvchi o’quvchilarga kerakli axborot manbaalarini izlab topish bo’yicha o’z maslahatlarini beradi va zaruriyatga qarab, ularga kerakli bo’lgan ma’lumotlarni o’zi berishi mumkin.

**3-bosqich.Sinash.** O’quvchilar o’zlarini laboratoriya ishini bajarishga tayyor ekanliklarini sinab ko’radilar, bunda laboratoriya ishlarini bajarish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalarda keltirilgan sinov savollaridan foydalanadilar. O’quvchilar o’z rejalari bo’yicha biror qarorga kelgach, mazkur qaror bilan o’qituvchini tanishtiradilar.

O’qituvchi qarorda mavjud bo’lishi mumkin bo’lgan xato va kamchiliklarni aniqlaydi hamda o’quvchiga ushbu xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo’yicha o’z maslahatlarini beradi.

**4-bosqich.Bajarish.** O’quvchilar laboratoriya ishlarini bajarish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalarda keltirilgan ishni bajarish tartibiga amal qilgan holda ishni bajaradilar va o’z harakatlarini hamda erishayotgan natijalarini monitoring qilib boradilar.

O’qituvchi o’quvchilarning ishni bajarish jarayonlariga faqat uskunalarni ishlatishda xavfli vaziyat vujudga kelsa (yoki kelishi mumkin bo’lsa), o’quvchilar xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilmasalar yoki belgilangan maqsad yo’lidan sezilarli darajada og’ib ketsalargina aralashadilar.

**5-bosqich.Baholash.** O’quvchilar laboratoriya ishlarini bajarish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalarda keltirilgan formulalardan foydalanib hisob-kitob ishlarini amalga oshiradilar, tajribada olingan natijalarni nazariy ma’lumotlar bilan taqqoslaydilar va tegishli jadvallarni to’ldirgan holda kerakli grafik, chizma yoki diagrammalarni chizadilar. Bunda topshiriqni ya’ni laboratoriya ishini qanday bajarilgani bo’yicha boshlang’ich bahoni avval o’quvchilarning o’zlari beradilar. Buning uchun ular o’qituvchi tomonidan tayyorlangan baholash varaqalarini to’ldiradilar [4].

So’ngra ushbu baholar o’qituvchi tomonidan ko’rib chiqiladi va zaruriyatga qarab o’zgartirilishi ham mumkin. Bundan tashqari, o’quvchilar bajargan ishlari va uning natijalari bo’yicha hisobot (taqdimot) tayyorlaydilar hamda uni yakka tartibda o’qituvchiga topshiradilar.

**Xulosa.** Shunday qilib laboratoriya mashg’ulotlarini “Selfed” metodi orqali olib borilganda darsning samaradorligi ortadi, chunki bunda har bir o’quvchi o’zi mustaqil ravishda ishlashga majbur bo’ladi va shunga yarasha tayyorgarlik ko’radi hamda ular o’zlarini o’zlari

baholaydilar. Shuning uchun dars davomida birorta o‘quvchi ham chetda qolmaydi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ortadi.

Olib borilgan so‘rovnoma va tadqiqotlarga tayanib quyidagi takiflarni keltirish mumkin:

- o‘quvchilarni amaliy kompetensiyalari rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash;
- noan’anaviy o‘qitish metodlariga asoslangan innovatsion dars ishlanmalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llash;
- o‘quvchilarni auditoriyadan tashqari mustaqil ishiga ko‘proq e’tibor qaratish;
- talabalarda mustaqil fikrlash va ishlash qo‘nikmalarini xosil qilish;
- fanni xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ish topshiriqlarini tuzish;
- talabalarga mustaqil ish topshiriqlarini to‘g‘ri taqsimlash va ularni adolatli baholash

[5].

Bo‘lajak mutaxassislarni kimyo faniga doir amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish muammolarini hamda o‘quvchilar ta’lim faoliyati natijalari sifatini baholash holatini kompetentli yondashuv asosida o‘rganish orqali professional ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlarda kimyoni o‘qitishda o‘quvchilar kimyo sohasining tajribalarni amalga oshirish fundamentlari, shaxsning dunyoqarashlari yaxlitligi, kimyo madaniyati va ongi yotadigan faoliyati tizimi asoslandi. Professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarida kimyo faniga doir amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar, tajribaga oid masalalar yechish(eksperimental tajribalar), laboratoriya mashg‘ulotlar asnosida amalga oshiriladi.

## **REFERENCES**

1. Ergashev B.B., Otamirzayev S.O. Professional ta’lim tizimi o‘quvchilarini kimyo faniga oid kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. Toshkent, 2022 yil, 6-son.
2. Otamirzayev S.O. Professional ta’lim o‘quvchilarini kimyo faniga doir amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ilmiy pedagogik muommolar va ularni bartaraf etish usullari. Ta’lim, fan va innovatsiya manaviy-marifiy, ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent 2023 yil, 3-son.
3. Otamirzaev S.O. “Selfed” metodi nomli ilmiy ishlanma. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk Agentligi, Mualliflik xuquqi obektlarini deponentlash to‘g‘risidagi guvohnoma №006495. 13.06.2023 yil.
4. Otamirzayev S.O. “Selfed” metodi qo‘llash orqali professional ta’lim o‘quvchilarini amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish. “Aholi farovonligini oshirishda yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T.: 2023-yil, 27-sentyabr, 174 bet.
5. Usubovich, O. O., & Ne‘matillaeva, Z. D. (2022). Methodology of using connecting elements of science in the organization of independent work of the science of hydroelectric power stations.



## **INTEGRATSIYALASHGAN GLOBAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA SHAXS XULQ –ATVORINI BOSHQARISHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK DOLZARB MUAMMOLARI**

**Parmonov Bobir Erkinovich**

Andijon davlat universiteti “Umumiy psixologiya” kafedrası Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159973>

***Annotatsiya.** Maqolada integratsiyalashgan global o‘zgarishlar sharoitida jamiyatda shaxs xulq–atvorini boshqarishning ijtimoiy psixologik muammolari bartaraf etishda inson ongini, fikrini va dunyoqarashlarini boshqalarga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirish yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ijtimoiy xulq, ruhiy kechinmalar, ijtimoiy borliq qonuniyatlari, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, nizoli vaziyatlar va psixologlar fikrlari.*

***Аннотация.** В статье освещаются социально –психологические проблемы управления поведением личности в обществе в условиях интегрированных глобальных изменений, изменения человеческого сознания, мышления и мировоззрения по отношению к окружающим в преодолении.*

***Ключевые слова:** социальное поведение, душевные переживания, законы социального бытия, влияние друг на друга, конфликтные ситуации и мнения психологов.*

***Abstract.** In the state rassmatrivaetsya rassmenrivaetsya izmenenie chelovecheskogo soznaniya, mysley i otnosheniya k drugim lyudyam v preodolenii sotsialno-psikhologicheskix problem upravleniya povedeniem povedeniem in obshchestve v usloviyax integrirovannyx globalnyx izmeneniy.*

***Keywords:** sotsialnoe povedenie, psichicheskie perejivaniya, zakony sotsialnogo sushchestvovaniya, vzaimodeystviya, konfliktnye situatsii, mneniya psichologov.*

Yuksak informatsion texnologiyalar asri bo‘lmish XXI asr inson omili, uning jamiyatda, odamlar orasidagi xulqini boshqarishga e’tiborning kuchayganligi bilan ajralib turadi. Zero, o‘z ruhiy kechinmalarini boshqarish, yaqinlari bilan samimiy sog‘lom munosabatlarda bo‘lish istagi oddiy fuqarolarda kun sayin ortib bormoqda. Bu borada ijtimoiy psixologlar e’tiborini tortayotgan jihatlar – bu avvlo ijtimoiy xulqni boshqarishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, qolaversa, muomala, o‘zaro ta’sir va o‘zligini o‘zgalarga namoyon eta olish qobiliyatini o‘stirishga ko‘maklashishdir.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o‘ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritib, o‘zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Ya’ni, bu cheksiz olamda biz o‘zimizni o‘zgalarsiz, o‘z manfaatlarimizni o‘zgalar manfaatisiz tasavvur qila olmaganimiz uchun ham ijtimoiy xulqni boshqarishni bilishga majburmiz. Zero, Muhtaram yurtboshimiz SHavkat Mirziyoev rahbarligida davlatimizda olib borilayotgan siyosatdan ko‘zlangan maqsad – Inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish va xalqni rozi bo‘lib yashashini ta’minlash ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun barcha ziyolilar, birinchi navbatda, psixologlar ijtimoiy borliq qonuniyatlarini bilishi va undan maromida foydalib, turmush normalariga bo‘ysungan holda jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishga tayyor bo‘lishi darkor. Ijtimoiy hayot muammolarini, umuman ijtimoiy-gumanitar fanlarning hayotdagi o‘rni va



salohiyatini chamalashda ijtimoiy psixologiyani chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Bu fanning mamlakatimiz mustaqilligigacha bo‘lgan inqirozini va rivojlanmay qolganligini eng avvalo jamiyatdagi tuzum bilan, odamlarning u yoki bu mafkuraviy bo‘hronlar ta’sirida bo‘lganligi bilan izohlash mumkin. Zero, aslida ijtimoiy-psixologik tafakkurning o‘zi inson kabi qadimiy va o‘lmasdir. Chunki odam jamiyatda yashar va o‘zining ma’lum ma’noda boshqalarga bog‘liqligini anglar ekan, uning ongi va shuurida ijtimoiy psixologiya fan sifatida yechishi mumkin bo‘lgan quyidagi uch asosiy savol-muammo har doim ko‘ndalang bo‘laveradi:

□ odamlar bir-birlari to‘g‘risida qanday o‘ylashadi? Bu – ijtimoiy borliqning ongimizdagi aksini bildiradi;

□ odamlar bir-birlariga qanday ta’sir ko‘rsata oladilar? Bu – konformizm, e’tiqodlilik va ijtimoiy ta’sirning bizdagi madaniy tamoyillar, odatlar, ko‘nikmalar orqali kundalik xatti-harakatlarimiz mezoniga aylanishini tushuntirishdir;

□ ular bir-birlariga qanday munosabatda bo‘ladilar? Bu – yangicha munosabatlar tizimida insoniylik va iymon, dinu-diyonat, maslak va biddiyatlar ta’sirida nima uchun adovat jaholatga, mayllar al’truizmga, nizolar – adolatga aylanishi mumkinligini va boshqa dolzarb ijtimoiy muammolarni o‘rganish vositasidir.

Nima uchun aynan bugun insoniy munosabatlar va ularni boshqarish masalasi dolzarb bo‘lib, ijtimoiy hayot sirlarini bilishga ehtiyoj kuchaydi?

Birinchidan, aytish mumkinki, dunyo miqyosida global tarzda ijtimoiy stereotiplar barham topib, o‘zgara boshladi. Kechagina mumkin bo‘lmagan narsalarga bugun ruxsat bor, kecha umuman erkinlik, demokratiya tushunchalarini guyoki, G‘arb madaniyati deb e’tirof etgan bo‘lsak, bugun butun jamiyat bu jarayonlar bilan yashay boshladi, buning natijasida inson ongi, uning boshqalarga munosabatlari ham o‘zgardi.

Ikkinchidan, qadriyatlar tizimi o‘zgardi. Umuminsoniy qadriyatlarga yaqinlash, xayoliy gumanizm sifatida qaragan bo‘lsak, bugun o‘z milliy qadriyatlarimizni qaytarish barobarida bu qadriyatlarni hayotimizga singib borishiga barcha sharoitlar yaratildi. Ta’kidlash o‘rinliki, qadriyatlar masalasida rivojlangan G‘arbning o‘zi bugun SHarq madaniyatini, SHarq mentalitetini va uning qadriyatlarini e’tirof etib, ularga munosib baho bermoqda. Demak, umumjahon globallashuvi jarayonlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar madaniyatlararo hamda millatlararo munosabatlar darajasigacha ko‘tarildi.

Uchinchidan, insonning o‘zini kimlar bilandir solishtirish, taqqoslash, o‘xshatish tizimida o‘zgarishlar (ijtimoiy identifikatsiya) ro‘y berdi. Ijtimoiy psixologiya shaxs psixologiyasiga e’tibor berarkan, uning jamiyatda mustaqil fikrlovchi, yurtparvar va vatanparvar, fidoiy inson sifatidagi fazilatlarini anglashiga yordam berishi kerak bo‘lib qoldi.

Yana bir muhim jihat – aynan mustaqillik har bir fandan, jumladan ijtimoiy-gumanitar fanlardan hayotda o‘z o‘rnini topish, tatbiqiy ilmiy ishlarni rivojlantirish, fanning ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi mavqeini tasavvur qilishni talab qilmoqda. SHu ma’noda ijtimoiy psixologiyaning bugungi realligimizda hayot muammolarini xal qilishdagi o‘rnini tasavvur qilish joizdir.

Eng avvalo shuni e’tirof etish lozimki, inson oldidagi u yoki bu voqea-hodisaning guvohi bo‘lar ekanmiz, “Nega?”, “Nima uchun?” degan savollar bilan bog‘liq ijtimoiy xulqning sabablarini o‘rganish eng muhim vazifalardandir. Bu masalada psixologiya ijtimoiy xulqning motivlariga hamda motivatsiya masalasiga e’tibor beradi. Xorijlik psixologlarning (E.Пьин va b.q.) fikricha, ijtimoiy xulqdagi og‘ishlar avvalo nizoli yoki odamni xavotirga soluvchi vaziyat bois

sodir bo‘ladi. Lekin vaziyatning mavjudligi hali odamda janjallashishga moyillik holati paydo bo‘ldi, degan ma’noni anglatmaydi.

Birinchi, odamlarning o‘zaro muomalasida fikrlari, istaklari, qiziqishlari va maqsadlarida tafovutlar bo‘lishi kerak.

Ikkinchi, bu tafovutlar har bir kishi tomonidan deyarli bir xil anglanishi lozim.

Uchinchi, bu holat hech bo‘lmaganda bir tomonning ikkinchi tomonni yoqtirmasligi, ko‘ra olmasligiga olib kelishi, fikrlar amalda to‘qnash kelishi kerak. Bu o‘rinda bizdagi madaniyat va mentalitetning o‘ziga xosligi bor, albatta. Masalan, SHarqda turli vaziyatlarda uni yumshatuvchi, odamlarni nisbatan uzoq muddatda nizoni ichida saqlashiga olib kelgan sharqona odob, andisha bor. Lekin agressiv xulqning intihosi shundayki, uzoq vaqt ichida saqlangan agressiya bir kun kutilmagan tarzda namoyish etilishi mumkin. Umumiy fikr shuki, biror narsaga agressiv munosabatning shakllanishi bir yoki alohida olingan motiv tufayli emas, balki sabablar yoki motivlar tizimi orqali sodir bo‘lishini nazarda tutish va tarbiyaviy ishlarda bunga e’tibor berish kerak.

Har bir insonning o‘zini o‘zi hurmat qilishi, unda voqea-hodisalarga nisbatan mustaqil qarashlarning, mustaqil fikrning bo‘lishi ijtimoiy psixologiya uchun muhim omil. CHunki yoshlarda yoki ishchi-xodimlarda mustaqil fikrning yo‘qligi tufayli, ular nochorligi hamda irodasizligi uchun jazolanaverishadi. Natijada, ular ishonchsiz, e’tiqodsiz, bora-bora asabiylashadigan, janjalkash bo‘lib qolishadi. SHuning uchun ham birinchi prezidentimiz Islom Karimov yoshlarda sog‘lom va teran dunyoqarashni shakllantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni oldimizda turgan eng dolzarb vazifa sifatida qaragan edi. Zero, mustaqil fikrlash kundalik hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini, ularning sirlarini aniqlash, tahlil qilish va ajrata olishga hozirlikning mavjudligidir.

Bu o‘rinda Uolter Lippmanning fikri ham o‘rinli: “Hamma bir xil fikr yuritgan yerda, hech kim ko‘p o‘ylamaydi”. Demak, global o‘zgarishlar, yuksak axborot texnologiyalari davrida, birinchi, “Odam – ijtimoiy mavjudoddir” degan fikrning asosli ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Ikkinchi, inson bolasi jamiyatga qo‘shilib borgan sari, ya’ni, ijtimoiylashib borgan sari o‘zini qaysi ijtimoiy guruhlarga mansub ekanligi, qay bir guruh unga ma’qul yoki noma’qul ekanligiga ko‘proq e’tibor bera boshlaydi. Unda unga yordam beruvchi muhim omil – bu uning ijtimoiy tafakkuri yoki mustaqil fikridir. “O‘zimning guruhim” yoki “begonalar guruhi” tushunchalarining paydo bo‘lishi esa shaxsni o‘rab turgan muhitning qadriyatlariga, uning etnopsixologik o‘ziga xosligiga bevosita bog‘liq. O‘tkazilgan so‘rovlarda bizning yoshlarimiz “o‘zimniki” kategoriyasiga kiruvchi guruhlarga eng avvalo oilasini, undagi qadriyatlarni tasavvur qilishlarini aniqladik va bu xolat bizningcha muhim. CHunki Amerikada o‘tkazilgan ayrim tadqiqotlarda ularga ijtimoiy hayrixoh bo‘lgan guruhlarning qatorida eng avvalo “yaqin do‘stlar”, so‘ngra keyingi qatorlarda “ota-onalar” guruhini qayd etishgan. CHunki bu yoshlar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov, yoki hamjihatlik birinchi navbatda intim munosabatlar yoki “hissiy emotsional bog‘liqlik” kabi tasavvurlar bilan uyg‘unlashadi. Bizning yoshlarda esa bu tasavvurlar yaqin insonlari, birinchi navbatda otasi yoki onasi, qolaversa, yaqin qarindoshlarining ma’naviy va ruhiy ko‘magi ma’nosida aks etadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki shaxsning xulq-atvori bevosita ikki omil o‘rtasida ya’ni biologik va ijtimoiy omillar ta’sirida orqali o‘zini o‘rab turgan mikro va makro muhit sharoitlariga mutunosib ravishda shakllanib boradi hamda bular asosida uning harakter hislatlari rivojlanib boradi.

### **REFERENCES**

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008 – 176 b.
3. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012. – 172 b.
4. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya / Perev. s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.
5. Мацумото, Д. Человек, культура, психология. Удивительные загадки, исследования и открытия / Дэвид Мацумото. – СПб.,: Прайм-Еврознак, 2008 – 668 С.
6. Прикладная социальная психология / под ред. В. Н. А. Н. Сухова И. А. А. Деркача. – М.: Изд-во “Институт практической психологии”; Воронеж: Изд-во НПО “МОДЕК”, 1998. – 688 С.

## **FALSAFA FANIDA TALABALARNING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI**

**Samatov Dilshodbek Toxirjonovich**

Andijon davlat pedagogika instituti, fakultet decani Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160027>

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada mamlakatimiz pedagogik oliy ta’lim tizimida falsafa fanini o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan asosida talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning zamonaviy metodlari borasida so‘z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda tanqidiy tafakkur haqida tushuncha, falsafani bilishda tanqidiy tafakkurning roli, zamonaviy auditoriyada tanqidiy tafakkurni shakllantirishning zaruriy bosqichlari yoritilgan. Shuningdek falsafiy debatlar va ularni “Aqliy hujum” metodi asosida o‘tkazining asosiy pedagogik shart- sharoitlari ilmiy taxlil qilingan holda ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ta’lim, falsafa, tanqidiy tafakkur, pedagogika, metodika, zamonaviy ta’lim, pedagogik oliy ta’lim, innovatsion ta’lim, falsafiy debat, tafakkur, auditoriya, shart-sharoit.*

**Аннотация.** *В данной статье речь пойдет о современных методах развития критического мышления студентов на основе применения передовых педагогических технологий в процессе преподавания философских дисциплин в системе высшего педагогического образования нашей страны. Наряду с этим освещается понятие критического мышления, роль критического мышления в познании философии, необходимые этапы формирования критического мышления в современной аудитории. Выявлены также философские дебаты и основные педагогические предпосылки их проведения методом “Мозгового штурма” с научным анализом.*

**Ключевые слова:** *образование, философия, критическое мышление, педагогика, методология, современное образование, педагогическое высшее образование, инновационное образование, философские дебаты, мышление, аудитория, предпосылки.*

**Abstract.** *This article will talk about modern methods of developing critical thinking of students based on the application of advanced pedagogical technologies in the process of teaching philosophy in the pedagogical higher education system of our country. At the same time, the concept of critical thinking, the role of critical thinking in the knowledge of philosophy, the necessary stages of the formation of critical thinking in a modern audience are covered. As well as philosophical debates and the main pedagogical conditions under which they are conducted on the basis of the method of “Mental attack” are revealed scientifically.*

**Keywords:** *education, philosophy, critical thinking, pedagogy, methodology, modern education, pedagogical higher education, innovative education, philosophical debate, thinking, audience, conditions.*

**Kirish.** Fan falsafasini ko‘p jihatdan aniqlash qiyin bo‘lgan mavzu, chunki falsafani aniqlash qiyin. Ammo falsafaning kamida bitta munozarali ta’rifiga ko‘ra, fanlar - jismoniy, biologik, ijtimoiy va xulq-atvor - va falsafa o‘rtasidagi munosabatlar shu qadar yaqinki, fan falsafasi ham faylasuflar, ham olimlar uchun asosiy masala bo‘lishi kerak. Ushbu ta’rifga ko‘ra, falsafa dastlab fanlar hali javob bera olmaydigan yoki ehtimol hech qachon javob bera olmaydigan savollar bilan va fanlar nima uchun bu savollarga javob bera olmasligi haqidagi keyingi savollar bilan shug‘ullanadi (1). Bunday dastlabki savollar bormi, buning o‘zi faqat falsafiy dalillar bilan

hal qilinishi mumkin bo‘lgan masala. Bundan tashqari, agar ular yo‘q bo‘lsa, fan o‘zining javobsiz savollariga javob berishga urinishlarida qanday harakat qilishi kerakligi ham falsafiy munozara mavzusidir. Bu muammolar olimlar uchun falsafiy mushohada qilish va fikrlashni muqarrar qiladi. Yunonlardan boshlab Nyuton va Darvingacha bo‘lgan davrgacha fan tarixini yuzaki o‘rganish bu (haligacha) ilmiy javobsiz savollarni ochib beradi.

Zamonaviy ilmiy topilmalar va nazariyalarning falsafaga ta’siri haqida fikr yuritish, ularning har biri bir-birini tushunish uchun ajralmas ekanligini ko‘rsatadi (2). Darhaqiqat, ushbu falsafa fanning tarixi, sotsiologiyasi va boshqa tadqiqotlari, uning usullari, yutuqlari va istiqbollarni tushunishning asosiy sharti ekanligi ta’kidlaydi. Erkin iroda va determinizm kabi klassik falsafiy muammolar yoki ong tananing bir qismimi yoki sof moddiy olamda maqsad, aql va ma’no uchun joy bormi, ilmiy kashfiyotlar va nazariyalar tomonidan shoshilinch va shakllantiriladi. Ilm-fan to‘g‘risidagi bu qarashlar shubhasiz, tanqidiy tafakkurning rivojlanishiga ta’sir qilmay qolmaydi.

Falsafani ko‘r-ko‘rona, dogmatik ravishda emas, ongli o‘rganishda tanqidiy tafakkurning ahamiyati katta. Bu fikr hozirgi, ya’ni totalitar sotsializm mafkurasi ta’siridan qutulish, hosil bo‘lgan vaqtinchalik “mafkuraviy bo‘shliqda” millatimiz uchun zararli va yot mafkura va “ommaviy madaniyat” g‘oyalarining kirib kelishiga qarshi tura oladigan yoshlarni tarbiyalash zarurati keskin turgan davrga ayniqsa ko‘proq taalluqlidir. Shularga ko‘ra falsafani o‘qitishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish masalasiga ham alohida e’tibor berish zarur (3). Bunda avvalo shuni ta’kidlash joizki, aynan falsafa, ayniqsa, ratsionalistik falsafa tanqidiy tafakkur taraqqiyotining eng oliy namunasidir. Demak, ana shu falsafaning o‘z shakllanishi tarixidayoq turli qarashlar, yondoshuvlar, konsepsiyalar orasidagi ziddiyatlar mavjudligiga e’tibor berilsa, talabada tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uncha qiyin muammo emas. Lekin shunisi ham borki, biz hamon ko‘pchilik faylasuflarimiz totalitar sotsializm mafkurasi hukmronligi davrida falsafaning faqat bir oqimiga - ilmiy materializmga moyilligi saqlanayotgan va shunga ko‘ra ko‘pchilik darsliklar, o‘quv uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruzalar o‘sha eski qarashlarni saqlab turgan muhitda faoliyat bajarmoqdamiz (4). Demak, talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish ana shu totalitar mafkuraga oid muhit qarshiligini ham yengib o‘tishni taqozo etadi.

Innovatsion texnologiyalar talabalarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ularga o‘quv jarayonidagi yangi shakldagi intreaktiv usullar kiradi. Bu texnologiyalar bugungi kunda rivojlangan horijiy mamlakatlarning jumladan, Amerika Qo‘shma shtatlari, Germaniya, Yaponiya va Rossiya davlatlarining oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda keng qo‘llanilmoqda (6).

Tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun avvalo ushbu tafakkurning o‘zi qanday bo‘lishini aniqlab olishimiz kerak. Aslida, asl falsafiy tafakkurda skeptitsizm elementlari bo‘lishi zarur. Masalan, Pirron asos solgan skeptitsizning falsafiy tafakkur taraqqiyoti uchun ahamiyati beqiyos bo‘lgan. Vaholanki, tanqidiy tafakkurning shakllanishi nafaqat faylasuf uchun, balki har qanday kishining kundalik hayoti uchun ham, yirik davlat arbobining siyosat sohasidagi faoliyati uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Zero tanqidiy tafakkuri shakllangan kishini hech kim o‘z “marionetkasiga” ya’ni qo‘g‘irchog‘iga aylantira olmaydi va u o‘z hayotida boshqalarga nisbatan kam xatoga yo‘l qo‘yadi (7). Bu borada, masalan, “Qirol Sejong” nomli koreys serialida mazkur tarixiy shaxsning fazilatlarini yoritishda keltirilgan bir fakt, ya’ni qirolning o‘z fikriga qarshi chiqqan kishilarni davlat lavozimidan chetlashtirmasligi fakti diqqatga sazovor. Uning yaqinlari “nega bu odamni ishdan chetlashtirmayapsiz, u sizga xalal bermoqdaku?! deb so‘rganlarida



“siyosat benihoya nozik va murrakkab ish, agar qarshi fikrlarning yo‘li berkitilsa, xatolarga yo‘l qo‘yilishi muqarrar” deb qilgan javobi nihoyatda hikmatlidir (8). Lekin, tanqidiy tafakkur nimaligini tushunish borasida katta chalkashliklar ham mavjud. Bu chalkashliklar orasida eng yomoni kishining bu tanqidni faqat tashqariga qaratib, o‘zining xato va kamchiliklarini ko‘ra olmasligidadir. Shu kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun va talabadan salbiy ma‘nodagi “sofist” (demagog, safsataboz) kelib chiqmasligi uchun tanqidiy tafakkurning asosiy xususiyatlarini aniqlab olishimiz zarur.

Tanqidiy tafakkur muayyan ahborotni o‘zgarlar fikridagi xato va kamchiliklarni izlab topish maqsadiga emas, balki uni tahliliy o‘rganishga yo‘nalgan tafakkurdir. Shunga ko‘ra chinakam, oliy madaniyat doirasidagi tanqidiy tafakkur quyidagi jihatlarni o‘z mazmuniga qamrab oladi:

- a. o‘z fikriga qarshi turgan yangi fikr va g‘oyalar uchun ochiqligi;
- b. o‘z fikr va qarashlarida xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka, borlarini bartaraf etishga intilishi;
- c. turli fikrlar orasidan to‘g‘ri va noto‘g‘rilarini tarafkashlik qilmasdan, ya‘ni obyektiv ravishda farqlashga intilishi;
- d. o‘zi tushuna olmagan masala yuzasidan tanqidiy fikr bildirmaslik, tushunmasligini tan olish;
- e. fikrdagi asoslangan va asoslanmagan xatolarni farqlash va h.k.

Albatta, kishida bilimga kuchli qiziqish bo‘lsa, unda tanqidiy tafakkur madaniyati ham intuitiv yaxshi shakllangan bo‘ladi. Lekin talaba xarakterida oldindan shakllangan o‘z shaxsini ko‘z-ko‘z qilishga, maqtanishga moyillik, kibr kabi illatlar falsafani o‘zlashtirish uchun juda zarur bo‘lgan asl tanqidiy tafakkurning shakllanishi yo‘lida katta to‘siq bo‘ladi.

#### **Tahlil va natijalari:**

Darsda tanqidiy tafakkurni shakllantirishning o‘ziga xos zaruriy bosqichlari mavjud. Tanqidiy tafakkur murakkab tafakkur uslubi bo‘lib, uning shakllanishi axborotni passiv qabullashdan boshlab muayyan muammolar yemigi mustaqil kelishga qadar turli bosqichlarni ya‘ni fazalarni bosib o‘tadi. Tanqidiy tafakkur asl ma‘nodagi demagog bo‘lmagan faylasuflarda, genial olimlarda juda kuchli rivojlangan bo‘ladi. Demak, biz o‘z talabalarimizni global kompetentlik darajasi sifatida tarbiyalay olishimiz uchun unda avvalo tanqidiy fikrlash qobiliyatini uyg‘otish va rivojlanish uchun shart-sharoit yaratishimiz kerak (9). Bunda professor-o‘qituvchining ma‘ruzalaridagi tanqidiy ruh, tafakkur tarzi eng muhim va zaruriy shart-sharoit, zamin, asos bo‘lib hizmat qiladi. Ammo lekin tanqidiy tafakkur oson va tez emas, balki muayyan bosqichlarni bosib o‘tadigan murakkab nazariy va didaktik jarayon bo‘lgani uchun o‘qituvchidan muayyan metodik tayyorgalikni taqozo etadi.

Falsafa darslarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish asosan quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

*Birinchi bosqich:* tanqidiy tafakkur uchun shart-sharoit, zamin yaratish.

*Ikkinchi bosqich:* tanqidiy fikrlashga taklif etish ya‘ni chorlash.

*Uchinchi bosqich:* Materiallarni tanqidiy anglab yetish.

Tanqidiy tafakkur uchun shart-sharoit, zamin yaratish uchun professor-o‘qituvchining o‘zi tanqidiy tafakkurga ega bo‘lishi bilan birga talabalarga darslikdan tashqari yangi va muammoli materialni ham berib borishi kerak. Bu tanqidiy tafakkurni shakllantirishning birinchi bosqichini tashkil etadi.

Ikkinchi bosqichda professor-o‘qituvchi talabalarni shu yangi material ustida fikrlab ko‘rish va unga nisbatan o‘z munosabatini bildirishga taklif qiladi. Bunda fikrlab ko‘rish uchun



muayyan vaqt besh olti minutga qadar ajratish kerak. Bunda talabalar orasida jonli fikr almashinuvi jarayoni bo‘lishiga yo‘l qo‘yish zarur.

Uchinchi bosqichda talabalarning muhokama etilgan material yuzasidan baholovchi, xulosaviy fikrlarni eshitish. Bunda talaba fikrlarining asoslanganligi va aniq bo‘lishini talab qilish zarur.

Falsafani o‘rganishda tanqidiy tafakkurning konkret ahamiyati quyidagilardan iborat:

- tanqidiy tafakkur talabani muqobil fikrlashga va muqobil fikrlarni o‘rganishiga yordam beradi;

- ma’ruza materialini aniq va mustahkam tushunilishiga xizmat qiladi;

- darsni ko‘r-ko‘rona emas, ongli qabul qilishga, mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini shakllantirish, oldinga surish va asoslashga o‘rgatadi, kishining o‘ziga ishonchini orttiradi. Kishi shaxs sifatida shakllanishining asosiy faktori bo‘lib xizmat qiladi;

- tahlil etilayotgan material yoki masalaning yangi qirralarini ko‘rish, yangi masalalar va ular yechimining kashf etilishiga olib keladi;

- o‘zgaruvchan hayot tomonidan oldinga suriladigan yangidan yangi masalalarga mustaqil javob izlash ko‘nikmalarini tarbiyalaydi;

- o‘zga kishilar bilan muloqot uchun va jamiyat uchun ochiq bo‘lishni ta’minlaydi;

- to‘g‘ri shakllantirilgan tanqidiy tafakkur o‘zga insonlar fikriga hurmat, ular bilan erkin bog‘lanish, o‘zaro tushunish muhitini shakllantiradi.

Ayni paytda talabada muayyan masalalar yechimiga nisbatan intuitiv ishonch, e’tiqod mavjud bo‘lishi, lekin bu tafakkurda yuzaga chiqmasligi ham mumkin. Bunday hollarda pedagog yo talabaning intuitiv ishonchini ratsional asoslashlanishiga yordam berishi, yoki masalaning o‘zidan kelib chiqqan holda unga hozircha o‘z fikrini ifodalamasdan, chetda turishiga ruxsat berishi ham mumkin. Shuning bilan birga fikrlashda orqada qolgan va dangasalik qiladiganlar ham bo‘ladi. Bundaylarni baxsni qiziqarli qiladigan luqmalar bilan boyitish orqali hamda boshqa yo‘llar bilan munogaraga jalb etishga harakat qilish kerak.

Talabakarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda falsafiy debatlarining ham o‘rni kattadir. Seminar mashg‘ulotlarida falsafiy debatlarini “Aqlga hujum” metodi asosida o‘tkazining asosiy shart-sharoitlari ham mavjuddir. “Aqlga xujum” yoki “Breyn-storming” uslubi hozirgi davrda dars o‘tishning innovatsion metodlaridan biri sifatida oldinga surilgan. Aslida bu metod falsafiy darslarda ilgari ham qo‘llanib kelingan. Faqat hozir u boshqa metodlarga nisbatan ancha kengroq va yangicha xorijiy zamonaviy talqinida oldinga surilmoqda. Biz hozir shu metod mazmuni bilan yangicha talqinda tanishamiz.

“Breyn-storming” xorijiy rivojlangan ta’lim muassasalarida debat yuritishda keng qo‘llanadigan metodlardan biridir. “Debat” tushunchasi esa aslida “baxs yuritish” ma’nosini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, quyidagicha ta’riflanadi:

Debat bu turlicha qarashlardagi odamlar orasida sodir bo‘ladigan fikriy tortishuv jarayoni bo‘lib, unda qatnashuvchilarning har biri boshqalarni o‘z fikrining to‘g‘riligiga mantiqiy ravishda ishonitirishga harakat qiladi (10).

Debat qatnashchilari bir nechta oddiy qoidalarga amal qilishi talab qilinadi va ular quyidagicha:

*Birinchi*dan, debat qatnashchisi gapirayotganida gapini tugatmasidan turib uni tanqid qilmaslik. Zero, birinchi qarashda tushunarli va ahamiyatsiz bo‘lib ko‘ringan ba’zi fikrlar keyin

oldiga suriladigan muhim fikrlar uchun kirish yoki turtki beruvchi vazifani o‘tayotgan bo‘lishi mumkin.

*Ikkinchidan*, debatda bildiriladigan hech qanday fikrga g‘ayri oddiy, keraksiz, kurakda turmaydigan fikr deb qaramaslik kerak. Ayni paytda fikr mavzu doirasida, mavzu bilan uzviy bo‘lishi ham shart. Lekin ko‘pincha bir yaxshi, baquvvat fikrga yetib kelingunicha uncha yaxshi bo‘lmagan, sayozroq fikrlar oqimidan o‘tib borishga to‘g‘ri kelishi mumkinligini ham hisobga olish joiz.

*Uchinchidan*, debat yuritishda oldinga suriladigan fikrlar uch yoki to‘rtta fikr bilan cheklanmasligi, ya‘ni ko‘proq masalan, yigirma beshtagacha bo‘lishi maqsadga muvofiq. Chunki, fikrlar qancha ko‘p bo‘lsa, yakuniy xulosalar uchun shuncha mustahkam asos, poydevor yaratiladi.

*To‘rtinchidan*, “Aqliy xujum” metodi yaxshi ishlashi uchun fikr alashinuv jarayoni yaxshi yo‘lga qo‘yilishi kerak. Buning uchun fikrlarni turlicha kombinatsiyalash va o‘rinlarini almashtirish, bir biriga muvofiqlash, qayta tuzish ishlarini amalga oshirish kerak.

“Aqliy xujum” metodini avval kichik guruhlarda sinab ko‘rish, undan keyingina katta komandalar orasida ham o‘tkazish mumkin. Mazkur metod bo‘yicha ish olib borilayotganda guruh a‘zolaridan biri bildirilayotgan fikrlarini yozib borishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu metod qo‘llanganida shovqin, tartibsizlik bo‘lishi tabiiy. Shunga qaramasdan hammaga o‘z firini bildirishi uchun imkon berish kerak. Oldinga surilgan fikrlardan tartiblangan va aniq argumentlar ya‘ni dalillar hosil qilish mumkin bo‘ladi. Falsafiy debatlarda ishtirok etish ko‘nikmalar shakllanishining o‘z hayotiy shart sharoitlarivjuddir. Zero, biz kundalik hayotimizda hamisha fikrimizni dalillab turamiz. Masalan, ota-onamizga “Men bugun uyga odatdagidan kechroq qaytaman” degan fikrimizni bildirar ekanmiz, uni asoslashimiz, dalillashimiz kerak. Biz asoslanadigan fikr “argument” deyiladi. Argument tushunchasi ishonchli dalil, degan ma‘noni ifodalaydi. Shunga ko‘ra, biz, masalan, fikrimizni quyidagi tartibda dalillaymiz:

- A) Darsdan keyin men kutubxonaga, internet klubga bormoqchiman.
- B) Biz darslarimizda qiyin mavzuni o‘rganishni boshladik va men bu mavzu bo‘yicha asosiy materiallar bilan chuqurroq tanishmoqchiman.
- C) Bu mavzu bo‘yicha qo‘yiladigan baho butun semestr uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.
- D) Shuning uchun men bugun kutubxonaga borishim kerak.

Yuqoridagi misol dalillash (argumentatsiya) jarayonining umumiy sxemasini tuzish imkonini beradi. Shunga ko‘ra:

- birinchi bosqichda bildirilmoqchi bo‘lingan fikr oldinga suriladi;
- ikkinchi bosqichda oldinga surilgan fikrning sababi tushuntiriladi;
- uchinchi bosqichda fikr dalillanadi (asoslanadi);
- to‘rtinchi bosqichda fikr xulosalanadi.

Debat yuritishda ham uning qatnashchilari o‘z fikrlarini shu tartibda asoslashlari talab qilinadi. Argumentlashning yuqoridagi sxemasi va strukturasi debat yuritishda endigina qatnashayotganlar o‘z nutqlarini tashkillashni o‘ranishlari uchun yordam berishi ko‘zda tutiladi. Shuningdek, debat yuritishda fikrning aniq ifodalanishiga ham e‘tibor berish joiz. Quyida biz debatlar o‘tkazishning asosiy bosqich va shartlari bilan tanishamiz.

Argumentlash ya‘ni fikrni dalillashni to‘g‘ri amalga oshirish uchun debat qatnashchilari avvalo ishchi varaqlarini tayyorlashlari zarur. Debat uchun ishchi varaqlarini tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

A) Debat o‘tkaziladigan mavzuning nomi yoziladi. Masalan,: “Falsafada borliqning substansiyasi muammosi”.

B) Debat yuritish uchun mavzuning ajratib olinadigan masalasi. Masalan, “Materiya va g‘oya orasidagi munosabat masalasi”.

V) Talabalar tomonidan oldinga suriladigan fikrlar. Ya’ni, talabalar qanday fikrni oldinga surishlariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi.

Shundan keyin oldinga surilgan fikrlarni argumentlash jarayoni boshlanadi. Argumentlash, biz yuqorida keltirgan sxema asosida amalga oshiriladi. Fikrni oldinga surish – fikrni tushuntirish – fikrni asoslash – xulosalash.

Har bir bosqich batafsil yoritilishi va ishchi varog‘ida yoritilishi kerak. Masalan, A)guruhda mazkur masala bo‘yicha qanday fikr oldinga surilgani,; B) shu fikrni oldinga surilishi sababi batafsil yoritilishi; V) fikrning argumentlanishi, qanday asosga tayanib shu fikr oldinga surilganini ifodalash; G) dastlab oldinga surilgan fikr yoki uning sababini takroran ma’qullash.

Va nihoyat endi debatga tayyorlanish jarayoni mazmuniga nazar solaylik. Bu mazmun birinchi o‘rinda debat uchun axborot to‘plash jarayonini o‘z ichiga oladi. Talaba o‘z fikrlarini puxta asoslash uchun debatga hakamlik qiluvchilarni ishontirishga xizmat qiladigan ko‘p axborotni, misollarni, faktlarni, iqtiboslarni tanlashi va to‘plashi kerak. To‘plangan material “dalil-isbotlar banki” yoki “axborot banki” bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun debatga tayyorlanishning muhim qismini axborot yig‘ish jarayoni tashkil etadi.

Axborotni to‘plashda kutubxona, kompyuter tarmoqlari, soxa mutaxassislarining fikrlari bayon etilgan nashrlar, sotsiologik tadqiqotlar, jamoatchilik fikrlari, statistika, demografiya materiallari va h.k.dan foydalaniladi. Lekin debatga tayyorlanishda talaba axborotni oddiy yig‘ishdan iborat emasligi, balki unga tadqiqotchi ko‘zi bilan qarashi kerakligini nazarda tutishi kerak. Talaba debat mavzusiga oid kuchli g‘oyalar ishlab chiqilgan manba’larni izlab topishi, ularni saralashi va tasniflashi, qiyosiy tahlil etishi, keyin ulardan olingan dalillarni mantiqiy va aniq ifodalash, tizimlashtirish, ya’ni debatda qo‘llash uchun tayyor holga keltirish kerak.

O‘qituvchi talabalarga debat argumentini uchun kitob tanlash borasida maslaxat berishi joiz. Bunda, avvalo, kitobning mavzuga oidligini tezda aniqlashdan ish boshlanadi. Buning o‘z uslubi bor:

Birinchi, kitobning nomiga e’tibor berish katta ahamiyatga ega. Dastavval kitobning nomidan uning mavzuga oidligi va muallifning unga yondoshuvini aniqlash mumkin.

Ikkinchi, kitobning nomi umumiyroq va kitob keng mazmunni qamrab olgan bo‘lsa, uning mundarijasiga alohida ko‘z yugurtirib chiqish kerak.

Uchinchi, kitobning so‘zboshisi (Kirish, Muqaddima) e’tibor berish kerak.

To‘rtinchi, kitob ilovalari ham unda yoritilgan asosiy g‘oya va tushunchalarni oldindan ko‘rishga yordam beradi. Ko‘pchilik kitoblarda, ayniqsa, fundamental ishlarda kitobda ishlatilgan terminlar tushuntirilgan, muallif tilga olgan ismlar ro‘yxati ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Beshinchi, kitobning ayrim qism va mavzularini tanlab ko‘z yugurtirib chiqish ham unda yoritilgan mavzular haqida dastlabki tasavvurni beradi.

Oltinchi, kitob bibliografiyasini ko‘zdan kechirishning ham ahamiyati katta. Xullas, talaba bu bosqichda kitobni oldindan ko‘rib chiqish ko‘nikmasini hosil qilishi kerak. Bu ko‘nikmani xosil qilishda birnecha kursdoshlar bilan hamkorlikda ishlash yordam beradi. Kursdoshlarning har biri beshtadan kitobni tanlab olib, tez ko‘zdan kechirishadi va uning mavzuga oidligi, debat argumenti uchun material sifatida ishlatish mumkinligini borasida

maslaxtlashishadi. Debat argument sifatida tanlangan materialning, ya’ni sitatalar (ko‘chirmalar), misollar va h.k.ning qaysi manba’dan olingani muhim ahamiyatga ega. Chunki debatning muvaffaqiyati argumentlarning ishonchli, kuchli materialdan olinganiga bog‘liq. Albatta debatda foydalanish uchun qanday manba’lar ishonchli hisoblanadi degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Birinchidan, kitob mazmunida mutaassiblik (no xolislik) bo‘lmasa.

Ikkinchidan muallif asossiz (sayoz) va taxminiy fikrlarga emas, aksincha, kuchli nazariy ta’limotlar, g‘oyalar va faktlardan kelib chiqadigan xulosalarga tayangan bo‘lsa va bunda kitob snoskalari va bibliografisini ko‘zdan kechirish yordam beradi.

Uchinchidan, muallifning o‘zi ham ko‘pchilik tomonidan o‘z soxasining bilimdoni sifatida tanilgan va keng jamoatchilik ma’qullagan bo‘lsa, bunday manba’lar ishonchli hisoblanadi.

Kitobda muallifning subyektiv fikrlari va qadriyat haqidagi o‘z subyektiv qarashlari ham bo‘ladi. Kitob bilan ishlaganda ularni ham ajratib olish kerak. Chunki, talaba debatda o‘z fikrini asoslashda ularni ikkalasidan (obyektiv va suyektiv g‘oyalardan) ham foydalanishi mumkin.

**Xulosa:** Shunday qilib, debatda muvaffaqiyatga erishuv unda oldinga surilgan fikrni asoslashda tayanilgan manba’ning, ya’ni argumentning qanchalik ishonchli ekaniga bog‘liq ligini hisobga olish kerak. Ayni paytda opponent qanday qarshi dalillarni oldinga surishi mumkinligini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Debatga argument sifatida taqdim etiladigan manba’ni dalillash qiyin. Chunki, debatda undan juda kichik qism – iqtibos (sitata) olingan bo‘ladi va unga faqat “yo‘l-yo‘lakay” murojaat etiladi. Shuning uchun debatda qatnashayotgan komandalar o‘ziga qarshi fikrni oldinga surayotgan komandaga savollar berish vaqtida uning tomonidan foydalanilgan manba’ni aniqlash taktikasidan foydalanadi. Ya’ni manba’da mutaassiblik, yuzakilik, asoslanmaganlik bormi yo yo‘qmi ekanini aniqlashga harakat qiladi. Lekin, mutaassiblik borligini tan olish mumkinligini hisobga olish ham debat etikasi uchun muhim ahamitga ega.

Axborotni tizimlash debatga tayyorlanishning ikkinchi muhim jxatini tashkil etadi. Axborot yetarlicha to‘plab olinganidan keyin baxs vaqtida foydalanish oson bo‘lishi uchun uni tartiblashgan tizim holiga keltirish zarur. Buning uchun argumentlar misollar, sitatalar, faktlar, statistika materiallari kabi ko‘rinishda yozilgan kartochkalar tayyorlanadi. Kartochkalarda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

1. Bibliografik ko‘rsatkichlar (kitob yoki maqolaning nomi, muallifi, nashriyot nomi, nashr etilgan vaqti, agar maqola jurnalda nashr etilgan bo‘lsa, jurnal nashrining soni, sitata, misol, fakt va b. olingan betlar).

2. Fikrni tasdiqlash tipi (misolmi, sitatami, faktmi, statistika materialimi va h.k.).

3. Tayaniladigan axborotning o‘zi. Axborot mazmunini so‘zma-so‘z yozish ham, qisqartirib yozish ham mumkin. Keyingi holda sitata mohiyatining o‘zgarib ketmasligi, fikrning muhim elementi tushib qolmasligi zarur.

Ba’zi materiallar, ayniqsa sitatalar birnecha abzasdan iborat bo‘lishi va qisqartirilmagan varianti ham kerak bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda sitataning aslidan nusxa (kserokopiya) olish maqsadga muvofiq. Bu debat qatnashchilaridan birontasida shubhaga o‘rin qolmasligi uchun kerak bo‘ladi. Bundan tashqari raunddan keyin hakamlar ham sitata nusxasini tekshirib ko‘rishlari mumkin bo‘ladi. Ayni paytda komanda o‘z raqiblari sitatalari va h.k.ni tekshirib bora oladi. Shunga ko‘ra sitatati va h.k. yozilgan kartochkalarni oson topish uchun rubrikalarga (sarlavha bilan ajratilgan bo‘limlarga) taqsimlash va tegishli belgi qo‘yish foyda beradi. Baxsda o‘z fikrini tasdiqlash etikasi. Mashg‘ulotdagi baxsda oldinga surilgan fikrni tasdiqlash uchun saralab olingan

axborot ba’zasiga tayanish kerak. Bu baxs etikasini ta’minlash uchun zarur. Baxsda etikaga rioya etilmasa, baxs o’z sifatini o’zgartiradi, ya’ni baxs emas janjalga aylanadi.

Agar talaba opponent keltirgan dalillarda etika buzilganini sezsa, u o’z raqibini quruqdan quruq ayblamasligi, balki o’z fikrini asl manba’ asosida isbotlashga intilishi kerak. Shuningdek, agar raqobatchi tomon argumentlari sun’iyligiga aniq ishonch bo’lsa, u holda raqibga bu haqida aytish va muammoni musobaqadan tashqari vaqtda aytish kerak. Chunki, ba’zan kishi buni ataylab qilmagan bo’lishi va xatosini tuzatishi ham mumkin.

Fikrni tasdiqlashda uni tasdiqlovchi jihatlar miqdorining ko’pligi emas, balki taldiqning sifati muhimroqdir. Shuning uchun debatda tasliqning to’g’ri ifodalanishiga, to’g’ri talqin etilishiga e’tibor berish kerak. Lekin, ifoda yaxshi chiqmasa ham, ayniqsa baxs yuritishni endigina o’rganayotganlar uchun bu xali jiddiy muvaffaqiyatsizlik emas. Chunki, birqancha fikr-muloxazalar zanjiridan keyin to’g’ri xulosalar, tushunish va talqinlar yuzaga chiqishi mumkin. Lekin baxs jarayonida bu zanjirni oldindan tasavvur etib bo’lmaydi. Shuning uchun talaba asosiy e’tiborini o’z xulosalarining ishonchli bo’lishiga qaratishi maqsadga muvofiq.

Baxsda keltiriladigan dalil va xulosalar raqobatchi komandalarning dalil va xulosalariga muvofiq kelishi kerak. Debatda tayaniladigan asoslar (agar baxs kundalik mavzuga oid bo’lsa) eskirib ketmagan, debat mavzusiga muvofik hamda keltirilgan manba’dan topish mumkin bo’lishi ham kerak.

## **REFERENCES**

1. Schmidt R A, Jones P, Bennison D and Davies B J 1994 Journal of Further and Higher Education 18 75–84.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sulstonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o’quv qo’llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Shermuhamedova N. Falsafa. – Toshkent: Idris Abdurauf Nashr, 2021.667-b
6. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To’rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015 –81-b.
7. Maxmudova D.M. Muammoli ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Ped. fan. dok.... disser. Avtoreferati. –2022.
8. Muhammadjonova L.A. L.A. Abdulla Sher, Shodimetova G. Axloq falsafasi. – Toshkent: Vneshinvestprom, 2023
9. Qaxxarova, M. (2021). Social-spiritual environment of society and spiritual ideal. Oriental Journal of Social Sciences, 32 p.
10. Ruliene L.N. Blended learning as an instrument of lifelong education <https://cyberleninka.ru/article/n/blended-learning-as-an-instrument-of-lifelong-education/viewer>



## **ILMIY TADQIQOT, TA’LIM MUASASSALARI VA ISHLAB CHIQRISHDA INTEGRATSIYON YONDASHUV**

**Umirzaqova Nargiza Baxodirovna**

Oriental universiteti Tarix yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160038>

***Annotatsiya.** Fan-ta'lim-ishlab chiqarishni integratsiya qilishda uchrayotgan muammolarni bartaraf qilish va integratsiyalash jarayoni yakunida ko'zda tutilgan istiqbollari haqida mulohaza qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** integratsiya, inovatsiyon texnologiyalar, Ilm-fan, texnologik va korporativ pozitsiyalar, integratsion ta'lim klasteri.*

***Аннотация.** Обсуждаются проблемы, возникающие при интеграции науки-образования-производства, и перспективы, предусмотренные по итогам интеграционного процесса.*

***Ключевые слова:** интеграция, инновационные технологии, наука, технологические и корпоративные позиции, интегрированный образовательный кластер.*

***Abstract.** The problems encountered in the integration of science-education-production and the prospects envisaged at the end of the integration process are discussed.*

***Keywords:** integration, innovative technologies, Science, technological and corporate positions, integrated educational cluster.*

### **Kirish.**

Hozirgi vaqtda yurtimiz iqtisodiyoti va uning ishlab chiqarish salohiyati jahon talablariga mos ravishda shakllanib bormoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarini o'zaro integratsiyalash jahon talablariga mos ravishda faoliyat yuritishning asosi hisoblanadi.

Nafaqat iqtisodiy sohani balki ilm-fan va ta'limni ham bevosita iqtisodiyotimiz ishlab chiqarish salohiyatimiz bilan bog'liq holatda amalga oshirish uni jahon talablarga mos ravishda shakllantrish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda integratsiya atamasi jahonda turli sohalarni, masalan, ijtimoiy, mintaqaviy, iqtisodiy, diniy, irqiy, tashkiliy integratsiya kabi sohalarni qamrab oladigan ijtimoiy tushuncha sifatida ishlatilmoqda.

So'ngi vaqtlarda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar provard natijasi ong-tafakkuri ozod inson shaxsini tarbiyalash ekan bu o'z o'zidan integratsion ta'lim klasterlari tuzishni taqazo etadi. Shu o'rinda yuqoridagi barcha jarayonlarni tahlil qilgan holatda maqolada fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va istiqbollari haqida fikir yuritimiz. Quyida:

- Integratsiya o'zi nima?
- Ta'lim tizimidagi ahamiyati nimada?
- Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishda integratsiya qanday amalga oshiriladi? Kabi savollarga javob olishingiz mumkin.

### **Adabiyotlar tahlili**

Integratsiya lotincha integratio – tiklash, to'ldirish hamda integer – butun so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, qismlarni bir butunga aylantirish uchun ularni birlashtirish, qo'shish yoki bir-biriga almashtirish harakatidir[1].

Ta'limda integratsion yondashuvning zarurati: O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish to'g'risidagi Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari” deb nomlangan 4-qismini 4.1. bandida yaqin besh yilda aholini ish bilan bandligi va real



daromadlarini izchil oshirish, buning uchun esa “yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta‘minlash”[2] kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan edi.

Sh.M.Mirziyoyevning “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI” nomli asarida sifatli ta‘lim - inson kapitalini rivojlantirishning xal qiluvchi omili to‘g‘risida gapirib, bunda uzluksiz ta‘lim tizimi uchun milliy o‘quv dasturini joriy etish, ta‘lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e‘tibor berib o‘tgan[3]. Bu masalalarni bugungi mehnat bozori tamoyillari asosida hal etishda “fan-ta‘lim-ishlab chiqarish” innovasion hamkorligini amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev raisligida joriy yilning 16 iyun kuni oliy ta‘lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida 4 ta ustuvor vazifani ko‘rsatib o‘tdi:

Birinchisi – oliy ta‘lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish.

Ikkinchisi – o‘quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta‘minlash va talabning o‘z ustida ishlashi uchun muhit yaratish.

Uchinchisi – oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish.

To‘rtinchisi – professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun qog‘ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish. Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta‘lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta‘kidlandi va amalyotga tadbiq etilmoqda.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta‘lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, O. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (Zverev, MA Oanilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova, Meller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.I. Vergeles), metodist olimlarning (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan[4, 215-217].

### **Tahlil va natijalar**

20-asrda avtonom ilmiy-tadqiqot institutlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimi tahlilini yuritgan holatda unga mos ravishdagi nazaryalarni amalyotga joriy etish bilan shug‘ullangan. Mutaxassislar tayyorlash bilan shug‘ullanadigan universitet va institutlar keng ko‘lamli tadqiqotlar bilan shug‘ullanmagan. Shuningdek, 21-asr boshlarida ta‘lim va tadqiqot bir-biridan ajralib turgan mamlakatlar oliy ta‘lim muassasalaridan yetishib chiqqan kadrlarining raqobatbardoshligi va innovatsion texnologik ishlanmalarning rivojlanishi bilan bog‘liq jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechira boshladilar. Shu vaqtdan ayrim malakatlarda ilm-fan va boshqa ta‘lim muassasalar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish boshlandi. Innovatsion tipdagi iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ushbu sohadagi vaziyat sezilarli darajada o‘zgardi.

Tadqiqot mehnat bozorida talabga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun asos bo‘lishi kerak. Shunday qilib, ilmiy tadqiqot markazlari nafaqat ilmiy bilimlarni yaratish va tarqatish, balki ishlab chiqarishda kadrlar, texnologik va korporativ pozitsiyalarni shakllantiradi hamda amalyotda uzviy qo‘llab boradi.

### **Muhokama**

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e’tibor kuchaydi. Shuning uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va unda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o’rganish hamda ilg’or xorijiy tajribadan foydalanish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda o’zaro hamkorligi masalasini tadqiq etish xorijiy olimlar tomonidan o’rganilib kelinmoqda. Lekin ular tadqiqotlari bilan tanishish mazkur masalaga turli yondoshuv va qarashlar mavjudligini kursatadi. Moddiy mahsulotdan farqli ravishda oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoni va uning sifatini aniqlash juda ko’p o’ziga xos xususiyatlarga ega.

Kadrlar tayyorlash va uning sifatini oshirish masalalarini tadqiq etgan mahalliy hamda xorijiy olimlar asosan mavzuga sotsiologik va pedagogik nuqtai-nazardan yondoshganlar. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va uning ta’lim sifati hamda mehnat bozori talabiga moslashuvchan kadr tayyorlashdagi roli va uning samaradorligini oshirishda iqtisodiy-huquqiy mexanizmlardan foydalanish masalalari o’rganilmagan.

Oliy ta’limda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta’lim sifatiga ta’sirini baholash va ushbu mexanizmdan samarali foydalanish yo’llarini belgilashga oid tavsiyalar berish maqsadida avvalo ta’lim sifati tushunchasi mazmuni to’g’risidagi qarashlarni o’rganish zarur. Ta’lim sifati, uning mazmuni va fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi to’g’risidagi qarashlarni o’rganish asosida ta’lim sifatini yaxshilashdagi rolini oshirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlar bo’yicha belgilangan ustuvor vazifalar maqsadga muvofiqdir.

Akademik A.Novikov fikricha, «Ta’lim sifati deganda - me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxs ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim natijasi darajasini ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimi tushiniladi»[5]. Olimning fikricha ta’lim sifati komponentlari me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojdan iborat. Uni baholash uchun esa ushbu komponentlar darajasini ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimini aniqlash zarur.

A.M.Katsning fikricha “Ta’lim sifati shaxs, jamiyat va davlatning belgilangan talablarini qondirish darajasini ifodalovchi ta’lim elementlari yig’indisi” hisoblanadi [6].

V.A.Malkova “Ta’lim sifati - o’quvchining mavjud ijtimoiy sharoitlarga moslashishini ifodalovchi munosabatlar tizimi”, degan qarashni ilgari surgan [7]. Fikrlar va qarashlarni umumlashtiradigan bo’lsak, ta’lim sifatida shaxs, jamiyat hamda davlat manfaatlarini uyg’unligini ta’minlanishi muhim jihat hisoblanmoqda.

Demak, bu borada yetarlicha ta’riflar va nazaryalar mavjud. Bu muammolarni yo’qotish va ta’lim orqali fanni, fan orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun integratsiyani amalga oshirish zarur.

V.A.Slastyoninning fikricha, “innovatsiya” maqsadga qaratilgan o’zgarish bo’lib, qo’llanish sohasidagi tizimni bir holatdan sifat jihatdan yangi holatga o’tkazish, uni tubdan takomillashtirishni, innovatsion jarayon-yangilikni yaratish, o’zgartirish, qo’llash va tarqatishdagi kompleks faoliyatni anglatadi [8]. Innovatsiyalar nafaqat ta’limni balki, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida ham ijobiy o’zgarishlarga olib keladi.

### **Xulosa**

Ta’lim jarayonida yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o’n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O’quv jarayonida o’qituvchi bir yoki bir necha

mashg‘ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub‘ektiv yangi bilimga — olib kelishi kerak bo‘ladi. Ya’ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, u fanlararo aloqalarni o‘rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog‘lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog‘lanish, ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muasasalari va ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan har bir shaxs, rahbar va ilmiy xodim integratsiya va innavatsion- korporativ hamkorlik yordamida sifatini ta’minlash uchun zamonaviy yondashuvlar asoslarini bilishlari maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuvlar asosida o‘quvchilarga ta’lim dargohlarida olgan bilimlarini limiy tadqiqot muasaslarida mustahkamlash, ishlab chiqarish soha va tarmoqlarida amaliy jihatdan ko‘rib chiqish imkoniyati yaratilgan bo‘lar edi.

## **REFERENCES**

1. Nazarova G. Xalqaro iqtisodiyot integratsiya –Toshkent: Tafakkur-2010.-B.36.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947-son farmoni // Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.
3. Sh.M.Mirziyoyev “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI”. -Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.
4. Yo‘ldoshev A., Ochilov U. (2022). Uyg‘onish davri va uchunchi renessans poydevori: vorisiylik va o‘ziga xoslik // Markaziy osiyo uyg‘onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari: mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumani materiallari. –Guliston: Universitet, -B.215-217.
5. Новиков А.М., Д.А. Новиков, «Как оценивать качество образования?», [www.anovikov.ru](http://www.anovikov.ru), (Муаллиф таржимаси).
6. Кац А.М. [www.mathnet.ru/at13796](http://www.mathnet.ru/at13796)автор: АМ Кац. Теория и применение регуляторов скорости с упруго-присоединенным катарактом. А. М. Кац. Центральный научно-исследовательский дизельный.
7. Малькова В.А. [studopedia.ru/11\\_140699\\_vnmalkova.html](http://studopedia.ru/11_140699_vnmalkova.html)13 июн. 2015 г. - Новое понимание качества образования формируется в ответ на вызовы со стороны мирового сообщества, страны, области, города.
8. В.А. Слостёнин и др. Педагогика: учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений. М.:, 2015 г. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1 / March 2022 ISSN 2181-063X
9. G‘affarova G.G‘., Yo‘ldoshev A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati // International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions”. – Angliya, 28 mart,-P.322-328.

10. Berkinov O.T. (2022). Changes in media culture and human thinking // Инновации в технологиях и образовании: XV Международная научная конференция. – Болгария, март, –С.16-17.
11. Berkinov O.T. (2022). Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va “kelajak” // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son, -B.181-187.
12. Yo‘ldashev A. A. (2019) Ta’limga e’tabor - kelajakka e’tabor // Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta’lim: muammo va yechimlar: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent, 340-341 betlar.
13. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)
14. [yuz.uz](http://yuz.uz)

## **MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM UZVIYILIGINI TA’MINLASH MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH**

**Nuridinova Robiya Bekjonaliyevna**

Xalqaro Nordik Universiteti 1 – kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160048>

***Annotatsiya.** Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning bosh bo‘g‘ini hisoblanadi va tarbiyalanuvchularni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalab maktab ta’limiga tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlarining uzviyligini ta’minlash hamda mavzulardagi o‘zaro integratsiyasini ta’minlash orqali bolaning maktab muhitiga adaptatsiya jarayonini shakllantirish mumkin. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayonida uzviylikni ta’minlashni Fin ta’limi tizimi asosida tashkil etishni ko‘rish mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, uzviylik, uzluksizlik, PISA, ta’lim – tarbiya, Fin ta’limi, maktabga tayyorgarlik, adaptatsiya, ko‘nikma, qobiliyat, integratsiya.*

***Аннотация.** Система дошкольного образования является основным звеном непрерывного образования и имеет особое значение в подготовке учащихся к школьному обучению. Сформировать процесс адаптации ребенка к школьной среде можно путем обеспечения согласованности программ дошкольного и начального образования и взаимной интеграции предметов. В данной статье можно увидеть организацию преемственности в процессе дошкольного и начального образования на основе финской системы образования.*

***Ключевые слова:** система образования, последовательность, преемственность, PISA, образование, финское образование, подготовка к школе, адаптация, навыки, способности, интеграция.*

***Abstract.** The preschool education system is the main link of lifelong education and is of particular importance in preparing students for school education. The process of adaptation of a child to the school environment can be shaped by ensuring consistency between preschool and primary education programs and mutual integration of subjects. In this article you can see the organization of continuity in the process of preschool and primary education based on the Finnish education system.*

***Keywords:** education system, consistency, continuity, PISA, education, Finnish education, school preparation, adaptation, skills, abilities, integration.*

### **KIRISH**

Mamlakatimizni gullab-yashnashi va jahon miqyosida munosin o‘rin tutishi uchun hamda jamiyatimizning rivojlanishiga, eng avvalo, farzandlarimizning har tomonlama yetuk, bilimli va salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu maqsadga erishishda uzluksiz ta’limda uzviylikka erishish katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limda uzviylikni taminlash maqsadida ta’lim berish jarayoni avvalgisining negizida yuzaga kelishi, o‘quv jarayonining barcha bosqichlari hamda mashg‘ulotlarida o‘zaro integratsiyaning mavjudligi, o‘quv dasturlardagi mavzularning takrorlanishlarning bo‘lmasligi hamda mavzularning soddadan murakkabga qarab borishini taminlash alohida ahamiyatga ega.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**



Ta’lim sohasi mamlakatimizda rivojlanib borayotgan ijtimoiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. 2020- yil 23- sentabrda O‘RQ- 637- sonli “ Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasining qonuni tasdiqlandi. Qonunda ta’lim turlari:

- ◆ Maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- ◆ Umumiy o‘rta va o‘rta maxsusta’lim;
- ◆ Professional ta’lim;
- ◆ Oliy ta’lim;
- ◆ Oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- ◆ Kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish;
- ◆ Maktabdan tashqari ta’lim kabi ta’lim turlari uzluksizligi va uzviyligini, mazmun jihatdan ketma- ketligini ta’minlashga katta e’tibor berilmoqda. [1]

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim va tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratilib, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni ta’lim va tarbiyalashda, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turini takomillashtirish va bu ikki ta’lim turlari aro o‘quv dasturlarining va ta’lim jarayoni uzviyligini taminlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6- noyabrdagi Talim- tarbiya va ilm fan sohaslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora- tadbirlar dasturining 4- bandida Maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ijro uchun ma’sullar etib, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, maktabgacha ta’lim vazirligi, Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi etib tayinlangan ( bugungi kunda “ Maktab va maktabgacha ta’lim” vazirligi etib yuritiladi). [2]

### **MUHOKAMA**

Birinchi sinf o‘quvchilarini yangi o‘quv muhitiga adaptatsiya jarayoni ancha qiyin kechadi. Mutaxassislar bu masalani atroflicha o‘rganib quyidagi xulosaga kelishdi, birinchi sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashuvini tezlashtirish hamda jamiyatga muvaffaqiyatli qo‘shilishi uchun maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim ishida uzluksizlikni ta’minlash degan xulosaga kelishdi.

Maktabgacha yosh davri (3 yoshdan 7- yoshgacha) asosiy bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Bu davrda bolalar bilish jarayoni- idrok, xotira, hayol, tasavvur va tafakkur qilish jarayoni faol sodir bo‘ladi. Bu jarayonni to‘g‘ri tashkil qilish uchun nafaqat maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimidagi uzluksizlikni ta’minlagan holda yaxlit muhitni tashkil qilish kerak, balki har bir ta’lim jarayonidagi mavzular o‘rtasidagi uzviylikni taminlash ham alohida ahamiyatga ega. Uzviylik bo‘yicha vazirliklararo xamkorlikning dastlabki kunlaridanoq maktabgacha ta’lim hujjatlari mazmuni bilan boshlang‘ich sinf bilan bog‘lanishiga e’tibor qaratildi. Jarayonda UNISEF xalqaro bolalar fondi mutaxassislari ishtirokida Estoniya, Finlandiya, Janubiy Kareya va polsha davlatlarining tajribasi o‘rganilgan. [3]

Finlandiya maktab o‘quvchilari PISA (Xalqaro talabalar ta’lim yutuqlari tadqiqotlari) xalqaro tadqiqotlarida qoyilmaqom natijalarga erishdi. Bu muvaffaqiyatning siri nimada? Barchasining asosida boshlang‘ich o‘rta maktabning yagona tuzilmasi va unga biriktirilgan holda, o‘quvchilar faravonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan turli toifadagi xizmatlar yotibdi. Boshlang‘ich maktab - bu ma’lum ma’nodagi fin jamiyatining mitti holatidir. Turli xil oilalardan kelgan va turli darajadagi iqtidorga ega bo‘lgan o‘quvchilar bir guruhda o‘qimoqda.

Ikkinchi omil- bu ta’lim vazifalari bilan bir qatorda, bolalarning ijtimoy , axloqiy va jismoniy rivojlanishi bo‘yicha farqlarini ham e’tiborga oluvchi o‘quv rejasidir. Tabiiyki oliy

ma'lumotli va o'z ishiga sodiq bo'lgan malakali o'qituvchi markaziy omil bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar o'z ishlarida keng miqyosdagi pedagogik muhtoriyatga va ham o'z o'quvchilarining ota-onalari ham boshqaruvning ishonchiga ega. Bu finlandiyadagi maktablarga davlat kamissilarining kelmasligi va faoliyat ustidagi ta'lim organlari nazoratining ham yo'qligini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim bu- kelajakka ko'prik va boshlang'ich o'rta maktab ushbu ko'prikni ko'tarib turuvchi ustundir. [4]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilarga Vatanni sevish, asrab-avaylash u bilan g'ururlanish kabi xissini uyg'otish, jamiyatga moslashishini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda savodxonlik, nutq o'stirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish kabi frontal mashg'ulotlar hamda 5ta rivojlanish burchaklaridagi mashg'ulotlar orqali bolalar boshlang'ich bilimlarni oladi. Bolalarning yetakchi faoliyati o'yin ekanligini inobatga olgan holda barcha mashg'ulotlar o'yin tarzida va qiziqarli metodikalar tarzida olib boriladi. Barcha frontal va rivojlanish markazlaridagi mashg'ulotlar bolaning yosh xususiyatiga mos va xos tarzda va diqqatini e'tiborga olgan holda tashkillashtiriladi. Boshlang'ich ta'limda esa bu jarayonni avvalgisini negisidan olgan holda, ham o'quv dasturlaridagi integratsiyasini taminlab, o'quv jarayonini to'g'ri tashkillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishida bolaning turmush tarzida, ahloqi, qiziqishi, munosabatlarida, anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham bolalarga maktabgacha ta'lim hamda oilada uncha murakkab bo'lmagan va soddadan murakkabga qarab ketuvchi bilim, ko'nikmalar, tushunchalar berib boriladi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra “ Maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- ❖ jismoniy;
- ❖ shaxsiy ( ruhiy);
- ❖ aqliy;
- ❖ maxsus tayyorgarlik. [5]

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lig'ini, harakat ko'nikmalarini bajara olishi hamda rivojlanish darajasining qay darada ekanligini anglatadi, shaxsiy ya'ni ruhiy tayyorgarlik bolaning atrofda yuz berayotgan vadea- hodisalarga munosabatida, tengdoshlariga hamda jamiyatdagi insonlarga bo'lgan munosabatida, o'zini tuta bilishida namoyon bo'ladi. Maktabga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim- tarbiyaviy ishining muhim yakuni sifatida qaraladi. Bolani yetakchi faoliyati bo'lmish o'yin faoliyatidan maktab muhitida o'quv faoliyatiga o'tadi, ma'lum erkin faoliyatdan farqli o'laroq majburiy bo'ladi. Faoliyatning o'zgargani hisobiga bola kundalik hayot jarayonlarini qayta quradi. Bolaning mustaqilligi, ijtimoiylashuvi, atrofdegilarga munosabati, intizomlilik talablari ortadi, shaxsiy ma'suliyati ancha- muncha oshadi. Bunday muommolarni yechimini topishimiz uchun biz pedagoglar, bolalarning o'zlashtirishda yuqori ko'rsatkichlarni qo'lga kiritishimiz kerak. Bu ko'rsatkichlarga erishish bir qator omillarning faoliyati natijasidir:

- ◆ ta'lim tizimining tuzilishi, uzluksizligi va o'zaro uzviyligi;
- ◆ qaror qabul qilishning taqsimlangan vakolatlari va maktablarning ta'lim tarbiya berishdagi muxtorligi;
- ◆ ta'lim- tarbiya jarayoning o'quvchiga moslashganligi;

◆ o‘quv jarayonida ma’lum qiyinchiliklarga duch kelgan o‘quvchilar uchun alohida ta’lim tizimi;

◆ o‘quvchilarga har tomonlama yordam berish tizimi;

◆ malakali hamda tajribali, o‘z kasbini sevadigan pedagoglar jamoasi.

### **XULOSA**

Muhtasar qilib aytganda, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning birinchi va bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. U bolaning har tomonlama psixologik, jismonan va ruhan barkamol etib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi. Tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart- sharoitlar yaratish, moddiy- texnik bazasini yanada takomillashtirish, MTTga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb qilish alohida ahamiyatga ega. Tarbiyachilar tomonidan o‘quv dasturlari o‘zlashtirilib, davlat talablari asosida zamonaviy o‘quv- metodik majmualar, didaktik va ko‘rgazmali o‘quv materiallardan to‘la qonli foydalanishi kerak. Finlandiya o‘quv jarayonining asosiy yutug‘i o‘qituvchilar, o‘quv dastur va qo‘llanmalardan to‘liq, kerakli va samarali foydalanishadi. Ular bu qo‘llanmalarni qimmatli ko‘makchilar deb qarashadi. Ularga tayangan holda darslarni osonroq va tezroq rejalashtirish mumkin, o‘quv boshidan boshlab ishlab chiqishga alohida darslarning mavzularini o‘ylab topishga zarurat qolmaydi.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020- yil 23- sentabrdagi O‘RQ 637- sonli “ Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6- noyabrdagi “ Ta’lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ- 4884- son qarori
3. O.A.Kўйсиров. А.А.Насиров. Узлуксиз таълим тизимида узвийликни таъминлаш муоммо ва ечимларию - Замонавий таълим / Современное образование 2022, бет-113
4. Илкка Тайпале. Финляндиянинг 100 та ижтимоий инновацияси. – Т.: Шарқ-2019 – бет 139
5. В.Р.Джурыева., Н.М.Тожибоева., Г.М.Назирова. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda ta’lim tarbiya berishning zamonavit tendensiyalari. – Т.: O‘zPFITI - 2015 bet - 72
6. www.lex.uz

**ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARDAN “ZINAMA-ZINA” PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYASINI QO‘LLAGAN HOLDA AMMOFOS ISHLAB CHIQRISH  
MAVZUSINI TALABALARGA TUSHUNTIRISH**

**<sup>1</sup>Yusupova Go‘zal Xusan qizi, <sup>2</sup>Jumayev Mansur Shokir o‘g‘li**

<sup>1</sup>Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, dotsent

<sup>2</sup>Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160052>

***Annotatsiya.** Ta’lim jarayonida talabalarning turli qobiliyatlarini hisobga olishni, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni, o‘quv jarayonida shaxs faolligini rivojlantirishni ta’minlaydigan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari o‘qituvchi va talabaning ilmiy seminar o‘tishda, individual uy vazifalarini bajarishda, laboratoriya ishlari bo‘yicha individual hisobotlarni tayyorlashda, haftalik maslahatlashuvlarda talabaning individual muloqoti natijasida amalga oshiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** pedogogika, ammosfos, diammoniy-fosfat, Zinama-zina texnologiya, usul tasnifi va maqsadi.*

***Аннотация.** Применение личностно-ориентированных образовательных технологий, обеспечивающих учет различных способностей учащихся в процессе обучения, создание необходимых условий для развития их индивидуальных способностей, развитие активности личности в процессе обучения. Личностно-ориентированные образовательные технологии реализуются в результате индивидуального общения учителя и ученика при проведении научного семинара, при выполнении отдельных домашних заданий, при подготовке индивидуальных отчетов о лабораторных работах, при еженедельных консультациях.*

***Ключевые слова:** педагогика, аммофос, диаммонийфосфат, лестница-Лестница технология, классификация методов и назначение.*

***Abstract.** The application of personality-oriented educational technologies that ensure the accounting of various abilities of students in the educational process, the creation of the necessary conditions for the development of their individual abilities, the development of personality activity in the educational process. Personality-oriented educational technologies are carried out as a result of the teacher and the student's individual communication during the course of a scientific seminar, the performance of individual homework, the preparation of individual reports on laboratory work, weekly consultations.*

***Keywords:** pedogogy, ammophos, diammonium-phosphate, Zinama-zina technology, method classification and purpose.*

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari oldida ta’lim tarbiya berish sohalariga malakali, har tomonlama raqobatbardosh mutaxassislar yetkazib berish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari tarkibi ta’lim jarayoniga qo‘yilgan talablarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak, bular: o‘zi o‘qitayotgan fanni a’lo darajada bilish, o‘z kasbini jon-dilidan sevish, talabalarda fanlarga nisbatan qiziqish uyg‘otish, amaliy ishlarni hozirgi davr talablari asosida uyushtirish, chuqur bilimga ega bo‘lish kabilar. Bu kabi talablar o‘z navbatida bo‘ljak mutaxassislarning sifatini yanada yaxshilashga, ularni ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Hozirda ta’lim jarayonida ilg‘or

pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishmoqdamiz. Hozirgi kunda sog‘lom har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir. Bugun oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalariga ijodkor o‘qituvchi-pedagoglarning bo‘lishi davr talabidir. O‘qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig‘ini bajaradi, shunday ekan, har tomonlama yetuk mugaxassislarni tayyorlashda o‘qituvchi muayyan ijtimoiy — siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o‘qituvchi har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli mahlumoti, yahni o‘z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psihologik va uslubiy bilim va malakalarni egalagan bo‘lishi hamda turli pedagogik vazifalarni tezda yechishni, vaziyatlarni sezishi, o‘rganishi va baholay olishi kerak. Pedagogik tahsir ko‘rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filialining 11A-20KT 4-bosqich talabalariga “Ammofos ishlab chiqarish texnologiyasi” mavzusini tushuntirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan «Zinama-zina» texnologiya usulini qo‘llab dars o‘tildi.

**Ammofos haqida qisqacha ma’lumotlar.** Ammofos kulrang granular shaklida ishlab chiqariladi, yaxshi fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega: u pishmaydi, yopishmaydi, to‘planmaydi, gigroskopik emas va saqlash paytida muzlamaydi, toksik emas, yong‘in va portlashga qarshi. Ammofos asosan monoammoniy fosfat ( $(NH_4)_2HPO_4$ ) dan iborat bo‘lib, diammoniy fosfat  $NH_4H_2PO_4$  bilan aralashtiriladi.

**Ammofos ( $2H_3PO_4 + 3NH_3 = NH_4H_2PO_4 + (NH_4)_2HPO_4$ )** — tarkibida azot bilan fosfor bo‘lgan konsentrlangan mineral o‘g‘it. U asosan monoammoniyfosfat va qisman diammoniy-fosfat aralashma-sidan iborat. Donador Ammofos tarkibida ka-mida 10% azot, ko‘pi bilan 45% fosfor an-gidrid bor. Ammofosda ballast komponentlar bo‘lmaydi. Suvda eriydi, fizik xususi-yatlari yaxshi. Ammofosni har xil tuproqlarda qo‘llash mumkin. G‘o‘zaga ekishdan oldin (shudgorlashda, bahorgi haydashda, ekish oldidan, ekish vaqtida), gullash oldidan yoki gullagan vaqtida solinganida ham samarali. O‘zbekistonning paxtakor xo‘jaliklarida fosforli o‘g‘itlar yillik normasining 80% ni Ammofos tashkil etadi, chunki u boshqa murakkab konsentrlangan azotli-fosforli o‘g‘itlarga qaraganda samaraliroq. „Ammofos“ ishlab chiqarish birlash-masi (Olmaliq kimyo zavodi) va Samarqand kimyo zavodida ishlab chiqariladi.

Dars haqida ya’na qisqacha eng muhim ma’lumotlarni talabalarga berib o‘tdi. Dars mobaynida talabalarning bilimlarini ortirish va mustahkamlash maqsadida eng zo‘r o‘qitish metodlaridan biri bo‘lgan “zinama-zina texnologiya” usulidan foydalanildi.

**Bu usul:**

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu mashg‘ulot talaba (yoki o‘quvchi) larni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o‘quvchi) lar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

**Texnologiyaning maqsadi.** Talaba (yoki o‘quvchi) larni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.



**Texnologiyaning qo‘llanishi:** ma’ruza(imkoniyat va sharoit bo‘lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazish hamda nazorat darslarida qo‘llanilishi mumkin.

**Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar:** A-3, A-4 formatlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam) lar.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

➤ o‘qituvchi talaba (yoki o‘quvchi) larni mavzularsoniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo‘lgani ma’qul);

➤ talaba(yoki o‘quvchi)lar mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi.Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi;

➤ o‘qituvchi guruh a’zolarin tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

➤ guruh a’zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko‘rinishida ifoda etadilar.Bunda guruh a’zolari kichik mavzu bo‘yicha imkon boricha to‘laroq ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi.

9. Tarqatma materiallar to‘ldirilgach, guruh a’zolaridan bir kishi taqdimot qiladi.Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materialar, albatta, auditoriya(sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag(zina shaklida) ilinadi;

1. O‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Agar amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil o‘rganishga undovchi dars yoki qiziqarli ilg‘or metodlar orqali olib borilganda darsning samaradorligi ortadi, chunki bunda har bir talaba o‘zi mustaqil ravishda ishlashga majbur bo‘ladi va shunga yarasha tayyorgarlik ko‘radi hamda ular o‘zlarini o‘zlari baholaydilar. Shuning uchun, dars davomida birorta talaba ham chetda qolmaydi, talabalarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchi, fanga va o‘zlari tanlagan kasbga qiziqishi ortadi, shu bilan birga talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ortadi. Talabaning doimo o‘z ustida ishlashi, mustaqil fikrlashi, olgan bilimlarini amalda qo‘llashi – uning aqliy faoliyatga ehtiyojini rivojlantiradi va talabalarni vaqtdan unumli foydalanishga o‘rgatadi. Bu orqali bo‘lajak mutaxassislarining mustaqil o‘quv faoliyatlarini, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, shular asosida oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi.

## REFERENCES

1. Mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari. Farg‘ona-2018
2. N.Kattaev, G. Ixtiyorovna, M.Muxammediyev, X.Mirzahidov. «Kimyoviy texnologiya» Toshkent 2012 yil
3. N.R. Yusupbekov, D.P. Muxitdinov Toshkent-2019 yil «Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari»
4. Selevko, G.K. «Zamonaviy ta’lim texnologiyalari» darslik. G.K.Selevko. – M. Xalq ta’limi, 1998 yil .



**MAGISTRATURA TALABALARINI TA’LIM JARAYONIDA ILMIY TADQIQOT  
ISHLARIGA MAQSADLI YO’NALTIRISHGA ASOSLANGAN INTEGRATSION  
JARAYON**

**Usmanova Umida Aybekovna**

Andijon davlat pedagogika instituti, kafedra mudiri Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160059>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada magistratura talabalarini ta’lim jarayonida ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli yo’naltirishga asoslangan integratsion jarayon to’g’risida fikr yuritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasasi va undan keyingi kasbiy rivojlanish jarayonida magistratura talabarlari o’z fanidagi ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar, nazariyalar, eng so’ngi axborotlar mazmunidan xabardor bo’lishi kerakligi a’lamlab ko’rsatilgan.*

***Kalit so’zlar:** yangilik, ilm-fan, ilmiy-pedagogik faoliyat, tadqiqot, ilmiy tadqiqotchilik, kashfiyot, o’z-o’zini anglash, ilmiy konferensiyalar, intellektual-rivojlantiruvchi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается комплексный процесс, основанный на целенаправленной ориентации аспирантов на научные исследования в образовательном процессе. Также в процессе обучения в вузе и последующего профессионального развития четко указано, что магистранты должны быть осведомлены о содержании научных подходов, концепций, теорий и новейшей информации в своей области..*

***Ключевые слова:** инновации, наука, научно-педагогическая деятельность, исследования, научное исследование, открытие, самосознание, научные конференции, интеллектуальное развитие.*

***Abstract.** This article discusses the integrated process based on the purposeful orientation of graduate students to scientific research in the educational process. Also, in the process of higher education institution and subsequent professional development, it is clearly stated that master's students should be aware of the content of scientific approaches, concepts, theories, and the latest information in their field.*

***Keywords:** innovation, science, scientific-pedagogical activity, research, scientific research, discovery, self-awareness, scientific conferences, intellectual development.*

**Kirish.** Oliy ta’lim sifatini oshirish, bo’lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta’minlaydigan tizimli o’zgarishlarning umumiy asosidir.

Shunga muvofiq, O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida “...ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko’lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag’batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish”, “...ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko’lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag’batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish” ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo’nalishi sifatida belgilandi.

Birinchiidan, inson kapitali mamlakatning muhim milliy boyligi hisoblanadi. Uning har tomonlama ko’payishi va taraqqiy etishi, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan,

professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan, mamlakatni modernizatsiya qila oladigan va demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal yetishga qodir bo‘lgan, yurt va xalq manfaatlariga sadoqatli yangi avlod kadrlarini tayyorlash bugungi zamon talabidir. Bunga erishishda eng asosiy e‘tiborni kadrlarni tayyorlab berishdagi muhim bo‘g‘in, pedagog kadrlar tayyorlashdagi asosiy bosqich hisoblangan magistratura mutaxassisliklariga e‘tibor qaratib, bu yo‘nalishda ayrim islohotlarni kechiktirmasdan amalga oshirish lozim.

Ikkinchidan, respublikamizda magistratura bosqichida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi baland emas. Ayni paytda bu yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ham barmoq bilan sanoqli. Ilmiy izlanishlar orqali iqtidorli yoshlarni bu sohada ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish maqsadida ilmiy g‘oya va yangiliklarni, tadqiqot natijalarini loyihaga jalb qilingan professor o‘qituvchilar, pedagogik sohadagi magistratura bosqichi talabalarini orqali tajriba-sinov hamda aprobatsiyadan o‘tkazish, amaliyotga joriy qilish vazifalari ham g‘oyat muhim dolzarb ahamiyatga ega.

Uchinchidan, OTMlaridagi magistratura bosqichi talabalarini, bo‘ljak tadqiqotchilarni ilmiy faoliyatga tayyorlash, kasbga ruhiy sozlanish jarayonini yo‘lga qo‘yish uchun ayni paytda ularning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari, magistratura talabalarida pedagogik ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi mobil ilova hamda elektron platforma yaratish orqali ilmiy-metodik ta‘minotni yaratilishi, talabalarni masofadan turib ilmiy faoliyatga tayyorlanishi, egallagan bilimlarini nazorat qilinishi, SMART ta‘limni joriy qilish orqali bilim olishdagi qulayliklarga erishish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

To‘rtinchidan, magistratura bosqichidagi ta‘lim-tarbiya jarayonining bevosita ijrochisi bo‘lmish talabalar faoliyatini metodik ta‘minlaydigan va to‘ldiradigan o‘quv-uslubiy adabiyotlarining, ayniqsa, elektron shakldagi uslubiy ishlanmalar, ta‘limiy multimediyaga mahsulotlarining tanqisligi og‘riqli muammolardan sanaladi.

Magistratura talabalarini ta‘lim jarayonida ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli yo‘naltirishga asoslangan integratsion jarayon qisqa muddat ichida oliy ta‘lim muassasalari kafedralarining ilmiy imkoniyatlari kengayishiga ko‘maklashadi. Bugungi kunda fan va ta‘lim integratsiyasining rivojlanishi ko‘p jihatdan amalga oshiriladigan tadqiqotlarga ham bog‘liq.

Hozirgi texnologik jarayonlar rivojlangan darvda, oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladigan tadqiqotlar mavjud muammolar yechimiga qaratiladi. Bu o‘rinda ilmiy laboratoriyalarning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Bugungi axborot texnologiyalari asrida oliy ta‘lim jarayonida faqat mavjud bilimlarnigina o‘zlashtirib, so‘ngra ilm bilan shug‘ullanish emas, balki ta‘lim jarayonini ilmiy tadqiqot ishlari bilan bir vaqtda va bir-biri bilan bog‘lagan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda tashkil etilgan ta‘lim jarayoni juda ko‘p ma‘lumotlarga asoslanilgan tarzda amalga oshirilishi tufayli talaba barcha ma‘lumot yoki axborotlarni o‘zlashtira olmaydi hamda ularni tizimlashtirish imkoniyatiga ham ega bo‘lmaydi. Shuning uchun bo‘ljak mutaxassisning bilim darajasi mukammal bo‘lmay turib o‘z ishiga yuqori qiziqish bilan yondoshmaydi. Ta‘lim ilmiy tadqiqot jarayoni bilan qo‘shib amalga oshirilganda esa, talaba o‘zi ishtirok etayotgan yoki olib borayotgan ilmiy tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchli bo‘lishi uchun, mavjud va axborotlarni o‘zi mustaqil ravishda hamda tanlangan qiziqqan sohasini mukammal egallash maqsadida barcha imkoniyatlarda foydalanishga harakat qiladi. Tadqiqot ishi talabani mas‘ulyat hissini anglab yetish va oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda intizomga qat‘iy rioya qilishga undaydi.

Fan bilan ta’lim jarayoni integratsiyasini yuqori darajada tashkil etish uchun avvalo, o’quv va ilmiy-muammoli laboratoriyalar holati hamda ularda olib boriladigan tadqiqotlarning mazmun-mohiyatiga e’tibor berish kerak. Bunda asosiy e’tibor talabaning ushbu faoliyatiga qiziqishi va kerakli ko’nikmalarni hosil qila olishiga qaratilishi, buning uchun ilmiy laboratoriyalarda olib boriladigan tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar qo’proq mahalliy muammolar bilan bog’langan bo’lishi lozim. Chunki talaba o’zi duch keladigan muammo yechimi bilan bog’liq tarzda olib boriladigan tadqiqotlarga ko’proq e’tibor beradi. Ushbu jarayon ta’lim va fan integratsiyasini tashkil etishning bosh mezonlaridan biridir.

Ilmiy tadqiqot natijalari bayonining maqsad va vazifalari ushbu yo’nalishdagi yangiliklar va ma’lumotlarni ommalashtirishdan iboratdur. Buning natijasida ilmiy tadqiqot ishidan olingan xulosalar soha vakillari va mutaxassislarning e’tiboriga havola etiladi va bildirilgan munosabatlar orqali ish samaradorligini aniqlash, zarur hollarda yangi ma’lumotlar bilan to’ldirish imkoniyati vujudga keladi.

Hozirgi o’quv-tarbiya jarayonida magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik ko’nikmalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Raqamli texnologiyalar XXI-asr yoshlari hayotining ajralmas qismidir. Magistratura talabalarida raqamli muhitda elektron vositalar uchun har qachongidan ko’proq, yoshligidanoq vaqtlarini sarflaydilar. Bu esa ularda hayot uchun zarur bo’lgan raqamli ko’nikmalarni erta shakllantirish, ta’limda natijalarga erishish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Misol tariqasida taniqli olim Eynshteyn yoshligida kamgap, juda kuzatuvchan bola bo’lgan. Besh yoshida uning qo’liga kompas tushib qoladi. Yosh Albert kompasni qaysi tomonga burmasin, uning ignasi har doim bir xil yo’nalishni ko’rsatishidan hayratda edi. U o’yinchoq deb tasavvur qilgan fizik moslama uni ilm olamiga olib kirdi, magnit maydoniga oid ilk tushunchalar bilan tanishtirdi. “Bu tajriba menda chuqur va uzoq taassurot qoldirdi”, deb yozgan u yillar o’tib. “Keyinchalik men uning ortiga yashiringan sir-asrorlarni bilish uchun ilm-fanni chuqurroq o’rganishga harakat qildim.

Magistratura talabalarining ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari natijalari hisobot, referat, maqola, maqola, ixtiro, tavsiyanoma va bitiruv- malakaviy ish ko’rinishlarida yakunlanadi. Shu singari ishlar bo’lajak mutaxassislarning tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirib, rivojlantiribgina qolmasdan, balki ular o’zlashtirgan bilimlarning yanada chuqur va mustahkam bo’lishiga olib keladi hamda kasbiy-amaliy ko’nikmalarini takomillashtiradi.

Magistratura talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari oldiga quyidagi talablar qo’yiladi:

- magistratura talabalarining ilmiy eruditsiyasi va nazariy dunyoqarashini kengaytirish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash qobiliyatini rivojlantirish;
- ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ilmiy munozaralar olib borish;
- ko’nikmalarini shakllantirish, ma’lum ilmiy, texnik masalalarni yechishga undash;
- yuksak ishbilarmonlik manaviy-ahlokiy sifatlarini rivojlantirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga ko’maklashish hamda talabalarining jamoa va tashkiliy ishlarini olib borish tajribasini o’ziga singdirish.

O’quv jarayonidan tashqari magistratura talabalarilarni ilmiy tadqiqot ishiga jalb etishning quyidagicha 2 xil shakli mavjud: fan ilmiy to’garagi va mutaxassislik bo’yicha ilmiy tadqiqot to’garagi.

Shunday qilib, fan va ta’limning maqsadlari umumiy bo’lib, muammoning yagona yechimini topishga qaratilgandir. Ilmiy tadqiqotlar oliy ta’limni keng doirada rivojlantirish, ilmiy xizmat ko’rsatishning samaradorligini oshirish hamda ta’lim-tarbiya va tadqiqot jarayonlari oxirgi natijalarining takomillashuviga yo’naltirilishi kerak.

Ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarining kirib kelishi fanlarni zamonaviy texnologiyalar asosida o’qitish tizimining shakllanishiga asos bo’ldi. Bu tizim nafaqat oliy, balki butun uzluksiz ta’lim tizimida noan’anaviy usullarni qo’llash imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Ta’limda zamon va rivojlanish talablari asosida yangicha yondashuvlar usullarini izlash bilan bog’liq holda oliy ta’lim muasasalari faoliyatida ilm orqali bilim berish usuli ustuvor bo’lmoqda. Bu usulning amaldagi namunasi sifatida kafedralar qoshida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda tashkil etilgan "Ilmiy- amaliy muzey", "Ilmiy adabiyotlar kutubxonasi", "Seloksion tajribalar eksperimental maydonlari", "Mintaqaviy tadqiqot markazi", "Pedagogik innovatsiya markazi", "Pedagogik ilmiy tadqiqotlar" markazi, "Kichik maktab"lar, "Kvorking markazi" kabilarning tashkil etilganligini misol qilib keltirish mumkin. Shunday markazlarning tashkil etilishi magistratura talabalarining ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ilmiy izlanishlarini yo’lga qo’yish, qo’llab-quvvatlash, rag’batlantirishning mamuriy-tashkiliy tomonlariga asos bo’ladi.

O’quv maqsadlarida ham, haqiqiy muammolarni hal qilishda ham (ilmiy, ishlab chiqarish, tashkiliy va boshqalar) turli xil o’yin turlari mavjud. Bular ta’lim, simulyatsiya, rol o’ynash, tashkiliy faoliyat, operativ, biznes, boshqaruv, harbiy, muntazam, innovatsion va boshqalar. Ular ko’pincha turli sabablarga ko’ra ajralib turadigan va bir-biriga mos keladigan darajada qat’iy tasnifga berilmaydi.

Mazkur fikrlar jamiyatimizda yoshlar qatlamini har jihatdan raqobatbardosh etib tarbiyalash, dunyo o’zgarishlarga jonli tarzda javob beradigan, buyuk yurt kelajagini o’z aql-zakovati, ma’naviyati, madaniyati, tashkilotchiligi va tadbirkorligi bilan rivojiga xissa qo’sha oladigan tarzda ta’lim-tarbiya berish darkor.

Zamonaviy voqelik sharoitlaridan kelib chiqib, innovatsion ta’lim sharoitida bo’lajak o’qituvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadi deb ijodiy individullikka va alohida o’ziga xos kreativ tafakkurga ega shaxsni rivojlantirishni hisoblash lozim. Faqatgina maxsus bilimlarni olish yaxshi bitiruvchi bo’lish uchun yetarli emas, va bunda shaxsning eng ko’p jihatdan individual tabiat, ijodiy potensialiga mos keladigan tomonlarini rivojlantirishni ham hisobga olish zarur. Mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri – ularda o’quv-bilish jarayonida induvidual yondashuvni rivojlantirishdan iborat.

#### **Tahlil va natijalari:**

Tadqiqotchilik faoliyati magistratura talabalarilarning izlanuvchanlikka, ijodkorlikka yetaklovchi faoliyatdir. Tadqiqotchilik faoliyati tajriba qo’yish va uni o’tkazish, kuzatuv natijalarini qayd etish, olingan natijalarni qayta ishlash, jamoa oldida o’z fikrini bayon etish, nutq so’zlash kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Tadqiqotchilik faoliyati ijrochi insonni emas, balki ilmiy salohiyatga ega, zamon talabiga mos ijodkor va tadqiqotchi insonni tarbiyalaydi.

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati bu – yechimi noma’lum bo’lgan muammoni hal etish, o’rganilayotgan obyektga oid qonuniyatlarni amaliyotda foydalanish uchun kashf etish, yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni bilan bog’liq bilish faoliyati.

Ilmiy tadqiqotchilik – magistratura talabalarining bu intellektual jihati mashg‘ulotlarga tayyorlanish va ilmiy izlanishlari jarayonida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotchilik talabaning puxta va aniq ilmiy qarashlarga egaligi, fikriy mustaqilligini ta‘minlash bilan birga o‘ziga xos ta‘lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu shaxsning ajralmas sifati bo‘lib, u tadqiqot muammolarini mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati va tayyorligi, tadqiqot ko‘nikmlarining qiyma Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu shaxsning ajralmas sifati bo‘lib, u tadqiqot muammolarini mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati va tayyorligi, tadqiqot ko‘nikmlarining qiymatini tan olish va ularni ilmiy sohada qo‘llashga tayyorlikda namoyon bo‘ladi.

Kuzatishlarimiz va mavjud tajriba ilmiy savodxon bo‘lgan shaxsda turli kompetensiyalar shakllangan bo‘lishini ko‘rsatitini tan olish va ularni ilmiy sohada qo‘llashga tayyorlikda namoyon bo‘ladi.

1. Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish:  
texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash;  
tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;  
izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish; tegishli prognozlar qilish va asoslash;  
izohlovchi farazlarni taklif etish; ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish.

2. Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash. Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi:  
berilgan ilmiy tadqiqotda o‘rganilayotgan muammoni aniqlash;  
berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish;  
ma‘lumotlarning obyektivligi va ishonchliligini ta‘minlashda olimlar tomonidan qo‘llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash;  
ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan savollarni farqlash;  
berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash;

3. Ma‘lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish:  
ma‘lum bir ko‘rinishdagi ma‘lumotlarni boshqa ko‘rinishda ifodalash;  
ma‘lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish;  
ilmiy dalillarga asoslangan mulohazalarni boshqa qarashlardan farqlay olish;  
ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash;  
turli manbaalardan olingan ilmiy mulohaza va dalillarni baholash.

Oliy ta‘lim tizimida ilmiy dunyoqarashga ega, ma‘naviy barkamol shaxsni shakllantirish, uning axloqiy qiyofasini tarkib toptirishda magistratura talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli jalb etishning katta ahamiyatga ega ekanligi mutaxassislar tomonidan e‘tirof etilgan. Jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan, insoniyat farovon turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan yangilikni kashf etish shaxs ma‘naviyatiga xos sifatlarni shakllantirishga eng salmoqli hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan faoliyat turi tadqiqotchilikdir.

Magistratura talabalarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish orqali shakllantiriladigan ko‘nikmalar:

1. Tadqiqot muammosini aniqlash: a) kuzatish; b) ob‘ektning muhim jihatlarini aniqlay olish; c) muammoni qo‘ya bilish; d) diqqatni jamlay olish.



2. Tadqiqot ob’ekti, predmetini ifodalash: a) umumiydan xususiyini ajrata olish; b) muhim jihatni aniqlay olish; c) tarkibiy qismlarga ajrata olish.
3. Tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilash: a) maqsadni to’g’ri belgilay olish; b) muammoni savol shaklida ifoda etish; c) asosli savol bera olish; d) kreativ fikr yuritish;
4. Tadqiqot farazini ishlab chiqish: a) dalillarga asoslanib bashorat qilish; b) tadqiqot rejasini tuzish.
5. Tadqiqot metodlarini belgilash: a) muammoni hal etish uchun eng maqbul usulni tanlay bilish.
6. Ma’lumotlar to’plash, kuzatish, tajribalar o’tkazish: a) ma’lumotlar yig’ish; b) ma’lumotlarni qayd etish; c) kuzatish; d) hisoblash; e) ma’lumotlarni jadvallarda ifoda etish; f) jihozlardan foydalanish.
7. Natijalarni tahlil qilish va dalillarni qayd etish: a) ma’lumotlarni umumlashtirish; b) ma’lumotlarni grafik, diagrammada ifoda etish; c) matematik-statistik tahlil; d) taqqoslash; e) klassifikatsiyalash; f) korrelyatsiya-mutanosiblikni aniqlash.
8. Tadqiqot natijalarini xulosalash: a) sabab-oqibat bog’lanishlarni aniqlash; b) umumlashtirish; c) tizimlashtirish.
9. Tadqiqot natijalari ishonchliligini tekshirish: a) tanqidiy baholash; b) mavjud mezonlardan foydalanib natijalarni tekshirish.

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati o’z navbatida, bir qator vazifalarni o’z ichiga oladi. Quyida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonida bajariladigan ishlarga izoh berilgan va aniqliklar kiritilgan:

1. Magistratura talabalarining qiziqishlarini o’rganish.  
Magistratura talabalarining ilmiy yo’nalishini aniqlash uchun umumiy savollar asosida suhbat o’tkaziladi va talaba tadqiqot sohasining qaysi yo’nalishlariga qiziqishi belgilanadi. Uning bu sohadagi bilimi, dunyoqarashi, ko’nikma va malakalari darajasi aniqlanadi.
2. Ilmiy mavzulardagi suhbatlarga jalb qilish.  
Magistratura talabalari kafedrada tashkil etilgan ilmiy seminarlar, suhbatlar, ilmiy munozaralar, konferensiyalarga jalb etiladi. Ilmiy bahslarda shaxsiy munosabati va qarashlarini bayon etadi.
3. Ilmiy mavzuda ma’ruza tayyorlash.  
Qiziqqan sohasi bo’yicha o’rgangan materiallari, tadqiq qilingan ilmiy izlanishlar xulosalari, ilmiy tadqiqotlar, manbalar tahlili asosida maqola va ma’ruza matni tayyorlaydi.
4. Referat, kurs ishlari tayyorlash.  
Tadqiqot ishlarining mazmuni asosida o’quv rejasidan tashqari referat, kurs ishi, taqriz, rezyume, annotatsiya tayyorlaydi.
5. Ilmiy materiallarni tahlil qilish.  
Magistratura talabalarining ilmiy yo’nalishi aniqlanganidan so’ng unga shu yo’nalishda bajarilgan tadqiqot ishlarini o’rganish va tahlil qilish malakasini egallashi uchun ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, ilmiy maqolalar) tavsiya etiladi. Talabaning shu yo’nalishda bajargan ishlari belgilangan muddatlarda o’rganib chiqiladi va yig’ilishlarda muhokama qilinadi.
6. Ilmiy tadqiqotchilik hujjatlarini tayyorlash.  
Ilmiy ishning maqsadi va mohiyatini anglaganidan so’ng talabaga tadqiqot ishlarining me’yoriy (nizom, qaror, konsepsiya va b.), joriy (buyruq, dastur va b)ishchi (chora-tadbir, reja va b.) hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish va tartib -qoidalari o’rgatiladi.

7. Tadqiqot rejasini ishlab chiqish.

Tadqiqot ishining ishchi rejasini ishlab chiqish, unda etiborga olinadigan holatlar va tartibga rioya qilish, tadqiqot ishi davrining umumiy va yillik hisobot rejalarini belgilash topshiriladi.

8. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash.

Ilmiy tadqiqot natijalari bayonining maqsad va vazifalari ushbu yo‘nalishdagi yangiliklar va ma’lumotlarni ommalashtirishdan iboratdur. Buning natijasida ilmiy tadqiqot ishidan olingan xulosalar soha vakillari va mutaxassislarning e’tiboriga havola etiladi va bildirilgan munosabatlar orqali ish samaradorligini aniqlash, zarur hollarda yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish imkoniyati vujudga keladi.

Magistratura talabalarining ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari natijalari hisobot, referat, maqola, maqola, ixtiro, tavsiyanoma va bitiruv-malakaviy ish ko‘rinishlarida yakunlanadi. Bu bo‘lajak mutaxassislarning tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirib, rivojlantiribgina qolmasdan, balki ular o‘zlashtirgan bilimlarning yanada chuqur va mustahkam bo‘lishiga olib keladi hamda kasbiy-amaliy ko‘nikmalarini takomillashtiradi.

Biz magistratura talabalarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan o‘z-o‘zini rivojlantirish sharti sifatida qaraymiz, bu ko‘pincha ular tashkil etayotgan tadqiqot faoliyati ta‘sirida amalga oshiriladi. Buning uchun talabalar ilmiy o‘z-o‘zini uzluksiz ravishda tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirib borishi lozim, bunda bakalaviaturada shakllangan motivlar ta‘sirida o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va aniq natijalarga erishadi. O‘z-o‘zini namoyon qilish va o‘zini-o‘zi tasdiqlash shakllaridan foydalanganda, uning faoliyat sifati yaxshilana boshlaydi. Talabaga aynan shu jarayon tadqiqot faoliyatidagi xatti-harakatlar usullarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, biz zamonaviy sharoitda tadqiqot malakasini o‘z-o‘zini rivojlantirish kontekstida magistraturada talabalarining subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish muammosini hal qilish uchun ma’lum shartlar mavjud degan xulosaga kelimiz. Pedagogika magistraturasi talabalarining ilmiy-tadqiqot malakasini o‘z-o‘zini rivojlantirishning pedagogik shartlari ularning subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun to‘liq ta‘lim maydonini ta‘minlashni nazarda tutadi. Universitet amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, magistrantning mavzu pozitsiyasi uning tadqiqotchi sifatida shakllanishining ushbu ko‘rsatkichi bilan bog‘liq holda harakat qiladigan shaxsiy pozitsiyasining zaruriy rivojlanuvchi jihati sifatida qaralishi mumkin. Biz buni uning o‘z ta‘limini oshirishga tayyorligini shakllantirishning tabiiy jarayoni deb bilamiz, ushbu jihat magistratura tizimi universitet sharoitida shakllanishiga yordam beradi. Shu munosabat bilan, pedagogika magistraturasi talabalarining ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar aniq ko‘rsatmalarga ega bo‘lib, ular kontekstida, ta‘limning bakalaviatura bosqichi talabani tadqiqotchi sifatida tarbiyalashda muhim sanaladi. Bu, xususan, muayyan vazifalarni aniqlash va hal qilishga qaratilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish jarayonida o‘z shaxsiy pozitsiyasining quyidagi fazilatlarini rivojlanadi:

- o‘zlarining ta‘lim imkoniyatlarida harakat qilish qobiliyati, shu jumladan o‘zlarining ta‘lim muammolarini aniqlash va ularni hal qilish variantlarini topish qobiliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun magistraturaning barcha imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyati;
- universitet hayotining turli sohalarida, birinchi navbatda, ilmiy xarakterdagi faoliyatda o‘zini namoyon qilish uchun har qanday imkoniyatni topish qobiliyati;

- tegishli muammolarni hal qilishga tayyorligini hisobga olgan holda, tadqiqot malakasini o‘z-o‘zini rivojlantirish kontekstida shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish qobiliyati;

- o‘z ta’limini qadrlash va mas’uliyat bilan yondashish, uning maqsad va mazmunini o‘ylangan holda belgilash qobiliyati.

Shu munosabat bilan magistrantning ilmiy-tadqiqot malakasini rivojlantirish yo‘llarini tanlashda uning faolligi kabi omilni hisobga olish zarur, bu kasbiy yo‘naltirilgan bilimlarni o‘zlashtirganda o‘zining amaliy ilmiy faoliyatida samarali qo‘llash imkonini beradi. Magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini mustaqil ravishda rivojlantirish shartlarini hisobga olgan holda, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini va harakatchanligini, ijodkorligini va bilishga tayyorligini namoyon etish imkoniyatlarini ta’minlash zarurligini ta’kidlash muhimdir, bu ularning kognitiv faoliyatini tashkil etish kompetensiyasining ma’lum bir ko‘rsatkichi hisoblanadi. Magistratura dasturi doirasida tadqiqot malakasini o‘z-o‘zini rivojlantirish g‘oyasi shaxsning rivojlanishini faollik bilan to‘ldirish sifatida amalga oshiriladi va shaxsiy rivojlanish tadqiqot faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu muvaffaqiyat faqat shaxsiy va kasbiy rivojlanishning birligi natijasida amalga oshishi mumkin.

Shunday qilib, magistrantlarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish quyidagilarni nazarda tutadi: bo‘lajak ilmiy faoliyatning aniq maqsadlari va tadqiqot faoliyatining aniq dasturini ishlab chiqish; talabalarining ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘z-o‘zini rivojlantirishni pedagogik qo‘llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish; ushbu jarayonning barcha sub’ektlarining o‘quv va tadqiqot jamoasi o‘zining pedagogik salohiyatini ta’lim resursiga aylantirish uchun muhitga aylanadigan maxsus ta’lim maydonini yaratish; tadqiqot faoliyati natijalarini baholash mezonlarini aniqlash; uning natijalarini haqiqiy baholash va boshqalar.

## **REFERENCES**

1. «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr.
2. Appleton, K. (2003). How do beginning primary school teachers cope with science? Towards and understanding of science teaching practice. *Research in Science Education*, 33: 1-25.
3. Narzieva N.N. Umumta’lim maktab o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish. *Pedagogika*
4. Maxmudov A.X. Bo‘lajak magistrnlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta’minotini takomillashtirish. .: Ped. fan. dokt...diss. avtoref. – Toshkent: TDPU. 2016. – 49 b.
5. Ибрагимова Г.Н., “Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш” педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори ...дисс. Автореф. – Т., 2017.

**TA’LIM MUASSASA RAHBARLARINING SAMARALI BOSHQARUV  
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION FAOLIYATI**

**<sup>1</sup>Abduxoliqova Marjona, <sup>2</sup>Ablyakimova Refide**

<sup>1</sup>Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktab menejmenti 2 kurs talabasi

<sup>2</sup>Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktab menejmenti kafedarsi katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160070>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim muassasa rahbarlarining samarali boshqaruv faoliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda professionallashuvning mazmuni haqida batafsil ma’lumotlar o‘rin olgan.*

***Kalit so‘zlar:** rahbar, boshqaruv, professionallashuv, fenomen, ijtimoiylashuv, nazorat, ichki refleksiv faolligi, tadqiqot*

***Аннотация.** В данной статье содержится подробная информация об особенностях развития эффективной управленческой деятельности руководителей образовательных учреждений и содержании профессионализации.*

***Ключевые слова:** лидер, менеджмент, профессионализация, феномен, социализация, контроль, внутренняя рефлексивная деятельность, исследование.*

***Abstract.** This article contains detailed information about the specific features of the development of effective management activities of the heads of educational institutions and the content of professionalization.*

***Keywords:** leader, management, professionalization, phenomenon, socialization, control, internal reflexive activity, research*

Bugungi kunda rahbar boshqaruvining samarali bo‘lishida psixologik omillarni aniqlash borasidagi izlanishlar uch yondashuv asosida olib boriladi. Bular quyidagilar: funksional yondoshuv, shaxs yondashuvi, vaziyatli (xulq) yondashuv. Har bir yondashuvga xos xususiyatning batafsil bayoni keyingi bo‘limda keltiriladi. Bu yerda esa ularning har biri haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tishni lozim deb topamiz. Funksional yondashuvda rahbarlik, asosan, rahbar zimmasiga yuklanadigan funksiyalardan kelib chiqqan holda talqin etiladi. Bunday funksiyalar olimlar fikricha, turli miqdorda bo‘ladi. Shaxs yondashuvida asosiy e’tibor ish samaradorligi yuqori bo‘lgan rahbarga xos fazilat va sifatlarga qaratiladi. Va nihoyat, vaziyatli yondashuvda esa boshqaruv xususiyati mavjud vaziyat orqali belgilanadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, funksional va vaziyatli yondashuv boshqaruvni faoliyat sifatida tahlil qilish imkonini bersa, shaxs yondoshuvida esa boshqaruvda aynan rahbar shaxs asosiy tahlil ob’ektiga aylanadi. Ushbu bo‘limda «boshqaruv professionalizmi» fenomeni gumanitar fanlarda nufuzli metodologik manba bo‘lmish –«faoliyat yondashuvi» pozitsiyasidan tahlil etiladi.

Rahbar o‘z qudrati va salohiyatini tashkilot maqsadiga butunlay safarbar etishi undan ichki bir qaror, barqarorlik va ishonchni talab qiladi. Bunday mas’uliyat, uning zimmasiga aksariyat hollarda inson shug‘ullanadigan rasmiy faoliyati va biron rasmiy tizimda egallagan xuquqiy maqom orqali yuklanadi. Bunday maqomi shaxsning shu sohaga rasman kirganligi va ushbu yo‘nalishda bundan buyon faoliyat yuritishini anglatgan holda endi uni «professional» deb atash uchun asos bo‘ladi.

Professionallik nafaqat rasmiy maqom, balki inson mehnat qilayotgan soha, ixtisoslik bo‘yicha zarur bilim va malakaga egalik hamdir. Lekin bunday bilim va malakaga egalik turli darajada bo‘lishi, shunga ko‘ra, mutaxassisning professional salohiyatini bir nechta toifalarga

ajratish mumkin. Gap boshqaruv haqida borar ekan, boshqaruv professionalizmini rahbarning o‘z jamoasini tashkilot maqsadi sari yo‘naltirishda yuksak darajadagi bilim va malakalarga tayangan holda faoliyat olib borishi, deb ta’riflash mumkin.

Qator tadqiqotchilar professionalizmni faoliyat nuqtai nazaridantahlil qiladilar. Bunda shaxsning kasbga oid bilim va malakalarni egallashi yetakchi mezonga aylanadi va professionalizm «o‘z ilmiy yo‘nalishi, sohalararo bilimlarni egallash hamda ularni amalda qo‘llay olish san’ati» sifatida talqin etiladi. Ba’zi olimlar esa professionalizm tarkibiga nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash, balki yangilarini yaratishni ham kiritadilar. Deyarli barcha ta’riflarda professionalizm shaxs tomonidan kasbiy faoliyatni yuksak darajada bajarish qobiliyati sifatida ta’kidlab o‘tiladi.

Umuman olganda, faoliyat yondashuvi boshqaruv vabilak rahbarning o‘zaro muvofiqlashuvi jarayonini ochib bergan holda shaxsning kasb bilan identifikatsiyalashuvi masalasiga ham oydinlik kiritadi. Xususan, boshqaruv funksiyalari ustida to‘xtalar ekanmiz, an’anaviy klassifikatsiya bo‘yicha maqsadni belgilash, tashkillashtirish, motivatsiya va nazorat funksiyalarini qayd etishimiz mumkin va ularning har birida «faoliyat ulushi» turlicha bo‘ladi. Masalan, boshqaruvni tashkillashtirish bosqichida rahbarning faolligi aniq ko‘zga tashlanadi va uning jamoa hayotiga aralashuvi yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Faollik past darajada namoyon bo‘luvchi funksiya sifatida nazorat bosqichini qayd etish mumkin.

Maqsadni belgilash funksiyasi ko‘proq refleksiv mohiyatga ega bo‘lgan holda shaxsning ichki, intellektual va ijodiy faolligi orqali ta’minlanadi. Darvoqe, maqsadni belgilash funksiyasi rahbarning hamkasblari bilan hamjihatligini rivojlantirishda qulay imkoniyat bo‘lishi mumkin. Bu bilan rahbar uchun o‘z ichki refleksiv faolligini tashqi tomonga yo‘naltirish imkoni ochiladi.

Motivatsiya bosqichida esa rahbar faolligi eng uzoqlashgan, distant tarzda namoyon bo‘ladi. Chunki motivatsiya shakllari tashkilotning turli hudud va turli vaqt bo‘laklarida, bir qaraganda, rahbar aralashuviz namoyon bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan tahlil etilganda, boshqaruv funksiyalarining barchasi o‘ziga xos, spesifik xususiyatlarga ega va rahbar faolligini ta’minlovchi bosqichlar sifatida lavozim bilan identifikatsiyalashuv hamda mavqeni his etish omili hisoblanadi.

Shu o‘rinda “professional” atamasi ustida to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Professional so‘zi tom ma’noda «Biror ishni o‘ziga kasb qilib olgan, o‘z kasbining mutaxassisi bo‘lgan shaxs» degan ma’noni anglatadi.

Keng ma’noda, professionallashuv – ijtimoiy institutlarni tashkil etish va rivojlantirish, shuningdek, jamiyatning professional strukturasiga oid qoida va me’yorlarni yaratishdan iborat. Tor ma’noda esa, professionalashuv jarayoni o‘ziga xos qiziqish va qadriyatlarga ega bo‘lgan, professional pozitsiyalar va rollarga suyanadigan professional guruhlarining paydo bo‘lishini nazarda tutadi. Shu qatorda profesionallashuv individning u yoki bu professional rolni bajarishga qodirligini ham ifodalaydi.

Shaxs professional tizimga kirib borar ekan, psixikaning adaptiv funksiyasi evaziga kasb talablariga mos ravishda o‘zining individual xislatlarini ham qayta tashkil eta boshlaydi, ya’ni professionallashib boradi. Bu borada “kasb” so‘ziga murojaat etishimiz muqarrar holatdir. “Kasb – ish faoliyatining ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar” deb ta’riflangan holda ko‘proq ijtimoiy mazmun va mohiyatga ega. Shu jihatdan kasb egasi, shaxs haqida gap borar ekan, «professional» atamasidan foydalanish o‘rinli bo‘lardi.



Kasb soʻzi «Kasb egasi» va «professional» atamalarini oʻzaro toʻldiruvchi tushunchalar sifatida, oʻzaro mutanosiblikni ifodalovchi iboralar maʼnosida tushunish mumkin. Kasb egasi shunchaki biron hunar yoki soha sohibi deb tushunilsa, “professional” atamasi shu sohada yuksak bir maqomni egallagan inson deb talqin etiladi. «Professional» esa jarayon sifatida insonning shu kasb sohasidagi jadal harakati, shu kasb uning qadriyat darajasiga olib chiqilganini nazarda tutadi. Shu maʼnoda, professional ijod insonning oʻzini-oʻzi yengib oʻtishi, oʻzida avval shakllangan faoliyat uslublari va vositalaridan voz kechgan holda ularning oʻrniga yangi, sharoitga mos keluvchi uslublarni konstruksiyalash sifatida tushunilishi mumkin (oʻz maʼnosiga koʻra «mutaxassis» soʻzi ham insonning kasb sohasidagi maqomini ifodalaydi, lekin «professionallik» shaxs tomonidan kasbning oʻziga xos tomonini kashf qilgani, shu kasbni egallabgina qolmay, balki uni «egarlashini» ham nazarda tutadi).

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan «professional» tushunchasi insonning kasb sohasiga kirishi va professional talablar asosida oʻzini tartibga solishi sifatida eʼtirof etildi. Sohani oʻrganish, ixtisoslikni tarkibiy qismlarga ajratgan holda izchil tahlil etish orqali kasb inson ichki dunyosida tarkib topa boshlaydi. Shu maʼnoda professional, maʼlum jihatdan shaxsning faolligi evaziga sodir boʻladi va inson kasbni oʻzi uchun yaratadi, deb eʼtirof etish mumkin. Bunday jarayondagi asosiy jihatlari qatorida izchillik, tartiblilik va uzviylik tamoyillarini alohida belgilab oʻtish lozim. Ushbu maʼnoda «profesional» psixologiya fanida mustahkam oʻrin olgan «ijtimoiylashuv» atamasi bilan uzviy bogʻliqlikda tushunilishi mumkin. Ijtimoiylashuv, yaʼni «sotsializatsiya» jamiyatdagi meʼyor va qoidalarni shaxs ichki rejasiga oʻtishi – interiorizatsiya sifatida talqin etilgan holda, professionalni –kasbning meʼyor va talablarini oʻzlashtirish hamda insonda shaxsiy mazmun kasb etishi maʼnosida tushunish mumkin.

Ijtimoiylashuv shaxs taraqqiyotining asosiy negizi sifatida bir umrdavom etadigan jarayon ekan, insonning kasb sohasida ulgʻayishi, uning professionalashuvi ham davomiy va bosqichma bosqich amalga oshadigan jarayondir. Shu oʻrinda professionalning ilk, boshlangʻich va yetuk bosqichlari hamda ular oraligʻidagi darajalar haqida soʻz yuritish mumkin. Koʻpgina tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, professional shaxs rivojlanishining yetuklik davriga kelib, ijtimoiylashuvning asosiy tarkibiy qismiga aylanadi. Agar mehnat individning biologik va antropologik evolyusiyasida qanchalik yetakchi oʻrinni egallagan boʻlsa, professional ham shaxs ontogeneza shunchalik muhim oʻrin tutadi, deb taʼkidlash mumkin. Ijtimoiylashuv jarayonining eng yuksak bosqichini shaxsning jamiyat bilan integratsiyalashuvi, umuminsoniy va individual qadriyatlarning uygʻunlashuvi, shaxsning oʻz-oʻzini yuksak darajada idora etish qobiliyati va shaxsiy hayot tajribasini, hatto missiyasini anglashi sifatida talqin etilgani singari, professionalning ham yuksak darajasini «professionalizm» atamasi bilan ifodalash oʻrinli boʻlardi.

## **MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI TALABALARI UCHUN MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMYATI**

**Tojiboyev Jasurbek Zokirjon o‘g‘li**

Xalqaro Nordik universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160083>

***Annotatsiya.** Shu paytga qadar mavjud ta’lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida raqamli texnologiyalardan foydalanish kata ahamyat kasb etmoqda ustuvorlik – o‘qishga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta’limning o‘qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashishi zarurdir.*

*OTMlarda muhandislik komp'yuter grafikasi fanini dasturlarini o‘zaro qiyoslash metodi asosida o‘qitish yuzasidan olib borilgan ishlarning kamchiliklari tuzatildi.*

***Kalit so‘zlar:** “raqamli texnologiya”, “ta’lim texnologiyalari”, “kompyuterli modellashtirish”, “multimedia”.*

***Abstract.** Until now, teaching has been considered a priority in the existing education system, but at the same time, the use of digital technologies is becoming more important in the era of information society. For this reason, it is necessary to replace the teacher-textbook-student paradigm of education with the student-textbook-teacher paradigm.*

*The shortcomings of the work carried out in the field of training of engineering computer graphics science programs based on the method of mutual comparison have been corrected.*

***Keywords:** "digital technology", "educational technologies", "computer modeling", "multimedia".*

***Аннотация.** До сих пор преподавание считалось приоритетом в существующей системе образования, но в то же время использование цифровых технологий становится все более важным в эпоху информационного общества. По этой причине необходимо заменить парадигму образования «учитель-учебник-ученик» на парадигму «ученик-учебник-учитель».*

*Исправлены недостатки проведенной работы в области подготовки программ инженерной компьютерной графики на основе метода взаимного сравнения.*

***Ключевые слова:** “цифровые технологии”, “образовательные технологии”, “компьютерное моделирование”, “мультимедиа”.*

***Kirish:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» PQ-3775-son qarorining 11-bandi 3-xat boshida, o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e’tiborni talabalarining mustaqil ta’lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish aytilgan.(1)*

*Shu paytga qadar mavjud ta’lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik – o‘qishga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta’limning o‘qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashishi zarurdir. Zamonaviy pedagog kadrlar yangi mavqega ega bo‘lib, uning vazifasi eng*

avvalo talabalarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo‘llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog‘i lozim.(2) O‘qituvchi bunday maqsadlarda o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash kerakki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari, o‘zlarida shaxsiy nuqtai nazarining shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo‘lishlari lozim.

**Tahlil va natijalari:** Bilimlarni o‘zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansa-da, ammo bilimlarni har qanday o‘zlashtirish yoki egallash talabani fikrlashiga rivojlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatmaydi. Buning uchun bilimlarni, faoliyat shakllarini faollashtirish lozim. Egallangan bilimlarni oddiy qaytarish talabalarning fikrlashlarini rivojlantirishda yetarli bo‘lmaydi. Faol bilish, mustaqil fikrlash faoliyati juda zarurdir. Bilimlarni mustaqil egallash faoliyati va olingan bilimlarni qo‘llash jarayoni yangi bilimlarning shakllanishiga, talabani samarali fikrlashi manbaiga aylanadi.

L.N.Anisimovning fikriga ko‘ra, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini, grafik tayyorgarligini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun kompyuter texnologiyalari va interaktiv ma‘ruzalardan va mustaqil ta‘lim olishga asoslangan innovatsion yondashuvdan foydalanish kerak.(3)

«Muhandislik kompyuter grafikasi» fani bo‘yicha talabalarni muvaffaqiyatli tayyorlash shartlaridan biri ularning mustaqil bilim olishlarini tashkil etishdir. Bu jarayon talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan. Kompyuter grafikasining intensiv texnologiya sifatida eng muhim afzalligi shundaki, u talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini namoyish etish, stereotiplarni va fikrlash inertsiasini yengish maqsadida mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘zgaruvchan va individual yondashish imkoniyatiga ega.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mustaqil ta‘lim faoliyat ekan, mustaqil ishni ham faoliyat turi deb hisoblash mumkin. Talabalarning mustaqil bilim olishlarini to‘g‘ri tashkillashtirish va nazorat qilish, o‘qitilayotgan fanning oldida turgan vazifalarga erishishning samarali vositasi deb hisoblaymiz. Chunki bugungi kunda har bir fan uchun ajratilgan vaqtning yarimi mustaqil ta‘limga mo‘ljallangan.

Masalan, Yevropa, AQSh va Yaponiya davlatlarida ham talabalarning mustaqil ta‘lim olish soatlari umumiy o‘quv soatining 50-60%ni tashkil qiladi. (4)

I.Kovalevskiy mustaqil ishlarning ikki turini ajratadi: (5)

– auditoriyada bajariladigan ishlar (mustaqil ish o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qituvchining bevosita rahbarligi ostida va uning topshirig‘i bilan bajariladi);

– auditoriyadan tashqarida bajariladigan ishlar (mustaqil ish o‘qituvchining topshirig‘i bilan, lekin uning bevosita ishtirokisiz bajariladi)

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, muhandislik kompyuter grafikasi fanidan talabalarning mustaqil ishlari mohiyati va ularni tashkillashtirish masalasini keltirish mumkin.

«Bilim – voqelikni bilishning, uning inson tafakkurida to‘g‘ri aks etishining isbotlangan natijasidir» – yaqin-yaqingacha ajdodlar tomonidan to‘plangan bilimlar, o‘qish va tinglash orqali, asta-sekin va uzluksiz birinchi so‘zdan oxirigacha idrok etish orqali qabul qilingan. Insoniyat to‘plagan bilimlarni yetkazishning bunday shakli ta‘lim dasturlarini qurishning chiziqli tamoyilini belgilab berdi. Unda ma‘lumotlar ierarxik va chiziqli shakllarda taqdim etiladi, yakuniy natija doimo oldindan belgilanadi.

Ta’limning an’anaviy vosita va texnologiyalari aksariyat hollarda chiziqli bo’ladi. Ularga darsliklar, metodik qo’llanma va ko’rsatmalar, o’rgatuvchi kompyuter dasturlar misol bo’la oladi. Bularning barchasi uzviylik tamoyili asosida tayyor bilimlarni uzatishga asoslanadi.

Mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda, ijodiy faoliyatni rivojlantirishuvchi va faollashtiruvchi samarali vosita talabalarning mustaqil ishlaridir.

Ta’lim jarayonida chiziqli bo’lmagan bilimlarni ifodalash vositalaridan (masalan, entsiklopediyalar) va sun’iy bilimlarni ifodalash usullaridan (masalan, bilimlar bazasi, multimedia) foydalanish o’qitishning chiziqli va chiziqli bo’lmagan shakllari o’rtasidagi farqni yaqqol ko’rsatadi. Mustaqil ta’limni tashkillashtirishda chiziqli bo’lmagan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, talabalar tomonidan o’z bilimlarini faol qurilishiga yordam beradi. Ushbu yangi usullarni qo’llashda talabalar o’zlarining vazifalarini bir xil muhitda bajaradilar, ammo chiziqli bo’lmagan texnologiyaning maqsadi talabalar uchun turlicha yakuniy natijaga erishish imkonini berishdir.

Shu bilan birga, mutaxassisning muhandislik va ijtimoiy faoliyatida ijodiy muvaffaqiyatning asosiy omillari sifatida fikrlash erkinligi, ko’p o’lchovli tizimli tafakkur, murakkab tizimlarning ishlash printsiplari va sharoitlarini tushunish, ilmiy dogmatizmning yo’qligi va ijodiy fikrlash metodologiyasiga ega bo’lish kabi shahsiy fazilatlarini inobatga olish mumkin.

Talabaning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanishini 4 darajaga bo’lish mumkin:

Birinchi daraja – mustaqil fikrlashning eng oddiy darajasi. Bunda talaba berilgan vazifani qonun-qoida va namunaga asosan bajaradi;

Ikkinchi daraja – variativ mustaqil fikrlash. Bu bir necha qoida va ta’riflardan birini tanlash va ulardan berilgan vazifani bajarish jarayonida foydalanish ko’nikmasi;

Uchinchi daraja – qisman izlanuvchan. Bunda talabada muammoni yechishning mavjud qonun va qoidalari asosida kengroq doiradagi masalalarni yechishning umumlashgan usullarini shakllantirish ko’nikmasi namoyon bo’ladi;

To’rtinchi daraja – ijodiy-izlanuvchan.

Ta’limning rivojlantiruvchi, tadqiqot yo’nalishlari (faol ta’lim metodlari) o’qitish texnologiyalarini tayyor bilimlarni uzatishga emas, balki bilish metodlariga quradi. Boshqacha qilib aytganda, talabaning shaxsiy modelini shakllantirishga chiziqli bo’lmagan bilimlar modeli ta’sir ko’rsatadi.

Mustaqil ta’limni shu ko’rinishda tashkillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Talabalarning fan bo’yicha mustaqil bajaradigan vazifalarini shunday mazmunda tuzish kerakki, ularni berilgan vazifani bajarish davrida erkin ijodiy fikrlashga undashi kerak.

Chiziqli bo’lmagan ta’lim texnologiyalariga quyidagi ta’lim metodlarini o’z ichiga oluvchi ta’lim turlari kiradi: loyiha metodi, kompyuterni o’rganish vositasi sifatida qo’llash, kompyuterli modellashtirish, laboratoriya amaliyoti, misollarni namoyish qilish usuli, gipermedia tizimlari bilan ishlash.

D.Xenning fikriga ko’ra, chiziqli bo’lmagan tuzilmalar axborot texnologiyalarida keng qo’llanila boshlandi.(6) Ularning tamoyiliga asoslanib, kompyuter dasturlarida kontekstual ma’lumotnoma tizimlari Professional technology system (PTS) platformasida quriladi, bu esa talabaning individual ta’lim traektoriyasi bo’yicha mustaqil bilim olishiga imkon beradi. PTS platformasidan foydalanib, grafik dasturlar o’zlashtirilsa, yuqori samaraga erishiladi. Keltirilgan tizim kompyuterni o’rganish vositasi sifatida qo’llash imkonini beradi.

Bunday vositalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ma‘lumotlar bazalari, katta formatli elektron jadvallar, semantik tarmoqlar, ekspert tizimlari, multimedia vositalari, avtomatlashtirilgan kompyuterli loyihalash tizimlari, kompyuter grafikasi tizimlari, kompyuterli video telekonferentsiyalar, amaliy dasturlar.

Shularni inobatga olgan holda, muhandislik kompyuter grafikasi fanida bilish vositasi sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin:

– bir tomondan, tasvirlarni modellashtirishga imkon beruvchi, boshqa tomondan, ko‘pincha o‘zlari gipermedia darsliklar hisoblanadigan grafik tizimlar;

– to‘plangan tajribani umumlashtirib, bilim hosil qilish imkonini beruvchi namoyish va modellashtirish dasturlari;

– to‘plangan bilimlarni umumlashtirish va rasmiylashtirish, tezkor qidiruvni amalga oshirish va ma‘lumotlarni filtrlash imkonini beruvchi ma‘lumotlar bazalari;

– hisoblash jarayonini osonlashtiruvchi, oraliq ma‘lumotlarni tezkor grafik tasvirlash, modellashtirish imkonini beruvchi elektron jadvallar.

O‘rganilayotgan materialning hajmi kattaligi tufayli talabani o‘rganilayotgan tizimning barcha xususiyatlari bilan to‘liq tanishtirish imkonini yo‘q. Shuning uchun u kelajakda mustaqil o‘qishni davom ettirishi va o‘quv kursiga kiritilmagan materialni tushunib olishi uchun mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim.

Bu maqsadga erishishning eng samarali usullaridan biri, shubhasiz, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, hamda, ularning mutaxassislik kafedralari loyihalarida ishtirok etishidir. Bu esa o‘quvchiga bo‘ljak kasbining xususiyatlari bilan, shuningdek, ushbu sohadagi so‘nggi ilmiy ishlanmalar bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Yetakchi olimlarning fikricha, oliy ta‘limning mohiyati mustaqil ilmiy ishlar bilan tavsiflanadi. Har bir talaba ilmiy ishning samarali uslubini o‘zlashtirishi, mustaqil ijodiy faoliyatga layoqati va tayyorligini, ilmiy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi va takomillashtirish va uni amaliyotda ijodiy qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Ilmiy faoliyat va ta‘limni uzluksiz takomillashtirish oliy ma‘lumotli har bir mutaxassisning shaxsiy ehtiyojiga aylanishi lozim. Maqsad – talabalarni o‘qishning dastlabki yilidan boshlab muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat qoidalari va usullari bilan tanishtirish.

Bizningcha, ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan mustaqil ta‘lim texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) muammoning qo‘yilishi;
- 2) qo‘yilgan muammo doirasidagi manbalarni ko‘rib chiqish;
- 3) vazifani bajarilishini rejalashtirish;
- 4) vazifaning yechimini modellashtirish;
- 5) natijalarni tahlil qilish, xulosalar va bajarilganlik hisobotini tayyorlash;
- 6) berilgan muammo doirasidagi bilimlarini tizimlashtirish va umumlashtirish.

Birinchi bosqich. Pedagog tomonidan muammoning to‘g‘ri qo‘yilishi, talabani ijodiy fikrlashiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasi fanidan beriladigan vazifalarni taqqoslash metodiga asosan berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masalan, detalning berilgan ortogonal proektsiyasi asosida uning yaqqol tasvirini qurish so‘ralsa, talaba an‘anaviy (qo‘lda) usul bilan, dastur yordamida qurishni yoki dasturlarni o‘zaro qiyoslashi mumkin.



Qiyoslashni talaba ixtiyoriy ko‘rinishda amalga oshiradi. Masalan, shu vazifani bajarish uchun sarflanadigan vaqtni yoki bajariladigan amallar sonini taqqoslashi mumkin.

Ikkinchi bosqich. Talaba qo‘yilgan muammo doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar, adabiyotlar va internet tarmog‘idan ma‘lumotlarni qidiradi va to‘playdi.

Uchinchi bosqich. Talaba to‘plangan ma‘lumotlar asosida qo‘yilgan muammoni yechishning bir necha usullarini aniqlaydi va ixtiyoriy birini tanlaydi va vazifani bajarilishini rejalashtiradi.

To‘rtinchi bosqich. Qo‘yilgan muammoning yechimini shakllantiradi.

Beshinchi bosqich. Bu bosqichda talaba qo‘yilgan muammoning yechimini referat, maqola yoki hisobot qo‘rinishida tayyorlaydi. Talabada ilmiy faoliyat haqida tushuncha shakllanadi, fanga va mutaxassisligiga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Oltinchi bosqich. Talaba qo‘yilgan muammo yuzasidan mutaxassisga aylanadi. Chunki, talaba muammoni yechimini izlash mobaynida ko‘plab ilmiy ma‘lumotlarni o‘qiydi, muammoni yechishning barcha yo‘llarini xayolidan o‘tkazadi. Buning barchasi uni kelgusi ilmiy izlanishlariga turtki bo‘la oladi.

Bo‘ljak mutaxassislar o‘zlarining ish faoliyatlarida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni mustaqil ravishda bartaraf etish yo‘llarini topadilar. Bundan tashqari talabalar oliy ta‘lim muassasalarini bitirgach doimiy ravishda o‘z ustlarida ishlab, mustaqil izlanishlar olib bora oladilar.

**Xulosa:** Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, mustaqil ta‘limni chiziqli emas, balki, tadqiqotga yo‘naltirilgan (chiziqli bo‘lmagan) texnologiyaga asosan tashkillashtirish, talabaning vazifani bajarishga ijodiy yondashishiga zamin yaratadi.

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» PQ-3775-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018 yil 11 iyun, 23-son, 474-modda.
2. Хмарова Л.И., Усманова Е.А. Применение компьютерных технологий при изучении графических дисциплин. Теория и методика профессионального образования. Вестник ЮУрГУ. Серия «Образование. Педагогическая наука». 2014, том 6. – № 2. – С 59-63.
3. Анисимова, Л.Н. Инновационный подход к профессионально-графической подготовке будущих учителей технологий и предпринимательства / Л. Н. Анисимова // Вестник МГОУ. – 2014. – № 1. -С. 13–20.
4. Высшее образование (словарь). – Т.: Маля, 2003. – 456 с.
5. Ковалевский И. Организация самостоятельной студенческой работы // Высшее образование в России. - Москва, 2000. - № 1. – С.114–115.
6. Xen D. School of the future: from principles to planning and creation./ INFO, 1996. №2.

## НОВАЯ МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ V-VI КЛАССОВ

Усманов Бахтияр Юлчибаевич

К.п.н, старший преподаватель, Высший педагогический колледж Республика Казахстан г.  
Шымкент, ул.8 март № 22

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160097>

**Аннотация.** В статье рассматриваются основные особенности детского творчества, формирование и проблемы творческого мышления, выявление условий, обеспечивающие максимальное и всесторонне развитие художественного мышления, аспекты формирования художественного мышления учащихся 5-6 классов в процессе рисования с натуры. Педагогические условия для развития художественного мышления в процессе рисования с натуры, основы поиска путей формирования творческой личности учащихся, познания внутреннего мира человека, его духовное становление и творческое самосовершенствование. Новизна нашей работы заключается в новой методической системе развития эффективности доказанной экспериментальным путем сравнивая группы учащихся.

**Ключевые слова:** творческое мышление, креативность, активность, способность, интеллектуально-творческий потенциал, гармоничность, постановка, рисование с натуры, способность.

**Abstract.** In the article discusses the main features of children's creativity, formation of creative thinking and problem, identifying the condition to ensure the maximum and comprehensive development of creative thinking, aspects of the formation of creative thinking of student's grades 5-6 in the process of drawing from life. Pedagogical conditions for the development of creative thinking in the process of drawing from life, the foundations of how to promote creative person pupils'health, knowledge of the inner world of man, his spiritual formation and creative self-improvement.

**Keywords:** creative thinking, creativity, activity, ability, intellectual and creative potential, harmoniously, staging, drawing from nature, ability.

**Введение.** Формирование творческого мышления учащихся является одной из приоритетных задач современного образования. Это обусловлено общественными потребностями в накоплении интеллектуально-творческого потенциала, с помощью которого общество сможет выйти на новые рубежи развития, так как только яркие творческие решения помогут найти выход из сложного переплетения экономических, политических и социальных проблем.

В Казахстане за 20 лет независимости сделано много в области совершенствования общеобразовательной системы. Утвержден новый стандарт общего среднего образования, приближенный к мировому уровню и составлены проекты стандартов высшего профессионального образования. В соответствии с требованиями нового стандарта, в образовательной системе представлена область «Искусство». Парламентом Республики Казахстан принят Закон «Об образовании», который определяет в числе приоритетных задач – развитие творческих, духовных и физических возможностей личности, формирование привычных основ нравственности и здорового образа жизни, обогащение интеллекта путем создания условий для развития индивидуальности, а также приобщение

к достижениям мировой и отечественной культуры. В разделе организации учебно-воспитательного процесса, предусмотрено, что для апробации новых технологий обучения, внедрения нового содержания могут разрабатываться образовательные программы, реализуемые в режиме эксперимента в организации образования. [1]

Тем не менее, современная эпоха выдвигает ряд неотложных задач в области духовно-нравственного развития общества, которые требуют безотлагательного решения вопроса творческого роста учащихся в средних общеобразовательных школах.

Перед Республикой Казахстан стоит проблема переосмысления задач, стоящих перед высшей и общеобразовательной школой. Особенно той части общеобразовательной системы, где рассматриваются вопросы духовно-эстетического и творческого развития личности. Детское творчество как основное свойство духовности является мощным фактором, противостоящим деструктивным общественным явлениям. В условиях интенсивного накопления знаний и ограниченности возможности их переработки индивидом педагогическая наука переориентировалась с идеи всестороннего развития личности на идею развития способностей к самореализации личности, учитывая, что возросла потребность личности в творческой самореализации.

Главное в нашем исследовании – это выявление условий, которые обеспечивали бы максимальное и всесторонне развитие художественного мышления.

Всякая целенаправленная работа начинается с мышления, и неслучайно все выдающиеся художники-педагоги прежде всего старались активизировать мыслительную деятельность ученика, так как с помощью мышления активизируется и творческая деятельность. Объясняя психологию мыслительной деятельности, А.В. Брушлинский пишет: «Мышление – это всегда искание и открытие существенно нового». [2]

**Методика.** Теперь обратимся к вопросу, как можно способствовать развитию художественного мышления в процессе рисования с натуры. В первую очередь необходимо отметить особую роль самоорганизации, осознание приемов и правил умственной деятельности. Ученик должен с достаточной ясностью понимать сущность умственного труда, осознавать хотя бы основные его приемы. Если у него нет желания и умения, организовывать свою умственную деятельность он обычно не достигает высокого уровня развития мышления даже при самых благоприятных задатках и хороших условиях. Для повышения продуктивности мыслительной деятельности можно использовать умение управлять такими этапами мышления, как постановка задачи, создание оптимальной мотивации, регулирование направленности произвольных ассоциаций, максимальное включение, как образных, так и символических компонентов, использование преимуществ понятийного мышления, а также снижение излишней критичности при оценке результата, - всё это позволяет активизировать мыслительный процесс, сделать его более эффективным.

Умение логически обрабатывать материал часто развивается у подростков стихийно. Развитие таких умений должно стать специальной задачей учителя. От этого зависит не только, глубина и прочность знаний, но и возможность дальнейшего развития интеллекта и особенностей подростка.

Как же развивать художественное мышление школьников?

Решение проблемы в развитии художественного мышления детей в учебно-воспитательном процессе изобразительного искусства имеет большое значение особенно

сейчас, в условиях творческого возрождения. Это проблема может быть решена при условии организации целенаправленного процесса, включающего разнообразные формы классных, внеклассных занятий, сориентированных на постижение духовно-содержательных аспектов изобразительного искусства в единстве восприятия и созидательной деятельности на основе общения, сотворчества, а также путем совершенствования системы педагогического руководства процессом развития творческих способностей детей средствами изобразительного искусства.

**Основная часть.** Наше экспериментальное исследование шло по направлению – развитие творческого мышления через воспитание и обучения в процессе рисования с натуры. Это исследование проходило в следующих направлениях:

- сбор творческих рисунков путем проведения специальных экспериментальных заданий в 5-6 классах.

- наблюдение за учениками в процессе рисования с натуры, анализ в развитии художественного мышления детей, при выполнении ими задания. Объектами наших исследований являлись рисунки детей и выполнения заданий с учетом развития творческого мышления детей в процессе рисования с натуры.

Процесс обучения изобразительному искусству, согласно нашей экспериментальной программе, начинается учащимися 5-6 классов. Обучение проводится на уроках предмета «Изобразительное искусство». В этом возрасте у учащихся проявляется стремление к выяснению причин явлений реального мира, формируются умение обосновывать свои суждения, логически раскрывать свои умозаключения, делать обобщение, выводы. На среднем этапе творчества начинает свое развитие творческого мышления, поэтому метод разработки заданий нами определялся на уроках рисования с натуры способами восприятия мира учащимся, который отображается образно.

С целью исследования уровня развития художественного мышления учащихся, их способности к обучению, и мыслительных операций, анализируя которых можно охарактеризовать отдельные особенности мышления, мы использовали следующие критерии:

- степень компоновки и гармоничного заполнения поверхности листа;
- степень усвоения элементарной граммоты законы композиции;
- степень конструктивного построения предметов;
- степень передачи линейной и воздушной перспективы;
- степень передачи объема, законы светотени;
- степень сходства изображения с предметами натуры;
- степень проработки детали и обобщенности рисунка.

По критериям определялся уровень развития художественного мышления на уроках рисования с натуры, который мы обозначили качеством – высокий уровень [ВУ], средний уровень [СУ] и низкий уровень [ЛУ]

По вышеизложенным критериям был определен уровень развития художественного мышления учащихся контрольной группы в начале года, в середине и к концу года, обучающиеся по базовой программе среднего общеобразовательного стандарта. Было выявлено, что у основной массы детей уровень развития мышления можно охарактеризовать как средний и низкий.

В связи с этим мы составили ряд рекомендаций по развитию художественного мышления учащихся:

- учить давать правильные определения, анализировать, сравнивать и различать предметы и явления, ясно,
- правильно и четко выражать свою мысль,
- воспитывать умение рассуждать, умозаключать,
- делать выводы, обобщения.

Учащимся 5-6 классов экспериментальной группы были проведены в течение года по 4 урока рисования с натуры. Учитель вел уроки по методическим рекомендациям проведению уроков рисования с натуры, разработанные нами.

Перед данной программой ставится цель оказать профессиональную помощь в деле подготовки учителей к руководству и организации проведения учебной и воспитательной работы урока изобразительного искусства в средней общеобразовательной школе.

Программа определяет следующие учебно-воспитательные задачи:

- воспитание и развитие творческих способностей и изобразительных навыков; расширение диапазона чувств, воображения и зрительных представлений, фантазии, воспитание эмоциональной отзывчивости на явления художественной культуры;
- развитие художественного мышления учащихся в процессе рисования с натуры
- приучать детей к правильному суждению о форме предметов на основе научных данных о явлениях перспективы, теории теней, цветоведения, анатомии.
- научить детей внимательно рассматривать и анализировать форму предметов, правильно видеть, понимать и изображать форму предмета
- понять и практически усвоить такие основы изобразительной грамоты, как перспектива, линейно-конструктивное построение формы на плоскости, законы распределения светотени на форме в зависимости от ее конструкции.

Поставленные перед программой учебно-воспитательные задачи реализуются в содержаниях и методических разработках занятия рисовании с натуры на уроках изобразительного искусства.

По результатам работы учащихся экспериментальной группы проводился уровень развития художественного мышления учащихся в начале года, в середине года и к концу года

В результате экспериментальной работы в школе сложилась определенная методика преподавания, которая соответственно, дала свои результаты. Ученики пятого класса школы во время работе над натюрмортом правильно отвечали, что центром композиции является та часть, которая достаточно ясно выражает главное идейное содержание сюжета, что центр выделяется объемом, освещенностью и другими средствами, действующими в соответствии с основными законами композиции.

Учащиеся 6-ого класса, благодаря развитому творческому мышлению, в своих композициях идейную завязку очень редко располагают в буквальном геометрическом центре, так как геометрическое равновесие по центру идет вразрез с впечатлениями, даваемыми непосредственным восприятием жизни. Центр композиции может немного переместиться в сторону, но не с тем, чтобы отдать остальное пространство листа ненужному материалу или пустому, ничем неоправданному пространству. Здесь у учащихся развивается чувство равновесия, то есть ощущение заполненности листа



композицией. Наиболее ценной является та композиция, от которой нельзя ничего отнять и к которой нельзя ничего прибавить.

В результате исследований было замечено, что у многих учеников 5-6 класса появился интерес к работе, стремлению проявить творческую фантазию. Анализируя конечный результат работ за этот период времени, было выявлено несколько главных преимуществ:

- ученики не испытывают затруднения с выбором формата для изображения;
- ученики лучше представляют конечный результат своей работы;
- заметна аккуратность или продуманность эскиза, которая влияет на конечный результат;

- присутствует объемное видение изображаемого предмета;
- порядок нанесения светотени на предметах;
- соответствие внешней формы предмета с предметами природы;
- сходство изображения с предметами природы.

При этом выполненные учащимися работы отличаются художественным вкусом, а в процессе выполнения работы обязательно применяют творческий подход.

Результаты работы по экспериментальной методике подтверждают, что значительный объем и качество полученных системных изобразительных знаний, умений и навыков на основе рисования с натуры дают осознание учащимся интереса творческого поиска и конечного результата развития творческого мышления. Эксперимент доказал, что особым образом организованные учителем занятия рисования с натуры, содержания и методы которых строятся на основе содержательного обобщения, познания от общего к частному и от частного к общему, могут существенно влиять на динамику развития художественного мышления учащихся.

Уроки рисования с натуры в изобразительном искусстве развивают творческое мышление и эстетический вкус учащихся. Развитие личности предполагает формирование творческих способностей, основным показателем которых являются беглость и гибкость мышления, оригинальность, точность и смелость, проявление любознательности.

Составленные рекомендации содержат основные положения по развитию художественного мышления в подростковом возрасте. Однако необходимо дальнейшее внедрение новаторских способов и методов развития этого одного из основных познавательных процессов в жизни и деятельности каждого человека.

Методическая реализация предложенной нами системы формирования творческого мышления учащихся через уроки рисования с натуры в ходе опытно-экспериментальной работы дала качественные сдвиги в структуре личностных характеристик всех учащихся группы, более высокие оценочно-результативные показатели.

**Заключение.** В данном исследовании мы рассматривали аспекты формирования художественного мышления учащихся 5-6 классов в процессе рисования с натуры. В соответствии с целью, задачами исследования были выявлены педагогические условия на развитие художественного мышления в процессе рисования с натуры, основы поисков путей формирования творческой личности учащихся, познания внутреннего мира человека, его духовное становление и творческое самосовершенствование.

По мере формирования художественного мышления подросток все больше научается осознавать обобщенные закономерности явлений. Мышление начинает особенно

переходить от единичного через особенное к всеобщему, от случайного к необходимому, от явлений к существенному в них, от одного определения сущности ко всё более глубокому познанию действительности, к пониманию взаимосвязи её различных моментов, сторон её сущности. Точнее подросток не только и не столько всё глубже познаёт действительность, по мере того, как развивается его мышление, сколько его мышление всё более развивается, по мере того как углубляется его познавательное проникновение в действительность. Именно поэтому нам представилось особенно важным выявить основные закономерности развития и развития художественного мышления в этом возрасте. [3]

Достигнутая степень развития мышления младшего школьника позволяет в подростковом возрасте приступить к систематическому изучению основ наук. Содержание и логика изучаемых предметов, характер усвоения знаний в V-VI классах требует опоры на способность самостоятельно мыслить, рассуждать, сравнивать, делать выводы и обобщения.

При составлении данной работы, достигнуты цели и задачи, поставленные в данной работе, а именно: выявлены основные закономерности развития и диагностики художественного мышления в учащихся 5-6 классов на уроках рисования с натуры. Обобщен материал по проблеме художественного мышления в изобразительном искусстве.

**Выводы.** Таким образом, осуществление развития художественного мышления учащихся на уроках рисования с натуры в средней общеобразовательной школы, обучения и воспитания должно стать одним из ведущих принципов и содержанием учебно-воспитательного процесса в общеобразовательной школе. Задачи формирования творческой личности учащихся художественно-педагогическими средствами можно решать в рамках среднего общего образования путем создания целостной системы художественного обучения и воспитания с целью развития художественного мышления детей.

## REFERENCES

1. Послание Президента РК народу Казахстана. – Алматы: Жеті жарғы, 2012. – 44 стр.
2. Брушлинский А.В. Психология мышления и кибернетика. М.: Просвещение, 1970.
3. Болотина Л.Р. Развитие мышления учащихся // Начальная школа - 1994 - #11
4. Русское искусство: Очерки о жизни и творчестве художников /Под Сарыбеков М.Н. Модель учителя XXI века, //Образование и наука. Астана, 2003.
5. Джардина М.Ж., Вопросы повышения качества школьного образования. Материалы МНПК Среднее образование в XXI веке: состояние и перспективы развития, Астана, 2002, С.15
6. Медведев Л.Г. Формирование художественного образа на занятиях по рисунку М.: Просвещение, 1986. - 160 с.
7. Кузин В.С. Психология: Учебник. - М: Агар, 1997. - 304 с.
8. Козлякова Н.В. Педагогические условия повышения эффективности художественно-творческой деятельности студентов средствами декоративно-прикладного искусства: автореф. ... к.п.н. - М.: МГПИИ Магнитогорск, 2007. - 24 с
9. Арнхейм Р. Искусство и визуальное восприятие. - М.: Прогресс, 1974.-392с.
10. Дремов А.К. Художественный образ. - М.: Советский писатель, 1961. -406с.

11. Белинский В.Г. Идея искусства. Полное собрание соч., т. 8, - М.: Художественная литература, 1982. - Том 8. - 337- 412 с.
12. Герасимова А.А. Развитие творческого мышления будущих учителей изобразительного искусства средствами народной педагогики: автореф. ... к.п.н. - Магнитогорск, 2007. - 24 с.
13. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. Изд. 2-е. - М.: Изд-во полит, литературы, 1977. - 237 с.
14. Пономарев Я.А. Психология творческого мышления. - М.: АПН РСФСР 1960. - 352 с.
15. Подласый И.П. Педагогика.-М.: Просвещение. 1996г.
16. Бронштейн И.Н.,Семендяев К.А. Справочник по математике для инженеров и учащихся втузов.- М.: Наука, 1986г.
17. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития: Инновационный курс КГТУ. 4.2. Казань КУ, 1998.
18. Выготский Л.С. Лекции по психологии. СПб.: Союз, 1999.143с.
19. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. Проблемы возрастной и педагогической психологии: Под ред. Д.И. Фельдштейна. -М.: Международная педагогическая академия, 1995. - 224 с.

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING OILA BILAN ISHLASHNING ASOSIY SHAKLLARI**

**Maxmudova Dilafruz Baltabayevna**

Xalqaro Nordik universiteti “Psixologiya va maktabgacha ta’lim” kafedrası katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160114>

***Annotatsiya.** Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o‘z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko‘rsatib beradi. Umuman, bola tarbiyasida- maktabgacha ta’lim, Oila va Jamiyat ham birdek mas’ul.*

***Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila, jamiyat, hamkorlik, kichik davlat – oila, ta’lim- tarbiya, o‘zaro munosabatlar*

***Аннотация.** Роль внешней социальной среды и воспитания имеет решающее значение в психическом развитии человека и формировании личностных качеств. Это, в свою очередь, показывает, что роль семьи и общества в воспитании личности ребенка чрезвычайно велика. В целом семья и общество несут равную ответственность за образование ребенка – дошкольное образование.*

***Ключевые слова:** организация дошкольного образования, семья, общество, сотрудничество, малое государство – семья, воспитание, взаимоотношения.*

***Abstract.** The role of the external social environment and upbringing is crucial in the mental development of a person and the formation of personal qualities. This, in turn, shows that the role of the family and society in the upbringing of a child's personality is extremely large. In general, family and society are equally responsible for child education - pre-school education.*

***Keywords:** preschool education organization, family, society, cooperation, small state - family, education, mutual relations*

**Kirish:** Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadi: bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo‘ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilarli amalga oshiruvchi ta’lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti maktabgacha ta’lim ustaviga muvofiq bo‘lgan zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog‘lig‘ini mustahkamlashga doimo g‘amxo‘rlik qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta’limi bo‘ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so‘z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo‘lgan va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajratishga o‘rgatishi lozim.

**Asosiy qism:** Maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishganlar. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Bolalar bog‘chasi va oila o‘rtasida hamkorlik o‘rnatishda direktor, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do‘st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a‘zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga borishidan avval o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o‘ylangan bo‘lishi kerak. Suhbat

shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o‘rtasida ishonchli aloqa o‘rnatilishi darkor. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang- barang bo‘lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to‘g‘risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha tarbiya tashkilotlarining yillik ish rejasi to‘g‘risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir. Bu masalalarni jamoa bo‘lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Tarbiyachilar bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog‘laydilar.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.
2. “Badan tarbiyasi”.
3. “Fikr tarbiyasi”.
4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. Shunday ekan, bola tarbiyasi bir vaqtning o‘zida “Maktabgacha ta’lim”, “Oila” va “Jamiyat” nuqtai-nazarida shakllanib boradi.

Biz oilani “davlat ichra kichik davlat”- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya’ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo‘ladi. Shu sababli ota - onalar farzandning birinchi o‘qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma’naviy yetuk qilib o‘stirish uchun, eng avvalo, ota - onaning o‘zi yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Farzand tarbiyasini ota - onalar o‘z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota - onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas’uliyati hamda qarindosh - urug‘lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota - ona obro‘si farzand tarbiyasida ma’naviy ozuqa bo‘ladi. Bu ma’naviy ozuqa bola tarbiyasida “ufq” ni ko‘zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo‘shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota - onalar ijobiy o‘rnak bo‘ladigan kishilardir. Bunday odamlar o‘z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, maktabgacha ta’limda ham e’tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oilalar a’zolari bo‘ladi.

Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta’sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug‘ilib o‘sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta’lim- tarbiyaning ta’siridir va uchinchisi odamga nasliy yo‘l bilan beradigan irsiy omillarning ta’siridir.

Bugungi kunda davlat va xususiy muassasalar, oliy o‘quv yurtlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) xorijda jumladan, Turkiyada maktabgacha ta’limni turli darajadagi va bir-biridan farqli dasturlar bilan ta’minlovchi muassasalar sirasiga kiradi. Maktabgacha ta’limni qo‘llash modellarini odatda ikkita guruhga bo‘lish mumkin:

"Muassasa asosidagi ta’lim modellari" va "Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning muhitini qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim modellari".

Ijtimoiy xizmatlar va bolalarni himoya qilish muassasasiga qarashli maktabgacha ta’lim muassasalari- “kunduzgi markaz”, “bolalar bog‘chasi”, “bolalar klubi” va “bolalar uyi” kabi turli



nomlarga ega. Ular 0-6 yoshdagi bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish va rivojlantirish, ularga asosiy qadriyatlar va odatlarni berish uchun tashkil etilgan. Bog'chalarda 0-3 yoshli bolalar, kunduzgi markazlarda esa 3-6 yoshli bolalar xizmat ko'rsatadi. Bu muassasalar birgalikda yoki alohida ochilishi mumkin. Bog'chalar: 0-12 yoshdagi himoyaga muhtoj bolalarning jismoniy, tarbiyaviy, psixologik-ijtimoiy rivojlanishini, ularning sog'lom shaxs va yaxshi odatlarga ega bo'lishini ta'minlashga mas'ul bo'lgan ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalaridir. SHÇEKning 2828-sonli Ijtimoiy xizmatlar va bolalarni himoya qilish agentligi qonunining 15-moddasi asosida tayyorlangan "Bolalar va bolalar bog'chalari to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra, bu muassasalar onasi va otasi vafot etgan qarindoshlari tomonidan qaraladi; ota-onadan biri vafot etgan, ikkinchisi ishlayotgan; ajrashgan va ishlaydigan ota-onalar; Ota-onasi jiddiy ruhiy yoki jismoniy kasalliklarga duchor bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

“Davlat xizmatchilari to'g'risida”gi Qonunga muvofiq ochilgan “Maktabgacha ta’lim muassasalari to'g'risida”gi Qonunning moddalariga ko'ra, “Davlat xizmatchilari uchun bolalar bog'chalari va ijtimoiy ob'ektlar mavjud bo'lgan joylarda tashkil etilishi mumkin. Ularni tashkil etish va ishlash tamoyillari va tartiblari Davlat Kadrlar Raisi va Moliya vazirligi tomonidan birgalikda tayyorlanadigan umumiy nizom bilan belgilanadi”.Xodimlarning maktabgacha yoshdagi bolalari uchun rasmiy ish joylari va muassasalarida ochiladigan bolalar bog'chasi, ushbu Qonunning tegishli moddasidan kelib chiqqan holda ochiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolani va uning muhitini qo'llab-quvvatlovchi ta'lim modellari: Maktabgacha yoshdagi bolani va uning oilasini bolaga g'amxo'rlik va ta'lim nuqtai nazaridan qo'llab-quvvatlaydigan va ichki yoki tashqi muhitda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan barcha turdagi parvarish va ta'lim modellari bu guruhga kiradi.

Ona-bola ta'limi dasturi (MOCEP): Noqulay ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda yashovchi va bolalar bog'chasiga bormaydigan 6 yoshli bolalar va ularning onalari uchun ishlab chiqilgan dastur bo'lib, Milliy ta'lim vazirligining Shogirdlik va maktabdan tashqari ta'lim Bosh boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan. Rasmiy ta'lim haftasiga 3 soatdan 25 hafta davomida olib boriladi.

Dastur uch qismdan iborat:

1. Onalarni qo'llab-quvvatlash dasturi,
2. Ruhiy qo'llab-quvvatlash dasturi,
3. Reproduktiv salomatlik va oilani rejalashtirish (Bekman va Gürlesel, 2005).

**Xulosa:** Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko'rsatib beradi. Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, Oila va Jamiyatning ham birdek hissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta'lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta'limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o'yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi. Egallagan tarbiyani esa albatta jamiyat va o'zaro munosabatlarda qo'llaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Oiladagi ta'lim jarayonining boshlanishi va oxiri chegarasi yo'q. Bolalar uchun ota-onalar hayotning idealidir, bolaning nigohidan hech narsa bilan himoyalanganmagan. Oilada ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining sa'y-harakatlari muvofiqlashtiriladi: maktablar, o'qituvchilar, do'stlar. Oila bola uchun u o'z ichiga olgan hayot modelini yaratadi.

## **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Xalq so‘zi gazetasi 2017.16-y
2. “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi” Toshkent-2017-yil
3. Dunyo va Turkiyada Boshlang‘ich ta’lim. Anqara: PEGEM nashrlari. YuNESKO (2000).
4. Dakar harakat doirasi. Jahon ta’lim forumi, 2000 yil 26-28 aprel, Dakar, Senegal. UNICEF (1990).
5. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. (Tuzuvchilar: J. [Hasanboyev](#), X. To‘raqulov, O. [Hasanboyeva](#), N. Usmonov).T., «Fan va texnologiyalar», 2009.
6. Sodiqova SH.A. “Maktabgacha pedagogika”, “Tafakkur sarchashmalari” - Toshkent 2013 y.

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

**<sup>1</sup>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna, <sup>2</sup>Egamberdiyeva Maftuna Karimbayevna**

<sup>1,2</sup>NORDIC universiteti katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160126>

***Annotatsiya.** Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida ta’limning birinchi bosqichi maktabgacha ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan ekanligi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yish va bu sohani yanada rivojlantirish uchun ko‘pgina imkoniyatlar yaratilayotganligi haqida. Bolalarni MMTT sharoitida adaptatsiyalashuv jarayonining samarali kechishida ota-ona va oilada olib boriladigan jarayonning tashkillashtirilishida psixologik yordamning zamonaviy usullari haqida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** psixologik yordam, bolalar psixologiyasi, maktabgacha ta’lim tizimi, shaxsiy yondashuv.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена первому этапу образования в Республике Узбекистан, который считается дошкольным образованием, и является одной из главных задач государственной политики в области развития дошкольного образования. В статье рассказывается о создании психологической службы в дошкольных образовательных учреждениях и о создании множества возможностей для дальнейшего развития этой области. Описываются современные методы психологической помощи в процессе адаптации детей в условиях МДО, которые проводятся родителями и семьей.*

***Ключевые слова:** психологическая помощь, детская психология, система дошкольного образования, личностное развитие.*

***Abstract.** This article is dedicated to the first stage of education in the Republic of Uzbekistan, which is considered to be preschool education, and is one of the main tasks of the state policy in the field of preschool education development. The article discusses the creation of a psychological service in preschool educational institutions and the creation of many opportunities for further development of this area. It describes modern methods of psychological assistance in the process of adapting children in the conditions of preschool educational institutions, which are carried out by parents and family.*

***Keywords:** psychological help, child psychology, preschool education system, personal development.*

**Kirish.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishning zamonaviy usullari, bolalar psixologiyasini yanada rivojlantirish uchun ko‘pgina imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu maqolada, biz maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishning zamonaviy usullarini ko‘rib chiqamiz.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan ishlash jarayonida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning vaqtini mazmunli o‘tkazishni ta’minlashdan tashqari ularning psixologik holati, katta bo‘lish jarayonlarida tashqi ta’sirlarga reaksiyasini o‘rganib ular bilan ishlaydigan malakali psixolog mutaxassislar ishlamoqda.

Xususan , O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi” PF-5198-sonli farmoni,

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil 10-maydagi PQ- 4312/3106-sonli qarori maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xujjatlarning barchasi maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ularni zamonaviy texnik baza bilan, malakali pedagoglar bilan ta’minlash vazifalari belgilab berilgan buning uchun albatta maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash, psixologik xizmat sohasini yo‘lga qo‘yishni takomillashtirish muhim hisoblanadi.

#### **Tahlil va natijalari.**


Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik yordam tizimi bolalar, ota-onalar va tarbiyachilar uchun rivojlanish, ta’lim-tarbiya, moslashuv, har bir o‘tish yosh davri bo‘yicha o‘z vaqtida malakali maslahat, uslubiy, psixodiagnostik va psixokorreksion yordam berishi aniq.

Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari psixologi quyidagi yo‘nalishlar asosida ish olib borsam samarali natija beradi.

1. Psixologik ma’rifat.
2. Psixologik oldini olish.
3. Psixologik diagnostika.
4. Psixologik tuzatish.
5. Psixologik maslahat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishning asosiy maqsadi bolalarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini yaxshilash va ularning psixologik salomatligini saqlashdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishning zamonaviy usullarini ko‘rib chiqar ekanmiz, albatta jarayonning borishi shu sohaning yetuk mutaxassislari bilan nazorat ostida qilinishi kerak bo‘ladi.



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni ko’rsatishning zamonaviy usullari quyidagilardan iborat: <b>Psixologik Profilaktika</b>	Psixologik profilaktika, o’quvchilarning muammolari bilan shug’ullanish va ularni oldini olish uchun zarur bo’lgan ishlar. Bu jarayon o’quvchilarning muammolari bilan shug’ullanish va ularni oldini olishga yordam beradi
<b>Psixologik Maslahat</b>	Psixologik maslahat, o’quvchilarga va ularning oilalariga psixologik maslahat berish uchun zarur bo’lgan ishlar. Bu jarayon otanalarga va pedagoglarga bolalar bilan ishlashda kerak bo’ladigan psixologik bilim va ko’nikmalarni beradi
<b>Psixologik-Pedagogik Konsilium</b>	Psixologik-pedagogik konsilium, pedagogik jamoada sog’lom psixologik muhitni yaratish va qo’llab-quvatlash jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish.
<b>Diagnostik-Korreksion Ishlar</b>	Diagnostik-korreksion ishlar, o’quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo’lgan ishlar. Bu jarayon o’quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. **Psixologik xizmat tashkil etishning maqsadi va vazifalarini belgilash:** Bu, bolalar uchun qanday yordam ko’rsatish kerakligini aniqlash uchun muhimdir. Misol uchun, bolalar uchun ijtimoiy ko’nikmalar yoki o’zaro munosabatlar bo’yicha ko’nikmalar rivojlanishi mumkin.
2. **Bolalar psixologiyasining xususiyatlarini hisobga olish:** Psixologik xizmatlar bolalarning yoshiga, jismoniy va psixologik rivojlanishining darajasiga mos kelishi kerak.
3. **Shaxsiy yondashuv:** Har bir bola bilan ishlashda uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olish kerak.
4. **Oila bilan hamkorlik:** Oila a’zolari bilan ishlash, ularni tarbiyalovchi jarayonda faol qatnashuvchilar sifatida o’rganish.
5. **Jamoa ishi:** Maktabgacha ta’lim muassasasidagi barcha xodimlar bilan hamkorlikda ishlash.
6. **Taqiqot va monitoring:** Psixologik xizmatning samaradorligini baholash uchun taqiqot va monitoring amalga oshirilishi kerak. Bu, xizmatning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bu prinsiplar asosida, psixologik xizmatni tashkil etishning natjalari bo’ladi. Shu bilan bir qatorda individual va guruhda mashg’ulotlar o’tkazish, psixologik ko’nikmalarni rivojlantirish uchun o’yinlar va mashg’ulotlar tashkil etish, oila a’zolari bilan ishlash va ularni psixologik



masalalarda ko‘rsatma berish. Bu yordamchi usullar yordamida, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar uchun mukammal va samarali psixologik xizmat tashkil etish mumkin.

### **Xulosa**

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishning zamonaviy usullari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiya olish jarayonidagi moslashuvini yengillashtirish va sifatni oshirishga erishish mumkin. Shu bilan birga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya beruvchi shaxslar ya’ni pedagoglarning bolalar, ularning ota-onlari va psixolog bilan birgalikdagi hamkorlik ishlarini tashkil etishda samarali usullar keltirib o‘tilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni sifatli yo‘lga qo‘yish uchun albatta yuqorida keltirib o‘tilgan usullardan foydalanish samarali natija beradi. Psixologik xizmat ko‘rsatishni pedagog xodimlarning o‘zlari ham kuzatuv ostida har bir bola bilan individual ravishda olib borishlari ularning o‘z sohalariga yanayam ma’suliyat bilan yondashuvlarini ta’minlab erishi aniq.

### **REFERENCES**

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. -T.: TDPU, 2017.
2. Yadgarova G.T. —Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash, uslubiy qo‘llanma, -Toshkent, 2007 yil.
3. G‘oziev E. Pedagogik psixologiya asoslari. - T.: O‘qituvchi, 2000 y.
4. Asadov Y.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi. –T., 2000 y.
5. Akimova M.K., K.M.Gurevich. Psixologicheskaya diagnostika. -Moskva, 2005
6. Maksakov A. I. Pravilno li govorit vash rebenok. – M.: Mozaika-Sintez, 2005–2010.
7. Maksakov A. I. Vospitanie zvukovoy kultury rechi doshkolnikov. – M.: Mozaika-Sintez, 2005–2010.

## **YOSHLARNI INDIVIDUAL-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARIDA HIMOYA MEXANIZMLARI NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**Shamsiddinov Botirjon Nuriddinovich**

Andijom davlat universiteti Umumiy psixologiya kafedrasida doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160142>

***Annotatsiya.** Maqolada himoya mexanizmlarining tipologik tavsifining o'ziga xos jihatlari va yoshlarni ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan o'rganish holati tahlil qilinadi, bu ularning individual tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari aniqlashdan iborat.*

***Kalit so'zlar:** ijtimoiy munosabat, shaxsiyat, rag'batlantirish, ego, ijtimoiy o'ziga xoslik, qiziqishlar, qobiliyatlar, xarakter va temperament.*

***Аннотация.** В статье анализируются специфические аспекты типологической характеристики механизмов защиты и состояния изучения, направленного на формирование молодежи как личности в социальных отношениях, которая заключается в определении социально-психологических аспектов проявления механизмов защиты в их индивидуально-типологические особенности.*

***Ключевые слова:** социальная установка, личность, стимулы, эго, социальная идентичность, интересы, способности, характер и темперамент.*

***Abstract.** The article analyzes the specific aspects of the typological characteristics of the protection mechanisms and the state of study aimed at the formation of young people as individuals in social relations, which consists in determining the socio-psychological aspects of the manifestation of protection mechanisms in their individual-typological characteristics.*

***Keywords:** social attitude, personality, stimuli, egos, social identity, interests, abilities, character and temperament.*

Jahonda shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, istiqbolni rejalashtira olishi, shaxs rivojlanishiga ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs himoya mexanizmlarining ijtimoiy- psixologik jihatlari o‘rganish muammosi tobora dolzarblashib bormoqda. Psixologik lug‘atda qayd etilishicha, «...psixologiya fani rivojlanishida amaliy psixologiya rolining ortishi sezilarli tendensiya hisoblanadi»[1]. Bu borada psixologik amaliyot va psixoterapiya kontekstida shaxsning psixologik himoyamexanizmlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish muammosi eng muhim va zarur fenomen hisoblanadi. Shaxsning himoya mexanizmlari uning individual ichki dunyosiga hamda psixikaning namoyon bo‘lishi shakllariga moslashishini ta’minlash bilan birga, jamiyatda uning o‘z o‘rnini topa olishi yoki aksincha, yo‘qotishining asosiy sababi bo‘lib ham xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda mazkur muammo hozirgi kunga qadar etarli darajada o‘rganilmagan va dolzarb ahamiyatli muammo sifatida ilmiy tadqiq etishni taqazo etadi.

Jahon ta’lim va ilmiy muassasalarida shaxsning himoya mexanizmlariga xos bo‘lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar ma’lum darajada olib borilmoqda. Bu borada, shaxs rivojlanishining eng muhim bosqich ekanligi, mazkur yosh davrida shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi mumkinligi, mutlaqo individual bo‘lgan hayot yo‘lini tanlash nuqtai nazaridan ahamiyati beqiyos ekanligi, o‘zini-o‘zi anglash, o‘zini-o‘zi faollashtirish, kelajakka refleksiv munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan masalalarga e’tibor qaratish muhimligi bois o‘springan shaxs sifatidagi rivojlanishini ta’minlanishida uning himoya

mexanizmining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liqligini o‘rganish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda shaxsning ma‘naviy, ruhiy va aqliy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, o‘sprinlik davridan ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha zaruriy-me‘yoriy asoslar yaratildi. «Yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash, yoshlarning mukammal ta‘lim olishi...»[2] ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi o‘sprin shaxsida himoya mexanizmlarini shakllanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni ilmiy tadqiq etish orqali istiqboldagi vazifalarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Bu borada yangi avlodning davlat taraqqiyoti uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi uchun «... barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan bilim va ko‘nikmalarni egallashni ta‘minlash»[3] talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashto‘g‘risida», 2019 yil 29 apreldagi PF 5712-son «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonlar, 2019 yil 13 fevraldagi PQ-4190-son «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» Qaror hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbek psixolog olimlaridan N.Boymurodov, L.B.Bekniyazova, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, D.Sh.Nasirov, D.B.Norqo‘ziev, N.S.Safoev, R.I.Sunnatova, N.I.Xalilova, K.A.Tillashayxova, G.B.Shoumarov, O.S.Qodirov, E.G‘.G‘oziev va boshqalar tomonidan o‘quvchilarning o‘sprinlik davrida shaxs himoya mexanizmining psixologik xususiyatlarini namoyon bo‘lishini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.G.Kamilovanning ilmiy ishlarida deviant xulq-atvorni belgilovchi yoshlarning o‘zini-o‘zi qadrlash xususiyatlari ilmiy tadqiq etilganligini qayd etish o‘rinlidir. Mustaqil Davlat Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan E.N.Andreyeva, F.V.Bassin, M.K.Burlakova, L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, V.N.Volkov, R.M.Granovskaya, S.V.Zvereva, V.G.Kamenskaya, A.B.Karpov, V.E.Kogan, I.S.Kon, V.V.Krigina, V.V.Nikolaeva, E.S.Romanova, E.T.Sokolova, I.D.Stoikov, V.A.Tashlikov, T.V.Tulupeva, E.V.Chumakova va boshqalar shaxsda psixologik himoya mexanizmining turli masalalari ilmiy tadqiq etilgan bo‘lsa, B.S.Bratus, D.A.Leontev, V.N.Myasishev, V.A.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, Z.I.Ryabikina, V.I.Slobodchik, E.N.Shiyanov va boshqalarning ilmiy ishlarida esa mazkur muammoning amaliyotga yo‘naltirilgan jihatlari ilmiy tadqiq etilgan. Xorij olimlaridan G.Yu.Ayzenk, A.Freud, A.Adler, A.Maslov, K.Rojers, K.Horney, F.Pearls, E.Fromm, V.S.Rotenberg, E.Erickson va boshqalar tomonidan shaxsning himoya mexanizmlari masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Ilmiy va nazariy adabiyotlarni ko‘rib chiqish asosida psixologiya fanidagi muammoning holati va tasavvurdagi gender farqlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga mavjud yondashuvlar ochib berilgan; olib borilayotgan tadqiqot nazariy jihatdan asoslangan; xorijiy va mahalliy psixolog olimlarning gender ijtimoiy psixologiyasi muammolari bo‘yicha olimlar olib borgan ishlarining tahlillari keltirilgan, jumladan E.Erikson, E.T.Sokolova, V.V.Nikolaeva,

F.V.Bassin, A.A.Rean, M.K.Burlakov, V.N.Volkov va boshqalar; V.A.Tashlikovning tadqiqotlarida idrok va baholashning adaptiv qayta tuzilishi sifatida, I.D.Stoykov himoya mexanizmlarini ichki xotirjamlik, muvozanatva hissiy barqarorlik usuli sifatida, V.S.Rotenberg, V.V.Arshavskiy himoya mexanizmlarini o‘z-o‘zini anglashning yaxlitligini qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida ko‘rib chiqilgan, asosan moslashish jarayonida ijobiy natijaga ularsiz erishi mumkin emasligi haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga K.Rojers, A.Maslou, K.Xorni kabi ko‘plab nazariyotchilar va boshqalar psixologik himoyani birinchi navbatda buzilish omili sifatida ko‘rishlari asoslangan.

O‘zbek olimlaridan L.B.Beknazarova tomonidan boshlang‘ich maktabdan o‘rtamaktabga o‘tish davrida o‘quvchilar moslashuvining psixologik xususiyatlari muammosini, N.G.Kamilova esa o‘sprinlarning deviant xulq-atvorini belgilovchi o‘z- o‘zini baholashga xos psixologik xususiyatlarini tadqiq etishgan. Olimlarning tadqiqotlari shuni tasdiqladiki, o‘z-o‘zini baholash va himoya qilish mexanizmlari tartibga solish vazifalarini bajaradigan, insonning xulq-atvori, faoliyati, munosabatlarini tashkil etish uchun shaxsning shakllanishiga yordam beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Psixologik himoya murakkab vaziyatlarda hissiy zo‘riqishni bartaraf etishgaqaratilgan aqliy faoliyatning muhim jihati sifatida qaraladi. Rivojlanish psixologiyasiva yosh psixologiyasi sohasidagi mahalliy tadqiqotlar tahlili o‘sprin davridagizo‘riqishning eng keskin pozisiyalari – “o‘sprinning o‘z-o‘ziga baho berishi”, “oilagamunosabati”, “o‘sprinning ijtimoiy moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklari” o‘rtasidagi bog‘liqliklarni ko‘rsatdi.

Ushbu sohani o‘rganish inson xarakterinishakllantirishi jarayonidagi murakkabliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini, shaxsningsog‘lig‘i va uning shaxsiy rivojlanish istiqbollarini yangicha anglashga imkon beradi. Tadqiqot natijasi psixologik ko‘rsatkichlardan “himoya mexanizmlarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillarni”, “himoya usulini tanlashning o‘ziga xosliklarini va ularning hissiy stressni engillashtiradigan asosiy imkoniyatlarini”, “o‘z-o‘zini baholashni” va “shaxs rivojlanishini” kabilarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga imkon berdi.

Xulosa qilib aytganda “Yoshlarni individual-tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy–psixologik jihatlarini” quyidagi xulosalar keltirdik:

- Yangi darajadagi kompetensiyaga erishilgandan so‘ng dastlabki, erta davrlardagi, bolalik bilan bog‘liq reaksiya shakllari va xulq-atvor turlariga qaytish bo‘lgan regressiya paytida almashinish sodir bo‘lishi aniqlandi, bu esa o‘z navbatida asabiy vaziyatning ta’siri ostida paydo bo‘lgan hissiy bosimni anglatadi, lekin bu engillik yoki maqsadga erishishga olib kelmaydi. Bunday vaziyatda sub’ekt ba’zag ichki keskinlikni buzadigan, kutilmaganda ma’nosiz harakatlarni amalga oshirishi mumkin, ammo shu vaqtning o‘zida haqiqat idrok etilgan holda tashqi tomondan bu harakat sezilmasligi mumkin.

- Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, (qiz) yoshlarda, shuningdek, (o‘g‘il) yoshlarda ham ijtimoiy muhitda ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik ularning o‘z- o‘zini borligicha qabul qilishlari, shuningdek boshqalarni ham qabul qilishlari, hissiy qulaylikni his etishlari, yuqori darajadagi sub’ektiv nazoratga ega ekanliklarining ko‘rsatkichidir, bu kabi o‘sprinlar ular bilan sodir bo‘ladigan voqealarni, birinchi navbatda, ularning shaxsiy fazilatlarini (kompetensiya, qat’iyatlilik, qobiliyat darajasi va boshqalarga) va o‘z faoliyatlarining tabiiy oqibatlarining natijasi deb hisoblashishlari isbotlandi;

- Tadqiqot jarayonida yoshlarning o‘zini o‘zi baholashning ijtimoiy- psixologik xususiyatlarini va psixologik himoya mexanizmlarini aniqlash usullari yuzasidan ishlab chiqilgan

mualliflik so‘rovnomasi asosida qaltis vaziyatlarda o‘sprinning o‘zini o‘zi baholashi va xulq-atvor reaksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar mavjud ekanligi tasdiqlandi.

#### **REFERENCES**

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamlari.2017.-(766)-son.B.36-37.
2. Sh.M.Mirziyoev. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambeliyasidagi nutqi.19.09.2017 y
3. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirishkontseptsiyasi
4. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. -544 b.;
5. G‘.B.SHoumarov. Oila psixologiyasi-SHarq.:2010.-283 b.;



## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA PREDMETLARARO INTEGRATSIYA VOSITASIDA METAPREDMET TUSHUNCHALARINI O‘RGATISH**

**<sup>1</sup>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, <sup>2</sup>Qosimova Madinabonu Murod qizi**

<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi

<sup>2</sup>Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160161>

***Annotatsiya.** Zamonaviy ta’lim bilimlarni o’quv fanlarini bir-biridan alohida o’zlashtirish tizimida emas, balki yagona ta’lim muxitini sharoitida o’zlashtirilishini taqazo qilmoqda. Pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy olimlar o’rta umumiy ta’lim maktabi o’quvchilari uchun nazariy va uslubiy jihatdan metapredmetlar haqidagi nazariyalarni ishlab chiqqanlar, biroq boshlang’ich ta’limda meta-predmetlar ustida juda kam ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilar tomonidan meta predmet tushunchalarni o’zlashtirishga integratsion yondoshuv imkoniyatlari tahlil qilingan. "Metapredmet" tushunchasini tahlil qilishda Mavlonova R.A ilmiy maktabi tomonidan yaratilgan adabiyotlar o’rganilgan, boshlang’ich sinflarda o’rganiladigan metapredmet tushunchalarga misollar keltirilgan. Metapredmet tushunchalarini shakllantirishda integrativ vazifalardan foydalanilgan. Maqolada berilgan vazifalar mazmunan yaqin o’quv predmetlari hamda o’quvchilarning uyg’un faoliyatlariga asoslangan holda tuzilgan. Topshiriqlarni bajarish jarayonida boshlang’ich sinf o’quvchilarida “yuz” tushunchasi mazmuni haqida tasavvurga ega bo’ladilar.*

***Kalit so’zlar:** integrativ yondashuv, integratsion vazifalar, integratsiya texnologiyasi, boshlang’ich ta’lim, matematika ta’limi.*

***Аннотация.** Современное образование обеспечивает приобретение знаний в условиях единой образовательной среды, а не в системе изучения предметов отдельно друг от друга. Отечественные и зарубежные ученые, работающие в области педагогики, теоретически и методологически разработали теории о метапредметах для учащихся средних школ, однако научных исследований по метапредметам в начальном образовании проведено очень мало. В данной статье анализируются возможности комплексного подхода к освоению метапредметных понятий учащимися начальных классов. При анализе понятия «метапредмет» была изучена литература, созданная научной школой Мавлоновой Р.А., и приведены примеры метапредметных понятий, изучаемых в начальных классах. Интегративные задания использовались при формировании метапредметных понятий. Задачи, приведенные в статье, основаны на близких по содержанию учебных предметах и гармоничной деятельности учащихся. В процессе выполнения заданий учащиеся начальных классов получают представление о значении понятия «площадь».*

***Ключевые слова:** интегративный подход, интегративные задачи, интегративная технология, начальное образование, математическое образование.*

***Abstract.** Modern education ensures that knowledge is acquired in the conditions of a single educational environment, not in the system of learning subjects separately from each other. Local and foreign scientists working in the field of pedagogy have theoretically and methodologically developed theories about meta-subjects for secondary school students, but very few scientific researches have been conducted on meta-subjects in primary education. This article*

*analyzes the possibilities of an integrated approach to mastering meta-subject concepts by elementary school students. In the analysis of the concept of "metasubject", the literature created by the scientific school of Mavlonova R.A. was studied, and examples of metasubject concepts studied in primary classes were given. Integrative tasks were used in the formation of metasubject concepts. The tasks given in the article are based on educational subjects close in content and harmonious activities of students. In the process of completing tasks, elementary school students will have an idea about the meaning of "square".*

**Keywords:** *integrative approach, integrative tasks, integrative technology, primary education, mathematics education*

**Kirish.** Zamonaviy mutaxassisga bir qator talablar qo'yilmoqda: u bilimli, axloqli, mobil, ijodkor, mas'uliyatli, tezda hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z faoliyatida integrativ yondashuvni qo'llay olishi kerak. Integratsiya ta'limdagi muhim innovatsion hodisalardan biridir. Z.Sh.Karimov ta'kidlashicha: "integratsiya – tajriba k o'lamining kengligi, chuqur ijodiyg'oyaviyligi, davomiyligi va tarixiy dialektik rivojlanishiga ko'ra barcha pedagogik jarayonlardan ustundir." Ta'limga integratsion yondoshuvni boshlang'ch sinflarda joriy etilishi shaxsning kelajak faoliyatiga integrativ yondashuv uchun zamin yaratadi.

Biz yashayotgan yangi asr yangi axborotlarning misli k o'rilmagan tez suratlarda paydo b o'lishi va va keng ko'lami axborot almashinuvi bilan tasniflanadi, Insonlar bunday jarayonlarda alohida dalillar orasidagi bog'liqlikni ilg'ab olishlari va bir butun holda atrof olam haqida yaxlit tassavurni yaratish, shiddat bilan o'zgarayotgan sharoitlarga moslasha olish uchun ehtiyoj sezmoqdalar.bugungi kunda yuzaga kelgan asriy muzliklarning erishi, keng k o'lamli yong'inlar, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va h.klar kabi global muammolar insonlardan fan predmetlarini yaxlitlikda anglashni taqazo etmoqda. Mazkur muammolarni yechishga qodir insonni tarbiyalashni maqsad qilgan ekanmiz, u metapredmet bilimlarga ega bo'lishi, o'rganilayotgan o'yektlarga integrative yondoshuvi, jamiyat manfaatlarini va atrof muhit muammolarini tushuna olishi kerak. Bunday odamni tarbiyalash , ta'lim tizimini oldida turgan asosiy masala b o'lishi kerak. Bu masalani xal qilish uchun ta'lim tizimi dunyoni yaxlit idrok etishga y o'naltirishi va murakkab o'quv vazifalarini o'quvchilar tomonida mustaqil xal etilishiga erishishi kerak.

**Asosiy qism.** Biroq bugungi kunda Respublikamiz maktablarida predmetlari bir-birida alohida o'qitilmoqda. So'nggi yillarda o'tkazilgan PISA tadqiqotlari predmetlarning integrativ yondoshuviga asoslangan Evropa va Osiyo davlatlari o'quvchilarining ta'limiy natijalari fanlarni alohida o'qitishga asoslangan Rossiya o'quvchilarining natijalaridan ancha yuqori bo'lganligini ko'rsatmoqda.[3]. An'anaviy ta'limda ta'lim natijasi o'zlashtirilgan bilimlar ko'lami bilan belgilanadi ,ammo bugungi kun o'quvchidan olamni tushunish uchun bilimlar to'plamiga ega bo'lishni, egallangan malakalarni moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lishini, jamiyat rivoji uchun xissa qo'shish zaruriyati hamda mustaqil bilimni boyitib borishni o'rganishni taqazo qilmoqda Demak ta'limga integrativ yondashuv bu mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi zaruriy qadamdir. Shunday qilib bugungi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan metapredmetlarga asoslangan o'zlashtirishga erishishdir. Biz maqolada boshlang'ich sinf matematika darslari uchun tayyorlanadigan integrativ topshiriqlarning uslubiy tomonlarini yoritishga harakat qilamiz. Mazkur muammoni xal etilishi uchun bir qator savollarga javob topish talab etiladi:

– metapredmet tushunchasini aniqlashtirish;  
– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida metapredmetli topshiriqlarni bajarish imkoniyatlarini baholash;

– mazmuni va faoliyat turiga ko‘ra bir-biriga yaqin predmetlar doirasida integrativ topshiriqlarni loyihalashtirish.

A.G.Asmolov, Y.V.Gromko, N.V.Gromko, R.A.Mavlonova, O.M.Korchajkina, A.V.Xutorskaya kabi olimlar fanlararo aloqadorlikni shakllantirish g‘oyalarini rivojlantirish, predmetlararo aloqadorlikni o‘rnatish shuningdek, akademik ko‘nikmalarni umumiy rivojlanishi masalalari ustida izlanishlar olib borganlar

R.A.Mavlonova boshlang‘ich sinflarda integrativ ta’limni quyidagi sinflarga bo‘lishni taklif qilgan.[1, 187-b]:

- Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar;
- Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar;
- Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar
- Kompleks obyektlar asosida
- Turli muammolar asosida
- Faoliyat asosida


Y.V.Gromko [4] metapredmetga shunday faoliyatni asos qilib oladiki, u birorta ham o‘quv predmeti tarkibida bo‘lmagani holda istalgan predmet doirasida ta’lim berishni ta’minlay oladi. Uning fikriga ko‘ra metapredmet malakalariga nazariy, tanqidiy, ijodiy xarakterdagi fikrlash faoliyatini amalga oshirish hamda ma’lumotni qayta ishlay olish malakasi kiradi


A.V.Xutorskayaga ko‘ra metapredmet o‘quv predmetlari doirasidan chiqish bo‘lib, ammo metapredmet o‘quv predmeti bilan mazmunan aloqadordir. Metapredmet mazkur predmetlarning ajralmas qismidir. Masalan, tahlil – bu metapredmetli faoliyat bo‘lib u har bir o‘quv predmetini o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Tahlilni o‘quv predmetlari doirasida ko‘rib chiqish mumkin: matematik tahlil, harf-tovush tahlili, sintaktik tahlil va h.k.

Aynan boshlang‘ich sinflardayoq o‘quvchilarga ob‘yektlarni yaxlit munosabat bildirish malakasini, o‘quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni tushunish va bunday aloqadorlikni yarata olishni shakllantirish kerak. Tadqiqotchi A.A.Poprigina tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra [4, 171-b] boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida metapredmetli faoliyat past va o‘rta darajada ekanligi aniqlangan.

Mazkur muammoni xal qilish boshlang‘ich sinflarda ta’limga integrasion yondashuvni taqazo etadi. Misol sifatida 2-sinflar uchun integrativ topshiriqning texnologik xaritasini taqdim etamiz:

Bo‘lim	Sonlarni bo‘lish	
Mavzu	Katakli daftarga chizilgan figuralarning yuzi	
Dars tipi	Yangi bilimlar beruvchi. Integratsiyalashgan	
Predmetlar	Matematika	Tabiiy fanlar
Kutilayotgan natijalar		
Predmetlar bo‘yicha	kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini topish  yuz soni ichida amallar bajara olish	inson tanasi a‘zolaridan inson yuzi va undagi a‘zolari bilish
Metapredmet bo‘yicha	Ta’limiy:	

	<p>metapredmet tushuncha(yuz)ni bilish, bu tushunchani vaziyatga qarab to‘g‘ri qo‘llay bilish;</p> <p>Tartiblovchi:</p> <p>dars mavzusi doirasida tushunchaning o‘zi uchun qiyin jihatlarini tahlil qilish;</p> <p>Kommunikativ:</p> <p>o‘quv vaziyatiga mos gaplar tuzadi;</p> <p>o‘qituvchi va o‘quvchilarning fikrini anglay oladi</p>
Rivojlantiruvchi	o‘z faoliyatini boshqara oladi va holis baho beradi
Pedagogik vazifa	Yuz tushunchasi metapredmet tushuncha ekanligi, qo‘llanilgan sohalarining har birida mustaqil muxim tushunchalar hosil qilishi haqida tasavvur hosil qilish;
Resurslar	Inson yuzi tasvirlangan rasmlar, katakli qog‘ozda tasvirlangan geometric shaklar
Ta’lim shakli	Frontal, kichik guruhlarda
Dars bosqichi	Muammoning qo‘yilishi va tahlili
O‘qituvchining faoliyati	O‘quvchining faoliyati
<p>sinf taxtasiga qaysi so‘z yozilgan va u nimani anglatadi?</p> <p>bu so‘z orqali nimalarni atash mumkin?</p> <p>Misollarni yeching</p> <p><math>23+77=</math></p> <p><math>20 \times 5=</math></p> <p><math>15+85=</math></p> <p>100 soni ishtirok etgan maqolni bilasizmi?</p>	<p>Yuz so‘zi yozilgan. Mazkur so‘z anglatadigan tushunchalar haqida o‘z fikrlarini bayon qiladilar.</p> <p>Misollarni umumiy jihati bu ularning yechimlarida, hamma misolning yechimi bir xil 100 chiqadi.</p> <p><i>Yer haydasang kuz hayda,</i></p> <p><i>Kuz haydamasang 100 hayda</i></p>
<p>Rasmda nimani ko‘ryapsiz?</p> 	<p>Rasmda inson yuzini ko‘ryapmiz. Inson yuzida ko‘plab tana a‘zolari joylashgan.</p> <p><i>Oq ko‘ngillining yuzi ko‘rkam</i></p>

<p>Yuz so‘zi ishtirokida maqol ayting</p>	
<p>Rasmdagi tasvir haqida nimalarni ayta olasiz?</p> 	<p>Rasmda to‘g‘ri to‘rtburchak tasvirlangan. U sariq rangga bo‘yalgan.</p> <p>Rasmdagi kataklar yordamida to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini topishimiz mumkin</p>
<p>Rasm asosida nimani topishimiz mumkin? qanday xulosaga keldingiz? Yuz so‘z qanday ma’no anglatadi? Matematikada yuz so‘zidan qachon foydalanamiz?</p>	<p>Yuz so‘zi ko‘pgina ma’nolarda qo‘llanishini bilib oldik.</p>

**Xulosa.** Metapredmetlik alohida o‘quv predmetlarining o‘zaro integratsion bog‘liqligi bo‘lib, unga asoslangan holda fanlararo topshiriqlar yoki darslarni loyihalash mumkin. Mazkur maqolada taqdim etilgan integratsion topshiriqlar o‘quvchilarda yuz tushunchasiga oid tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ta’limiy faoliyatning poydevori hosil qilinadigan boshlang‘ich ta’limga metapredmet malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan integrative vazifalarni kiritilishi fanlarni chuqur o‘zlashtirishda muxim ahamiyatga ega.

### REFERENCES

1. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.X. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi T., “Ilm ziyo” -2009
2. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.X Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya T., “Vorisi” -2013



3. *Federal'nyy institut otsenki kachestva obrazovaniya. Issledovanie PISA-2018* [Federal Institute for Educational Quality Assessment. 2018 PISA study]. URL: <https://fioco.ru/pisa-2018> (mode of access: 26.03.2020).
4. Попрыгина А.А. Воронина Л. В. Интеграция предметных областей как средство освоения младшими школьниками метапредметных понятий. Школьное образование 3/2020 стр.141-147

**MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING  
ILMIY-INNOVATSION YECHIMLARI**

**\*\*\***

**SCIENTIFIC INNOVATION OF ORGANIZING  
INDEPENDENT EDUCATION  
SOLUTIONS**

**\*\*\***

**НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ  
ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ НЕЗАВИСИМОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ**

## **MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH METODLARI**

**<sup>1</sup>Gaffarov Yarash Xollievich, <sup>2</sup>Nigmatov Alisher Xayrulla o‘g‘li**

<sup>1</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti t.f.n. professor, <sup>2</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159351>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqil fikrlashni shakllantirish metodlari va unga yondashu to‘g‘risida fikr yuritilgan. Yosh avlodni tarbiyalash va ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish afzalliklari ko‘rsatilib o‘tilgan. Fikrlash va mustaqil fikirlash foydali tomonlari haqida so‘z fikrlar asos qilib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mukammal, mushohada, globallashuv, tendensiya, tolerantlik, individuallik, xislat, jarayon, meros, malaka.*

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены методы формирования самостоятельного мышления и подходы к нему. Показаны преимущества воспитания подрастающего поколения и ориентации его на самостоятельное мышление. За основу были взяты высказывания о полезности мышления и самостоятельного мышления.*

***Ключевые слова:** совершенство, наблюдательность, глобализация, тенденция, толерантность, индивидуальность, черта, процесс, наследие, квалификация.*

***Abstract.** This article discusses the methods of forming independent thinking and approaches to it. The advantages of educating the younger generation and orienting it to independent thinking are shown. Statements about the usefulness of thinking and independent thinking were taken as a basis.*

***Keywords:** perfection, observation, globalization, tendency, tolerance, individuality, trait, process, heritage, qualification.*

### **KIRISH**

Malumki, bugungi kunda yuz berayotgan voqealar miqyosining o‘zgarishi sharoitida o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar, siyosatchilardan boshlab, to sinfda bolalar bilan bevosita ishlayotgan barcha pedagoglarga qadar bolalarni kelajakdagi hayotlari samarali, ta‘minlangan va omadli bo‘lishiga yaxshi tayyorlash masalasi har qachongidan ham dolzarb ekanligiga amin bo‘lmoqdalar.

### **TAHLIL VA NATIJA**

Mustaqil ishlarini tashkil etish va uni ilmiy-metodik jihatdan samarali boshqarish nafaqat ta‘lim-tarbiya jarayonida, balki insoning hayotdagi barcha harakatlarida mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Bu o‘z navbatida inson jamiyatda o‘z o‘rnini tezroq topishga xizmat qiladi.

Tarix o‘qitishning nazariy asoslarini chuqur egallamay turib o‘qitishni ilmiy asosda tashkil qilish, ta‘lim-tarbiya ishlarini uzviy birligiga erishish, umuman tarix o‘qitishni, mustaqil fikrlashni shakllantirish, o‘qitish usullarini doimo takomillashtirib borish vazifasini muvaffaqiyatli hal qilib bo‘lmaydi.

Mazkur muammoni uzluksiz davom etayotgan axborotlar girdobi yanada mukammallashtirmoqda. Bugun o‘quvchilarga imkoniyatlarimizga qarab bera oladigan axborotlar ular butun tarkibining juda oz qismini va ularning butun hayoti davomida kerak bo‘ladigan axborotning faqat kichik qismini tashkil etadi. Ushbu asrda demokratik va iqtisodiy jihatdan sermaxsul hayotga o‘quvchilarni qanday qilib yaxshiroq tayyorlashimiz mumkinligi haqidagi eng muhim savol bugungi kun o‘qituvchilarining diqqat markazida bo‘lishi zarur. Boshqacha

aytganda, o‘qituvchilarning asosiy vazifasi qanday qilib o‘quvchilarning samarali o‘qish va mustaqil fikrlashga o‘rganishni o‘zlashtirib olishiga erishish bo‘lmog‘i lozim. Ya’ni o‘quvchilar yangi axborotga duch kelganda, mustaqil tafakkur orqali mushohada yurita olish ko‘nikmasini egallashi kerak. Ilmning barcha sohalarida axborotlar seldek oqib kelayotan hozirgi davrda ular mazkur axborotlardan o‘zlari uchun foydali bo‘lgan jihatlarini ko‘rib chiqib, o‘z tasavvurlariga muvofiq axborot va fikrlarni mustaqil ravishda baholashni o‘rganishlari lozim. Ular yangi fikrlarni har tomonlama ko‘rib chiqa olishlari, mazkur axborotlarning qimmati va aniqligiga doir xulosalar chiqarishlari, o‘z maqsad va talablari asosida fikrlarning umumiy qimmatini belgilay bilishlari lozim. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday savol qo‘ygan edilar. “Shu joyda yana bir oxir savolga duch kelamiz: bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi. Umuman maktablarda bolalar mustaqil fikr yuritishga o‘rgatiladimi? Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar”. Birinchi Prezident o‘z fikrini davom ettirib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlay olishi katta boylik ekanligi, o‘qituvchilarning esa asosiy vazifalari o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini yaxshi tushunishsa-da, biroq tajribada unga rioya qilmasliklarini ham ta’kidlab o‘tadi. Bundan shu narsa yaqqol ko‘rinadiki, har bir fanning o‘ziga hosligidan kelib chiqib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishdagi imkoniyatlarini ochib berish bugungi kun uchun juda muhimdir.

Shuningdek, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, hozirgi vaqtda axborotlarning jadallik bilan kengayib borishi, “jahon ta’lim tizimi doirasida madaniyatlarni o‘zaro ayriboshlash jarayonida axborotlashgan jamiyatga o‘tilishi” o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish orqaligina turli axborot hurujlaridan samarali himoyalana olish imkonini berishini ham aytib o‘tish zarur. Birinchi Prezident I.Karimov “Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblarida shunday degan edilar: “Bugungi kunda odamzod ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yakin manbalardan tarqaladigan, turli ma’no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta’sirini doimiy ravishda sezib yashaydi.

Mana shunday bir vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, sobit e’tiqodiga, o‘zi tayanib yashaydigan xayotiy-milliy qadriyatlariga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amrimaxol”.

Tafakkurni mustaqillik talablariga hamda hozirgi axborotlar texnologiyasi hayotning barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelayotgan, butun dunyoda globallashuv tendensiyalari kuchayib borayotgan davr talablariga moslashtirmasdan turib, jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy hamda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yuqori sur’atlarda va muvaffaqiyatli davom ettirish mushqul. Bundan tashqari, yildan-yilga kuchayotgan raqobat, ba’zi davlatlarning jug‘rofiy-siyosiy huruji va mafkuraviy tazyiqlari, axborotlar huruji, diniy-ekstremistik tashvikotlarning susaymayotganligi nafaqat milliy mustaqillikni, xatto, milliy ayniyatni muhofaza qilishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Aholining myayyan qismi, ayniqsa, tajribasiz yoshlar turli sohta shiorlar, chaqiriqlar, xalqimizga yot, buzg‘inchi g‘oyalar ta’siriga tushib qolishning oldini olish uchun avvalo, ularni mustaqil, tanqidiy, erikn fikrlarga o‘rgatish, ular tafakkurini ijobiy mazmundagi bunyodkorlikka yo‘naltirish lozim. Faqat erkin va mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlay oladigan kishilardagina mutaassiblikka, turli buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet onson vujudga keladi.

Aynan o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish orqali demokratik va insonparvar jamiyat uchun asosiy kadriyat sanalgan “jamiyat hayotida faol ishtirok etish”, “hamkorlik”, “individuallashtirish”, “ongli intizom”, “tolerantlik”, “kadr-qimmat”, “erkinlik” kabi tushunchalar hayotda o‘z amaliy tasdig‘ini topadi. Shu bilan birga, mazkur qadriyatlarni amalga oshirish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Demokratik jamiyatni barpo etish uchun uning har bir a‘zosi jamiyat hayotida faol ishtirok etishi lozim. Bu fuqarolarning jamiyatdagi muammolarni bilishi va o‘z ishonchlarini saqlab qola olishlarini bildiradi. Mustaqil fikrlay oladigan shaxslargina, demokratik jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladilar.

Demokratik jamiyatda hamkorlikdagi a‘zolar orasidagi tenglik qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Shaxs boshqalar bilan hamkorlik qilishi uchun uning o‘zi mustaqil tashabbusni namoyon eta olishi, o‘z fikriga boshqalarda ishonch hosil qildira olishi lozim. Demak, erkin fikrlay olish samarali hamkorlikning asosidir.

Demokratlashtirishda individuallik jamiyat oldidagi mas’uliyatlilik bilan uyg‘unlashadi. Erkin faoliyat ko‘rsatishga ega bo‘lish shaxs uchun tarixiy, ijtimoiy va axloqiy qadriyat bo‘lib, uning individualligining namoyon bo‘lishi va jamiyat taraqqiyoti darajasining mezonidir. Shaxs erkinligini poymol etish, uning ongi va xulq-atvorini bir qolipga solishga intilish, individlarni jamiyat, davlatni boshqarish ishlaridan amalda chetlatish shaxs kamolotiga salbiy tasir ko‘rsatish bilan birga taraqqiyotni ham sekinlatadi, turg‘un xolatga keltiradi va hatto tanazzulga olib keladi. Shu bilan birga individuallik shaxs o‘zining xatti-xarakatlari uchun javob bera olishini ta’lab etadi. Individuallik - mustaqil fikrlashning muhim sharti. Erkin jamiyatda fikr va qarashlardagi xilma-xillikni tushunish hamda shunga intilishni rivojlantirish zarur.

Demokratik jamiyatda erkin fikrlay oladigan shaxslar qadr-qimmatga ega bo‘ladilar. O‘z navbatida ular boshqalarning intilish va fikrlarini qadrlay oladilar. Qadr-qimmat shaxsning ijtimoiy va ma’naviy erkinligining muhim tomoni sifatida yuzaga chiqadi. Erkinlik-mustaqil fikrlash uchun qo‘yilgan birinchi qadamdir.

Mustaqil fikrning mavjudligi va rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning erkinlik darajasiga bog‘liq. Mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘quvchilarning individual va jomoaviy darajada erkinligiga erishish zarur. Chunki “mustaqil fikrlash shaxsning hislati sifatida har qanday faoliyat turida individual va jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori kursatkichni ta’minlaydigan muhim omillardan biri bo‘lib qoladi”. Shu bilan birga, “mustaqil fikrlash jamiyat insonga yaratib bergan imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va inikosidir” . Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan xolda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Falsafa materiya bilan bog‘liqlikda fikrlash yordamida dunyoni bilishning yo‘llari va imkoniyatlarini o‘rganadi. Formal mantik fikrlashning asosiy shakllari (tushuncha, xukm, xulosa)ga etibor qaratadi. Fikrlashga oid tadqiqotlarning sotsiologik jihati turli jamiyatlarning ijtimoiy tuzilishi bilan bog‘liqlikda fikrlashning tarixiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish bilan tavsiflanadi. Fiziologiya esa, fikrlash xodisasini aniqlashtiruvchi aqliy mexanizmlarni o‘rganadi. Kibernetika esa, insonning fikrlashiga faoliyatda muhrlanadigan axborot jarayoni sifatida qaraydi. Psixologiya fikrlashni bilish faoliyati sifati o‘rganadi hamda foydalanilayotgan vositalarning xarakteri va umumlashgan darajasiga, sub’ekt uchun yangiligiga bog‘liqlikda fikrlashning turlarini differensiyalaydi. Pedagogika fikrlashni falsafiy, fiziologik, psixologik



jarayon ekanligini e’tirof etgan holda, uni shakllantirishning shakl, metod va vositalarini o’rganadi va amaliyotga tatbiq etadi.

Fikrlash - aqliy faoliyat mahsuli. Eng asosiysi, fikrlash-merosiy tushuncha, u barcha insonlarga xos. Falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarda fikrlashning bir qancha turlari ajratib ko’rsatiladi. Har biri o’zining tadqiqot ob’ektidan kelib chiqqan xolda qaysi birlarini asosiy deb qarashga moyildirlar. Jumladan, falsafiy, psixologik, pedagogik lug’atlarda fikrlashning quyidagi turlari ajratib ko’rsatiladi: mantiqiy, abstrakt (mavhum), umumlashgan, nazariy, texnik, reproduktiv, ijodiy (produktiv), tizimli, kategorial, induktiv, deduktiv, algoritmik, tanqidiy va boshqalar. Biroq xech birida “Mustaqil fikrlash nima?” degan savolga javob mavjud emas va xatto fikrlash turlari qatoriga kiritilmaydi. Chet el davriy nashrlari, pedagogik va psixologik adabiyotlarida ham mazkur tushunchaning mukammal ta’rifi ko’zga tashlanmaydi.

1997 yildan so’ng Respublikamizda chop etilayotgan pedagogik davriy nashrlar (“Xalq ta’limi”, “Uzluksiz ta’lim”, “Pedagogik ta’lim”, “Maktab va hayot” jurnallari, “Marifat” gazetasi va boshqalar)da mustaqil fikrlash va o’quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish masalasiga keng e’tibor qaratildi. Masalan, Z.Nishonovanning “Mustaqil fikrlash ijodiyot sari quyilgan qadam” maqolasida mustaqil fikrlash ijodiy qobiliyatni rivojlantirish vositasi sifatida tahlil etiladi. Muallif o’quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda divergent tafakkurni rivojlantirish kerak, ya’ni ularni bitta muammoni turli yullar bilan yechishga o’rgatish lozimligini takidlab o’tadi. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ishlab chiqqan mashg’ulotlaridan misollar keltiradi. Biroq maqoladagi asosiy o’zak tushunchalar- “mustaqil fikrlash”, “ijodiy fikrlash” yoki muallifning nuqtai nazari bo’yicha “mustaqil ijodiy fikrlash”ga aniq ta’rif berilmaydi. M.Zaynitdinovanning “O’quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari” maqolasida esa, boshlang’ich sinf o’quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishni uch bosqichda amalga oshirish zarurligi ko’rsatib berilgan. Ya’ni birinchi bosqichda ta’limning birinchi kunlaridan boshlab o’quvchilarni mustaqil harakat qilishga, doskaga to’g’ri va xattoki, noto’g’ri bo’lsa ham erkni harakat qilishga o’rgatiladi. Ikkinchi bosqichda o’quvchilarda bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish jarayoniga o’tiladi. Bunda o’quvchi unga berilgan masalada nima ma’lum va noma’lum ekanligi haqida fikr yuritishi; masalani qisqa bayon etib bera olishi, uning shartini tuza olishi, shartini tahlil qila bilishi hamda masalaning to’liq matnini tuza olish malakasini egallashi muhimdir. Uchinchi bosqichda esa, masalaning shartini o’zgartirish va uni yeching topshirig’i berilishi mumkin. O’quvchi ilgari o’zlashtirgan bilim, ko’nikmalari asosida mustaqil, ijodiy fikrlagan holda masalani yecha olish ko’nikmasi malaka darajasiga o’sib o’tadi.

### **XULOSA**

Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullar, o’qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o’quvchilar talabalarda mantiqiy ijodiy, tanqidiy mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Bulardan tashqari hozirgi integratsiyalashgan sharoitda o’quvchi yoshlarning atrof muhitga nisbatan mustaqil fikrlarini shakllantirishda ekologik ta’lim tarbiyaning ham ahamiyati kattadir. Chunki ekologik ta’lim-tarbiya umumiy ta’limning o’zaro aloqadorligi, insonni uning o’rab turgan tabiatga nisbatan ma’suliyati to’g’risidagi umumiy tasavvur va mustaqil fikrlash asoslarini shakllantirishga asoslangandir.

Bugungi kunda insonlarning mustaqil fikrlashga o’rgatish, yurt kelajagini qurush demakdir. O’sib kelayotgan yosh avlodning fikrlash rivojlantirib borish va ularning to’g’ri yo’naltirish yoshlarning fikrlash doirasini kengaytirishdan boshlanishini ta’kidlamog’imiz kerak.

## REFERENCES

1. Gafforov Ya.X. Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Индия. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.
2. Баркамол авлод орзуси. Т. “Шарқ”, 1999 йил.
3. Тошпўлатов Т. Ўқувчиларнинг мустақило ишларини ташкил этиш-таълимини демократлаштиришнинг асосидир. Халқ таълими. 6-сон. 2005 йил
4. Шоназаров Қ. Бўлажак тарих ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларининг тарихий тафаккурини шакллантиришга тайёрлаш: Педагогика фанлари номзоди.. дис. Т., 2002.
5. Нишонова З. Мустқил фикрлаш ижодиёт сари кўйилган қадам. Т. “Халқ таълими” журнали. 2006 й.
6. Гаффоров.Я.Х. Мактаб ислоҳати ва ўқитиш методларини такомиллаштириш. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.
7. Gafforov Ya.X. Important aspects of environmental education in the education system. EPRA International Journal. of research & development. India. 2020. 97.
8. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India. 2020.
9. Gafforov Ya. X. THE STATE OF HUSTORICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II. USA(Philadelphia) .2019. 173-175.
10. Gafforov Ya. X. Technical approach in the education system. International journal on Integrated Education. England. 2019. 40-41.
11. Нигматов, А. Х. (2021). МУЗЕЙНАЯ ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИИ ИНФОРМАТИЗАЦИИ. *ББК 72 К 59*, 79.
12. Норматов, О. М., & Нигматов, А. Х. (2022). Роль Духовного Воспитания В Реализации Государственной Молодежной Политики. " *Development of Science and Technology: A Mechanism for Selecting and Implementing Priorities*", 98-102.
13. Nigmatov, A. X. O., Misaboyeva, M. B., & Yormatov, A. P. O. (2021). KORRUPSIYA–FUQAROLIK JAMIYATINING TANAZZULI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 125-131.
14. O‘G‘Li, N. A. X. (2020). Sharq Uyg ‘onishi davrida ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy masalalari. *Science and Education*, 1(5), 157-161.

## **RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI**

**Umarova Zaxro Abduraxim qizi**

Toshkent davlat pedagogik universiteti Matematika va ta’limda axborot texnologiyalari kafedrası  
dotsent v.b., pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159369>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish masalasi atroflicha yoritilib, mustaqil ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va talabalar motivatsiyasini oshirishning ilmiy – innovatsion yechimi sifatida mediareсурslardan foydalanish taklif etilgan.*

***Kalit soʻzlar:** mustaqil ta’lim, talabalar mustaqil tayyorgarligi, motivatsiya, mediareсурs*

***Abstract.** In this article, the issue of developing self-preparation of students was covered in detail, and it was proposed to use media resources as a scientific – innovative solution to effectively organize the process independent education and increase student motivation.*

***Keywords:** independent education, student self-preparation, motivation, media resource*

***Аннотация.** В данной статье подробно освещен вопрос развития самостоятельной подготовки студентов, предложено использовать медиаресурсы как научно-инновационное решение для эффективной организации самостоятельного образовательного процесса и повышения мотивации студентов.*

***Ключевые слова:** самообразования, самоподготовка студентов, мотивация, медиаресурс*

**Kirish.** “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo’lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda” [1]. Bo’lajak mutaxassislarini tayyorlashda va o’quv jarayoni sifatini oshirishda talabalarning ijodiy faoliyat yuritishi va ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan mustaqil ta’lim jarayoni alohida o’rin tutadi.

Ayniqsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida mehnat bozoridagi bo’lajak kadrlarga qo’yilayotgan zamonaviy talablar va ayrim kasb turlarining yo’qolib borishi va yangilarining vujudga kelishi, natijada esa kadrlarning o’z kasbini o’zgartirishga bo’lgan ehtiyojni talab etmoqda.

McKinsey Global Institute tadqiqoti hammuallifi Syuzen Landning ta’kidlashicha, “avvallari insonlar hayotining ilk 20 yilida ta’lim olib, keyingi 40-50 yilida o’qigan kasbi bo’yicha ishlagan bo’lsa, endilikda bu model biz yashayotgan davrga umuman to’g’ri kelmaydi. Bugungi kun talabiga ko’ra, inson butun umri va karyerasi davomida doimiy o’qib – o’rganishi zarur”.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa bo’lajak kadrlarni o’zgaruvchan davrga tez moslasha oladigan va yangi bilimlar va ko’nikmalarni tez o’rgana oladigan kadr qilib tayyorlash hisoblanadi. Mazkur jarayonni mustaqil ta’limsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Sababi, samarali tashkil etilgan mustaqil ta’lim bu – “umr bo’yi ta’lim olish” konsepsiyasining asosi hisoblanadi.

Shu o’rinda, insonlar, xususan talabalarimiz mustaqil ta’limga, ya’ni mustaqil ravishda yangi sohalarni o’qib-o’rganishga, yangidan-yangi bilim va ko’nikmalarni egallashga tayyormi degan savol tug’iladi.

Afsuski, yo’q, barchasini tayyor deb ayta olmaymiz. Ayrim talabalar o’z mustaqil ta’limini samarali tashkil etish va boshqarish usullarini bilmasa, ayrimlariga mazkur jarayonda shaxsiy motivatsiya yetishmaydi.

Mazkur muammolar tadqiqot ishimizning bugungi kunda naqadar dolzarb ekanligini asoslab beradi.

**Tahlil va natijalar:** Oliy ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish bevosita talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishga, ularning mustaqil ishlash va mustaqil o’rganish ko’nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda uning psixologik aspektlariga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Sababi, uning asosida talabalarning motivatsiyasi yotadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eng yaxshi natijalar nafaqat yuqori akademik ko‘rsatkichlarga erishishga intiladigan, balki o‘zlari o‘qiyotgan fanlarga chinakam ishtiyogi baland va qiziqadigan talabalar tomonidan ko‘rsatiladi.

Inson o‘zi uchun qiziq bo‘lgan va o‘ziga jalb etadigan ma’lumotlarni yaxshiroq qabul qiladi[4]. Shunday ekan, o‘quv jarayonini faqatgina zerikarli matnlarni o‘qish bilan emas, balki turli ko‘rinishdagi, xususan, podkast, caption video, longread, infografika kabi mediaresurslar orqali tashkil etilishi nafaqat ma’lumotni oson qabul qilinishi va o‘zlashtirilishi, balki uni ishtiyok bilan o‘rganishni ta’minlaydi. Demak, mediaresurslar vositasida ishtiyok bilan qabul qilingan o‘quv axboroti uni o‘zlashtirish, tushunish jarayonini oson kechishga olib keladi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, media resurslar o‘quv jarayonini ko‘rgazmali materiallar bilan boyitish, talabalarning mustaqil bilim olishi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[2]. Bu esa o‘z navbatida, talabalarning yakuniy natijadan zavqlanish va mamnuniyat hissi orqali davom etishga undovchi kuch – motivatsiyani yanada oshishiga olib keladi.

Sababi, motivatsiya insonning hissiy – psixologik holati bo‘lib, inson har qanday harakatni amalga oshirishdan oldin, uning miyasi birinchi navbatda kutilayotgan natijani bashorat qiladi. Harakatni bajarib bo‘lgach, haqiqiy yakuniy natija bilan bashorat qilingan kutilgan natijani solishtiradi. Agar kutilgan natija va yakuniy natija o‘zaro mos kelsa, miya baxtivorlik hissinu uyg‘otuvchi neurotransmitter – ya’ni dofaminni ishlab chiqaradi. Bir so‘z bilan aytganda, miya xato qilmasa, xursand bo‘ladi va mamnuniyat hissi orqali insonda davom etish uchun yangi undovchi kuch – motivatsiya paydo bo‘ladi.

Maqsadga erishish nazariyasiga ko‘ra, yuqori maqsadlarga ega bo‘lgan talabalar faol ravishda ustunlikka intiladilar, o‘zlarini tengdoshlaridan pastroq ko‘rinmasliklari uchun faol ishlaydilar[3].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Motivatsiya talabani murakkab bo‘lgan mustaqil ta’lim jarayonida faol ishtirok etish, maqsad sari intilish va albatta davom etishga undovchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

## **REFERENCES**

1. SH.M.Mirziyoyev Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir: <http://www.uza.uz>
2. Z.A.Umarova Effectiveness of organizing students’ self-education with the facilities of media resources in educational media environment // Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias Vol. 11, Issue 2, 2021. 756-764 p.
3. А.Вигфилд, Дж. Экклз. Теория ожидаемой ценности мотивации достижения // Современная педагогическая психология, 2000. 25 (1), стр. 68-81.
4. N.A.Muslimov, Z.A.Umarova The role of media resources in the process of self-education // International Journal Papier Public Review. Vol. 2, Issue 1. 2021. 49-53 p.
5. З.А.Умарова Эффективность организации самообразования в электронной образовательной медиа среде // International conference on Language and Literature Proceeding. 2022, 44-46.

## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL ISHINI RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH PRINSIPLARI**

**<sup>1</sup>Tojiboyev Ibroximjon Tojaliyevich, <sup>2</sup>Askarova Zilolaxon Nurmuxamadovna**

<sup>1,2</sup>Farg‘ona davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159387>

***Annotatsiya.** Ushbu ishda raqamli xizmatlardan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etishning tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqish, bunda bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini tahlil qilish, individuallashtirish va korporatizmning didaktik tamoyillariga, shuningdek, faoliyatni amalga oshiradigan harakatlarning operatsion tarkibini tizimli joylashtirishning texnologik tamoyillariga asoslanadigan mustaqil faoliyatning xususiyatlarini aniqlash ko‘zda tutilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mustaqil ish, pedagogik faoliyat, didaktik yondoshuvlar, didaktik tamoyillar, mustaqil faoliyat, kompetensiya, bilim, ko‘nikma.*

***Аннотация.** В данной работе ведется разработка структурно-функциональной модели организации самостоятельной работы будущих учителей с использованием цифровых сервисов, анализ педагогических подходов к организации самостоятельной работы будущих учителей, дидактических принципов индивидуализации и корпоративности, а также как деятельность. Предназначен для определения характеристик самостоятельной деятельности на основе технологических принципов систематического размещения оперативного содержания осуществляемой деятельности.*

***Ключевые слова:** самостоятельная работа, педагогическая деятельность, дидактические подходы, дидактические принципы, самостоятельная деятельность, компетентность, знания, умение.*

***Abstract.** In this work, the development of a structural-functional model of the organization of independent work of future teachers using digital services, analysis of pedagogical approaches to the organization of independent work of future teachers, didactic principles of individualization and corporatism, as well as activities It is intended to determine the characteristics of independent activities based on the technological principles of systematic placement of the operational content of the activities carried out.*

***Keywords:** independent work, pedagogical activity, didactic approaches, didactic principles, independent activity, competence, knowledge, skills.*

### **Kirish**

Oliy ta’limning vazifasi o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va innovatsion faoliyatga qodir bo‘lgan mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdir. Bu muammoni faqat bilimlarni tayyor shaklda o‘qituvchidan talabaga o‘tkazish orqali hal qilish qiyin. Talabani passiv bilim iste’molchisidan muammoni shakllantira oladigan, uni yechish yo‘llarini tahlil eta oladigan, optimal natija topadigan va uning to‘g‘riligini isbotlay oladigan faol ijodkorga o‘tkazish zarur. Oliy ta’limning hozirgi islohoti o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim paradigmasidan ta’lim paradigmasiga o‘tish bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan shuni e’tirof etish kerakki, talabalarning mustaqil ishi nafaqat o‘quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishi kerak.



Bunda asosiy e’tiborni bilimlarni egallashning faol usullariga qaratish, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uzluksiz ta’limdan individual ta’limga o’tish kiradi. Bu faqat mustaqil ish soatlarini ko’paytirish haqida emas. Talabalarning mustaqil ishi rolini kuchaytirish ta’lim muassasasida o’quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko’rib chiqishni anglatadi, u o’rganish qobiliyatini rivojlantiradigan, talabaning o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantiradigan tarzda tuzilishi kerak.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili va tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy shakl va usullar, natijalarni kuzatish tizimi kasbiy ta’lim amaliyotidagi eng zaif nuqtalardan biri va eng kam o’rganilganlaridan biridir.

Bunday sharoitda tadqiqot muammosini hal qilishda birinchi navbatda talabalarning mustaqil ishi nima ekanligini aniq belgilash kerak.

Pedagogika nazariyasi eng umumiy holatda mustaqil ishni bo’lajak mutaxassisning tafakkurini tarbiyalash bilan bog’liq faoliyat sifatida izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, talabaning mustaqil fikrlash va bilish faoliyatining paydo bo’lishiga sharoit yaratadigan har qanday faoliyat turi mustaqil ish bilan bog’liq.

### **Asosiy qism**

Bugungi kunda mavjud bo’lgan adabiyotlarda mustaqil ishning ta’rifi bo’yicha turli xil qarashlar mavjud. Jumladan, [1] ishda “Mustaqil ishni talabalarning bilim va ko’nikmalarni egallashga qaratilgan faoliyati deb hisoblaydi, garchi o’qituvchi rahbarlik qilsa ham, uning bevosita rahbarligisiz sodir bo’ladi”, [2] ishda “Mustaqil ish o’qituvchi tomonidan bilvosita, tizimli boshqarish asosida talabaning o’zi tomonidan ichki kognitiv motivlar tufayli tashkil etilgan, o’z nuqtai nazaridan eng qulay, oqilona vaqtida, jarayonda va faoliyat natijasida boshqariladigan jarayondir”, [3] ishda “Mustaqil ish talabalarning auditoriyada ham, undan tashqarida ham, o’qituvchi bilan aloqada bo’lgan va uning yo’qligidagi barcha mustaqil faoliyatining umumiyligidir” deb ta’riflanadi.

Aniqroq aytganda, mustaqil ish:

1) o’qituvchining bevosita rahbarligisiz amalga oshiriladigan individual yoki jamoaviy ta’lim faoliyati;

2) o’qituvchining bevosita ishtirokisiz o’qituvchining ko’rsatmalariga binoan (yoki darsliklar, o’quv dasturlariga kiritilgan vazifalarga muvofiq) ishlash;

Shu bilan birga, tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan faoliyat darajasi reproduktiv mehnatdan ijodiy ishgacha, yarim mustaqildan to’liq mustaqilgacha o’zgarishi mumkin. Mustaqil ishning darajasi nafaqat materialga, balki talabaning individual xususiyatlariga (psixologik va pedagogik xususiyatlar, shu jumladan hozirgi tayyorgarlik darajasi, motivatsiya, potentsial o’rganish qobiliyati darajasi va boshqalar) ham bog’liq.

“Mustaqil ish” tushunchasining mohiyati va ta’rifini ta’riflash bilan birga uning “mustaqil faoliyat” tushunchasi o’rtasidagi bog’liqlikni ko’rib chiqishimiz zarur bo’ladi.

*Yuqoridagi ta’riflarni tahlil qilib, shuningdek, [4] ishning natijalariga tayanib mustaqil ishni elementlardan tashkil topgan murakkab ob’ekt - mustaqil faoliyat sifatida ko’rib chiqishga imkon beradi, bu esa o’z navbatida quyidagi ta’rifni beradi.*

**Ta’rif.** Mustaqil ish – muayyan maqsadga erishishga qaratilgan mustaqil faoliyat tizimi.



*Shu bilan birga, o‘quv jarayonida mustaqil ishlash qobiliyati bilan biz mustaqil faoliyat tizimini qurish va belgilangan maqsadga ishonchli erishish uchun ushbu faoliyatga kiritilgan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini tushunamiz.*


1-rasmda “mustaqil ish” va “mustaqil faoliyat” tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqaylik.

Adabiyotlarni tahlil qilish asosida, yuqorida keltirilgan ta’riflar asosida talabalarning mustaqil ishlarini amalga oshirishning asosiy shakllarini quyidagilarga ajratib ko‘rsatamiz:

1) To‘g‘ridan-to‘g‘ri auditoriyada – ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida, laboratoriya ishlarini bajarishda.

2) O‘qituvchi bilan jadvaldan tashqari aloqada – ta’lim masalalari bo‘yicha maslahatlashuvlar paytida, ijodiy aloqalar paytida, qarzdorliklarni bartaraf etishda, individual topshiriqlarni bajarishda va hokazo.

3) Kutubxonada, uyda, yotoqxonada, kafedrada talaba o‘quv va kognitiv vazifalarni, shu jumladan ijodiy vazifalarni va muammolarni hal qilishni amalga oshirganda.



**1-rasm. Mustaqil ish va mustaqil faoliyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi sxemasi**

Adabiyotlarni tahlil qilish talabalarning mustaqil ishlarini quyidagicha tasniflaymiz:

- 1) tashkilot joyi bo‘yicha (ta’lim muassasasidan tashqarida);
- 2) tashkilotning maqsadlariga ko‘ra (ish dasturida shakllantirilgan va asoslantirilgan fanning maqsadlari);
- 3) tashkil etish usuli bo‘yicha (individual, guruh).

Talabalarning mustaqil ishi masalalarini ko‘rib chiqishda tadqiqotchilar odatda darsdan tashqari ishlarni alohida e’tibor qaratadilar.

Ta’lim standartlari hamda malaka talablari talabani o‘quv vaqtining yarmini darsdan tashqari ishlarga ajratsa-da, ko‘p hollarda bu standart bajarilmaydi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar soni va hajmi, fan bo‘yicha nazorat tadbirlari soni ko‘p hollarda o‘qituvchi yoki kafedra tomonidan “qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi” tamoyili asosida belgilanadi.

Yangi ta’lim paradigmasiga ko‘ra, ishning ixtisosligi va xususiyatidan qat’i nazar, har qanday bo‘lajak o‘qituvchi o‘z sohasi bo‘yicha fundamental bilim, kasbiy ko‘nikmalarga, yangi muammolarni hal qilish uchun ijodiy va tadqiqot faoliyati tajribasiga, ijtimoiy-baholash tajribasiga ega bo‘lishi kerak. Ta’limning so‘nggi ikki komponenti talabalarning mustaqil ishi jarayonida aniq shakllanadi. Bundan tashqari, kafedralarning vazifasi mutaxassislik va faoliyat turiga qarab mustaqillikning tabaqalashtirilgan mezonlarini ishlab chiqishdan iborat.

O‘qituvchilarning shaxsiy tajribasiga asoslangan holda, har doim ham vazifaning murakkabligi va uni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan vaqtni hisobga olgan holda amalga oshirilmaydi. Turli fanlar bo‘yicha uy vazifalarini topshirish muddatlari har doim ham o‘z vaqtida

mos kelmaydi, bu esa vaqt o‘tishi bilan mustaqil ishlarning notekis taqsimlanishiga olib keladi. Ko‘pgina o‘quv vazifalari talabalarning faol ishi uchun sozlanmagan, ularni amalga oshirish ko‘pincha bir qator rasmiy harakatlar darajasida, ijodiy yondashuvsiz va hatto bajarilayotgan operatsiyalarni tushunmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Oliy ta’limida o‘quvchilarning mustaqil ishlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu faqat jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo‘lganda mumkin. Eng kuchli rag‘batlantiruvchi omil bu keyingi samarali professional faoliyatga tayyorgarlikdir.

Mustaqil ishni faollashtirishga yordam beradigan ichki omillarni ko‘rib chiqamiz:

1) Bajarilgan ishning foydaliligi. Agar talaba o‘z ishining natijalari ma’ruza kursida, uslubiy qo‘llanmada, laboratoriyada, nashrni tayyorlashda yoki boshqa usulda qo‘llanilishini bilsa, u holda topshiriqni bajarishga bo‘lgan munosabat yaxshi tomonga sezilarli darajada o‘zgaradi hamda bajarilayotgan ishlarning sifati oshadi. Bunda talabani psixologik jihatdan tayyorlash, bajarilayotgan ish qanchalik zarurligini ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega.

2) Talabalarning ijodiy faoliyatda ishtiroki. Bu ma’lum bir bo‘limda olib boriladigan tadqiqot, ishlab chiqish yoki uslubiy ishlarda ishtirok etish bo‘lishi mumkin.

Intensiv pedagogika muhim motivatsion omil hisoblanadi. U ta’lim jarayoniga faol usullarni, birinchi navbatda, innovatsion va tashkiliy faoliyat o‘yinlariga asoslangan o‘yin mashg‘ulotlarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

3) O‘quv fanlari bo‘yicha olimpiadalarda, ilmiy tadqiqot yoki amaliy ish tanlovlarida qatnashish va hokazo.

4) Bilimlarni nazorat qilish uchun rag‘batlantiruvchi omillardan foydalanish (kumulyativ baholar, reytinglar, testlar, nostandart imtihon protseduralari). Bu omillar, ma’lum sharoitlarda, raqobatga intilishni keltirib chiqarishi mumkin, bu o‘z-o‘zidan talabalarning o‘zini o‘zi takomillashtirish uchun kuchli motivatsion omil hisoblanadi.

5) Talabalarni o‘quv muvaffaqiyati va ijodiy faoliyati uchun rag‘batlantirish. Masalan, muddatidan oldin topshirilgan ish uchun siz oshirilgan baho berishingiz mumkin, aks holda uni kamaytirishingiz mumkin.

6) Auditoriyada ham, undan tashqarida ham bajariladigan vazifalarni individuallashtirish, ularni doimiy ravishda yangilab turish.

7) Intensiv tarbiyaviy ishning rag‘batlantiruvchi omili va birinchi navbatda, mustaqillik o‘qituvchining shaxsiyatidir. O‘qituvchi talabaga kasb egasi, ijodkor sifatida namuna bo‘la oladi. O‘qituvchi talabaga o‘zining ijodiy salohiyatini ochib berishga, uning ichki o‘sishi istiqbollarini aniqlashga yordam berishi mumkin va kerak.

Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning eng muhim yo‘nalishi ularning ijodiy mustaqil faoliyatini jamoaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishdir. Mustaqil faoliyat uning mantig‘ini qurish qobiliyati bilan shakllanadi.

So‘nggi paytlarda ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning strategik yo‘nalishida asosiy narsa uning alohida turlarini optimallashtirish emas, balki barcha turdagi darslarda va undan tashqarida talabalarning yuqori faolligi, mustaqilligi va mas’uliyati uchun sharoit yaratishdir.

Eng oddiy usul - mustaqil ish hisobiga auditoriyadagi mashg‘ulotlar sonini qisqartirish - ta’lim sifatini bir xil darajada oshirish yoki hatto saqlab qolish muammosini hal qilmaydi, chunki auditoriyadagi ish hajmining kamayishi har doim ham o‘z-o‘zidan o‘tish bilan birga bo‘lmaydi.

Binobarin, bu holatdan chiqish yo‘li talabalar uchun maxsus mashg‘ulotlar, jumladan, amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lib ko‘rinadi. Bu erda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ehtiyojlar talabalarning mustaqil faoliyatining manbai bo‘lib qoladi va agar dastlab bu faoliyat bevosita o‘qituvchi rahbarligida amalga oshirilsa, kelajakda u asosan mustaqil bo‘lishi kerak.

Aytilganlarni umumlashtirib, biz mustaqil ishning asosiy turlarini ajratib, natijalarni 1-jadvalda ko‘rsatib o‘tamiz.

**1-jadval. Mustaqil ish turlari**

o‘rganish guruhlari	Mustaqil ish tavsifi
foydalanish maqsadiga ko‘ra	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu tushunchalarini shakllantirish va ularning ta‘riflarini tanlash;</li> <li>- tushunchalarni shakllantirish uchun tayyorgarlik mashqlari;</li> <li>- yangi materialni mustahkamlash uchun mashqlar va topshiriqlar;</li> <li>- muammo va misollarni yechishda olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o‘quv mashqlari;</li> <li>- muammolarni hal qilishda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish</li> </ul>
Didaktik maqsadlar uchun	<ul style="list-style-type: none"> <li>- o‘qitish - mavzuni o‘rganish jarayonida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni talabalarning mustaqil ravishda bajarishi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatishni hisobga olgan holda o‘quv materialini takroran tushuntirish;</li> <li>- talabalar tomonidan bajarilgan vazifalarni mustaqil ravishda bajarish va baholash, tuzatish faoliyati tarkibini aniqlash</li> </ul>
Mustaqillik darajasi bo‘yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mustaqil faoliyat strukturasi berilgan modelga muvofiq mustaqil ishlarni takrorlash;</li> <li>- uning elementlarini tiklashga qaratilgan rekonstruktiv mustaqil ish - mustaqil faoliyat;</li> <li>- mustaqil harakatlarning turli tizimlarini yaratishga qaratilgan o‘zgaruvchan mustaqil ish ;</li> <li>- maqsadga erishish uchun mustaqil harakatlar strukturasi yaratishni talab qiladigan ijodiy (tadqiqot) mustaqil ish</li> </ul>

1-jadvaldagi asosan mustaqillik darajasi bo‘yicha eng ko‘p qo‘llaniladigan ish turlaridan biri model bo‘yicha mustaqil ish ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

- innovatsion ta’lim texnologiyalarni joriy etish bo’yicha pedagog xodimlar faoliyatini korreksiyalash va kasbiy takomillashtirish yo’nalishlarini aniqlash.

Pedagogik tajriba-sinovning ikkinchi bosqichi davomida guruhli va individual konsultatsiyalar har oyda real o’zaro va masofaviy rejim shaklida o’tkazildi. Modulli tamoyil asosida qurilgan “O’qitishning innovatsion ta’lim texnologiyalari” o’quv kurslarining qo’shimcha kasbiy ta’lim dasturi amalga oshirildi.

Ishlab chiqilgan diagnostika metodlari va nazorat-o’lchov materiallari majmuasi yordamida innovatsion ta’lim texnologiyalari va ilg’or pedagogik metodlarni ta’lim jarayoniga joriy etish natijalari pedagogik tajriba-sinovning ikkinchi bosqichi boshi va oxirida aniqlandi.

Kirish diagnostikasi natijalarining tahlili rahbar va o’qituvchilar tomonidan innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarni tanlash sabablarini ta’lim jarayoniga tadbiiq etish uchun aniqlash imkonini berdi. Respondentlarning ijodiy faolligini rag’batlantirish, ularni rivojlantirish, yangi materialni yaxshiroq o’zlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyatlarida mas’uliyatli va raqobatbardosh bo’lishga intilishni qayd etdilar. Respondentlarning fikricha, innovatsion ta’lim

texnologiyalari ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi, o’quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, nazorat va o’z-o’zini nazorat qilishning moslashuvchan tizimiga ega.

Innovatsion maktab o’qituvchilarining innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini o’z-o’zini baholash natijalari quyidagicha keltirilgan: 82% respondentlar tanlangan texnologiya (metodika) ning nazariy asoslarini yaxshi tushundilar; 76% respondentlar texnologiya (metodika) ning ayrim elementlaridan foydalandilar; 34% respondentlar texnologiyani (metodika) amalda qo’lladilar; deyarli har bir respondent (95%) ta’lim muassasalarida tanlangan texnologiya (metodika) dan foydalanish tajribasiga ega.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari va usullaridan foydalanishning afzalliklari:

- o’quvchilarning o’quv faoliyatiga qiziqishini oshirish, ijodiy faolligini rivojlantirish-72%;

- o’quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish-54%;
- jamoada ishlash qobiliyati-46%;
- tadqiqot qobiliyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish-34%;
- individual yondashuvni amalga oshirish-19%;
- motivatsiyani rivojlantirish va o’quvchilarni muammolarni hal qilishga jalb qilish-10%.

Innovatsion maktab muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish komponentlari sifatida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo’yicha o’tkazilgan tajriba-sinov natijalari keltirilgan texnologiyalarni joriy etish quyidagi vazifalarni hal etishga imkon berishini isbotladi:

- ta’limiy: o’quvchilarning o’quv materialini ko’nikma va malakalarini shakllantirish, o’quv materialini mustahkamlash, mustaqil ishlash ko’nikmasini shakllantirish, o’z-o’zini nazorat qilish uchun sharoit yaratish;

- rivojlantiruvchi: o’quvchilarning mustaqil o’quv faoliyati va obrazli tafakkurini rivojlantirish, xotira va diqqatni takomillashtirish;

- tarbiyaviy: mustaqillikni tarbiyalash, ularning ish natijalari uchun javobgarlik, boshqalarni tinglash va eshitish qobiliyati, o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish.

Shu bilan birga, pedagogik tajriba-sinov davomida amalga oshirilgan texnologiya (metodika) ning o’z kasbiy o’sishiga ijobiy ta’sirini qayd etdilar. Ular o’z malakalarini doimo oshirib borish, pedagogik vositalarni, jumladan, texnologiya (metodika) ni ishlab chiqish, qiyinchiliklarni yengib o’tish va o’z-o’ziga bo’lgan ishonchni oshirish istagi bor.

Kompyuter jihozlari maktab o’quvchilariga taxminiy hisob-kitoblarni dunyosini ochadi. Kompyuterda hisob-kitoblarni talab qiladigan masalalarni yechishda oqilona tashkil etilgan o’quv faoliyati o’quvchilarga hisoblash jarayonlariga yangicha qarash, ularning mohiyatiga chuqurroq kirib borish, o’quvchilarni axborot madaniyatining muhim qismi bo’lgan zamonaviy hisoblash madaniyati bilan tanishtirish imkonini beradi [7]. O’quvchilarning sinfda innovatsion ta’lim texnologiyalardan foydalanish borasidagi fikrlari ularning samaradorligini tasdiqlaydi. Yakuniy so’rovnomalarda o’quvchilar innovatsion ta’lim texnologiyalari (metodlari) yordamida o’tkazish samarali ekanligini tasdiqladilar. Shu bilan birga, o’quvchilar darslarning o’yin shakllari, alohida modullarni o’rganish bo’yicha mustaqil ishlar, loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va himoya qilish, kutubxonaning elektron katalogi, portfolio yaratish, binar darslar va ularni yaxshiroq o’rganishga yordam berishini ta’kidladilar.

Olimpiadalarda, kasbiy mahorat tanlovlarida, musobaqalarda, havaskorlik ko‘rgazmalarida ishtirok etish o‘quvchilarni shaxsiy rivojlanishining boshqa qobiliyatlarini namoyon etdi.

Innovatsion maktab o‘quvchilarini kasbiy tayyorgarligini va bilimlarini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha taqdim etilgan tajribaning umumiy natijasi quyidagicha bo‘ldi:

1. Tajriba guruhlarida 95 % o‘qitish sifatining oshishi qayd etildi, ulardan 37% i o‘qitish sifatining sezilarli darajada yaxshilanishini ko‘rsatdi.

2. Innovatsion ta’lim texnologiyalarning joriy etilishi o‘qitishning vosita va usullari doirasini oshirish, shu bilan birga fanni o‘qitish metodikasini diversifikatsiya qilish imkonini berdi, bu ta’lim muassasasi pedagog xodimlarining 64% i tomonidan qayd etildi.

3. O‘qitishning joriy etilgan texnologiyalari (usullari) o‘qitishning ta’limiy, rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishga yordam berdi, ya’ni:

- o‘quv faoliyatiga qiziqishni oshirish, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va muhokama qilingan muammolarni hal etishga jalb qilish-82 %;

- o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish-54%: o‘quvchilar ishlab chiqarish vaziyatlaridan, ishlab chiqilgan loyihalardan, biznes rejalaridan chiqish uchun nostandart yechimlarni taklif qildilar; darslarga tayyorgarlik ko‘rishda qo‘shimcha ma’lumot va boshqalardan foydalandilar;

- jamoada ishlash qobiliyati-46 % (talabalar tinglash, tahlil qilish, isbotlash, ishontirish, o‘z yondashuvini himoya qilish, tengdoshlari fikrini tinglash, mavjud vaziyatda tez yo‘l topish, muammoli masalalarni hal qilish, qaror qabul qilish, birgalikdagi faoliyatda sherikchilik xususiyatini ko‘rsatishga o‘rgandilar);

- tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish-34% (tajribada olingan ma’lumotlarni tahlil qildik va taqqosladik, ma’lumot izladik va tadqiqot ijodiy faoliyati natijalarini umumlashtirdik, konferensiyalarda so‘zga chiqdik, tanlovlarda ishtirok etdik);

- individual yondashuvni amalga oshirish-19%.

4. O‘quvchilar o‘z kasbiy, metodik saviyasining o‘shishini, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z kasbiy faoliyatidan qoniqishning ortishini qayd etadi. 58% o‘quvchilar malakasini uzluksiz oshirish, yangi pedagogik vositalarni, shu jumladan o‘zlashtirilgan texnologiya (metodika) doirasida ishlab chiqish istagi borligini ta’kidladilar.

Shunday qilib, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish innovatsion (xususiy) maktab o‘quvchilarini kasbiy tayyorlashda va bilimlarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi. Zamonaviy ta’lim muassasalarida barcha sohalarida bo‘lgani kabi sifat masalasi birinchi o‘ringa ko‘tarilmoqda. Abituriyentlarni oliy ta’limga jalb etish maqsadidagi kurash muassasalar o‘rtasida ta’lim sifatiga katta e’tibor talab qilmoqda. Professional ta’lim muassasalarida o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Shunday ekan o‘qituvchi har bir darsga o‘zgacha yondashib dars mashg‘ulotlarini olib borishi kerak. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash va uni oshirish masalasi har bir davlatning ta’lim bo‘yicha olib borayotgan siyosatiga qanchalik muvofiqligi bilan bir-biridan farqlanadi. Jumladan, O‘zbekistonda ham ta’lim sifatini ta’minlashning mo‘tadilligiga erishish qaysidir ma’noda birinchi bosqichda ko‘zlangan maqsad bo‘lsa, keyingi bosqichlarda ta’lim sifati

kafolatini ta’minlash asosiy vazifasi sifatida bo’lishi lozim. Shundagina davlat, notijorat hamda xususiy oliy ta’lim muassasalari o’rtasida raqobat yuqori tafovut bilan farqlanmaydi.\

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF – 4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/3107036>.
2. 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son qarori
3. Burgin M.S. Pedagogikadagi innovatsiyalar va yangilik // Sovet pedagogikasi. - 1989. 12-son.
4. G'afforov. Ya. X. “Maktab islohati va o‘qitish metodlarini takomillashtirish”. Science and education. Scientific Journal. 2020, 482.
5. Kasprjak. A.G. “Новые и инновационные школы: проблемы сегодняшнего дня, перспективы развития” // Инновационное движение в российском школьном образовании. - М.,2017.
6. M.Quronov. “Uzluksiz ta’lim jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimi risolasi”. – Toshkent: 2005.
7. Azamov. SH.X “ Rivojlantiruvchi ta’lim sohasini tashkil etishda fanlararo munosabatlar” Jizzax Tafakkur ziyosi jurnali 2023 yil 2 son 209-b

## **METHODOLOGY OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Alimnazarov Olim**

Institute for development of professional education, independent researcher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159442>

***Annotatsiya.** Mazkur maqola empirik tadqiqotlar orqali professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish natijalari bo‘yicha ularning o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish jarayonida elektron ta’lim resurslari, jumladan, Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanish o‘quv-bilish kompetentligini shakllantiriladi. Bu orqali mustaqil ta’lim vazifalarini bajarish metodikasini takomillashtirish maqsadida, o‘quvchilar uchun o‘quv mashg‘uloti tashkil etildi va natijalar empirik tadqiqotlar orqali tahlil qilindi.*

***Kalit so‘zlar:** kompas 3D, empirik tadqiqot, kreativlik, o‘quv-bilish kompetentligi.*

***Аннотация.** Данная статья направлена на формирование образовательной компетентности студентов профессиональных образовательных учреждений на основе результатов совершенствования методики использования электронных образовательных ресурсов при организации самостоятельного образования посредством эмпирического исследования. В процессе организации самостоятельного обучения обучающихся использование электронных образовательных ресурсов, в том числе инженерной программы «Компас 3D», формирует образовательную компетентность. При этом в целях совершенствования методики выполнения самостоятельных учебных задач для студентов было организовано обучающее занятие, результаты которого были проанализированы посредством эмпирического исследования.*

***Ключевые слова:** компас 3D, эмпирическое исследование, креативность, образовательная компетентность.*

***Abstract.** This article is aimed at the formation of educational competence of students of professional educational institutions based on the results of improving the methodology of using electronic educational resources in organizing independent education through empirical research. In the process of organizing the independent education of students, the use of electronic educational resources, including the Kompas 3D engineering program, forms educational competence. Through this, in order to improve the methodology of performing independent educational tasks, a training session was organized for students and the results were analyzed through empirical research.*

***Keywords:** compass 3D, empirical research, creativity, educational competence.*

***Kirish.** Bugungi kunda jahonning rivojlangan davlatlarida professional ta’lim tizimini tashkil etish va uni rivojlantirishda bo‘lajak kadrlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur jarayonlarda professional ta’lim tizimi ham, ma’lum darajada xizmat qiladiki, mazkur ta’lim tizimi orqali mehnat bozori talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlash sifatini takomillashtirish hamda ularning amaliy faoliyatlari jarayonida zarur bo‘ladigan kompetentligini shakllantirish vazifalari belgilangan. Professional ta’lim tizimida ta’lim jarayoni sifati, unda tayyorlanayotgan bo‘lajak kadrlarning amaliy*



faoliyatlari davrida zarur bo‘lgan o‘quv-bilish kompetentlik darajasi, shuningdek uni uzviy va uzluksiz ravishda takomillashtirib borish mexanizmlari, ya’ni “Hayot davomida ta’lim” tamoyilining tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

Shu sababli ham, bugungi kunda “dunyo miqyosida professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishda, ularning mustaqil ta’limini tashkil etishga yo‘naltirilgan metodikalarini takomillashtirishga qaratilgan metodikasini takomillashtirishning mazmun-mohiyati, shakllari va metodlaridan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda” [12]. Mazkur jarayonlarda o‘quvchilarni amaliy faoliyatlariga tayyorlashda, ularning o‘quv-bilish kompetentligini o‘quv auditoriyalari va mustaqil ta’limini tashkil etish orqali shakllantirish, muhim jarayondir.

Bu jarayonda ta’lim tizimini raqamlashtirish orqali o‘quvchilarni amaliy faoliyatlariga tayyorlash, ularning o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali vazifalarini belgilaydi. O‘quvchilarni amaliy faoliyatlariga tayyorlash jarayonida ularning mustaqil ta’limini tashkil etish orqali, ularda o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishning eng muhim jihatlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni [9]ning qabul qilinishi, mazkur vazifalarni zamon talablariga muvofiq ravishda bajarish imkoniyatini ta’minlaydi.

**Asosiy qism.** Fan va zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan bugungi kunda mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda, bo‘lajak kadrlarni tayyorlashga e’tibor qaratiladi. Bu borada, e’tibor bo‘lajak kadrlarni tayyorlash jarayonlarining o‘zaro uzviyligini va izchilligini ta’minlashga qaratiladi. Shu sababli ham, mazkur ta’lim tizimi orqali mehnat bozi talablariga javob bera oladigan raqabotbardosh bo‘lajak kadrlarni tayyorlash muammosining yechimi sifatida, ularning raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishga qaratilgan metodikalarini takomillashtirish zaruriyati mavjudligini namoyon qiladi.

Hozirgi vaqtda professional ta’lim tizimida mustaqil ta’lim uchun ajratilgan o‘quv rejasidagi soatlari ulushining kamligi, o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish, o‘z faoliyatiga tizimli yondashish va ijodiy fikrlash, tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllantirilmaganligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda tashkilotchilik qobiliyati, o‘quv-bilish kompetentligini yanada rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni tatbiq etishning zamon talablariga javob beraolmasligi mazkur jarayonlarning dolzarb muammolari qatoriga kiradi” [5]. Shu sababli ham, professional ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish uchun ajratiladigan o‘quv soatlari ulushini ko‘paytirish orqali yuqorida ta’kidlab o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanilgan holda, o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada ta’lim jarayoniga Xalqaro tasniflagichning uchinchi darajasi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq, didaktik vositalar, metodlar, shuningdek uning shakllarini keng joriy etish mazkur jarayonning ustivor vazifalaridan biridir.

Mazkur ta’lim tizimidagi kuzatilayotgan o‘zgarishlar omili sifatida, qabul qilinayotgan qonunlar, qaror va farmoyishlarni ko‘rishimiz mumkinki, buning natijasi sifatida

mamlakatimizning intellektual salohiyatini yuksaltiradigan, mehnat bozori talablariga javob bera oladigan kompetentli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish dolzarb muammo sifatida e’tirof etilganligini O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida [22], “Mustaqil ta’lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma’naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi” deb belgilab qo‘yilganligini ta’kidlab o‘tishimiz joiz. Ayniqsa, bu orqali ta’limning professional ta’lim tizimidagi yangiliklar va o‘zgarishlar natijasida, jamiyatimizning intellektual salohiyatini rivojlanishida muhim rol o‘ynaydigan mazkur ta’lim tizimida tayyorlanadigan o‘quv-bilish kompetentligi shakllangan kadrlar bilan ta’minlanadi.

O‘quvchilarning yosh jihatlaridagi farqlaridan kelib chiqib, ularning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini e’tiborga olgan holda, auditoriyadan tashqari ta’lim jarayonida o‘quvchilarni amaliy faoliyatlariga tayyorlash metodlarini tanlash, uning izchil va uzviyligini ta’minlash muhim omillardan biridir [6]. Demak, mazkur jarayonlarda metodlarni tanlashda avvalo, o‘quvchilarning fikrlash darajasi, qiziqishlari va imkoniyatlarini e’tiborga olish zarurdir.

Professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘quv auditoriyalari va auditoriyadan tashqari ta’lim orqali amaliy faoliyatlariga tayyorlash jarayonlarida ularning tayyorgarlik darajalarini shakllantirishga e’tibor qaratilmog‘i zarurdir [16].

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonlaridagi, ularning auditoriyadan tashqari ta’limini, ya’ni mustaqil ta’limini tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanib, uning samaradorligini ta’minlashga yetarli darajada e’tibor berilmayotganligini kuzatishimiz mumkin. Kasb-hunar maktablarida o‘quvchilarning auditoriyadan tashqari bo‘sh vaqtlarida o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish va uni yanada rivojlantirishda o‘z ustida shug‘ullanmasliklari, axborot resurs markazlarida mustaqil faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan metodik ta’minotining yetishmasligi, elektron ta’lim resurslaridan ko‘ra, turli mazmundagi ijtimoiy tarmoqlarga og‘ib ketishlari mazkur muammoning yechimlarini aniqlash zaruriyatining dolzarbligini ko‘rsatadi. Mazkur muammoni ijobiy tomonlama bartaraf etishda o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish jarayonida didaktik vositalar, jumladan, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish metodikalarini takomillashtirish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Albatta bu borada, mazkur jarayon bugungi kunda dolzarbligi bilan ham muhim ahamiyatga egaki, ta’lim jarayonining sifatli va samarali faoliyat olib borish shart-sharoitlarini, shuningdek, o‘quvchilar va o‘qituvchilarining hamkorlik munosabatlarining ijtimoiy jihatlarini yo‘lga qo‘yilishini ta’minlaydi.

Ushbu jarayonlarda rivojlangan davlatlar tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uning samarali jihatlaridan andoza olgan holda, mamlakatimiz ta’lim tizimiga tatbiq etish jarayonlarida avvalo shuni e’tiborga olishimiz zarur va shartki, tarixan shakllanib kelgan milliy ma’naviyatimiz va buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan be‘baho me’rosimizga mos jihatlarini tanlab olishimiz kerakligini unutmasligimiz zarur bo‘ladi. Shu o‘rinda Amerikalik davlat arbobi Benjamin Franklin tomonidan: “Eng yaxshi sarmoya, bu bilimga qilingan sarmoyadir” deb ta’kidlagan bo‘lsa, buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ta’kidlaganlaridek, “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsada, ikkisi bir-biridan ayrimaydurg‘on, birining vujudi biriga

boylangan jon ila tan kabidir” degan fikrlari mazkur jarayonlarda g‘arb va sharq ta’lim-tarbiya jarayonlarining o‘ziga xos jihatlarini namoyon qiladi.

O‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish bu, salohiyatli, bilimli, yetuk kadr bo‘lib yetishishining muhim omilidir. Ayniqsa, ushbu ta’lim jarayonini faollashtirishning samarali natijalari, ularning amaliy faoliyatlarida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali yo‘nalishlarini joriy etish” vazifalari belgilangan [1].

Sharqning buyuk allomalaridan Bahouddin Naqshband “Dil ba yoru-dastba kor”, ya’ni “Diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin” deb ta’kidlaganlar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham, “Farhod va Shirin” dostonida shunday ta’kidlagan: “Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib tufroqqamu ketgumdir oxir” [13] degan ibratli so‘zlaridan shuni anglashimiz zarurki, ularning hayoti va ijodida kasb-hunar o‘rganishni rivojlantirish bilan birgalikda kasb-hunar o‘rganishda mustaqil ravishda faoliyat olib borishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tganlar.

Mustaqil ta’limni tashkil etish, o‘quvchilarning bo‘lajak kadr sifatida rivojlanishida asosiy omil bo‘lib, uning amaliy faoliyatlarida mustaqil ravishda mavjud muammolarning yechimlarini aniqlash sifatlarini shakllantirishga bog‘liq bo‘ladi. Mustaqil ta’lim o‘quvchilarning amaliy faoliyatlari davomida maqsadlarini belgilashning vositasi bo‘lib, ularning imkoniyatlari va layoqatlilikini baholay olishiga poydevor bo‘ladi.

Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi aniq bir maqsadga yo‘naltirishi va bu maqsadga erishishida quyidagi pedagogik shart-sharoitlar bajarilishi zarur:

o‘quvchilarning o‘z bilimini mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etish orqali olib borilayotgan o‘quv mashg‘ulotlarida oshirishi, uyg‘unlashtirishi zarur;

o‘quvchilarning quyidagi sifatlarini shakllantirib borishi zarur:

– jarayonga nisbatan intilishlari, qiziqishlari, anglashlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini e‘tiborga olishi zarur;

– o‘qituvchilar bilan hamkorlikning ijtimoiy munosabatlarini yo‘lga qo‘yishi zarur.

o‘quvchilarning o‘quv-bilish mahoratini oshirishning eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik obyektlarni ongli ravishda to‘g‘ri tanlab amaliy faoliyat ko‘rsatishi zarur;

o‘quvchilarning aniq shart-sharoitlarni e‘tiborga olgan holda, ularga muvofiq ravishda individual holda, yoki jamoa bilan birgalikda bilimini rivojlantirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi zarur;

o‘quvchilar bilimlarini ma’lum maqsadga yo‘naltirish orqali rivojlantirishni doimiy ravishda tashkil etishlari zarur.

Mustaqil ish-muayyan fandan o‘quv dasturida va dasturdan tashqari belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil ravishda egallash maqsadida, o‘quvchi tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida bajarilishi nazarda tutilgan topshiriq, vazifa, hayotiylikka asoslangan ish hamda vaziyatlar majmuasidir.

Mustaqil ta’lim-o‘quv resurslarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, hayotiylikka asoslangan amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida kreativ va mustaqil bajarish asosida o‘quvchilarda o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ta’limni tashkil etish bilan mukammal shug’ullanishda, o’quvchilarda istak, qiziqish, qobiliyat yetarli darajada shakllanganligi, mustaqil ravishda faoliyat yuritishga ehtiyoj bo’lishi zarur. Bundan tashqari o’quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishlariga psixologik omillar ham ta’sir ko’rsatishi zarur [10].

Professional ta’lim muassasalari o’quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o’quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish, shuningdek, ta’lim oluvchilar tomonidan egallangan bilimlar darajasining o’sish sur’ati, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish ko’lamining kengayishi ta’lim samaradorligini belgilashga yordam beradi.

Bilimlarni mustaqil, ya’ni individual ravishda egallashga bo’lgan intilishi (ehtiyoji)-bu, o’quvchining ta’lim olish jarayonidagi amaliy faoliyatining ta’lim muassasasidagi e’tibor beriladigan jihatlari hisoblanadi. Mustaqillik-shaxs sifatlarining kreativligi bilan bog’liq bo’lib, inson dunyoqarashining turli ko’rinishidagi faoliyat va harakatlarida namoyon bo’ladi [15]. Mustaqillik-bu, inson oldida turgan mavjud muammolarning yechimlarini aniqlash yo’llari va vositalarini tanlashdagi mustaqillik to’g’risidagi g’oyalar bilan bog’liqdir” [9]. Kasb-hunar maktablari o’quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish jarayoni, ularning amaliy faoliyatlariga muvofiq ravishdagi natijalarining samaradorligini oshirishga yo’naltiriladi. Bunda professional ta’lim muassasalari o’quvchilari tomonidan ta’lim jarayoni faoliyati natijalarini tahlil etilib, amaliy faoliyatlari maqsadlarini aniqlaydi. Demak, mazkur jarayonda “Bo’lajak kadrlarning mustaqil ta’limini tashkil etishdan ko’zlangan asosiy maqsad, ularning amaliy faoliyatlarida zarur bo’ladigan o’quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir” [14].

O’quvchilarda mustaqil ta’limini tashkil etish jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o’quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishning maqsadi, ularning ijodiy va texnologik qobiliyatlarini baholash, shuningdek, uni boshqarish kabi tarkibiy qismlarini rivojlantirish hamda uni tashkil etishda turli jarayonlardagi ehtimoliy vaziyatlarga tayyorlash hisoblandsada, elektron ta’lim resurslaridan foydalanib, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi [7, 8]:

- aniq maqsadga yo’naltirilgan muammoli jarayonlarda muammoni ajratib, aniqlab olish va ularning yechimlarini aniqlash yo’llarini takomillashtirish;
- elektron ta’lim resurslaridan foydalanib, mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonlarida, ulardan foydalanish metodikasiga bo’lgan qiziqish va intilishlarini rivojlantirish;
- mustaqil ta’limni tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning reproduktiv va ijodiy yondashuvlarini takomillashtirish;
- mazkur jarayonga muvofiq muhim sifatlarni rivojlantirish.

Professional ta’lim muassasalarida o’quvchilarning elektron ta’lim resurslaridan foydalanish, shuningdek, mustaqil ta’limini tashkil etish jarayonini ta’minlashda quyidagilar e’tiborga olinadi:

- mustaqil ta’lim olish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash;
- zaruriy ma’lumotlarni izlab topish uchun qulay metod hamda vositalarni aniqlab olish;
- “axborot manbalari, jumladan, kompyuter texnologiyalari va mobil texnologiyalardan samarali foydalanish;
- an’anaviy ta’lim va ilmiy adabiyotlardan foydalanish;
- elektron ta’lim resurslaridan foydalanish;

– mustaqil ta’lim jarayonini ijodiy yondashuvlar orqali tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish;

o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishga yo‘naltirish”.

O‘quvchilarning mustaqil ta’lim jarayonini ta’minlash natijasida, mazkur sohaga tegishli bo‘lgan me‘yoriy hujjatlarni tadqiq qilish va ular asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ta’lim jarayonlarining bog‘liqligi va uzviyligini ta’minlash, sifat va samaradorligini rivojlantirishga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali, ularning mustaqil fikrlash va kreativ yondashuv sifatlarini rivojlantirish, o‘quvchilar uchun zarur va qulay bo‘lgan elektron ta’lim muhitini ta’minlashdir [11].

Elektron ta’lim muhitining asosiy komponenti kompyuter va mobil texnologiyalar hisoblanadiki, ularning yordamida elektron ta’lim resurslarini yaratish, qayta ishlash vositasi sifatida bilimlarni yangilash, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini amalga oshirish vazifalarini bajaradi. Shu bilan birga, ta’lim tajribalarini tashkil etishda obyektlarni loyihalash, modellashtirish va boshqalar sifatida foydalaniladi [2].

O‘quvchilarda o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda, ularning mustaqil ta’limini faollashtirish maqsadli, jarayonli va natijaviy komponentlari asosida tuzilgan modeli ishlab chiqildi. Bu jarayonda elektron ta’lim resurslari ya’ni, Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanish o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishda pedagogik modellashtirish tamoyillari quyidagi asosiy g‘oyalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotni amalga oshirish hisoblanadi [3, 4].

Olib borilgan tadqiqotlarda o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish jarayonida pedagogik tamoyillarning funksiyalarini quyidagicha ifodaladik:

– birinchidan, mustaqil ta’limni tashkil etishda bajarilishi zarur bo‘lgan topshiriqlardagi muammoning maqsadlari sodda shaklda taqdim etiladi....;

– ikkinchidan, mustaqil ta’limni tashkil etishda pedagogik jarayonni loyihalash uchun qo‘llaniladigan tamoyillar ya’ni, mazmun-mohiyat, metodika, vosita, shakl va ularning munosabatlarini tanlash....”;

– uchinchidan, mazkur tamoyillardan mustaqil ta’limni tashkil etishda ta’lim munosabatlarining samaradorligi ta’minlashda foydalaniladi...;

– to‘rtinchidan, mazkur munosabatlarni mustaqil ta’limni tashkil etishda pedagogik jarayonning yo‘nalishlari sifatida foydalaniladi.

**Metodologiya.** Tadqiqot davomida o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish maqsadida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari tadqiq qilindi. Demak, bu jarayonda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlarning didaktik jihatdan keng imkoniyatlari mavjud. Mazkur o‘quv mashg‘ulotida o‘quvchilarning elektron ta’lim muhitida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish bilim, ko‘nikmalarini shakllantirish maqsad qilib olindi.

Demak, mustaqil ta’limini tashkil etish maqsadida tashkil etilgan o‘quv mashg‘uloti orqali o‘quvchilar mazkur jarayonni tahlil qilishlari, mavjud muammoning mazmun-mohiyatini anglashlari, shuningdek ularning muqobillarini tanlashlarida tabiiylikka e’tibor qaratishlari zaruriyati yuzaga keladi [18, 62 b.].

Mustaqil ta’limni tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan, amaliy jarayonlarga qaratilgan interfaol pedagogik metodlari orqali ta’minlanadi. Demak, mazkur jarayonda interfaol pedagogik ta’lim metodlari sifatida “Practic-study” metodidan foydalanish to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz.



“Practic-study” metodi. Practic-study interaktiv ta’lim metodi bo’lib, o’qituvchi va o’quvchilarning umumiy intellektual va kommunikativ imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

“Practic-study” metodidan ta’lim jarayonining ixtiyoriy shakllarida foydalanish mumkin. SHu jumladan, mazkur metodni o’quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishda foydalanish imkoniyatlari ham mavjud. Demak, ushbu metod o’quvchilarga tashabbus bildirish, nazariy ma’lumotlarni o’zlashtirishda hamda ular asosida amaliy ko’nikmalarini shakllantirishda mustaqillikka ega bo’lish imkoniyatlarini ta’minlanishini ko’rishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, professional ta’lim muassasalari o’quvchilarining elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o’quv-bilish kompetentligini shakllantirish, shuningdek mazkur ta’lim resurslaridan foydalanib ularning mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish maqsadida, o’quv mashg’uloti tashkil etildi.

Demak, mazkur jarayonlarda avvalo shuni, etiborga olish zarurki, ta’limning yangi turini ya’ni elektron muhitidan samarali foydalanish jarayonlarini o’quvchilarga aniq tushuntirib o’tmasdan uni amaliyotga tatbiq etib bo’lmaydi. Agar mazkur jarayonlardan maqsadli foydalanilsa, ta’lim jarayonining sifatini oshirish imkoniyati mavjud bo’ladi [17].

**O’quvchilarning mustaqil ta’limni tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish** o’quv-bilish kompetentligini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan o’quv mashg’ulotining avzallik jihatlari quyidagicha:

olib boriladigan har bir dars mashg’uloti ma’lum bir darajada tadqiqot jarayoni hisoblanadi;

o’quvchilar o’z fikrlarini mustaqil bayon etish imkoniyati ta’minlanadi;

bu orqali o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida hamkorlining ijtimoiy munosabatlari yo’lga qo’yiladi.

O’quv mashg’uloti hamkorlikdagi ijtimoiy munosabatlar asosida olib boriladi, ya’ni o’qituvchi o’quvchilarning fikrlarini aniqlab olib, so’ngra bilimlarini yanada boyitishga yo’naltiradi [19, 64 b.]. Mazkur o’quv mashg’uloti davomida faqat o’qituvchi faol ishlamasdan o’quvchilar ham faollik ko’rsatadi.

Demak, yuqorida ta’kidlanganidek, bu jarayonda o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida erkin ijtimoiy munosabatlar shakllanadi hamda ularda mazkur jarayonlarga mos ravishda o’quv-bilish kompetentligi shakllanadi. Mazkur mashg’ulotlarning afzallik tomonlaridan yana biri, bu ta’lim jarayonida olingan nazariy bilimlar bilan amaliy mashg’ulotlarni uyg’unlikda olib borilishlari natijasida ko’nikmalarining shakllanishidir. O’quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o’quv-bilish kompetentligi shakllantirish maqsadida tashkil etilgan o’quv mashg’ulotida Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanib jarayonini ko’rib chiqamiz.

Mazkur jarayonda o’quvchilarning muhandislik faoliyatiga tayyorgarligini ta’minlashda ta’lim jarayonida amaliy dasturlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishning dolzarbligini ko’rsatadi [21].

Tadqiqot ishimizni amalga oshirishda kasb-hunar maktablari 30711401-Avtomobil dvigatellarini tashxislash va ta’mirlash yo’nalishi o’quvchilariga “Texnikaviy chizmachilik” fanidan mustaqil ta’limini tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish, jumladan Kompas 3D muhandislik dasturi foydalanish metodikasini takomillashtirish bo’yicha o’quv mashg’uloti tashkil etildi. O’quv mashg’ulotini olib borishda akademik guruh o’quvchilari tajriba



va nazorat guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhi uchun o‘quv mashg‘uloti an’anaviy ta’lim shaklida, tajriba guruhi uchun esa, o‘quv mashg‘uloti takomillashtirilgan metodikamiz asosida olib borildi.

O‘quv mashg‘ulotining boshlang‘ich qismida o‘qituvchi Kompas 3D muhandislik dasturi va uning imkoniyatlari bilan o‘quvchilarni tanishtirdi. Keyin, o‘qituvchi tomonidan Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanib, grafik chizma ishlarini bajarish to‘g‘risida namuna ko‘rsatib berdi.

Bu jarayonda interfaol metodlaridan foydalanish o‘quv mashg‘ulotining samaradorligini ta’minlaydi. Shuning uchun ham, mazkur jarayonda “Practic-study” metodi yordamida tabiiylikka qaratilgan amaliy jarayonlar tahlili bajarildi, shuningdek u mashg‘ulot davomida quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich. Boshlang‘ich kompetensiyalarni shakllantirish.

Maqsad: O‘quvchilarda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirish, shuningdek mazkur ta’lim resurslaridan foydalanib, ularning mustaqil ta’limini tashkil etish.

Bu jarayonlarda Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanib tabiiylikka qaratilgan obyektlarning proeksion va uning 3D o‘lchamli modelini taqdim qilish, tahrirlash ishlari amalga oshiriladi.

Kutiladigan natija: Mazkur jarayonlar yordamida Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanish o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirishning boshlang‘ich ishlari olib boriladi.

Ikkinchi bosqich. Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanish bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish ishlari bajariladi.

Maqsad: Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanish bo‘yicha bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, oraliq o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirish.

Kutiladigan natija: bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda egallash.

O‘quvchilar Kompas 3D muhandislik dasturidan amaliy jarayonlarda foydalanib bajarishadi.

Uchinchi (yakuniy) bosqich. Kompas 3D muhandislik dasturidan foydalanish bo‘yicha o‘quv-bilish kompetentligini baholash mezonini sifatida qo‘llaniladi.

Yakuniy bosqichda vazifalarni bajarish darajasini baholash ko‘rsatkichlarini quyidagicha ko‘rinishda ifodalash mumkin:

- texnologik tayyorgarlik darajasi, chizma topshirig‘ining belgilangan me‘yor talablari darajasida bajarilganligi;
- o‘quvchining mustaqil ravishda vazifalarni bajarish sifati;
- bajarilgan vazifalarning natijalarini taqdimot orqali namoyish etish sifati.

Yakunlovchi qism.

Guruh o‘quvchilari berilgan topshiriqlarni belgilangan talablarga muvofiq ravishda bajarilganligiga qarab baholanadi. Bunda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning mustaqil faoliyat olib borish o‘quv-bilish kompetentligining shakllanganlik darajalariga e‘tibor qaratiladi.

**Natijalar va muhokamalar.** O‘quvchilarining mustaqil ta’lim jarayonini samaradorligini oshirish maqsadida, empirik tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 2-son kasb-hunar maktabi Avtomobil dvigatellarini tashxislash va ta’mirlash yo‘nalishi birinchi bosqich o‘quvchilari uchun “Texnikaviy chizmachilik” fanidan olib borildi. Tadqiqot jarayonida tajriba guruhida 25 nafar, nazorat guruhida 24 nafar o‘quvchi qatnashdi.

Mazkur natijalarga ko‘ra,  $T_{krit}(0,05; 47)=1,96$  ga teng. Demak, tajribada olingan natijalar bo‘yicha  $T_{krit}=1,96 < T=2,1$  ga ega bo‘ldi, ya‘ni tajriba va nazorat guruhi o‘quvchilarining o‘zlashtirishi 1.13 ga teng,  $T_{krit} < T$  bo‘lgani uchun  $H$  g‘oya qabul qilindi. Shuning uchun natijalar tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 13 % ga yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi.

Bu esa, olib borilgan tadqiqot jarayon natijalarining samaradorligini va metodik ta‘minotining ilmiy-pedagogik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Tadqiqotlar natijasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 2-son kasb-hunar maktabida o‘quvchilarning mustaqil ta‘limini tashkil etish mazmuni, sifati, ta‘lim dasturlari, texnologiyalarining tatbiq etilishi natijasida bir qancha o‘zgartirishlar amalga oshirildi.

Demak, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 2-son kasb-hunar maktabi o‘quvchilarining elektron ta‘lim resurslaridan foydalanib mustaqil ta‘lim jarayonini tashkil etish maqsadida, tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari Styudent kriteriyasidan foydalanib, natijalar taqqoslab olindi. Demak, mazkur jarayondan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, tajriba guruhi o‘quvchilarining natijalari nazorat guruhi o‘quvchilarining natijalariga ko‘ra, ijobiy natijalarga erishildi.

## REFERENCES

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 8.02.2017-y. [lex.uz/docs/3107036](http://lex.uz/docs/3107036).
2. Alimnazarov O. Elektron ta‘lim muhitida mustaqil ta‘limni tashkil etish metodikasini takomillashtirish vositalari. “Ta‘lim, fan va innovatsiya” jurnali, 5-son., 2022.
3. Alimnazarov O. Methods of using engineering graphics software in the process of organizing independent education of students. India: *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, doi: 10.5958/2249-7137.2022.00332.9, 2022.
4. Alimnazarov O. Mustaqil ta‘lim jarayonida Coding C++ dasturidan foydalanish metodikasi. Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman to‘plami, Termiz muhandislik-texnologiya instituti., 2022.
5. Alimnazarov O. O‘quvchilarning mustaqil ta‘limini tashkil etishda elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish metodikasi. *International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”*, 2023., 1/(48), 104-118. [journal.fledu.uz/uz/issue/1-48-2023/](http://journal.fledu.uz/uz/issue/1-48-2023/).
6. Kuysinov O.A. Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency. *Actual problems of modern science, education and training*, 2021.
7. Kuysinov O.A. Some Aspects of Modular Educational Technologies Forming Professional Competence of Future Teachers Eastern. Germany: *European Scientific Journal*., 2018.
8. Kuysinov O.A., Muslimov N.A., Urazova M.B. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей посредством применения веб-квест технологии. Москва: “Научное обозрение: гуманитарные исследования” научный журнал., 2014.
9. Qo‘ysinov O.A., Alimnazarov O.M. The method of organizing independent education using Compass 3d software in educational process. *International Journal of Early Childhood Special Education*, [int-jecse.net/abstract.php?id=1108](http://int-jecse.net/abstract.php?id=1108). 2022. 2076 – 2085.

10. Ziyodullayeva G. O‘quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlarni tashkil etish orqali bilim samaradorligini oshirish yo‘llari. “Science and Education” Scientific Journal, 2020.
11. Divanova M.S, Inoyatova M.E, Abduqudusova F.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari // Uslubiy qo‘llanma. – T.: “T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘PFITI” nashriyoti, 2014 – 125 b.
12. Eshonqulov B.S. Raqamli texnologiyalar asosida energetik muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning dasturiy-metodik ta‘minotini takomillashtirish. Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... diss. avtoreferati. T.: 2023.
13. Hamidov J. A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi. Ped. fan. doktori (DSc)... diss. T.: 2017.
14. Muqumov B.R. Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta‘lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish (kasb ta‘limi yo‘nalishlari misolida). Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... diss. T.: 2020.
15. Qo‘ysinov O.A. Kasb ta‘limi yo‘nalishi bakalvr o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta‘limning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nom...diss. T.: 2008 – 160 b.
16. Sadikova F.M. Talabalarining mustaqil ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... diss. avtoreferati. T.: 2021.
17. Mazen Ismaeel Ghareb and Saman Ali Mohammed. The Role of E-Learning In Producing Independent Students With Critical Thinking.: International Journal of Engineering and Computer Science, 2015.
18. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi // Met.qo‘ll. T.: Nizomiy nomidagi DTPU. 2013. – 115 b.
19. Musayev J.P. 5-9-sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari. Ped. fan. (PhD) diss. avtoreferati. Toshkent: 2022.
20. Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 23.09.2020-y.
21. Stefanie Findeisen and Stefen Wild. General digital competences of beginning trainees in commercial vocational education and training. <https://doi.org/10.1186/s40461-022-00130-w>.: Empirical Research Vocational Educational Training. Springer Open, 2022.

## **O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA MUSTAQIL TA’LIMNI FIN TA’LIM TIZIMI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

**Shukurillo Yuldashev Abdulhoshim o‘g‘li**

Xalqaro Nordik Universiteti ilmiy xodim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159467>

***Annotatsiya.** Mustaqil ta’lim mustaqil ishi – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahatlari va tavsiyalari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir. Ushbu tezida mustaqil ta’limni tashkil etishda fin ta’lim tizimidan foydalanish yo‘llari haqidagi ma’lumotlar jamlangan.*

***Ka’lit so‘zlar:** mustaqil ta’lim. o‘quv dastur, malaka, ko‘nikma, model.*

**KIRISH.** Hozirgu kunda respublikamiz ta’lim tizimida kredit modul tizimi joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida” NIZOM tasdiqlangan. Mazkur Nizomda esa kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalar berib o‘tilgan [1]. Kredit-modul tizimi asosiy vazifalaridan biri bu – ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning usulini oshirish deb ta’kidlangan [2]. Mustaqil ta’lim mavzusi talabalar mustaqil o‘rganadigan ma’ruza va seminar mashg‘uloti mavzulalaridan iborat bo‘ladi. Mustaqil ta’lim talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga mavzularni tushunish qobiliyatini maksimal darajada rivojlanishiga, umumiy dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o‘quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o‘rin egallaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o‘quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko‘nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta’minlanadi. mustaqil ishlar o‘qitishning eng muhim metodi bo‘lib, unda talabalar mashg‘ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi. Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri; mustaqil ravishda o‘z bilimlarini yanada oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi; mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish; mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish

Mustaqil ta’limning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to‘g‘ri baho berish, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo‘lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatida zarur bo‘ladigan sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlaydi. Talaba mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlagagina bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta’lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi. Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi pedagog-xodimning rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Mustaqil ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kerakli ma’lumotlarni izlab topish, bilim olish va uni mustahkamlashning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlash;
- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- Internet tarmog‘idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqningratsional echimini belgilash;
- ma’lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g‘oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

2020 yil 6 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3]gi farmoni qabul qilingan edi. Farmonda maktab ta’limi bo‘yicha ilg‘or davlatlar tajribasini, xususan Finlyandiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish vazifasi yuklatildi. Davlatimiz rahbari tomonidan aynan Finlyandiyaning misol qilib ko‘rsatilgani bejizga emas [4]. Ushbu mamlakat ta’lim sifatini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o‘z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Fin o‘quvchilari PISA tadqiqotidagi barcha yo‘nalishlarda savodxonlik va ta’lim tengligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishgan. Finlandiya ta’lim tajribasini o‘rganish uchun yurtimizda qator seminar-uchrashuvlar tashkil etilgan. 2020-yil 25-noyabr kuni Onlayn uchrashuv bo‘lib o‘tgan. Xalqaro onlayn uchrashuvda, O‘zbekistondan: bosh vazir o‘rinbosari Behzod Musayev, Ta’lim inspeksiyasi boshlig‘i Ulug‘bek Tashkenbayev, Tashqi ishlar vazirligi, Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari mutasaddilari ishtirok etishdi. Finlandiya tomonidan esa: Finlandiyaning O‘zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisi Liivala Marja xonim, Tashqi ishlar vazirligi ta’lim bo‘yicha elchisi Sall Marana xonim, Ta’lim vazirligi va Milliy ta’lim agentligi mutasaddilari qatnashdi. Xalqaro onlayn uchrashuvda, bosh vazir o‘rinbosari Behzod Musayev O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishda Finlyandiya bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi. O‘z navbatida, Finlyandiyaning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Marja Liivala xonim uchrashuv tashkilotchilarga minnatdorchilik bildirib, bu kabi tadbirlar Finlyandiya uchun ulkan g‘urur baxsh etishini va ushbu hamkorlik ikki tomon uchun ham manfaatli ekanligini ta’kidladi. Shuningdek u : — Finlyandiya ta’lim sohasi uchun juda katta mablag‘ ajratdi, — dedi u, jumladan. — Bu jarayonda yuqori malakali o‘qituvchilar muhim ahamiyat kasb etdi. O‘qituvchilik Finlyandiya jamiyatida nufuzli kasblardan biri sanaladi. Yoshlarning juda ko‘pchiligi ushbu kasbni egallashga intiladi. Ta’lim tikilgan mablag‘lar mamlakatni noqulay iqlimiga qaramasdan, nochor davlatdan bilimga asoslangan iqtisodiyotga ega, yashash darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlardan biriga aylantirdi. O‘zbekistonda ham o‘sib kelayotgan yosh avlod ijobiy o‘zgarishlar va cheksiz cheksiz imkoniyatlarni namoyish qilmoqda [5]. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda Finlandiya ta’lim tizimi har tomonlama eng yetuk deb tan olingan. Fin o‘quvchilari ham ta’lim sifati bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Finlyandiyaning asosiy ta’lim to‘g‘risidagi qonunida (1998 yil) Finlyandiya ta’limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan:



- O‘quvchilarga hayotda zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni berish;
- Jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ‘ib qilish hamda;
- Butun mamlakat bo‘ylab ta‘lim sohasida tenglikni ta‘minlash.

Fin tajribasi asosida yurtimizda yangi o‘quv-qo‘llanmalar va darsliklar chop etildi [6].

**XULOSA.** Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston ta‘lim tizimida ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘rta-maxsus ta‘lim tizimimiz uchun foydali bo‘lgan, fin modeli asosida darsliklar foydalanish uchun topshirildi. Kelajak poydevorlari bo‘lmish yosh avlodimiz darsliklar asosida yetuk kadrlar bo‘lib yetishishiga ishonch bildirilmoqda.

Fin modeli asosida Oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun ham foydali jihatlari ancha katta hisoblanadi. Ushbu tezisning asosiy mazmuni ham shundan iborat. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarining mustaqil ta‘limni tashkil etishda fin ta‘limini qo‘llash ancha foydali demakdir. Finlandiya ta‘lim tizimini o‘rganish maqsadida Xalqaro Nordik Universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori O.A.Qo‘ysinov boshchiligidagi ishchi guruh shakllantrildi. Respublikamiz olmlari bilan shakllangan guruh Finlandiya ta‘lim tizimini o‘rganish maqsadida Finlandiyaning yuqori reytinglarida turuvchi Oliy ta‘lim muassasalari joylashgan shaharlarida bo‘lib qaytishdi. O‘rganilgan tajribalar asosida respublikamiz oliy ta‘lim muassasalari talabalarining mustaqil ta‘limini Fin modeli asosida tashkil etish takliflari berildi. Finlandiyaning Kareli amaliy fanlari universitetida talabalarining mustaqil ta‘limi uchun katta e‘tibor qaratilgan. Mustaqil ta‘lim topshiriqlari talabalarga kichik guruh sifatida taqdim etiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, talabalar topshiriqlarni kichik guruhlar asosida bajarib kelishadi. Bu esa ularda jamoaviy harakatlanish, izlanish va jamoa bo‘lib rivojlanish kompetentligini oshiradi. Baholash tizimi ham huddi shunday bo‘lib, talabalarining bajarib kelgan topshiriqlari uchun jamoaviy baholanadi. Ya‘ni guruh ichida dangasa talabani ham izlanishga va dars qilishga undaydi. Huddi shunday metodikani ham respublikamiz oliy ta‘lim talabalariga ham qo‘llash talabalar uchun katta qulaylik hamda keng imkoniyatlar olib keladi.

## REFERENCES

1. O. R. V. M. qarori, «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi 824-son,» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020.
2. M. S. Sherzod Mustafoqulov, «„Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik“,» Xalq so‘zi (05 avgust 2020), 7-sentyabr 2023-yil..
3. O. R. P. O. y. PQ-4884-son, «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 y. PQ-4884-son "Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori,» "Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, 06.11.2020.
4. I. S. Mamirovich, «Finlyandiya Va O‘zbekistonda Ta‘Lim Tizimini Sifatini Solishtirma,» Miasto Przyszłości, p. 347, 2022.
5. X. S. GAZETASI, «Ўзбекистон нима учун Финляндия таълим тажрибасини танлади? — Онлайн мулоқот бўлиб ўтди. XALQ SO‘ZI GAZETASI 26.11.2020,» XALQ SO‘ZI GAZETASI, 26.11.2020 .
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Kredit-modul\\_tizimi#cite\\_note-:0-1](https://uz.wikipedia.org/wiki/Kredit-modul_tizimi#cite_note-:0-1).

**TA’LIM OLUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA  
KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**Agaliyeva Xabiba Narmaxmad qizi**

Professional ta’limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159484>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, ularni kommunikativ kompetentligini oshirish yo‘llari, amaliyot bilan nazariyaning integratsiyasidan tashkil topadi. Nazariy qabul qilingan bilimlardan, pedagog yordamida ko‘nikma hosil qilinadi va malakali kadr yuqori saviyada faoliyati davomida qo‘llay oladi. Kommunikativ kompetentlik kadrni kasbiy faoliyatda to‘liq moslashish va jamoa bo‘lib ishlash kompetensiyasini aks etadi.*

***Kalit so‘zlar:** tadqiqot, integratsiya, amaliyot, nazariya, ta’lim mazmuni, mutaxassis, kontekst, kombinatsiya, gumanistik pedagogika, tamoyillar, didaktik shakl, resurslar, professional ta’lim, prizma, individual.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются пути подготовки обучающихся к профессиональной деятельности, повышения их коммуникативной компетентности, заключающиеся в интеграции теории с практикой. Из теоретически полученных знаний с помощью педагога формируется навык, который квалифицированный персонал может применять на протяжении всей своей деятельности на высоком уровне. Коммуникативная компетентность отражает компетентность персонала к полноценной адаптации и работе в команде в профессиональной деятельности.*

***Ключевые слова:** исследование, интеграция, практика, теория, содержание образования, эксперт, контекст, сочетание, гуманистическая педагогика, принципы, дидактическая форма, ресурсы, профессиональное образование, призма, индивидуальный.*

***Abstract.** In this article, the ways to prepare graduates for professional activities, increasing their communicative competence, are formed from the integration of theory with practice. From the knowledge received in theory, with the help of an educator, a skill is formed, and a qualified cadre is able to apply during his career at a high level. Communicative competence reflects the competence of personnel to fully adapt in professional activities and work as a team.*

***Keywords:** research, integration, practice, theory, educational content, specialist, context, combination, humanistic pedagogy, principles, didactic form, resources, professional education, prism, individual.*

**Kirish.** Hozirgi zamon talabi salohiyatli kadrlarni yetishtirish va ularni jahon bozori talablari darajasidagi kadr etib tarbiyalash, eng oliy maqsadlarimizdan biri. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomadagi bir fikrga e’tiboringizni qaratishni o‘rinli, deb bilaman. Ya’ni: “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”. Bu fikrlardan ko‘rinib turibiki, ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning umumiy hamda kasbiy kompetensiyalariga alohida e’tibor qaratish lozim. Ularni zamon talabi darajasida kadr bo‘lib yetishishida, bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmui, hamda bularni barchasini kasbiy faoliyatga professional darajada tadbiq eta olish qobiliyatlarini shakllantirish professional ta’lim tizimi oldidagi eng katta mas’uliyatdir.

**Asosiy qism.** O‘zbekistonda professional ta’lim tizimining, ta’lim sohasida xorijiy tajribalar asosida erishilgan ijobiy natijalarni umumlantirish va rivojlantirish, interfaol

metodlardan foydalanib ta’lim oluvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish modelini ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash modelini amalga oshirishga imkon beruvchi metodik va didaktik ta’minotni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, ta’lim oluvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodikasini takomillashtirish tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish borasida keng qamrovli, maqsadli ishlarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kundagi davr talabidir. Bu borada professional ta’lim tizimida juda katta islohotlar amalga oshirilib borilmoqda biroq, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda turli xil yondashuvlar olib borilsada, ta’lim oluvchilarning mehnat bozori va ish joyiga moslashishi, tengdoshlari va atrofdagilar bilan o‘zaro samarali muloqotga kirishishi qiyin kechmoqda.

**Metodologiya.** Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishdagi pedagogik faoliyatimizning zamirida uning amaliy yo‘nalishi yotadi. A.A.Verbiskiy asarlarida keltirilgan belgi-kontekstli ta’lim nazariyasi professional ta’limga nisbatan faollik yondashuvini amalga oshirishga misol bo‘lib xizmat qiladi. A.A.Verbiskiyning ta’kidlashicha, “... ta’lim, bunda didaktik shakllar, usullar va vositalarning butun tizimi yordamida mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatining oraliq va ijtimoiy mazmuni modellashtiriladi va mavhum bilimlarni o‘zlashtiradi, imo ishora tizimlari ushbu faoliyatning kanvasiga qo‘yilganligi sababli” belgi - kontekstli (oddiylik uchun - kontekstli) o‘rganish deb ataladi. Bunday bilim olishda ma’lumot o‘quv matnlari shaklida taqdim etiladi, ya’ni, "belgi" va ushbu matnlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida tuzilgan vazifalar kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun kontekstni belgilaydi. Agar darslar kelajakdagi kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ta’lim mazmuni shaxsan muhim ma’nolar bilan boyitiladi. O‘qituvchi asosiy e’tiborni ta’lim jarayonining muammoliligini ta’minlash, tanlagan kasbiga, hurmat, shaxsni qadrlash munosabatini shakllantirishga qaratadi. Ta’lim mazmuni o‘quvchi uchun shaxsan ahamiyatli bo‘lgan, o‘quvchining ehtiyojlarini hisobga oladigan ma’nolar bilan qanchalik to‘ldirilsa, uning o‘quv predmetiga nisbatan qadrli munosabati, kognitiv qiziqishi shunchalik rag‘batlantiriladi. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish bo‘yicha ishlarni faollashtirishning asosiy usullaridan biri bu asosiy fanlar bo‘yicha o‘qitish mazmunining kommunikativ kompetentlikni shakllantirish mazmuniga mos kelishi deb hisoblaymiz. Bu kommunikativ kompetentlikni real sharoitlariga yaqin bo‘lgan vaziyatlarni yaratishga, shu jumladan o‘quv jarayonida rolli o‘yinlaridan intensiv foydalanishga, ya’ni ta’lim oluvchilarni ushbu kasbiy faoliyatga xos bo‘lgan muloqot holatlariga kiritishga imkon beradi. Shunday qilib, mazmun jihatining kasbiy yo‘nalishi kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning muhim omilidir, chunki ta’lim mazmuni ta’lim oluvchi uchun shaxsan ahamiyatli bo‘lgan ma’nolar bilan to‘ldirilgan, uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kognitiv qiziqish va motivatsiyani rag‘batlantiradi, bu esa kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayoni va umuman o‘quv jarayonining samaradorligiga hissa qo‘shadi. Ta’lim oluvchilar o‘rtasida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning navbatdagi muhim omili - bu o‘quv jarayonini kasbiy qadriyat sifatida madaniyatga yo‘naltirishdir, chunki kommunikativ ko‘nikmalar madaniyatning bir qismi sifatida shaxsni shakllantiradi, ta’limda, uning axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Har qanday kasb jahon madaniyatining bir qismi bo‘lib, jahon tajribasiga muvofiq rivojlanib, ma’lum bir mamlakatning madaniy va ishlab chiqarish munosabatlari tizimiga qo‘shiladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har bir ta’lim oluvchi o‘zining kasbga mansubligini o‘ziga xos tarzda his qiladi va uni maqsadi, qiziqishi, istiqboli va madaniy darajasiga mos ravishda ifodalaydi. Shunday qilib,

madaniyat kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayonining muvaffaqiyati omilidir. Ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishga qanday omillar ta’sir qilishiga asoslanib, ushbu jarayon muvaffaqiyatli davom etishi uchun quyidagi shart-sharoitlarni belgilaymiz: - ta’lim mazmuni tarkibini boyitish; - kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish; - madaniyat elementi sifatida ishbilarmonlik odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish, ta’lim oluvchilarda jamoa bo‘lib ishlash va qadriyatlarni hurmat qilish, o‘zaro jamoaga moslashish va bilimlarini o‘z vaqtida qo‘llay olish va samarali kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun, o‘quv jarayonida quyidagi metodlardan unumli foydalanishni taklif etamiz.

“Tarmoqlar” metodi – ta’lim oluvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni urgaishga karatilgan.

“3x4” metodi – ta’lim oluvchilarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik gurux xolda taxlil etib, xulosa chiqara olishi ta’rif bera olishiga karatilgan.

«Blis-o‘yin» metodida harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga o‘rganilayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma’lumotlardan keragini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan.

“Intervyu” texnologiyasida ta’lim oluvchilar savol berish, eshita olish, savolni to‘g‘ri berishga qaratilgan.

“Terarxiya” texnologiyasi oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga utish usullarini qo‘llashni ularni mantiqiy, Tanqidiy, ijodiy fikrlashga, o‘rgatishga qaratilgan.

“Bumerang” texnologiyasi ta’lim oluvchi dars jarayonida darsdan tashqari turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha ta’lim oluvchilarni baholay olishga qaratilgan. Darsning har bir bosqichida o‘tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash, yangi bilimlar bayoni, amaliy mashg‘ulotlar laboratoriya ishlarini bevosita axborot texnologiyalari yordamida qisman yoki butunlay amalga oshirish imkoniyati mavjud.

“Muloqot” o‘qituvchilarni auditoriyada diqqatini o‘ziga jalb qilish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, uni tashkil etishni o‘rgatishga qaratilgan.

“Boshqaruv” texnologiyasi o‘qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda ta’lim oluvchini ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o‘rgatishga qaratilgan. Dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilar dunyoqarashi, bilim va ko‘nikmalarini ko‘rish, eshitish va mustaqil bajarish orqali rivojlantirishga ko‘maklashadi.

**Tahlillar.** Tahlillarmiz shuni ko‘rsatmoqda, ta’limning maqsadi - jamoat tartibini bajarish, ta’lim mazmuni esa o‘z manfaati uchun ham, undan ham ko‘proq jamiyat manfaati uchun faoliyatga tayyorlikni ta’minlashi kerak. A.A.Verbiskiy bo‘lajak mutaxassisning o‘quv va kasbiy faoliyatini tashkil etishning kontekstli yondashuvini asoslaydi, bu o‘qish jarayonida didaktik shakllar, usullar va vositalarning butun tizimi yordamida, mavzu va uning kasbiy faoliyatining ijtimoiy mazmuni modellashtirilgan. Kontekstga asoslangan ta’limning asosiy xususiyati mutaxassisning kasbiy malakasini ta’minlaydigan bo‘lajak kasbiy faoliyatning mavzu mazmunini ham, jamoada ishlash, ishlab chiqarishda tashkilotchi bo‘lish qobiliyatini ta’minlaydigan ijtimoiy mazmunni modellashtirishdir. Kombinatsiyalangan o‘quv faoliyatida kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarining shakllanishi uning predmeti, ijtimoiy va psixologik jihatlari bo‘yicha kasbiy

ish konteksti bilan bog‘liq. Ta’lim oluvchilarning kasbiy ahamiyatli fazilatlari orasida kreativ fikrlash va tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyat, yetakchilik, o‘zini o‘zi tashkil etish, mas’uliyat kabi ijtimoiy fazilatlarga alohida e’tibor qaratish lozim.

**Natijalar.** Kasb-hunar ta’limi tizimini yangilashning hozirgi bosqichida, ta’lim oluvchi ta’lim jarayonining markazida bo‘lgan davrda, kadrlar tayyorlashning asosiy maqsadi kompetentli kadrlarni rivojlantirishdir. Kommunikativ kompetensiya maxsus fanlar, ixtisoslashtirilgan fanlarning kommunikativ kompetentlikka yo‘naltirilgan bo‘limlari va tanlov kurslarini o‘rganish jarayonida shakllanadi. Maxsus fanlarning profil kurslari (“Avtomobil tuzilishi” o‘quv qo‘llanma, “Kasb-hunar maktabi o‘quvchidarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish” o‘quv qo‘llanma, “Avtomobil shassisiga texnik xizmat ko‘rsatish” fani o‘quv qo‘llanma, “Avtomobil tuzilishi (amaliyot fani)” uslubiy qo‘llanma) alohida fanlarni chuqur o‘rganishni ta’minlaydi va birinchi navbatda kasbiy ta’limni amalga oshirishga qaratilgan. Tanlov kurslari, birinchi navbatda, o‘quvchilarning shaxsiy ta’lim qiziqishlari, ehtiyojlari va moyilliklarini qondirish bilan bog‘liq. Shuning uchun ular individual ta’lim dasturlarini qurishning eng muhim vositasidir, chunki ular ta’lim oluvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va kelajakdagi hayot rejalariga qarab ta’lim mazmunini tanlash bilan bog‘liq. Tanlov kurslari, go‘yo, ta’lim oluvchilarning turli ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy va ixtisoslashtirilgan kurslarning ancha cheklangan imkoniyatlarini ko‘p jihatdan qoplaydi. Ishlab chiqilgan “Kasb-hunar maktabi o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma, “Avtomobil tuzilishi” fanidan o‘quv qo‘llanma, “Avtomobilllar tuzilishi” amaliyot fanidan uslubiy qo‘llanma, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan. Ular o‘quvchilarga maxsus fanlarni va shu asnoda kommunikativ kompetentlikni oshirish uchun xizmat qiladigan va mobil ilova ko‘rinishida har qanday holatda xam ularga xizmat qiladigan “Ustoz shogird” shaklidir. Tanlov kurslari, shuningdek, fanlararo aloqalarni ta’minlashi va tegishli fanlarni profil darajasida o‘rganish imkoniyatini berishi kerak. P.F.Kapterevning fikriga ko‘ra, pedagogik jarayonning o‘ziga xos xususiyati - bu shaxsning kamoloti emas, balki shaxsni o‘z imkoniyatlari darajasida takomillashtirishdir. "Ta’lim - bu insonning fizikasi va ruhiyatiga, uning kamolotiga juda chuqur ta’sir qiluvchi kuch". O.S.Gazman ta’lim jarayonida o‘qituvchining insonparvarlik yo‘nalishining asosiy g‘oyasi ta’lim jarayonining barcha subyektlarining hayotiy o‘zini o‘zi belgilash g‘oyasi deb hisoblaydi. Ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ta’limning o‘rni katta, o‘qituvchining roli esa ta’lim oluvchining eng yaxshi fazilatlarini topish va rivojlantirishga yordam berishdir. Pedagog ta’lim oluvchining ma’lum darajada bilim va hayotiy tajribaga ega bo‘lgan shaxs ekanligini va u “o‘z-o‘zini bo‘lishiga yordam berishi yoki hech bo‘lmaganda xalaqit bermasligi” zarurligini unutmasligi kerak. Ta’lim oluvchi ta’lim markazida bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishning muhim omili - bu shaxsni hurmat qilish, ishonch, hamdardlik, o‘quvchi shaxsini mulohaza qilmasdan va so‘zsiz qabul qilishga asoslangan insonparvarlik muloqot uslubi.

**Xulosa.** Ushbu maqolada keltirilgan fikrlar va taxlillardan ko‘rinib turibiki, hozirgi zamon talabi kadrlardan yuksak salohiyatli va kasbiy faoliyat davomida kompetentli mutaxassis ekanligini ko‘rsatish, shuningdek talabga javob beradigan mutaxassis bo‘lishni oldiga maqsad qilib qo‘ygan va kelajak sari odim qadam tashlay olgan yoshlargina hayot yo‘lida qoqilmay, o‘z o‘rnini topadilar. Endilikda bunday kadrlarni yetishtirish ta’limni oldiga nima vazifalarni qo‘yishi haqida gaplashamiz. O‘quvchi shaxsiga qaratilgan ta’limda dars jarayonlarida innovatsion



metodlardan foydalanish va raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish va o‘zaro hamkorlik munosabatlari, o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishini ta’minlaydi. Biz quyida o‘qitish jarayonida kullash mumkin bo‘lgan ba’zi bir treninglarga (texnologiyalarga) tavsiyanoma berib, ba’zilarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida metodik tavsiyanoma berib o‘tamiz:

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30 Sentabr 2020.
2. Verbiskiy A.A. Lichnostniy i kompetentnostniy podxodi v obrazovanii: problemy integratsii : monografiya [Tekst] / A.A. Verbiskiy, O. G. Larionova. – M. : Logos, 2009. – 336 s.
3. *Latishina, D. I.* Istoriya pedagogiki i obrazovaniya : uchebnik dlya vuzov / D. I. Latishina. — Moskva : Izdatelstvo Yurayt, 2023. — 314 s. — (Visshee obrazovanie). — ISBN 978-5-534-09398-8. — Tekst : elektronnyy // Obrazovatel'naya platforma Yurayt [sayt]. — URL: <https://urait.ru/bcode/511066> (data obrasheniya: 25.09.2023).
4. Petrovskiy, A. V. Vse ostaetsya lyudyam / A. V. Petrovskiy // Gazman O. S. Neklassicheskoe vospitanie: Ot avtoritarnoy pedagogiki k pedagogike svobodi. – M. : MIROS, 2002. – 296 s
5. Abulxanova K. A. Rubinshteyn - retrospektiva i perspektiva / Problemi subyekta v psixologicheskoy nauke. M.: IP RAN, 2000, S. 13-27
6. Agaliyeva X.N. Ta’lim sifatini oshirishda kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati “Ta’lim, fan va innovatsiya” ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal 2023yil 2-son. ISSN 2181-8274
7. <https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/reports/211>

**UNIVERSITET TALABALARINING MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHGA  
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

**<sup>1</sup>Karimov Namoz Mamasalievich, <sup>2</sup>Karimova Zulfiya Odiljonovna**

<sup>1</sup>JDPU rus adabiyoti o‘qitish metodikasi va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi,

<sup>2</sup>JDPU rus adabiyoti o‘qitish metodikasi va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159502>

**Annotatsiya.** Maqolada o‘qitishning innovatsion shakllari va usullaridan foydalangan holda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, bo‘lajak mutaxassisning individual shaxsiy va kasbiy rivojlanish traektoriyasini amalga oshirishni ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Har xil murakkablik darajasiga ega bo‘lgan mustaqil ish hisobotining asosiy turlari va shakllarining xususiyatlarini batafsil tahlil amalga oshirildi.

**Kalit so‘zlar:** interfaol ta‘lim, kompetensiyalar, keys texnologiyalari, reproduktiv daraja, rekonstruktiv daraja, evristik daraja, ijodiy daraja, portfolio.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы организации самостоятельной работы студентов с использованием инновационных форм и методов обучения, обеспечивающих реализацию индивидуальной личностно-профессиональной траектории развития будущего специалиста. Проведен подробный анализ характеристик основных видов и форм отчетности самостоятельной работы, имеющих разные уровни сложности.

**Ключевые слова:** интерактивное обучение, компетенции, кейс-технологии, репродуктивный уровень, реконструктивный уровень, эвристический уровень, творческий уровень, портфолио.

**Abstract.** The article discusses the issues of organizing independent work of students using innovative forms and methods of teaching, ensuring the implementation of the individual personal and professional development trajectory of the future specialist. A detailed analysis of the characteristics of the main types and forms of reporting of independent work, which have different levels of complexity, was carried out.

**Keywords:** interactive learning, competencies, case technologies, reproductive level, reconstructive level, heuristic level, creative level, portfolio.

**Kirish.** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarziga o‘tish, demokratlashtirish va insonparvarlashtirish jarayonlarini kuchaytirish, o‘qituvchi uchun innovatsiyalar va yangi ta‘lim texnologiyalari va paradigmatlari olamiga eshik ochgan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va ta‘lim paradigmasiga o‘tish bir vaqtning o‘zida ko‘plab muammolar va savollarni yangiladi, ularga hozirgi vaqtgacha aniq javoblar olinmagan. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, eng dolzarb masalalar XXI asrda oliy ta‘lim qanday bo‘lishi kerakligini, davlat standartlariga muvofiq mutaxassisni qanday tayyorlash kerakligini tushuntirishga urinish bilan bog‘liq bo‘lib, bu vakolatlarni maksimal darajada amalga oshirishga yordam beradi. bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda asoslangan yondashuv, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda qanday innovatsion ta‘lim texnologiyalari asos bo‘lib qoladi va hokazo.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarga murojaat shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilar mustaqil ta‘lim faoliyatida ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalariga bir necha bor murojaat qilganlar. Shunday qilib, B.G.Ananyev, A.A.Bodalev, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn, N.F.Talizina, L.M.Fridman va boshqalarning ishlarida mustaqillikning inson shaxsini shakllantirishdagi o‘rni va roli ochib berilgan. Talabalik davrida mustaqillikni rivojlantirish

zaruriyati va ahamiyati V.V.Davydov, V.S.Merlin, D.B.Elkonin va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Ba’zi nashrlarda (E.Golant, N.G.Dairi, M.A.Danilov, B.P.Esipov, R.M.Mikkelson, O.A.Nilson, I.T.Ogorodnikov, O.P.Okolelov, P.I.Pidkasisty, N.A.Polovnikova va boshqalar) «mustaqil ish», «mustaqil kognitiv faoliyat», «mustaqillik» tushunchalariga ta’riflar berilgan. Bir qator manbalarda (A.A.Ayurzanayn, V.N.Vasilyeva, A.A.Verbitskiy, M.G.Garunov, V.I.Gorovaya, M.I.Yeretskiy, G.Ye.Kovaleva, T.P.Lizneva, S.I.Marchenko, YE.K.Osipians, N.A.Polovnikova, A.N.Riblova, T.I.Shamova va b.) ta’lim jarayonida mustaqil ishlarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishning fundamental imkoniyatlari ta’kidlangan.

Tahlil va natijalari:

Belgilangan mavzuni yangilash va o‘quv jarayonini optimallashtirish maqsadida Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rov natijalariga ko‘ra, talabalar uchun quyidagi kompetensiyalar ustuvorlik sifatida belgilandi, biz ularni ikki guruhga bo‘ldik: professional va ijtimoiy. Kasbiy kompetensiyalar o‘qituvchilar ta’limi tizimi vakillariga belgilangan funktsiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lib, kelajakda talabalar uchun talab katta bo‘ladi. Ushbu bosqichda ular uchun quyidagi ijtimoiy kompetensiyalar eng muhim bo‘ldi: tanqid qilish va o‘z-o‘zini tanqid qilish qobiliyati, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish sohasidagi kompetensiya, fanlararo muhitda ishlash va yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati (kreativlik), jamoada ishlash qobiliyati, tashkiliy va boshqaruv vakolatlariga ega bo‘lish, muvaffaqiyatga intilish. Shuni ta’kidlash kerakki, sanab o‘tilgan kompetensiyalarni shakllanganligi nafaqat kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga, balki umuman faoliyatning professionalligiga ham etarlicha kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalar va ish beruvchilarning bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha fikrlarini inobatga olgan holda, innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish va ularni keng qo‘llashga universitet professor-o‘qituvchilarini tayyorlash shartlarini ko‘rib chiqish zarur. Va agar zamonaviy OTM o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida an’anaviy texnologiyalar bilan bir qatorda innovatsion ta’lim texnologiyalari keng qo‘llanilsa, bu kompetensiyaga asoslangan, amaliyotga yo‘naltirilgan va kasbiy-shaxsiy yondashuvlarni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Bo‘lajak mutaxassisning raqobatbardosh shaxsini tayyorlash jarayonida innovatsion psixologik-pedagogik texnologiyalarga murojaat qilish tasodifiy emas. Tadqiqotchilar dialogik fikrlash, fikr-mulohazalarning mavjudligi, fikrlash va xatti-harakatlarning majburiy faollashuvi, hissiyotlarning kuchayishi, aks ettirish kabi asosiy xususiyatlarni ajratib ko‘rsatishadi, ular ta’lim jarayonining mazmunini va bu jarayonda talabalarning pozitsiyasini o‘zgartirishga imkon beradi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, innovatsion psixologik-pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning «o‘qituvchi-talaba» ikkiligida birgalikda ishlashga, balki mustaqil ishlashga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga va uni amalga oshirish sifatini oshirishga imkon beradi.

Ma’lumki, davlat standartlarida talabalarning mustaqil ishlariga alohida ahamiyat beriladi, u o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda mustaqil ishning rolini kuchaytirish OTMda o‘quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko‘rib chiqishni anglatadi. Bugungi kunda ta’lim jarayoni shunday tuzilishi kerakki, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan talabalar, bir tomondan, o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatini (mustaqil o‘rganish qobiliyatini), boshqa tomondan, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini o‘zi anglash qobiliyatini rivojlantiradi. , nafaqat kasbda, balki faoliyatning boshqa sohalarida ham muvaffaqiyatli moslashishni ta’minlaydigan

muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv. Agar o'qituvchi talabalarning mustaqil ishi (TMI) uchun materiallarni ishlab chiqishda ko'p darajali topshiriqlardan foydalansa, belgilangan vazifalarni juda samarali hal qilish mumkin. Xususan, bugungi kunda reproduktiv, rekonstruktiv, evristik va ijodiy xarakterga ega bo'lgan vazifalar juda ommabop. Biz turli darajadagi murakkabliklarga ega bo'lgan mustaqil ishlarni hisobot berishning asosiy turlari va shakllarining xususiyatlarini batafsil tahlil qilamiz.

Shunday qilib, reproduktiv darajadagi TMI uchun vazifalar (namunaga asoslangan ish) bilim va ko'nikmalarni qayta ishlab chiqarish uchun muammolarni hal qilishni ko'zda tutadi. Qidirilayotgan narsani topish uchun barcha ma'lumotlar, shuningdek, topshiriqni bajarish usuli topshiriqning o'zida yoki tegishli yechim algoritmidagi (ko'rsatmalar) aniq ko'rsatilgan. Bularga test topshiriqlarini (ochiq, yopiq, mantiqiy ketma-ketlik, muvofiqlik) bajarish, kompyuterda testdan o'tkazish, berilgan algoritm bo'yicha o'quv mashqlarini bajarish, model asosida uslubiy ishlanmalar tuzish; kompyuter o'quv dasturlari bo'yicha topshiriqlarni bajarish, asosiy atamalar lug'atini tuzish, bibliografiya tuzish va asosiy birlamchi manbalarni ko'rib chiqishlarni kiritish mumkin. Hisobot shakllari sifatida bajarilgan test topshiriqlari, uslubiy ishlanma, atamalar lug'ati, bibliografik ko'rsatkich va boshqalar chiqadi.

TMning rekonstruktiv darajasining o'ziga xos xususiyati shundaki, vazifaning o'zi yechimning umumiy g'oyasi hisoblanadi, talaba esa uni muammoning shart-sharoitlariga bog'liq holda aniq bir usul yoki usullarga aylantirishi kerak. Talaba topshiriqni unga allaqachon ma'lum bo'lgan boshqalar bilan solishtiradi. Bunda asosiysi – mavjud bilimlarni yangilash, muammoni hal qilish uchun kerakli bilimlarni tanlash va jalb qilish qobiliyati. Ushbu turdagi ish doirasidagi asosiy vazifalar turlari - o'qilgan ma'ruza (maqola, kitob, uslubiy ishlanma va boshqalar) konspektini yozish, maqolaga izohlar, voqea ssenariysi, o'quv materiali; eslatmalar, hisobotlar, xronologik jadvallar, ilg'or tajribalar (innovatsiyalar) manzillari, tasniflagichlarning mantiqiy qo'llab-quvvatlovchi diagrammasini tuzish, taklif qilinganlardan tanlash yoki mustaqil ravishda algoritmlarni ishlab chiqish, muammoni hal qilish usullari va boshqalar. Xulosa, sharh, referat, mantiqiy diagramma, konspekt, hisobot, xulosa jadvali, ilg'or tajribalar manzillari ma'lumotnomasi, referat, tahliliy hisobot hisobot shakllariga aylanishi mumkin.

Talabalarning evristik darajadagi mustaqil ishi nostandart vaziyatlarni yaratish va nostandart muammolarni hal qilishni ko'zda tutadi. Uning asosida – yechim g'oyalarini qidirish, taxmin qilish, shakllantirish va amalga oshirish. Biroq, qidiruv qisman, faqat umumiy vazifaning bir qismini bajarish uchun kerak. Bular analitik hisobotni tuzish, kompyuter modellarini ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarni, vazifalarni tahlil qilish va hal qilish, diagnostika vositalarini tanlash, ularni sinab ko'rish va olingan ma'lumotlarni yaratish, taklif qilingan holatlarni hal qilish, «dominant» tushunchalarning kursga aloqadorligi modellarini tuzish kabi vazifalar. mavzu, tegishli tadbirning taklif etilgan mavzusi bo'yicha rejalar, eslatmalar, ssenariylar ishlab chiqish, badiiy texnologiyalardan (biblio-, badiiy-, musiqa-, drama-, ertak terapiyasi) foydalangan holda topshiriqlarni bajarish), videomateriallarni tahlil qilish va uslubiy tavsiyalar yaratish va boshqalar kabi topshiriqlar bo'lishi mumkin. Analitik hisobot, kompyuter modeli, berilgan shakldagi hisobot, tushunchalarning izoh bilan aloqasi modeli, reja, kontur, skript, badiiy texnologiyalarning ijodiy faoliyati mahsuli (chizma, kollaj, sinkvein, insho), berilgan shakldagi analitik hisobot va boshqalar hisobot shakllari bo'lishi mumkin.

Mning tadqiqot (ijodiy) darajasini amalga oshirishda talabaning mustaqilligi va kognitiv faolligining eng yuqori darajasi namoyon bo'ladi. Ijodiy ish o'rganilayotgan hodisaning

mohiyatiga chuqur kirib borishni va muammolarni hal qilishda yangi g'oyalarni izlashni talab qiladi. Ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida talabada tanish vaziyatda muammoga yangi qarash, ob'ektning yangi funktsiyalarini kashf qilish qobiliyati, bir nechta ma'lum bo'lganlar asosida muammoni hal qilishning yangi usulini topish qobiliyati, fikrlashning moslashuvchanligi, noto'g'ri echimdan voz kechishga tayyorlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bunda quyidagi vazifalar turlaridan foydalanish mumkin: tezislari, maqolalar, insholar yozish, jamoaviy, ijodiy loyihalarni ishlab chiqish, didaktik vositalarni ishlab chiqish va ishlab chiqish, tadqiqot uchun so'rovnomalarni ishlab chiqish, mustaqil ravishda muammoli vazifalar, vaziyatlarni tuzish, ishlab chiqarish holatlarini modellashtirish, mutaxassisning kasbiy va shaxsiy rivojlanish xaritasi, kurs ishi uchun empirik materiallar to'plami, olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha hisobotlar, loyihalarni ishlab chiqish va himoya qilish, innovatsion tajriba uchun reklamalar tayyorlash, fan va amaliyotning dolzarb muammolari bo'yicha ishlarni mustaqil ravishda tuzish va loyihalash, biznes vaziyatlarni ixtiro qilish va o'ynash va boshqalar. Hisobot shakllari sifatida talabalar maqolalar, tezislari, insholar, didaktik materiallar, shu jumladan o'zlarining ishlanmalari, professional-shaxsiy xarita modeli, tadqiqot natijalari to'g'risidagi hisobot, loyiha, reklama, loyihalashtirilgan ish va boshqalarni tayyorlaydilar.

Shu o'rinda savol tug'iladi: Qanday aniq ta'sir va tarbiya usullari talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish samaradorligini ta'minlashi mumkin? Bizning nazarimizda, amaliy faoliyatda eng samarali o'qitishning interfaol usullari hisoblanadi:

- ijobiy motivatsiyani yaratish usullari (kasbiy istiqbollari tizimini yaratish, shaxsiy yutuqlarni hisobga olgan holda hissiy rag'batlantirish);

- interfaol kognitiv faoliyatni tashkil etish usullari (munozara, muammolarni hal qilish, vaziyatni tahlil qilish, o'quv tadqiqotlari);

- ijodiy g'oyalarni shakllantirish usullari (sinektika, assotsiatsiyalar, inversiya, empatiya, fantaziya usullari);

- reflektiv-baholash usullari (nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish natijalarini tahlil qilish, o'rganishdagi qiyinchiliklarni tashxislash, olingan bilim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini baholash);

- shaxsiy ta'lim muhitini rivojlantirish usullari (talabaning shaxsiy tajribasini yangilash, amaliy yo'naltirish, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirishni ochiq rejalashtirish).

Yana bir muhim tomoni, tashkil etish shaklini tanlash va mustaqil ishlarni tekshirish masalasi hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilish yakka tartibda ham, guruh bilan ishlash orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

**Xulosa:** OTMda o'quv jarayonining samaradorligi va talabalarning mustaqil ishini tashkil etish o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida reproduktiv, rekonstruktiv, evristik va ijodiy darajadagi vazifalarni birlashtirish orqali ta'minlanadi. Ta'limga bunday yondashuv insonni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish, uning raqobatbardoshligini oshirish, mustaqil ijodiy faoliyat qobiliyatini shakllantirish, ijobiy og'zaki va vizual tasvirni shakllantirishni ta'minlash, bo'lajak mutaxassisni konstruktiv muzokaralar olib borishga o'rgatish, unga «evristik optimizm» (muvaffaqiyatga yo'naltirish) va texnologiyalarni o'zlashtirishga yordam berish. o'z obro'sini boshqarish, o'ziga ishonchni qozonish, komplekslarni engish, kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirish va o'zini rivojlantirish uchun ichki motivatsiyani shakllantirish imkonini beradi.



## **REFERENCES**

1. Grishanova N. Oliy kasbiy ta’limni rivojlantirishning yangi paradigmasi to’g’risida // Almamater. -2007. -№ 4.-C. 8-13.
2. Rosina N.A. Innovatsion ta’lim kontekstida CDSni tashkil etish // Rossiyada oliy ta’lim. - 2006. - № 7. - C. 109-114.
3. Sorokopud Yu.V. Oliy ta’lim pedagogikasi/Yu.V. Sorokopud. -Rostov n/d.: Feniks, 2011. - 541 c.
4. Sokolova I.Yu. Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda mutaxassisning ijtimoiy va shaxsiy kompetentsiyasini shakllantirish // Shimoliy Kavkaz Federal Universitetining xabarnomasi. -2013. - № 5(38). - C. 203-210.
5. Xo’jayon A.B. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tibbiyot universitetida samarali o’quv jarayonining zarur sharti sifatida / A.B. Xo’jayon, N.V. Agranovich. - Stavropol: Изд-во СТГМА, 2011, - 30 c.

## **O‘QUVCHILAR MUSTAQIL TA’LIMNI BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH**

**Gavhar Haydaraliyevna Qo‘ysinova**

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159521>

***Annotatsiya.** Maqolada o‘quvchilar mustaqil ta’limini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish bosqichlari, mohiyati va metodikasi berilgan. O‘quvchilar mustaqil ta’limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mustaqil ish, mustaqil ta’lim, taksonomiya, kognetiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash.*

***Abstract.** The article presents the steps, essence and methodology of organizing independent education of students based on Bloom’s taxonomy. Achievements achieved as a result of independent education of students are described..*

***Keywords:** independent work, independent study, taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation.*

***Аннотация.** В статье представлены этапы, сущность и методика организации самостоятельного обучения студентов на основе таксономии Блума. Описаны достижения, достигнутые в результате самостоятельного обучения учеников.*

***Ключевые слова:** самостоятельная работа, самостоятельное изучение, таксономия, когнитивное, аффективное, психомоторное, познание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка.*

### **KIRISH.**

Jahonda va mamlakatimizda ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi islohatlar natijasida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. ya’ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta’sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar mustaqil ta’limini samaradorligini ta’minlash hamda bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda natijador tashkiliy shakllarini tadbqiq qilishga bevosita bog‘liqdir. Buning uchun ta’limiy uchlik – “maqsad – jarayon - natija” ning o‘rta bo‘g‘iniga hozirda e’tibor kuchaygan bo‘lsa-da, bir qator pedagog olimlar ushbu zanjirning boshidagi va oxiridagi halqalarini chuqur o‘rganmoqdalar.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Maxalliy olimlardan mustaqil ishlarini tashkil etish ishlari bo‘yicha tadqiqotlar bilan shug‘ullangan U.N.Nishonaliyev, O‘.Q.Tolipov, A.R.Xodjaboyev, N.Muslimov, A.O.Qo‘ysinov, Sh.Shodiyev, K.Davletov, Ya.Xaydarovlarning ishlarini qayd etish mumkin. Ular umumiy o‘rta ta’lim, Oliy va o‘rta maxsus kasb – hunar ta’limi tizimida mustaqil ta’limga oid darsliklar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqishgan va amaliyotga joriy etishgan.

Xorijiy olimlardan Chikago universiteti professori Benjamin Blum tomonidan bilim olish sohasidagi o‘quv maqsadlari taksonomiyasining yaratilishi diqqatga sazovordir.

“Taksonomiya” atamasi yunoncha taxis (tartib bo‘yicha joylashuvi) va nomos (qonun) so‘zlaridan iborat bo‘lib, obyektlarni o‘zaro aloqadorlik asosida tasniflash va tizimlashtirish ma’nosini anglatadi.

**MUHOKAMA.**


Blum taksonomiyasi o‘quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat). O‘quvchilarning kompetentligini oshirishda har bir soha bo‘yicha mustaqil ta’lim jarayonidagi holati haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1. **Kognitiv soha.** Bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko‘nikma va malakalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o‘rganish zaruratiga tegishli o‘quv maqsadlari kiritiladi.

2. **Affektiv soha.** Mustaqil ish bajarish jarayonida qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, ichki hamda tashqi psixologik ta’sirlar natijasida bilim olish munosabatni shakllantirish, uni mustaqil faoliyat davomida tushunib yetish orqali faoliyat amaliyotiga tatbiq qilish maqsadlari kiritiladi.


3. **Psixomotorli soha.** Bunga mustaqil ish bajarish jarayonidagi psixologik faoliyat, jarayonlarda jismoniy faoliyat natijasida, asab muskullarini markazlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq maqsadlar kiritiladi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi bevosita B. Blumning bilim olish sohasidagi o‘quv maqsadlari taksonomiyasi asosida quyidagi olti toifadagi asosiy o‘quv maqsadlaridan iborat holda qarab chiqildi:




O‘quv maqsadlarning ushbu olti asosiy kategoriyalarini obyektlarni qo‘llashda, mustaqil ta’lim jarayonidagi ko‘rinishlarini ochib berishga harakat qildik.

1. Obyektlar haqidagi bilimlarni mustaqil bilish - ushbu kategoriya o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish jarayonida egallangan ma’lumotlarni xotirada saqlab qolish, mustaqil tafakkurlash natijasida qayta esga tushirish, ijodiy erkin fikrlash, mustaqillik xususiyatlarini namoyon etish kabi o‘quv maqsadlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi (1-rasm).




**1 – rasm. Obyektlar haqidagi bilimlarni mustaqil bilish**

2. Obyektlarning amaliyotga joriy etilishini tushunish - mustaqil ta’lim olish turlarining bir turdan ikkinchisiga o’zgarishi, o’quvchilarining mustaqil ishlarni tushuntirishi, natijalariga ta’sir qiluvchi takliflar kiritish, vaziyatlarning o’zgarishini nazarda tutadi (2-rasm).




**2 – rasm. Obyektlarning amaliyotda joriy etilishini tushunish**

3. Obyektlarni amaliyotda qo’llash - mustaqil ta’lim jarayonida amaliy faoliyat bilan shug’ullanish, obyektlarni amaliyotda qo’llash ko’nikma va malakalarini shakllantirish. Ushbu faoliyat obyektlarni qo’llash qoidalari, usullari, shakllari nazariyalari sinab ko’riladi (3-rasm).



**3 – rasm. Obyektlarni amaliyotda qo’llash**

4. Obyektlarning tahlili -dars jarayon hamda obyektlar unsurlarini tahlil etib ular orasidagi munosabatni o’rganish. Mustaqil ta’limni tashkil etish asoslarini bilish. Mustaqil ta’lim natijalari, tushunish va qo’llashga qaraganda, yuqori intellektual darajali tavsiflanganligi sababli mustaqil bilim olish mazmunini hamda uning tarkibiy tuzilmasini bilishni talab qiladi (4-rasm).



**4 – rasm. Obyektlarning tahlili**


5. Dars jarayoni va obyektlarning sintezi - mustaqil ta'lim natijalari talaba o'quv faoliyatida mustaqillikka erishishni, ijodiy xususiyatga ega bo'lishini, mustaqil ta'lim olishning adekvat usullarini, shakllarini ko'rishlarini va tizimlarini vujudga keltirishni nazarda tutadi (5-rasm).



**2.8 – rasm. Obyektlarning sintezi**

6. Obyektlarni mustaqil ta'lim jarayonida baholash - o'quvchilar tomonidan mustaqil ta'lim olish jarayonida egallangan bilimlar, metodlarni qabul qilingan maqsadni hisobga olgan holda baholash (6-rasm).





### **6 – rasm. Obyektlarni mustaqil ta’lim jarayonida baholash**

#### **XULOSA.**

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etishda B.Blum taksonomiyasi asosida yondashuv ularning xayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omillardan ekanligi asoslandi. Blum taksonomiyasi asosida o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi quyidagi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat)li omillar mustaqil ta'lim olish jarayoni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **REFERENCES**

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2003. - 174 b.
2. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati // Maktab va hayot. –Toshkent, 2004. -№ 1. – B. 18-20.
3. Tolipov O'.Q. Talabalar mustaqil ishlarida o'qitish vositalari: // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. №1.
4. Kuysinov O.A., Muslimov N.A., Urazova M.B. Formirovaniye professionalnoy kompetensii budущix uchiteley posredstvom primeneniya veb-kvest texnologii “Nauchnoye obozreniye: gumanitarnye issledovaniya” nauchnyy jurnal, Moskva, Rossiya, 2014 god. №3. Volgograd. Rossiya. 2015 god.
5. Kuysinov O.A., Urazova M.B. O sущnosti i roli proyektirovochnoy deyatelnosti v professionalnom razvitii uchitelya. SCIENCE AND WORLD. International scientific journal. № 5 (21), 2015, Vol.II. Nauka i mir. Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal, № 5(21),2015, Tom Impakt faktor jurnala “Nauka i mir” - 0,325 (Global Impact Factor 2013, Australia)
6. Kuysinov O.A. Some Aspects of Modular Educational Technologies Forming Professional Competence of Future Teachers Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. №4. R.251-257.

7. Kuysinov O.A. Developing Professional-Pedagogical Creativity of Future Professional Education Teachers based on Competencial Approach. Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. №4. R.257-263.
8. Kuysinov O.A. Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency. «Actual problems of modern science, education and training» Electronic Journal. July, 2021-7/1. ISSN 2181-9750. KHOREZMSCIENCE.UZ. P. 4-8
9. Kuysinov O.A., Abduraimov Sh.S., Mamamtov D.N., Zaripov Z.R., Abduraimova G. Stages of Inter-Integration in Ensuring the Quality of Training and Employment of personnel. «INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION» Scopus Journal. Vol.37, №.2, 2022. ISSN 0827-33-83. <http://internationaljournalofspecialeducation.com> P. 338-348

## PEDAGOGIK INNOVATSIYA KADRLAR TAYYORLASHNING ASOSI

Toirov Akbar Zoir o‘g‘li

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqiy pedagogika” kafedrasida o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159541>

*Annotatsiya.* Maqolada pedagogik innovatsiyaning ijtimoiy, mafkuraviy, falsafiy, didaktik hamda pedagogik asoslari mazmuni yoritilgan bo‘lib, musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni tanlash, qo‘llash va ta‘lim oluvchi (talaba)larga nisbatan yo‘naltirish, shuningdek o‘qituvchi bilan birgalikda faoliyatini hisobga olgan holda, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga qaratish jihatlari tavsiflangan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, ta‘lim-tarbiya, xulq-atvor, didaktik, musiqa, sintetik nazariya, texnologiya.

*Аннотация.* в статье раскрыто содержание социальных, мировоззренческих, дидактических и педагогических основ педагогической инновации, выбор, применение и ориентация инновационных технологий в музыкальном образовании на обучающихся (студентов), а также рассмотрена совместная деятельность с учителем, описаны аспекты сосредоточения внимания на учебном материале.

**Ключевые слова:** инновации, образование, поведение, дидактика, музыка, синтетическая теория, технология.

**Abstract.** The article reveals the content of the social, ideological, didactic and pedagogical foundations of pedagogical innovation, the selection, application and orientation of innovative technologies in music education to students (students), and also considers joint activities with the teacher, and describes aspects of focusing on educational material.

**Keywords:** innovation, education, behavior, didactics, music, synthetic theory, technology.

### Kirish

Pedagogik innovatsiya bir qancha asoslarga ega. Pedagogik innovatsiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta‘lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyaning mafkuraviy asosi uning milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi tamoyillarini o‘zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoyi, mustaqil fikrlay oladigan xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo‘ladigan, bilimli, ma‘rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga yetkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik innovatsiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo‘nalishlarning har biri ta‘lim-tarbiya masalalariga o‘ziga xos yondashadi. Shu sababdan pedagogik innovatsiyaning falsafiy yo‘nalishi, uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, jamiyatning ma‘lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko‘rsatadi.

Pedagogik innovatsiyaning didaktik asosi uni ta‘lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta‘lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to‘g‘ri bajarilishini ta‘minlaydi. Pedagogik innovatsiyaning didaktik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi uning yuqori

samaradorligini zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Pedagogik innovatsiyaning pedagogik asosi. Pedagogika fan sifatida juda murakkab. Menimcha, tabiatda pedagogikadan ham murakkabroq fan umuman bo‘lmasa kerak. Uning murakkabligi shundaki, u yuz minglab boshni aylatiruvchi komponentlardan tashkil topgan. Mas’uliyati esa beqiyos – u inson taqdiri bilan o‘lchanadi. Zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik innovatsiyaning umumiy tarkibiy tuzilishi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi monitoringi, o‘quv mavzu rejalar va shu kabilarning to‘g‘ri bo‘lishi.

Musiqqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarning psixologik asosi. Psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida to‘g‘ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik innovatsiya psixologiya qonunlarini to‘liq hisobga olish talab qilinadi. Ta’limning har bir bosqichiga tegishli yoki psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirilgan innovatsion usullar qo‘llaniladi. Ma’lumki, har qanday pedagogik innovatsiya ta’limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslangan bo‘lib, u talaba shaxsini tarbiyalashga unda kasbiy mahoratni hosil qilishga yo‘naltirilmog‘i kerak. Ta’lim jarayonining faol sub’ektlari pedagog va talabalar bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asosida) bo‘yicha kam kuch va vaqt sarflangani holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi.

**Tahlil va natijalari:** O‘qituvchining faol, samarali faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta’limning musiqqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalari ta’lim oluvchi (talaba)larga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning shaxsiy, shuningdek o‘qituvchi bilan birgalikda faoliyatini hisobga olgan holda, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga qaratiladi. Musiqqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarning markaziy muammosi talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iboratdir.

Musiqqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni tanlash dars va mashg‘ulotda qaysi darajadagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni nazarda tutilganligiga bog‘liqdir. Ta’lim jarayonining didaktik tarkibi quyidagi musiqqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni ajratish imkonini beradi: muayyan o‘quv-tarbiya maqsadlarini bajarishga sabab bo‘luvchi omillarni yaratishga asoslangan musiqqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalar (kelgusida o‘quv omillarini yaratish texnologiyasi), faoliyat ko‘rsatishga asoslangan musiqqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalar. Ta’lim-tarbiya jarayoni butun mashg‘ulot davomida talaba faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda uyg‘otib borish maqsadini ko‘zda tutadi. O‘quv omillarini yaratishga asoslangan musiqqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalar talabalarni tezkorlik bilan o‘quv yoki o‘quv ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo‘lmagan yoki aniq natijani ko‘zlamagan topshiriqlar mashg‘ulotning samarasiz yakunlanishiga olib keladi.

Bunday holatlar ko‘p hollarda o‘qituvchining talabaga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Bu hol talabaning ortiqcha hissiyotlarga berilishi, o‘quv faoliyatiga undovchi rag‘batning pasayishi, o‘qishdan bezishi hamda o‘quv predmeti va o‘qituvchiga nisbatan salbiy munosabatla bo‘lishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi va talaba orasidagi munosabat insonparvarlik mezonlari asosida tashkil etilib, noxug hissiyotlarni bartaraf etishga

yo‘naltirilmog‘i lozim. O‘qituvchi bilan talaba orasidagi munosabat erishilgan yutuqlardan zavqlanish, o‘quv faoliyatiga nisbatan chanqoqlik bilan intilish hamda birgalikdagi ijobiy muloqotga chorlashi kerak. Bu esa pedagogik ta‘sirni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro aloqa vositasi, «ko‘prik»ni vujudga keltiradi.

Boshqa bir tomondan olib qaraganda, pedagogik munosabatning tarkibiy qismi bo‘lgan muloqot (kommunikativ faoliyat)ni quyidagi shakl asosida tatbiq etish mumkin: pedagogik jarayonni andozalashtirish, ta‘lim oluvchilar guruhi bilan muloqotga kirishish, bevosita muloqot (kommunikativ hamkorlik)ni tashkil etish, rivojlantiruvchi pedagogik jarayonda muloqot jarayonini boshqarishni tashkil etish, ko‘zda tutilgan faoliyatni amalga oshirish davomida muloqot tizimini andozalashtirish. O‘quv omillarini yaratishga asoslangan musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalar o‘qituvchilarning o‘quvchilarga muloqot asosida ta‘sir etish yo‘llarini ham o‘z ichiga oladi. Keng tarqalgan metod yoki muloqot ta‘sirlari quyidagilardan iborat: ishontirish, isbotli natijalarga asoslanish, bevosita hamda bilvosita ta‘sir, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zaro ta‘sir metodlari. Musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etish hisobiga ta‘lim jarayonining rag‘bati (motivatsiyasi) kuchaytirilishi mumkin. Ma‘lumki, tayyor holda olingan bilimlar, odatda ularni amaliyotda qo‘llashni qiyinlashtiradi, bu ayniqsa, aniq masalalarni yechishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bevosita faoliyat ko‘rsatishlari talab etiladi. Bu muammoning yechimi boshqaruvga asoslangan musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarning qo‘llanishi bilan bog‘liqdir.

Musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalar turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli va qo‘llanilayotgan metodlar hamda metodik usullarning xususiyatiga bog‘liq. Masalan, talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘quv materiallariga tanqidiy yondashish ko‘nikmasini shakllantirish hamda maxsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularning rivojlantirish uchun darsning an‘anaviy shakllari (uyg‘unlashtirilgan darslar) bilan birgalikda konferentsiya darsi, ishchan o‘yin darslari, integrallashtirilgan (ikki komponentli) darslardan foydalanish lozim. Mazkur vaziyatda ta‘lim metodlari ta‘lim maqsadi bilan mutanosib bo‘lishi kerak. Chunonchi, bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlar, yangi sharoitda faoliyat ko‘rsatishga undovchi sxemalar tuzish, ularni tasniflash, qiyoslash, izchil tizimga solish, umumlashtirish va boshqalar.

Yetarli darajadagi rag‘bat (motivatsiya) hamda talabalar faoliyatini tashkil etish bilan ham ko‘zlangan natijalarga erishish kafolatlanmaydi. Ta‘lim-tarbiya jarayonining didaktik nuqtai-nazardan takomillashuvi faqatgina ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish yo‘llarini to‘g‘ri tanlash bilan ta‘minlanadi. Musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni boshqarish o‘zida ikki yo‘nalishni mujassamlashtiradi: faoliyatni boshqarishni va talabalar jamoasini boshqarishni. Muayyan pedagogik imkon beradi hamda faoliyat maqsadiga qarab amalga oshiriladi. Shuningdek, variantli tarzda dars holatini o‘zgartirish choralarini ko‘rishni taqozo qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, bilish jarayonini boshqarishga qo‘yilayotgan talab, shuningdek, o‘zlashtirish, muloqot qilish, faoliyat ko‘rsatish bosqichlarining xususiyati bilan bog‘liqdir. Yuqorida ta‘kidlanganidek, musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalar shaxsni rivojlantirishga imkon beradi.

Rivojlantiruvchi - ta‘lim texnologiyasining etakchi tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: inkorporatsiya (tizimli faoliyat ko‘rsatish) asosida turli fanlarga oid bilimlarni umumlashtirish; moslanuvchanlik - ta‘lim shakli, metodi va usullarining turli ta‘lim



muassasalarida qo‘llanuvchanligi; uyg‘unlik - muayyan o‘quv predmetiga oid o‘quv materiali mazmunining shaxsni rivojlantirish shakli, metodi va usullari bilan uyg‘un tarzda bog‘lanishi; yaratuvchanlik – turli o‘quv muassalari pedagoglarining musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni yaratish imkoniyatlari; tabiiylikni his etish – shaxsning genetik va ijtimoiy jihatlariga asoslangan holda o‘quvchilarning o‘ziga xosligi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zida uchta o‘zaro aloqador uchlik-ta’lim, tarbiya va shaxs rivojlanishini aks ettiradi. Mazkur uchlikni ta’lim jarayoniga barobar tatbiq qilish modullashgan texnologiyani qo‘llashni osonlashtiradi. Modullashgan texnologiyaning afzalliklaridan biri – ta’lim maxmunini tartibga solishdan iborat. Unda mavjud axborotlarning Davlat ta’lim standartlari doirasida o‘quvchilar faoliyatini etarli darajada muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradiganlari qat’iy tanlab olinadi. Modulli texnologiyaning mohiyati ta’lim jarayonini modullar asosida lotsihalashtirishdan iboratdir (o‘quv predmeti va uning bo‘limlari mazmunini tartibga solish, ta’limning muayyan bosqichidan boshlab bo‘linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajartish). So‘ngra ajratilgan har bir modul bo‘yicha shu modulning o‘zigagina taalluqli bo‘lgan faoliyat mazmuni va ta’siri doirasi belgilanadi. Moduli texnologiya maqsadini ro‘yobga chiqarish uchun modul bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda sodir etilayotgan har bir harakat (qo‘yilayotgan qadam) o‘quv elementi sifatida qaraladi. O‘quv elementi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: faoliyatning aniq elementlarini o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy va amaliy axborotlar, ta’lim uchun zarur bo‘lgan faoliyatni ta’minlovchi materiallar haqidagi ma’lumotlar, maqsadlar identifikatsiyasi, ya’ni, ta’lim oluvchilarni harakatlantiruvchi maqsadlar, o‘quv materiallari, o‘quv sharoitini nazorat qilish instrumentlari, chunonchi, o‘quvchilarning ko‘zlangan natijalarga erishishlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar, testlar, maqsad etaloni va boshqalar.

Ta’lim texnologiyasi jarayonining umumiy maqsadi bir necha darajalarda oydinlashadi. Birinchisi - ta’lim muassasasining maqsadi hamda pedagog va uning metodik faoliyati identifikatsiyasi. Ikkinchisi – o‘quv predmeti (bo‘lim)ning maqsadi, pedagog va uning metodik faoliyati identifikatsiyasi. Uchinchisi – ushbu modul (o‘quv elementi)ning maqsadi va uning talabalar faoliyatidagi alohida modulga ham, uning tashhis qilinadigan oxirgi natijalariga ham o‘tkaziladi.

Rejalashtirishning an’anaviy metodlaridan ta’lim texnologiyasiga o‘tish keng ko‘lamdagi ishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. jumladan, metodik majmualar yaratish, ta’lim jarayonini didaktik, metodik va tashkiliy jihatdan ta’minlash nazarda tutiladi. Modulli musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish tartibi quyidagi ketma-ketlikdan iborat bosqichlarni o‘z ichiga oladi: analitik, kontsemusiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalar, maqsadli, mazmunli va jarayonli.

Musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishning analitik bosqichida, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Kadrlar tayyorlashning milliy modeli, o‘quv predmetlari bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari, ularda ilgari surilgan g‘oyalar asosida chiqariladigan xulosalar, yosh avlodning barkamol shaxs etib shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunini, shuningdek tegishli mashg‘ulotning umumiy, aniq maqsadiga erishish uchun ta’limning tashkiliy shaklini tanlash hisobga olinadi. Musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishning maqsadli bosqichida ta’lim muassasi (umumiy o‘rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, institut yoki universitet) ning uzoq muddatga mo‘ljallangan maqsadi, ta’lim sohalari va shu blokda alohida olingan o‘quv predmeti tarkibidagi aniq bir blokning ifodalanishi hisobga

olinadi. Musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni amalda qo‘llashning mazmunli bosqichida ta‘lim sohalari, shuningdek, shu blok tizimidagi o‘quv predmetlari mazmunini tanlash tamoyillari va mezonlari aniqlanadi. Bloklar hamda ular tarkibidagi alohida elementlarning, ya‘ni, aniq o‘quv indentifikatsiyasi o‘quv predmetlari mazmunini tashkil etadigan yirik mavzularda aks etishi kerak.

Musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni amalda qo‘llashning jarayonli bosqichida o‘qituvchining vazifalari, shuningdek, talabalarning o‘quv faoliyatini bajarishga yo‘naltirilgan ta‘lim turi, ta‘lim metodlari namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning demokratik tamoyil, samarali usul, tashkiliy shakl va ta‘lim vositalarining tanlanishiga alohida urg‘u beriladi. Zamonaviy ta‘limning eng muhim elementlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta‘lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta‘lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an‘anaviy kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma‘lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsaldga muvofiq ravishda yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni qonuniyat va mezonlar tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasida maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun etarli bo‘lib kelgan. Muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar barcha davrlarda pedagog faoliyat darajasi qoniqarsiz ahvolda deb baholab kelganlar. Ular, xususan, pedagogik tushunchalarni berilgan ta‘rif va tavsiflarning noaniqligi, ta‘lim jarayonlarini tavsiflovchi ba‘zi kategoriyalarning etishmasligi ta‘lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslubi va o‘qitish vositalari o‘rtasida o‘zaro uzviylikning mavjud emasligi kabi holatlar doimiy ravishda tanqid qilib kelganlar. Ular tomonidan «metodika» tushunchasi yuqori darajadagi sub‘ektivlikka ega ekanligi ta‘kidlanadi. Ushbu fikrlar bizning nazarimizda quyidagi muammolar mohiyatini ochib beradi: birinchidan, kasbiy pedagogik ma‘lumotga ega o‘qituvchilarning kasbiy layoqatli darajasini aniqlash, ikkinchidan maxsus pedagogik ma‘lumot berish ixtisoslashmagan ixtisoslik maktablari pedagoglarini past darajada pedagogik savodxonlikka egaligi.

Haqiqatda esa ta‘lim natijalari ta‘lim oluvchi (o‘rganuvchi)ning pedagogik jarayonlaridan muvaffaqiyatli «o‘tganligi» bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonning mohiyati o‘qituvchi hamda ta‘lim oluvchi bilan birgalikdagi faoliyatda aks etadi. Mazkur jarayonda pedagog ta‘lim oluvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning ma‘lum maqsadga yo‘naltirilganligi, tavsifi shuningdek shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Pedagog axborotlarni e‘lon qilish, ko‘rsatish, eslatish, tushuncha berish, yo‘naltirish, haqqoniyashtirish, maslahat berish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlashtirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘rinishlarda yordam beradi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari majmuaviy integral (butun uzviy bog‘liq) tizim bo‘lib, unda ta‘lim maqsadlari asosida belgilangan kasbiy ko‘nikma va malakalar o‘rganuvchilar tomonidan shaxsiy xislatlarni egallash hamda bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to‘plami aks etadi. Bu o‘rinda ta‘lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?) mazmunni tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta‘lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta‘lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o‘qituvchilar malaka darajasi (nima?), erishilgan natijadarni baholash

metodi (qanday yo‘l bilan?) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy qo‘llanilishi o‘quv jarayonimohiyati hamda uning texnologiyasini belgilab beradi.

### **Xulosa**

O‘qitish texnologiyasini loyihalash jarayonida pedagogik vazifaning qo‘yilishi va uni hal etishga alohida e‘tibor berilishi zarur. Pedagogik vazifaning belgilashda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir: ta’lim maqsadlarini tahlil etish, shu asosda o‘quv predmeti mazmunini aniqlash; o‘quv predmeti axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o‘quv elementlari tizimi ko‘rinishida ifodalash; o‘quvchilarning o‘quv elementlarini o‘zlashtirilish darajalarini avvaldan belgilash; ta’lim oluvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash, (bu ko‘rsatkich o‘quv predmetining mazmuni asoslanadigan o‘quv materialini o‘zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi) o‘quv moddiy baza hamda ta’limning tashkiliy shakllariga qo‘yiladigan chegaralarni belgilash. Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta’minlovchi o‘qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o‘qituvchi faoliyati ta’limning metod, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagog faoliyati uchta asosiy omil bilan tavsiflanadi: boshqarish turi, axborot almashish jarayonining turi, axborotni o‘zlatish vositalarining tiplari va bilish faoliyatini boshqarish. O‘qitish jarayoniga faoliyat nuqtai-nazaridan yondashish kontseptsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketligini asoslash mumkin. dastlab o‘quv materialini mazmunining tavsifi, uni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad (o‘zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo‘yilish shartlari tahlil etildi. So‘ngra o‘qitishning mos ravishdagi metodlari hamda ta’lim oluvchilar bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o‘qitish vositalari ro‘yhati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta’lim vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg‘unlashtiriladi, ya’ni, muayyan texnologiya ishlab chiqiladi.

Umumlashgan musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarlar ma’lum psixo-pedagogik asoslarda qurilgan «sintetik nazariya» sifatida qaraladi. Tatbiqiy musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarlar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo‘naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodi jihatdan hal etishga yo‘naltiriladi.

### **REFERENCES**

1. Ахлиддинов Р. Таълим менежменти - тараққиёт омили //Халқ таълими ж., 1999. 6-сон. - 18-22-б.
2. Зиёмухаммедов Б., Абдуллаева Ш. Илғор musiqa ўқитилишида инновацион технологиялар. Назария ва амалиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2001. – 28-29 б.
3. Зуннунов А. Педагогика тарихи. – Т.: Шарқ, 2004. – 334 б.
4. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. – Тошкент: ТошДПУ, 2004.-44 б.
5. Магзумов П.Т. Ўқувчиларни меҳнатга ва касб танлашга тайёрлаш. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 208 б.
6. Маҳкамов У. Ўқувчиларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш муаммолари. - Т.: Фан, 1996. - 200 б.

## **MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI TALABALARI UCHUN MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMYATI**

**Tojiboyev Jasurbek Zokirjon o‘g‘li**

Xalqaro Nordik universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159333>

***Annotatsiya.** Shu paytga qadar mavjud ta’lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida raqamli texnologiyalardan foydalanish kata ahamyat kasb etmoqda ustuvorlik – o‘qishga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta’limning o‘qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashishi zarurdir.*

*OTMlarda muhandislik komp'yuter grafikasi fanini dasturlarini o‘zaro qiyoslash metodi asosida o‘qitish yuzasidan olib borilgan ishlarning kamchiliklari tuzatildi.*

***Keywords:** "digital technology", "educational technologies", "computer modeling", "multimedia".*

***Abstract.** Until now, teaching has been considered a priority in the existing education system, but at the same time, the use of digital technologies is becoming more important in the era of information society. For this reason, it is necessary to replace the teacher-textbook-student paradigm of education with the student-textbook-teacher paradigm.*

*The shortcomings of the work carried out in the field of training of engineering computer graphics science programs based on the method of mutual comparison have been corrected.*

***Kalit so‘zlar:** “raqamli texnologiya”, “ta’lim texnologiyalari”, “kompyuterli modellashtirish”, “multimedia”.*

***Аннотация.** До сих пор преподавание считалось приоритетом в существующей системе образования, но в то же время использование цифровых технологий становится все более важным в эпоху информационного общества. По этой причине необходимо заменить парадигму образования «учитель-учебник-ученик» на парадигму «ученик-учебник-учитель».*

*Исправлены недостатки проведенной работы в области подготовки программ инженерной компьютерной графики на основе метода взаимного сравнения.*

***Ключевые слова:** “цифровые технологии”, “образовательные технологии”, “компьютерное моделирование”, “мультимедиа”.*

***Kirish:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» PQ-3775-son qarorining 11-bandi 3-xat boshida, o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e‘tiborni talabalarining mustaqil ta’lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish aytilgan.(1)*

*Shu paytga qadar mavjud ta’lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik – o‘qishga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta’limning o‘qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashishi zarurdir. Zamonaviy pedagog kadrlar yangi mavqega ega bo‘lib, uning vazifasi eng*

avvalo talabalarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo‘llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog‘i lozim.(2) O‘qituvchi bunday maqsadlarda o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash kerakki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari, o‘zlarida shaxsiy nuqtai nazarining shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo‘lishlari lozim.

**Tahlil va natijalari:** Bilimlarni o‘zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansa-da, ammo bilimlarni har qanday o‘zlashtirish yoki egallash talabaning fikrlashiga rivojlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatmaydi. Buning uchun bilimlarni, faoliyat shakllarini faollashtirish lozim. Egallangan bilimlarni oddiy qaytarish talabalarning fikrlashlarini rivojlantirishda yetarli bo‘lmaydi. Faol bilish, mustaqil fikrlash faoliyati juda zarurdir. Bilimlarni mustaqil egallash faoliyati va olingan bilimlarni qo‘llash jarayoni yangi bilimlarning shakllanishiga, talabaning samarali fikrlashi manbaiga aylanadi.

L.N.Anisimovning fikriga ko‘ra, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini, grafik tayyorgarligini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun kompyuter texnologiyalari va interaktiv ma‘ruzalardan va mustaqil ta‘lim olishga asoslangan innovatsion yondashuvdan foydalanish kerak.(3)

«Muhandislik kompyuter grafikasi» fani bo‘yicha talabalarni muvaffaqiyatli tayyorlash shartlaridan biri ularning mustaqil bilim olishlarini tashkil etishdir. Bu jarayon talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan. Kompyuter grafikasining intensiv texnologiya sifatida eng muhim afzalligi shundaki, u talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini namoyish etish, stereotiplarni va fikrlash inertsiyasini yengish maqsadida mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘zgaruvchan va individual yondashish imkoniyatiga ega.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mustaqil ta‘lim faoliyat ekan, mustaqil ishni ham faoliyat turi deb hisoblash mumkin. Talabalarning mustaqil bilim olishlarini to‘g‘ri tashkillashtirish va nazorat qilish, o‘qitilayotgan fanning oldida turgan vazifalarga erishishning samarali vositasi deb hisoblaymiz. Chunki bugungi kunda har bir fan uchun ajratilgan vaqtning yarimi mustaqil ta‘limga mo‘ljallangan.

Masalan, Yevropa, AQSh va Yaponiya davlatlarida ham talabalarning mustaqil ta‘lim olish soatlari umumiy o‘quv soatining 50-60%ni tashkil qiladi. (4)

I.Kovalevskiy mustaqil ishlarning ikki turini ajratadi: (5)

– auditoriyada bajariladigan ishlar (mustaqil ish o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qituvchining bevosita rahbarligi ostida va uning topshirig‘i bilan bajariladi);

– auditoriyadan tashqarida bajariladigan ishlar (mustaqil ish o‘qituvchining topshirig‘i bilan, lekin uning bevosita ishtirokisiz bajariladi)

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, muhandislik kompyuter grafikasi fanidan talabalarning mustaqil ishlari mohiyati va ularni tashkillashtirish masalasini keltirish mumkin.

«Bilim – voqelikni bilishning, uning inson tafakkurida to‘g‘ri aks etishining isbotlangan natijasidir» – yaqin-yaqingacha ajdodlar tomonidan to‘plangan bilimlar, o‘qish va tinglash orqali, asta-sekin va uzluksiz birinchi so‘zdan oxirigacha idrok etish orqali qabul qilingan. Insoniyat to‘plagan bilimlarni yetkazishning bunday shakli ta‘lim dasturlarini qurishning chiziqli tamoyilini belgilab berdi. Unda ma‘lumotlar ierarxik va chiziqli shakllarda taqdim etiladi, yakuniy natija doimo oldindan belgilanadi.



Ta’limning an’anaviy vosita va texnologiyalari aksariyat hollarda chiziqli bo’ladi. Ularga darsliklar, metodik qo’llanma va ko’rsatmalar, o’rgatuvchi kompyuter dasturlar misol bo’la oladi. Bularning barchasi uzviylik tamoyili asosida tayyor bilimlarni uzatishga asoslanadi.

Mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda, ijodiy faoliyatni rivojlantirishuvchi va faollashtiruvchi samarali vosita talabalarning mustaqil ishlaridir.

Ta’lim jarayonida chiziqli bo’lmagan bilimlarni ifodalash vositalaridan (masalan, entsiklopediyalar) va sun’iy bilimlarni ifodalash usullaridan (masalan, bilimlar bazasi, multimedia) foydalanish o’qitishning chiziqli va chiziqli bo’lmagan shakllari o’rtasidagi farqni yaqqol ko’rsatadi. Mustaqil ta’limni tashkillashtirishda chiziqli bo’lmagan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, talabalar tomonidan o’z bilimlarini faol qurilishiga yordam beradi. Ushbu yangi usullarni qo’llashda talabalar o’zlarining vazifalarini bir xil muhitda bajaradilar, ammo chiziqli bo’lmagan texnologiyaning maqsadi talabalar uchun turlicha yakuniy natijaga erishish imkonini berishdir.

Shu bilan birga, mutaxassisning muhandislik va ijtimoiy faoliyatida ijodiy muvaffaqiyatning asosiy omillari sifatida fikrlash erkinligi, ko’p o’lchovli tizimli tafakkur, murakkab tizimlarning ishlash printsiplari va sharoitlarini tushunish, ilmiy dogmatizmning yo’qligi va ijodiy fikrlash metodologiyasiga ega bo’lish kabi shahsiy fazilatlarini inobatga olish mumkin.

Talabaning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanishini 4 darajaga bo’lish mumkin:

Birinchi daraja – mustaqil fikrlashning eng oddiy darajasi. Bunda talaba berilgan vazifani qonun-qoida va namunaga asosan bajaradi;

Ikkinchi daraja – variativ mustaqil fikrlash. Bu bir necha qoida va ta’riflardan birini tanlash va ulardan berilgan vazifani bajarish jarayonida foydalanish ko’nikmasi;

Uchinchi daraja – qisman izlanuvchan. Bunda talabada muammoni yechishning mavjud qonun va qoidalari asosida kengroq doiradagi masalalarni yechishning umumlashgan usullarini shakllantirish ko’nikmasi namoyon bo’ladi;

To’rtinchi daraja – ijodiy-izlanuvchan.

Ta’limning rivojlantiruvchi, tadqiqot yo’nalishlari (faol ta’lim metodlari) o’qitish texnologiyalarini tayyor bilimlarni uzatishga emas, balki bilish metodlariga quradi. Boshqacha qilib aytganda, talabaning shaxsiy modelini shakllantirishga chiziqli bo’lmagan bilimlar modeli ta’sir ko’rsatadi.

Mustaqil ta’limni shu ko’rinishda tashkillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Talabalarning fan bo’yicha mustaqil bajaradigan vazifalarini shunday mazmunda tuzish kerakki, ularni berilgan vazifani bajarish davrida erkin ijodiy fikrlashga undashi kerak.

Chiziqli bo’lmagan ta’lim texnologiyalariga quyidagi ta’lim metodlarini o’z ichiga oluvchi ta’lim turlari kiradi: loyiha metodi, kompyuterni o’rganish vositasi sifatida qo’llash, kompyuterli modellashtirish, laboratoriya amaliyoti, misollarni namoyish qilish usuli, gipermedia tizimlari bilan ishlash.

D.Xenning fikriga ko’ra, chiziqli bo’lmagan tuzilmalar axborot texnologiyalarida keng qo’llanila boshlandi.(6) Ularning tamoyiliga asoslanib, kompyuter dasturlarida kontekstual ma’lumotnoma tizimlari Professional technology system (PTS) platformasida quriladi, bu esa talabaning individual ta’lim traektoriyasi bo’yicha mustaqil bilim olishiga imkon beradi. PTS platformasidan foydalanib, grafik dasturlar o’zlashtirilsa, yuqori samaraga erishiladi. Keltirilgan tizim kompyuterni o’rganish vositasi sifatida qo’llash imkonini beradi.



Bunday vositalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ma‘lumotlar bazalari, katta formatli elektron jadvallar, semantik tarmoqlar, ekspert tizimlari, multimedia vositalari, avtomatlashtirilgan kompyuterli loyihalash tizimlari, kompyuter grafikasi tizimlari, kompyuterli video telekonferentsiyalar, amaliy dasturlar.

Shularni inobatga olgan holda, muhandislik kompyuter grafikasi fanida bilish vositasi sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin:

– bir tomondan, tasvirlarni modellashtirishga imkon beruvchi, boshqa tomondan, ko‘pincha o‘zlari gipermedia darsliklar hisoblanadigan grafik tizimlar;

– to‘plangan tajribani umumlashtirib, bilim hosil qilish imkonini beruvchi namoyish va modellashtirish dasturlari;

– to‘plangan bilimlarni umumlashtirish va rasmiylashtirish, tezkor qidiruvni amalga oshirish va ma‘lumotlarni filtrlash imkonini beruvchi ma‘lumotlar bazalari;

– hisoblash jarayonini osonlashtiruvchi, oraliq ma‘lumotlarni tezkor grafik tasvirlash, modellashtirish imkonini beruvchi elektron jadvallar.

O‘rganilayotgan materialning hajmi kattaligi tufayli talabani o‘rganilayotgan tizimning barcha xususiyatlari bilan to‘liq tanishtirish imkonini yo‘q. Shuning uchun u kelajakda mustaqil o‘qishni davom ettirishi va o‘quv kursiga kiritilmagan materialni tushunib olishi uchun mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim.

Bu maqsadga erishishning eng samarali usullaridan biri, shubhasiz, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, hamda, ularning mutaxassislik kafedralari loyihalarida ishtirok etishidir. Bu esa o‘quvchiga bo‘lajak kasbining xususiyatlari bilan, shuningdek, ushbu sohadagi so‘nggi ilmiy ishlanmalar bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Yetakchi olimlarning fikricha, oliy ta‘limning mohiyati mustaqil ilmiy ishlar bilan tavsiflanadi. Har bir talaba ilmiy ishning samarali uslubini o‘zlashtirishi, mustaqil ijodiy faoliyatga layoqati va tayyorligini, ilmiy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi va takomillashtirish va uni amaliyotda ijodiy qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Ilmiy faoliyat va ta‘limni uzluksiz takomillashtirish oliy ma‘lumotli har bir mutaxassisning shaxsiy ehtiyojiga aylanishi lozim. Maqsad – talabalarni o‘qishning dastlabki yilidan boshlab muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat qoidalari va usullari bilan tanishtirish.

Bizningcha, ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan mustaqil ta‘lim texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) muammoning qo‘yilishi;
- 2) qo‘yilgan muammo doirasidagi manbalarni ko‘rib chiqish;
- 3) vazifani bajarilishini rejalashtirish;
- 4) vazifaning yechimini modellashtirish;
- 5) natijalarni tahlil qilish, xulosalar va bajarilganlik hisobotini tayyorlash;
- 6) berilgan muammo doirasidagi bilimlarini tizimlashtirish va umumlashtirish.

Birinchi bosqich. Pedagog tomonidan muammoning to‘g‘ri qo‘yilishi, talabani ijodiy fikrlashiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasi fanidan beriladigan vazifalarni taqqoslash metodiga asosan berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masalan, detalning berilgan ortogonal proektsiyasi asosida uning yaqqol tasvirini qurish so‘ralsa, talaba an‘anaviy (qo‘lda) usul bilan, dastur yordamida qurishni yoki dasturlarni o‘zaro qiyoslashi mumkin.

Qiyoslashni talaba ixtiyoriy ko‘rinishda amalga oshiradi. Masalan, shu vazifani bajarish uchun sarflanadigan vaqtni yoki bajariladigan amallar sonini taqqoslashi mumkin.

Ikkinchi bosqich. Talaba qo‘yilgan muammo doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar, adabiyotlar va internet tarmog‘idan ma‘lumotlarni qidiradi va to‘playdi.

Uchinchi bosqich. Talaba to‘plangan ma‘lumotlar asosida qo‘yilgan muammoni yechishning bir necha usullarini aniqlaydi va ixtiyoriy birini tanlaydi va vazifani bajarilishini rejalashtiradi.

To‘rtinchi bosqich. Qo‘yilgan muammoning yechimini shakllantiradi.

Beshinchi bosqich. Bu bosqichda talaba qo‘yilgan muammoning yechimini referat, maqola yoki hisobot qo‘rinishida tayyorlaydi. Talabada ilmiy faoliyat haqida tushuncha shakllanadi, fanga va mutaxassisligiga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Oltinchi bosqich. Talaba qo‘yilgan muammo yuzasidan mutaxassisga aylanadi. Chunki, talaba muammoni yechimini izlash mobaynida ko‘plab ilmiy ma‘lumotlarni o‘qiydi, muammoni yechishning barcha yo‘llarini xayolidan o‘tkazadi. Buning barchasi uni kelgusi ilmiy izlanishlariga turtki bo‘la oladi.

Bo‘ljak mutaxassislar o‘zlarining ish faoliyatlarida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni mustaqil ravishda bartaraf etish yo‘llarini topadilar. Bundan tashqari talabalar oliy ta‘lim muassasalarini bitirgach doimiy ravishda o‘z ustlarida ishlab, mustaqil izlanishlar olib bora oladilar.

**Xulosa:** Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, mustaqil ta‘limni chiziqli emas, balki, tadqiqotga yo‘naltirilgan (chiziqli bo‘lmagan) texnologiyaga asosan tashkillashtirish, talabaning vazifani bajarishga ijodiy yondashishiga zamin yaratadi.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» PQ-3775-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018 yil 11 iyun, 23-son, 474-modda.
2. Хмарова Л.И., Усманова Е.А. Применение компьютерных технологий при изучении графических дисциплин. Теория и методика профессионального образования. Вестник ЮУрГУ. Серия «Образование. Педагогическая наука». 2014, том 6. – № 2. – С 59-63.
3. Анисимова, Л.Н. Инновационный подход к профессионально-графической подготовке будущих учителей технологий и предпринимательства / Л. Н. Анисимова // Вестник МГОУ. – 2014. – № 1. -С. 13–20.
4. Высшее образование (словарь). – Т.: Маля, 2003. – 456 с.
5. Ковалевский И. Организация самостоятельной студенческой работы // Высшее образование в России. - Москва, 2000. - № 1. – С.114–115.
6. Xen D. School of the future: from principles to planning and creation./ INFO, 1996. №2.

**IQTISODIYOT SOHALARIDA  
MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING  
TA’LIM, FAN VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI**

**\*\*\***

**SCIENCE-EDUCATION-PRODUCTION  
INTEGRATION OF TRAINING SPECIALISTS  
IN ECONOMIC FIELDS**

**\*\*\***

**НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-  
ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ИНТЕГРАЦИЯ  
ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ  
ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ**

## **MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI SOHALARIDA MUTAXASISLAR TAYYORLASHNING TA’LIM, FAN VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI**

**Shodiyev Erkin Temirovich**

TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159602>

***Аннотация.** Maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari sohalarida mutaxassislar tayyorlashning ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi o’rganilgan. Jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari sohalarida mutaxassislar tayyorlashning ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonidagi muammolar va ularning yechimi bilan bog’liq masalalar o’rganilgan.*

***Калит сўзлар:** MHXS, malakali kadrlar, ACCA, transformatsiyalash, investitsiya, hisobot, MHXS fondi*

***Аннотация.** В статье рассматривается интеграция образования, науки и производства по подготовке специалистов в области международных стандартов финансовой отчетности. В частности, были изучены проблемы, связанные с процессом интеграции образования, науки и производства в области подготовки специалистов в области международных стандартов финансовой отчетности и вопросы, связанные с их решением.*

***Ключевые слова:** МСФО, квалифицированные кадры, ACCA, трансформация, инвестиции, отчетность, фонд МСФО*

***Abstract.** The article examines the integration of education, science and production of training specialists in the field of international standards of financial reporting. In particular, problems related to the process of education, science and production integration of training specialists in the field of international financial reporting standards and issues related to their solution were studied.*

***Keywords:** IFRS, qualified staff, ACCA, transformation, investment, reporting, IFRS fund*

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyalashuv jarayoni izchillik bilan amalga oshmoqda. Jahon biznesiga integratsiyalashuvning O’zbekiston amaliyoti xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga tushunarli, shaffof va ishonchli bo’lishi kerak bo’lgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari asosida taqdim etish zarurligini talab eta boshladi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar talablari asosida tuzilishi ma’lumotlarning aniqliligi va ishonchliligiga xizmat qilmoqda.

Ammo xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari asosida tuzishda nafaqat metodologik muammolar, balki malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Mazkur masala O’zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonunning 12-moddasiga asosan majburiy auditorlik tekshiruvidan o’tishi lozim bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub’yektning buxgalteriya hisobi xizmati rahbari (banklar va boshqa kredit tashkilotlaridan tashqari) quyidagi talablarga javob berishi kerak:

oliy ma’lumotga ega bo’lishi;  
ish stajiga ega bo’lishi.

Oliy ma’lumot mavjudligining o’zi qanday qilib yirik kompaniya buxgalterining malakasini tasdiqlaydi, degan savol tug’iladi?

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha choratadbirlar to’g’risida” Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish sun’iy intellektning buxgalteriya hisobi va audit hamda moliya sohalariga tatbiq etgan holda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalari:

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha choratadbirlar to’g’risida” Qaroriga muvofiq:

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi MHXSni joriy etish bo’yicha vakolatli organ etib belgilan bo’lib, unga quyidagi funksiyalar yuklangan:

O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda MHXSning joriy etilishini, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlar MHXS asosida o’z vaqtida e’lon qilinishini monitoring qilish;

MHXS sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo’yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish, shu jumladan buxgalteriya hisobi va audit sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish bo’yicha nodavlat ta’lim tashkilotlarini hamda sohaga oid oliy ta’lim muassasalarining o’quv dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o’tkazish yuzasidan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar (Sertifikatlangan diplomli buxgaltyerlar xalqaro assotsiatsiyasi (Association of Chartered Certified Accountants - ACCA) va boshqalar) bilan o’zaro hamkorlikni kengaytirish;

rivojlangan davlatlarning ilg’or tajribasi asosida o’quv jarayonining sifatini, imtihonlarni o’tkazish va natijalarini baholashning shaffofligini ta’minlovchi MHXS bo’yicha sertifikatlashning samarali tizimini joriy etish, shuningdek, MHXS sohasida talab yuqori bo’lgan mutaxassislarni akkreditatsiyadan o’tgan o’quv markazlarida o’qitish bo’yicha tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishda har tomonlama ko’maklashish;

buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg’unlashtirish.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi tuzilmasida vazirlikning boshqaruv xodimlari cheklangan soni doirasida uchta shtat birligidan iborat moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishni muvofiqlashtirish va e’lon qilinadigan moliyaviy hisobotlar sifatining tashqi nazorati bo’limi tashkil etish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda O’zbekiston xalqaro investitsiya bozorlariga chiqish, shuningdek jahondan sarmoyalar jalb qilishni tezlatish va jadallashtirish yo’liga o’tgan. Shu sababdan ham MHXSga o’tish uchun bir-ikki yillik chora-tadbirlar mutasaddilarga yuklatildi. O’ylaymizki, mazkur jarayon qisqa muddat ichida oson kechmaydi, lekin bundan buyon qarorni ortiqcha paysalga solib ham bo’lmaydi.

Mutaxassislar va o’quv qo’llanmalari yetishmovchiligi muammosi mavjudligi haqidagi bahslar kuzatilyapti, lekin vaziyat tahlil qilinganda bu maydon butkul bo’m-bo’sh emasligini ko’ramiz. Buxgalterlar, auditorlar professional uyushmalarining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda, shuningdek Moliya vazirligi nazorati ostida o’tkazgan o’quv loyihalari va buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari O’zbekistonda 90-yillarning o’rtalaridan buyon davom etib



kelgan edi. Shuningdek, 2000-yillar boshidan audit va konsalting xalqaro shirkatlari bo‘lmish «katta to‘rtlik» (PwC, Ernst & Young, Deloitte, KPMG) MHXS va Auditning Xalqaro andozalari talablariga binoan O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelmoqda.

Xulosa: Global iqtisodiyot sharoitida har qanday mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni jalb qilish avvalambor kompaniyalar moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida malakali investorlarga moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda MHXS dan foydalanishni yanada jadallashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va ularni milliy iqtisodiyotimizga transformatsiya qilishda professional jamoat tashkilotlarini va ushbu sohada kadrlar faoliyatini yanada rivojlantirish zarur; shuningdek, auditorlik tekshiruvlarining sifatli o‘tishi va auditorlik xulosasining ishonchli bo‘lishi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilangan prinsiplar asosida to‘g‘ri tuzilganligiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham moliyaviy hisobotlarni tuzishda buxgalteriya hisobining uzluksizlik, ehtiyotkorlik, ahamiyatlilik va boshqa prinsiplariga ham alohida e’tibor qaratish lozimdir; iqtisodiyotimizda raqamlashtirish darajasini oshirishimiz, ya’ni ushbu xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlarda inson omilini aralashtirmasligimiz, buning uchun albatta maxsus dastur ishlab chiqilishi lozim. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, MHXS dan foydalanish barcha mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Chunki, bunda MHXS barcha uchun tushunarli bo‘lgan hujjat sifatida xizmat qilmoqda. Ko‘pgina investorlar va boshqa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar ushbu hujjatdan foydalanishda, unda keltirilgan ma’lumotlarni tushunishda ortiqcha mablag‘ va vaqt sarflashga muhtoj bo‘lmayabdi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotimizni yanada yuqori pog‘onalarga olib chiqishga imkon bermoqda.

ACCA, CIMA va boshqa bir qator sertifikatlar xalqaro darajada tan olingan professional buxgalterlar va auditorlarni tayyorlash bo‘yicha dasturlar hisoblanadi. Bu dasturlar asosan ingliz tilida bo‘lib asosan biznes haqida umumiy tushuncha, boshqaruv hisobi, buxgalteriya hisobi, biznes huquqi, audit, moliyaviy hisobot, moliyaviy boshqaruv kabi fanlarni o‘z ichiga oladi.

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” Qarori.
2. Sh.T. Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, I.R.Ibragimova. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. T.:2019. 12-bet.
3. [https://www.norma.uz/oz/bizning\\_sharhlar/2024\\_yilga\\_qadar\\_buhgalteriya\\_hisobida\\_nimal\\_ar\\_uzgaradi](https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/2024_yilga_qadar_buhgalteriya_hisobida_nimal_ar_uzgaradi)
4. O.Narzullayeva. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish orqali iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish. International Journal of Finance and Digitalization www.ijfd.uz ISSN: 2181-3957 Vol. 1 Issue 02, 2022
5. Ogbonnaya Okorie1, O. U. Onwe, L. O. UnugoInternational Financial Reporting Standards (IFRS) Education in Colleges of Education in Southeastern States of Nigeria. American Journal of Educational Research, 2018, Vol. 6, No. 11, 1460-1464 Available online at

<http://pubs.sciepub.com/education/6/11/3> ©Science and Education Publishing  
DOI: 10.12691/education-6-11-3

6. <https://m.kun.uz/uz/news/2020/03/09/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlariga-qanday-otiladi>

## OLIV TA’LIM TIZIMIDA ZARGARLIK SOHASI UCHUN MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH

<sup>1</sup>Dadamuxamedov Fasixitdin Gulyamovich, <sup>2</sup>Dadamuxamedov Bobir Fasixitdinovich

<sup>1</sup>O‘zbekiston xalq ustasi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori, <sup>2</sup>Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o‘qituvchisi (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159626>

***Annotatsiya.** Maqolada Zargarlik sohasini mahalliy sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish va bu borada amalga oshirilayotgan rag‘batlar, yurtimizda tayyor zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va sifatini yaxshilash bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish, taqinchoqlarning dizaynida talab etilayotgan uslub, yo‘nalish, texnika va texnologiyalarni ko‘proq o‘zlashtirish, oliy ta‘lim tizimida zargarlik sohasi bo‘yicha ixtisosliklarning tashkil etilgani tizimda uzviylik va uzliksizlikni ta‘minlashga asos bo‘layotgani, bu esa, o‘z navbatida sohaning yanada rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qilayotgani bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** drayver, texnika, texnologiya, metodologiya, innovatsiya, brend, sertifikatlashtirish, standartlash, onlayn platforma.*

**Allocate Subsidies for Hardware Purchases:** Recognizing the importance of access to hardware for success in the digital era, the government can consider allocating subsidies or financial assistance to deserving students and individuals. This would help reduce the financial burden of purchasing hardware such as laptops, tablets, and smartphones, enabling students to engage in online learning and professionals to work more efficiently. By supporting the acquisition of necessary hardware, the government can empower students and professionals to fully participate in the digital economy.

These suggestions aim to enhance connectivity, foster a competitive environment, and support individuals in acquiring essential tools for success in the digital age. By implementing these measures, Uzbekistan can make significant progress towards its 2030 strategy and create a more inclusive and thriving digital ecosystem.

## **REFERENCES**

1. Schumpeter, J. A. (2002) “The economy as a whole: Seventh chapter of The Theory of Economic Development” *Industry and Innovation*, 9, 1/2, 93-145.
2. Apthorpe, R. (1994) “Development Theory Now.” *European Journal of Development Research*, 6, 2, 182-188.
3. Apthorpe, R., (1999) “Development studies and policy studies: in the short run we are all dead.” *Journal of International Development*, 11, 4, 535 – 547.
4. Qureshi, S. (2005). How does information technology effect development? Integrating theory and practice into a process model.
5. Fullerton, T. M., Jr. (1992) “The PC Corner: Confessions of an International Forecaster.” *Business Economics*, 27, 2, 61- 65.
6. Presidential Decree # 3775 “Regarding measures to enhance the quality of education in higher education institutions and promote their active participation in wide-ranging reforms being implemented in the country”, issued on 26th of September, 2018
7. Presidential Decree # 5847 “Regarding the approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”, issued on 8th of October, 2019
8. <https://stat.edu.uz/>

9. Развитие цифровой экономики в России // Всемирный банк 20 дек. 2016. URL: <http://www.vseмирnyjbank.org/ru/events/2016/12/20/developing-the-digital-economy-in-russia-internationalseminar-1>
10. The Digital Economy. London: British Computer Society, 2014. URL: <http://policy.bcs.org/ites/policy.bcs.org/files/digital%20economy%20Final%20version%200.pdf>
11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>
12. Jiménez, M., Matus, J. A., & Martínez, M. A. (2014). Economic growth as a function of human capital, internet and work. *Applied economics*, 46(26), 3202-3210.

## **INSON RESURSINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI SAVODXONLIK DIALEKTIKASINING GNESOLOGIK ASPEKTLARI**

**Aliyev Murodjon Tursun o‘g‘li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159796>

***Annotatsiya.** Raqamli rivojlanish kontekstida raqamli savodxonlikni oshirish, zamonaviy raqamli landashftda ilg‘or bilim, mahoratga ega bo‘lgan inson resurslari salmog‘ini oshirish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Raqamli texnologiyalar paydo bo‘lishi bilan mazkur texnologiyalardan foydalanuvchi, yaratuvchi inson resurslariga ehtiyoj obyektiv zaruratdir. Shu nuqtai nazardan inson resurslarida raqamli savodxonlik darajasini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish hamda xorij tajribasini o‘rganish orqali ularning raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga egadir.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, raqamli texnologiyalar, raqamli rivojlanish, raqamli savodxonlik turlari, IT-parklar*

***Аннотация.** В условиях цифрового развития повышение цифровой грамотности, увеличение веса человеческих ресурсов с передовыми знаниями и навыками в современном цифровом ландшафте становится все более важным. С появлением цифровых технологий потребность в человеческих ресурсах, которые используют и создают эти технологии, становится объективной необходимостью. С этой точки зрения важно исследовать уровень цифровой грамотности человеческих ресурсов с научной точки зрения и повышать их цифровую грамотность путем изучения зарубежного опыта.*

***Ключевые слова:** цифровая грамотность, цифровая компетентность, цифровые технологии, цифровое развитие, виды цифровой грамотности, IT-парки*

***Abstract.** In the context of digital development, increasing digital literacy, increasing the weight of human resources with advanced knowledge and skills in the modern digital landscape is becoming increasingly important. With the emergence of digital technologies, the need for human resources that use and create these technologies is an objective necessity. From this point of view, it is important to research the level of digital literacy in human resources from a scientific point of view and to improve their digital literacy by studying foreign experience.*

***Keywords:** digital literacy, digital competence, digital technologies, digital development, types of digital literacy, IT parks*

Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va ularning zamonaviy hayotning turli jabhalariga integratsiyalashuvi bilan tavsiflangan raqamli rivojlanish XXI asrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biriga aylandi. Jamiyatda raqamlashtirish jarayonlarining izchil davom etishi, raqamli savodxonlikning ahamiyatini dolzarb mavzuga olib chiqdi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global landshaftni o‘zgartirdi, bu bizning muloqot qilish, ishlash, o‘rganish va biznes yuritishda chuqur o‘zgarishlarga olib keldi. Ushbu raqamli davrda raqamli savodxonlik shaxsning rivojlanish va jamiyatda raqamli jarayonlarda faol ishtirok etish qobiliyatining asosiy hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli savodxonlik – subyektlarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va ularni boshqarish, axborotga kirish, muloqot qilish, raqamli dunyoda ishtirok etish qobiliyatini anglatadi. Raqamli savodxonlik raqamli vositalardan foydalangan holda zarur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning keng qamrovli jarayonini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy

va iqtisodiy taraqqiyot uchun raqamli texnologiyalarning afzalliklarini to'liq tushunish uchun biz raqamli savodxonlik tusunchasini o'rganishimiz va bunday ko'nikma, malakaga ega bo'lishimiz zarur bo'ladi.

### **Asosiy qism.**

Raqamli savodxonlikni tushunchasining muaomalaga kiritilishi P.Gilster bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. Pol Gilster raqamli savodxonlikni « kompyuterlar xususan, internet orqali keng, turli xil manbalardan olingan bir nechta formatdagi ma'lumotlarni tushunish va undan foydalanish qobiliyati» deb ta'riflaydi. Gilster raqamli savodxonlikning to'rtta asosiy kompetensiyasini o'zining kitobida quyidagicha keltiradi: bilimlarni yig'ish, axborot mazmunini baholash, Internetda qidirish, gipermatnni boshqarish. R.Lanham esa, "savodxonlik" o'zining semantik doirasini "o'qish va yozish qobiliyati" ma'nosidan hkelib chiqib, "ma'lumotni qanday taqdim etilishini tushunish qobiliyati" degan ma'noni anglatadi. U raqamli ma'lumotlarning multimediyali xususiyatini ta'kidlaydi va raqamli savodxonlik "murakkab tasvir va tovushlarni dekodlashda mahoratli bo'lishni o'z ichiga oladi", deb ta'kidlaydi. A.Seliverstova “raqamli savodxonlik” atamasini raqamli qurilmalar va tarmoq texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha asosiy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida tavsiflaydi. Li Deganning ta'kidlashicha, raqamli savodxonlikni rivojlantirish jarayonida raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, ijodiy ishlab chiqarish va o'zini namoyon qilish, interaktiv muloqot qobiliyatlari va raqamli media etikasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Keyinchalik “raqamli savodxonlik” tushunchasiga kompyuter, axborot, vizual va mediasavodxonlik kabi komponentlarni o'z ichiga ola boshladi. Boshqa bir mualliflar esa, raqamli savodxonlikni raqamli ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, ma'lumotlarni qidirish va qayta ishlash ko'nikmalarini kompyuter savodxonligidan ayro holda ajratib o'rganilishini taklif etganlar.

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasi “Axborotlashtirish to'g'risidagi” (Ақпараттандыру туралы) qonunda raqamli savodxonlik - shaxsning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishi va ulardan kundalik va kasbiy faoliyatida foydalanish qobiliyati, deya ta'rif berilgan.

Shunday qilib yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib umumiy tarzda raqamli savodxonlik - raqamli texnologiyalar va resurslardan foydalanish hamda turli shakllarda raqamli ma'lumotlarni boshqarish, kirish, baholash va yaratish imkonini beruvchi bir qator bilimlarni o'z ichiga oladi.

Raqamli kompetensiya – subyektlarning raqamli texnologiyalardan samarali va ishonchli foydalanish imkonini beradigan bilim, ko'nikma va malakalar jamlanamasini bildiradi. Bu raqamli vositalar, ilovalar va onlayn resurslar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan keng ko'lamli qobiliyat vamahoratni o'z ichiga oladi.

Raqamli kompetensiyaning asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi:

*Raqamli savodxonlik:* raqamli qurilmalar, dasturiy ta'minot va onlayn platformalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Bunga kompyuterdan foydalanishning asosiy ko'nikmalari, internetda navigatsiya va raqamli terminologiyani tushunish kiradi.

*Axborotni boshqarish:* raqamli ma'lumotlarni samarali va tanqidiy tarzda topish, baholash va tartibga solish qobiliyati. Bu onlayn manbalarning ishonchliligi verifikatsiya qilish, baholashni o'z ichiga oladi.

*Raqamli aloqa:* turli raqamli kanallar, jumladan, elektron pochta, ijtimoiy media, video konferensiya va xabar almashish orqali mohirona muloqot qilish.



*Raqamli xavfsizlik va maxfiylik:* potentsial onlayn xavflardan xabardorlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, maxfiylikni saqlash va kiber tahdidlardan himoya qilish bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmaga ega bo'lish.

*Texnologiyalar bilan samarali foydalanish:* turli sohalardagi muammolarni tahlil qilish va hal qilish uchun raqamli vositalarni qo'llash, masalan, ma’lumotlarni tahlil qilish dasturidan foydalanish yoki tadqiqot uchun onlayn resurslardan foydalanish.

*Ijodkorlik va raqamli kontent yaratish:* taqdimotlar, grafikalar, videolar va multimedia loyihalari kabi tarkibni yaratish uchun raqamli vositalardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lish.

*Raqamli hamkorlik:* onlayn hamkorlik platformalari, bulutga asoslangan vositalar va virtual jamoa muhiti orqali boshqalar bilan samarali ishlash.

*Raqamli fuqarolik:* Internetda axloqiy va mas'uliyatli xatti-harakatlarni tushunish, intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish.

Raqamli kompetentsiya zamonaviy jamiyatda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki raqamli texnologiyalar kundalik hayot, ta'lim, ish va muloqotning turli jabhalariga kirib kelmoqda.

Tadqiqotchi G.U.Soldatova raqamli kompetentsiyaning to'rt komponentli tuzilmasini taklif qiladi, unga quyidagilar kiradi:

- bilim;
- ko'nikma va malakalar;
- motivatsiya;
- javobgarlik (shu jumladan xavfsizlik).

Ushbu komponentlarning har biri turli darajada axborot va Internet manbalari bilan faoliyatning turli sohalarda (kontent bilan ishlashda, aloqada, texnologiya sohasida, iste'molda) turli darajada amalga oshirilishi mumkin.

Jamiyatning raqamli rivojlanish vektorida raqamli savodxonlik hamda raqamli kompetentsiyaning o'zaro dialektik aloqasai shundan iboratki, jamiyatlar 4-sanoat inqilobi sharoitida jamiyat a'zolarini raqamli savodxonligini oshirish, zarur ko'nikmalarini shakllantirish keyinchalik esa bu holat raqamli kompetensiyaga aylanishi uchun zarir shart-sharoit, infratuzilmasni yartaish lozim bo'ladi.

Raqamli savodxonlik haqida so'z borgnada uning turlarini ham kelirib o'tish lozm bo'ladi. Tadqiqotchilar O. V. Yelsova, M. V. Yemelyanovlar tomonidan raqamli savodxonlikning quyidagi turlarini sanab o'tishgan:

- axborot savodxonligi - axborotning o'ziga xos xususiyatlari va turli xil axborot manbalariga tegishli ma'lumotlarni topish va uni taqqoslash axborotning foyda va zarari haqida bilimning mavjudligi;
- kompyuter savodxonligi - kompyuter qurilmasi, uning vazifalari kompyuter va shunga o'xshash qurilmalardan foydalanish kompyuterning kundalik hayotdagi o'rni;
- media savodxonligi - media kontenti va uning manbalari yangiliklarni topish va ularning to'g'riligini tekshirish ommaviy axborot vositalari orqali berilgan ma'lumotlarning ishonchiligi;
- kommunikativ savodxonlik - raqamli aloqada dialogning o'ziga xosligi zamonaviy aloqa vositalaridan foydalanish tarmoq etiketi;

Bugungi kundagi raqamli rivojlanish tendensiyasi shiddat bilan o'sib borayotganlogi bois yangidan-yangi raqamli savodxonlik bilimlarni o'rganishni talab etadi. Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha tarzda quyidagi raqamli savodxonlikni turlarini qo'shimcha qilish mumkin:

- *kiberxavfsizlik savodxonligi*: onlayn tahdidlardan xabardorlik va shaxsiy ma'lumotlarni kiberhujumlardan himoya qilish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarni bilish.
  - *maxfiylik savodxonligi*: shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligining muhimligini tushunish va turli platformalar va qurilmalarda maxfiylik sozlamalarini qanday boshqarishni bilish.
  - *kodlash va dasturlash savodxonligi*: kodlash va dasturlash tushunchalari bo'yicha hatto professional dasturchi bo'lmasa ham asosiy bilimlarga ega bo'lish. Bu kodni qanday o'qish va o'zgartirishni tushunish, shuningdek, asosiy skript ko'nikmalarini o'z ichiga olishi mumkin.
  - *raqamli fuqarolik*: raqamli texnologiyalardan axloqiy va mas'uliyatli foydalanishni tushunish. Bunga onlayn odob-axloq qoidalaridan xabardor bo'lish, mualliflik huquqi qonunlarini hurmat qilish kiradi. Shunday qilib, "raqamli savodxonlik" tushunchasida oltita asosiy ko'nikma mavjud:
    - internetda kerakli ma'lumotlarni topish va uning ishonchliligi va sifatini baholay olish;
    - muammoni tahlil qilish va uning yechimini topa oladigan raqamli vositalarni tanlash;
    - doimiy o'zgarib turadigan texnologik vositalarni baholash va ulardan muayyan muammoni hal qilish uchun eng mosini tanlash;
    - doimiy yangilanib turadigan raqamli vositalar bilan muvaffaqiyatli ishlashni o'rganish va qayta qurish;
    - muammoni hal qilish, bir-biri bilan birlashtirish va turli xil texnologik vositalarni sozlash
- Jamiyatda raqamlashtirish jarayonlarining faol ishtirokchisi bo'lgan inson resurslarining raqamli savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, texnologik determinizmning ontogenesologik tabiatini chuqur anglaydigan, uni amaliyotda faol qo'llay ola biladigan inson resurslari bilan raqamlashtirish ishlarini ratsionla va tizimli shaklda olib borish imkonini yaratadi.

Bu borada davlatlarning mamlaktdagi inson resursini raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha bir qator loyihalarni misol qilib keltirish mumkin.

#### **Hindiston.**

Digital Saksharta Abhiyan (Raqamli Saksharta Abhiyan) nomi bilan tanilgan, Hindiston hukumati tomonidan Digital India (Raqamli Hindiston) (2015-yilda loyihaga start berilgan) loyihasining bir qismi sifatida boshlangan tashabbusdir. Loyiha 2019-yilgacha mamlakatning qishloq joylaridagi fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan. U raqamli vositalar va texnologiyalardan samarali foydalanish uchun inson resurslarini muhim raqamli ko'nikmalar bilan jihozlashga qaratilgan bo'lib hisoblanadi.

Digital Saksharta Abhiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

**Raqamli savodxonlik bo'yicha treninglar**: dastur qishloq aholisiga raqamli savodxon bo'lishga yordam berish uchun treninglarni taklif qiladi. Trening turli xil raqamli vositalar, ilovalar va onlayn xizmatlarda taqdim etiladi.

**Ko'nikmalarni rivojlantirish**: tashabbus smartfonlardan foydalanish, internetni ko'rish, elektron pochta xabarlarini yuborish, onlayn davlat xizmatlaridan foydalanish va raqamli to'lov tizimlaridan foydalanish kabi sohalarida ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

**Foydalanish imkoniyati**: hatto eng qishloq va chekka hududlardagilar ham raqamli savodxonlik bo'yicha treningdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun chekka va kam ta'minlangan hududlarga yetib borishga harakat qilinmoqda.

**Imkoniyatlarni kengaytirish:** loyiha jismoniy shaxslarga raqamli iqtisodiyotda ishtirok etish va shaxsiy va professional o'sish uchun raqamli resurslardan foydalanish uchun zarur ko'nikmalarni berish orqali ularni kuchaytirishga qaratilgan.

**Sertifikatlash:** treningni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng, ishtirokchilar raqamli savodxonlik ko'nikmalarini tasdiqlovchi sertifikat oladilar.

Raqamli Saksharta Abhiyan dasturi raqamli inklyuziyani rag'batlantirish va qishloq jamoalariga texnologiyadan foydalanish uchun bilimlar berish orqali raqamli tafovutni bartaraf etishga yordam beradi. Ushbu tashabbus orqali Hindiston hukumati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish uchun raqamli imkoniyatlarga ega jamiyat va raqamli malakali ishchi kuchini yaratishni maqsad qilgan. Loyihaning rasmiy websayti <https://www.pmgdisha.in/about-pmgdisha/> . Raqamli Saksharta Abhiyan loyihasi 6 mln Hindistonlik inson resuresini raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan bo'lib hisoblanadi. Hozirga kkelib raqamli savodxonlikni oshirish markazlari soni 432971, raqamli savodxonlikni oshirish istagida bo'lib ro'yxatdan o'tgan omzodari soni 70558979 ta, kursni muvaffaqiyatli yakunlaganlar 60932911 ta, raqamli savodxonlik sertifikatini qo'lga kiritganlar esa 45408666 tani tashkil etadi.

### **Estoniya.**

Tiger Leap Foundation (Yo'lbars sakrashi jamg'armasi) Estoniya tashkiloti bo'lib, Estoniyaning texnologiya va raqamli ta'lim sohasida jadal rivojlanishida muhim rol o'ynagan. "Tiger Leap" jamg'armasi 1997-yilda Ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan. Jamg'armaning asosiy maqsadi Estoniya maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishni rag'batlantirish va raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Dasturning maqsadi:

- mahalliy munisipalitetlarni zamonaviy raqamli infrastruktura bilan ta'minlash;
- o'qituvchlarni computer savodxonligini oshirish;
- AKT ga asoaslangan o'quv dasturlarni ishlab chiqish;
- yangi milliy o'quv dasturini ishlab chiqish uchun kerakli ta'lim dasturlarini sotib olish, tarjima qilish va ishlab chiqish;

Dasturni moliyaviy qo'llab-quvvatlash asosan davlat va munisipalitetlar hisobidan amalga oshirildi. 1997-yildan 2000-yilgacha "Tiger Leap" dasturi milliy byudjetdan qariyb 10 million AQSh dollari, Yevropa Ittifoqining PHARE dasturidan ("Ta'limda axborot tizimlari" loyihasi uchun) 2 million dollar, munitsipalitetlardan 5 million AQSh dollari va mahalliy biznesmenlardan 120 ming AQSh dollari jalb etildi.

Tiger Leap dasturi 2000-yil oxirida yakunlanganida quyidagi natijalar qayd etildi:

- Barcha maktablarda kompyuter va internet aloqalari bilan jihozlandi.
- O'qituvchilarning 65 foizi kompyuterning savodxonligi bilimlari bo'yicha o'qitildi;
- o'rta maktablar uchun 61 ta ta'lim dasturlari to'plami sotib olindi;
- 39 ta original ta'lim dasturlari to'plami ishlab chiqarildi;
- Taechers NetGate – ko'p funksiyali ta'lim portali ishga tushirildi;

Dastur natijasi ko'ra mamlakatda raqamli savodxonlik darajasi biruncha ko'tarildi.

Raqamli savodxonlikni oshirish uchun raqamli infratuzilma yaratildi, xizmatlar yo'lga qo'yildi. Tadqiqotimiz paragrifini yoritish uchun sahifalar cheklangani bois raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha mamlakatlar tajribasini jadval ko'rinishida taqdim etib ketamiz:

Raqamlashirish jarayonlarning keyingi rivojlanish bosqichida raqamli savodxonlik paradigmasining muhim masalaga aylinaishi bir tomondan, jamiyatlarda texnologik determinizm omilining ortishi, mavjud axborot massasi va uni tarqatish texnologik instrumentlarining xilma-xilligi, mehnat bozorida yangidan-yangi talablarni qondira oladigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega inson resursiga bo‘lgan talablarni qo‘yilishi hamda ijtimoiy zarurat raqamli savodxonlikning bugungi kunda nechog‘lik dolzarb ahamiyatini ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekiston o‘z raqamli savodxonlikni oshirish yo‘nalishida salmoqli ish va natijalarni ko‘rsatib kelmoqda.

Xususan, 2017-yil 30-iyun kuni imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O‘zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni asosida “Mirzo Ulug‘bek Innovatsiya markazi” tashkil etildi. Mirzo Ulug‘bek Innovatsiya markazi ning vazifasi:

- AKT sohasi uchun kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil qilish;
- Oliy ta‘lim muassasalari va kasb-hunar kollejlarning «axborot texnologiyalari» mutaxassisligi bo‘yicha bitiruvchilarini ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish;
- Innovatsiya markazi rezidentlariga ichki va tashqi bozorlarga mo‘ljallangan raqobatbardosh AKT loyihalarni amalga oshirishlari uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ko‘maklashish;
- Shuningdek, iqtidorli talaba-yoshlarning IT-loyiha startaplarini, axborot texnologiyalari mahsulotlarini ishlab chiqish sohasida istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha innovatsion loyihalarini amalga oshirishda yosh tadbirkorlarni va sohaning boshqa vakillarini ham qo‘llab-quvvatlashdir.

Mazkur islohot zamirida mamlakatda raqamli savodxonlikni oshirish, mamlakatning raqamli potensialini rivojlantirish, shuningdek, soha mutaxassslarining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda muhim rol o‘ynadi.

Shuningdek, mamlakatda raqamli savodxonlikni oshirish yolida amalga oshirilgan yirik loyihalardan biri “Bir million o‘zbek dasturchilari” bo‘lib hisoblanadi. Mazkur loyiha yurtimizda raqamli savodxonlikni oshirishda hamda malakali mutaxassslarni tayyorlashda yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi doirasida dastavall, Uzbecoders.uz platformasi ishga tushirilib, *android dasturlash, Full-Stack Development, Frontend Development, Ma‘lumotlar tahlili* kabi yo‘nalishlar bo‘yicha kurslar tashkil etildi.

“Bir million dasturchi” loyihasining dastlabki bosqichida 62 mingdan ziyod o‘quvchi qamrab olinib, ularning 5 ming 400 nafariga malaka sertifikatini berildi. Joriy yil yakuniga qadar 100 mingta va 2021 yilning birinchi yarmida yana 150 mingta o‘quvchini o‘qitish, talabalarning dasturiy ta‘minot bo‘yicha malakasini oshirish vazifasi belgilandi. 5-sinfdan o‘qitib kelinayotgan “Informatika” fanini zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqib takomillashtirish, ushbu fanga “Bir million o‘zbek dasturchi” loyihasiga doir yo‘nalishlarni kiritish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. **Bir Million Uzbek Programmers megaloyihasi** doirasida ta‘lim olishning afzalliklaridan biri dastur yakunida dasturning eng yaxshi bitiruvchilari **Udacity Nanodegree** grantlari uchun raqobatlasha olishidir. **Udacity Nanodegree** granti ta‘limingizni ilg‘or darajada bepul davom ettirish uchun ajoyib imkoniyatdir. **Udacity Nanodegree kursi 3 oy davom etadi va agar muvaffaqiyatli bo‘lsa, Nanodegree diplomiga** ega bo‘lishingiz mumkin – **nanodiploma** yirik IT-kompaniyalariga – Google, AT&T, Autodesk, Cloudera, Salesforce va boshqalarga ishga kirishda tan olinadi. 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son qaroriga muvofiq:

- kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan 15 ming nafar yoshlar saralanib, ularda xalqaro miqyosda faoliyat yuritish ko‘nikmalari shakllantiriladi;

- xorijiy nufuzli ta’lim platformalarida muvaffaqiyatli o‘qishni yakunlagan va tegishli sertifikatga ega yoshlarga kompyuter xaridi uchun iste’mol kreditlari ajratish amaliyoti davom ettiriladi;

- 2023-yil 1-avgustdan boshlab yoshlarga kompyuter xaridlari uchun ajratiladigan mablag‘lar hisobidan mikroqarz shaklida hamda “Yoshlar daftari” va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi jamg‘armalari hisobidan beriladigan subsidiya mablag‘larini ijtimoiy kontrakt asosida yoshlar xohishiga ko‘ra alohida ochilgan bank kartasiga (naqdashtirish imkoniyatisiz) o‘tkazishga ruxsat beriladi;

- 2023-yil 1-oktabrdan boshlab B2 va undan yuqori xorijiy til bilish darajasiga ega bo‘lgan fuqarolar tomonidan tizim boshqaruvi, ma’lumotlar bazasi va “bulutli” platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta’minlash va boshqa talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining 100 foiz qismini qoplash tizimi joriy etiladi;

- bitiruvchisi IT-xizmatlarni eksport qiluvchi IT-park rezidenti bo‘lgan kompaniyalarga ishga joylashgan nodavlat o‘quv markazlariga har bir bitiruvchi uchun Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravarigacha, nogironligi bo‘lgan yoshlar uchun esa 105 baravarigacha bir martalik subsidiya ajratish yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, raqamli texnologiyalarga oid bilimlarni egallash, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish maqsadida yurtimizda ilk marotaba IT-Parklar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Yurtimizda ilk bora 2019-yil Toshkentda ilk IT-PARK ochildi. So‘ngra Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch viloyatlarida filiallari tashkil etilgan.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining rezidentlari hisoblangan 392 tashkilotda bugun to‘rt ming nafar mutaxassis faoliyat yuritmoqda. IT-Park rezidentlari tomonidan jami 560 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmi 321 milliard so‘m, eksport hajmi esa 5,1 million AQSh dollarini tashkil etdi. Shuningdek, bugunga kelib zamonaviy bilimlarni o‘zichiga oluvchi dasturlash, 3Dmodellning, robototexnika va boshqa bilimlarni o‘rgatuvchi IT ga ixtisoslashgan o‘quv markazlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan bugunga kelib, respublikada 120 ga yaqin o‘quv markazi faoliyat olib bormoqda.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz yoshlarga zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o‘rganish uchun imkoniyat yaratish, sifatli va bepul ta’lim berish, o‘quv markazlarini qo‘llab-quvvatlash hamda yoshlarning hayotda o‘z yo‘lini topishiga ko‘maklashish maqsadida axborot texnologiyalari, xorijiy tillarni o‘rganish niyatidagi yoshlarga “Kelajak kasblari” loyihasi doirasida olti oygacha muddatli o‘quv kurslari uchun har oyda subsidiya ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bunda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar <https://yoshlardaftari.uz> platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tib zamonaviy AKT ga oid bilimlarni o‘rganishlari mumkin.

Loyiha doirasida 16549 nafar yoshlar murojaat etib, shundan 13371 nafari tavsiya etildi. Loyihani moliyalashtirish uchun 13 mlrd 897 mln so‘m ajratildi.

Bugunga kunga kelib Respublikada 100 tadan ortiq AKT ga ixtisoslashgan maktablar va faoliyat olib bormoqda. Maktablarga Davlat test markazi bilan hamkorlikda o‘quvchilar 5-



sinfdan imtihonlar asosida saralab olinadi. Bugungi kunda ularda 4 mingdan ortiq o‘quvchilar tahsil olmoqda. Bundan tashqari, respublikaning 14 ta hududida “AyTi” texnikumlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularda dasturiy injiniring, kompyuter injiniring, axborot xavfsizligi, telekommunikatsiya texnologiyalari kabi yo‘nalishlar bo‘yicha 8 ming nafarga yaqin o‘quvchilar o‘qitilmoqda. Bundan tashqari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning **6 ta hududiy** (Nukus, Urganch, Qarshi, Samarqand, Farg‘ona, Nurafshon) filiallarida malakali oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlab kelinmoqda. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida **15 ta** bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi hamda 33 ta magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, filiallarda **5 ta** bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi hamda **3 ta** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Yoshlarning raqamli texnologilarga oid bilimlarni yanada mustahkamlash, ilg‘or hamda zamnaviy bilimlarini egllash uchun oliy ta‘lim tizimida ham keyingi yillarda ta‘lim muassasalari soni ortib bormoqda. Xususan, AKT ga ixtisoslashgan nodavlat oliy ta‘lim muassasalar soni bugunga kelib 65 tani tashkil etsa, shundan 50ga yaqini, Xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va ularning filiallari soni 30 ta b‘lib, shundan 25 ga yaqini talabakarga AKT dan bilimlar berib kelmoqda.

#### **Xulosa.**

Xulosa o‘rnida aytish joizki, mamlakatlar keyingi taraqqiyotining asosiy nuqtalari raqamlashtirish bilan kesishishini hisobga oladigan bo‘lsak, raqamli rivojlanish sharoitda jamiyat a‘zolaridan raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya kabi mahoratlar zarur bo‘ladi. Shuningdek, zamonaviy mexnat bozorida avtomatlashtirish natijada yangidan-yangi kasblarga ehtiyojning mavjud bo‘lishi, davlat boshqaruv tizimida samarador inson resursiga talab ortishi, shu sohada zarur bilimlarga ega bo‘lgan, ilm ulashadigan ta‘lim tizimining yo‘lga qo‘yilishi raqamli savodxonlini oshirishga ko‘mak beradi.

#### **REFERENCES**

1. Gilster, P. (1997), Digital literacy. New York: Wiley Computer Publications.
2. Lanham, R. (1995), Digital literacy. Scientific American 273 (3): 160–161.
3. Селиверстова Н.А. Цифровая грамотность // Знание. Понимание. Умение. 2021. № 3. С. 220-224.
4. Ли Дэган. Цифровая грамотность: новый тренд медиаобразования на фоне нового цифрового разрыва // Идеологическое теоретическое образование. 2012. №18. [Электронный ресурс]. URL: <http://www.cqvip.com/main/none.aspx?lngid=43683500> (дата обращения: 05.03.2023).
5. Martin, A. and Grudziecki, J. (2006) DigEuLit: Concepts and Tools for Digital Literacy Development. Innovation in Teaching and Learning in Information and Computer Sciences, vol. 5, iss. 4. Taylor & Francis [online] Available at: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.11120/ital.2006.05040249>
6. Pomaki, L., Lakkala, M. and Kantosalu, A. (2011) What is Digital Competence? Linked Portal. Brussels, European Schoolnet (EUN). Pp. 1-12.
7. «Ақпараттандыру туралы» Қазақстан Республикасының Заңы 2015 жылғы 24 қарашадағы № 418-V ҚРЗ.// <https://adilet.zan.kz/kaz/docs/Z1500000418>

8. Цифровая компетентность подростков и родителей : результаты всероссийского исследования / Г. У. Солдатова, Т. А. Нестик, Е.-1. Рассказова, Е.-Ю. Зотова. - М.: Фонд Развития Интернет, 2013. - 144 с.
9. “К вопросу о понятии цифровой грамотности” О. В. Ельцова , М. В. Емельянова I. Yakovlev Chuvash State Pedagogical University Bulletin / Вестник ЧГУУ им. И. Я. Яковлева. 2020. № 1(106) с 158 (internet manbasi: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-ponyatii-tsifrovoy-gramotnosti>)
10. ХО.Хуатэн Ма. Цифровая трансформация Китая. Опыт преобразования инфраструктуры национальной экономики. - М. : Альпина Паблишер, 2019. - 250 с.
11. <https://www.pmgdisha.in/state-wise-pmgdisha-targets/>
12. <https://www.pmgdisha.in/>
13. Mart Laanpere, director, Center of Education Technology, Tallinn Pedagogical University “Tiger Leap Plus – an ICT Strategy for Estonian Schools, 2001 – 2005” Baltic IT&T Review journal 67-69 pages (<http://www.ebaltics.lv/00705147>)
14. The Tiger Leap Foundation, <http://www.tiigrihype.ee.eng>
15. The Tiger Leap Foundation, <http://www.tiigrihype.ee.eng>
16. <https://www.texnoman.uz/post/muic-haqida.html>
17. <https://mitc.uz/uz/news/view/1425>
18. <https://mitc.uz/ru/news/view/1477>
19. <https://lex.uz/uz/docs/-6472548>
20. <https://www.texnoman.uz/post/ozbekistondagi-dastulash-boyicha-oquv-markazlari-akademiyalari-va-maktablari-royxati.html>
21. “Yoshlar siyosati” O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yilgi hamda 2023-yilning birinchi yarmidagi faoliyati yakunlariga bag‘ishlangan taqdimot jurnali/ Toshkent, 2023, 24-bet
22. <https://mitc.uz/uz/news/view/3576>

## **OLIY TA’LIM XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHDA MARKETING STRATEGIALARINI QO‘LLASHNING AHAMIYATI VA O‘RNI**

**Abdullayeva Zamira Muxtarovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159808>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta’lim xizmatlari bozorida raqamli faoliyatni marketing tizimi bilan bevosita bog‘liq holda qo‘llash orqali mamlakat rivojining asosi hisoblanmish ta’lim tizimini yuqori sur’atlarda taraqqiy etishiga ta’sir etuvchi omillar hamda ta’lim sohasida davlatlararo raqobatbardoshlik darajasini oshirishda qo‘shadigan hissasi tahlili, jamiyat rivoji va iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda aks etadigan roli muhokamaga qo‘yiladi va ularga yechim sifatida umumta’limdan boshlab to o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimlarida amalga oshirish mumkin bo‘lgan raqamli marketing strategiyalari tadbiq qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli marketing, raqamli xizmatlar bozori, marketing strategiyalari, ta’lim tizimi, oliy ta’lim.*

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены факторы, влияющие на бурное развитие системы образования, которая считается основой развития страны, и межгосударственную конкурентоспособность в сфере образования, путем использования цифровой деятельности на рынке услуг высшего образования в непосредственной связи. с системой маркетинга обсуждается анализ ее вклада в повышение уровня образования, ее роль, отражающуюся в развитии общества и обеспечении экономической и социальной стабильности, а в качестве решения их возможно внедрение в системы среднее специальное и высшее образование, начиная с общего образования, реализуются стратегии цифрового маркетинга.*

***Ключевые слова:** цифровой маркетинг, рынок цифровых услуг, маркетинговые стратегии, система образования, высшее образование.*

***Abstract.** This article examines the factors influencing the rapid development of the education system, which is considered the basis of the country's development, and interstate competitiveness in the field of education, through the use of digital activities in the higher education services market in direct connection. with the marketing system, an analysis of its contribution to improving the level of education, its role, reflected in the development of society and ensuring economic and social stability, is discussed, and as a solution, it is possible to introduce them into secondary specialized and higher education systems, starting with general education, digital marketing strategies are implemented .*

***Keywords:** digital marketing, digital services market, marketing strategies, education system, higher education.*

### **Kirish.**

Albatta har bir davlatda ta’lim muassasalaridagi o‘z xizmatlari darajasini yaxshilash uni jahon standartlariga moslashtirish asosiy maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi. Ko‘plab sohalar kabi raqamli marketingni qo‘llash orqali ta’lim sohasini targ‘ib qilish ta’lim muassasalariga ko‘proq talabalarni jalb qiladi. Davlatning ijtimoiy sohasini bevosita belgilab beruvchi ushbu tizimni zamonaviy texnologiyalar va xalqaro darajada amaliyotda qo‘llanib kelayotgan uslublar orqali rivojlantirish oldimizdagi ulkan maqsadlardan biri hisoblanib kelmoqda.

Ta’kidlab o’tish joizki, O‘zbekiston prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan. . Eslatib o‘taman, O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23.09.2020 yildagi O‘RQ- 637 sonli, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda quyidagilar keltirib o‘tilgan:

“Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olishi uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Ta’lim olish huquqi:

- ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish; ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta’lim olishni tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’limni va boshlang‘ich professional ta’limni bepul olish;
- oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta’lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o‘rta ta’lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.”

Ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarning kengayishi bu albatta yaxshi natijalarga olib keladi, shu bilan bir qatorda ta’lim xizmatlari sifatini oshirishga ham turtki bo‘ladi. “Xalqaro standartlarga moslashtirish” vazifasi zamirida raqamli texnologiyalar asosida raqamli ta’lim tizimini amaldagi faoliyatini yuksaltirish lozimligini ta’kidlab o‘tish joizdir.

### **Tahlil va natijalar**

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishga katta e’tibor qaratiladi. Chunki ularda butun ta’lim tizimiga qilingan sarmoya jamiyatga kelajakda 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda mazkur ko‘rsatkich 4 barobarni tashkil etadi. AQSH Yalpi ichki mahsulotining 7.5%ini, Norvegiya 7.6%ini, Xitoy esa 4%ini, O‘zbekiston esa 5.8%ini ta’limga sarflaydi. Shuningdek,iqtisodiyotni rivojlantirishda bilimlarni va inson resurslarini asosiy omil sifatida qaraydigan rivojlangan mamlakatlar asosan boy tabiiy resurslarga ega bo‘lmagan davlatlar (Yaponiya, Shvetsiya va boshqalar.)dir. BMT taraqqiyot dasturi o‘tkazgan tadqiqot natijalari yer yuzasida hozirgi kunga qadar to‘plangan jami kapitalning 16%i moddiy ko‘rinishdagi kapitalga, 20%i tabiiy boyliklarga va qolgan 64%i inson kapitaliga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Endi esa jahonni birlashtirib turuvchi “o‘rgimchak to‘ri” statistikasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, internet tarmog‘i butun dunyo bo‘ylab 4.7 milliarddan ziyod odamni qamrab oldi. An’anaviy marketing strategiyalari ulardan foydalanish tez o‘sishi tufayli eskiradi, chunki sotuvchilar potentsial mijozlari bilan raqamli vositalar orqali tez va samarali, shuningdek doimiy ravishda muloqot qilishni xohlashadi. Raqamli marketing - bu sizning xizmatlaringiz va mahsulotlaringizni internetda reklama qilishingiz mumkin bo‘lgan marketing turi. Professional tarzda **raqamli marketingni qo‘llash**, bu veb -saytga ko‘proq tashrif buyuruvchilarni jalb qilishda va sodiq mijozlar topishda yordam beradi. Bu veb -saytlar, qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar,

elektron pochta va mobil ilovalar kabi raqamli kanallar orqali reklama qilishdan boshqa narsa emas. Raqamli marketing sohalar hamda tarmoqlardagi

tashkilotlar uchun sehrli tayoq bo'lib chiqmoqda va ta'lim ulardan biridir. Ta'lim sektori har qanday mamlakatning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshqa har qanday sanoat singari, kiberfazoning va texnologiyaning rivojlanishi unga ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada an'anaviy marketing yondashuvlari hali ham qo'llanilayotgan bo'lsada, ta'lim muassasalari ko'plab o'quvchilar va ota-onalarga erishish uchun raqamli ishtirokini oshirishi kerak. Ta'lim sohasida veb va raqamli axborot vositalaridan foydalanish ko'payganligi sababli, ta'lim uchun raqamli marketing istiqbolli platformaga aylanmoqda. Ushbu sohada o'z faoliyatini davom

ettirmoqchi bo'lganlar uchun raqamli marketing bo'yicha bir nechta kurslarni taklif qiladigan ko'plab institutlar mavjud.

### **Oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqamli marketingning ahamiyati.**

**Ishonchlilikni oshiradi :** Oliy ta'lim xizmatlari bozori uchun virtual mavjud bo'lishning asosiy foydasi shundaki, u ishonchni oshiradi. Hech shubha yo'qki, Internet ma'lumotlarga kirishning asosiy manbaiga aylandi. Hamda uni kuzatib borish orqali insonlar ishonchi va qiziqishi saqlab turiladi.

**Maqsadli auditoriyaga erishish:** Ta'lim muassasalarining maqsadli auditoriyasining deyarli barchasi Internetda yuqori faol bo'lganligi sababli, ularga raqamli marketing orqali murojaat qilish juda oson. Demak, raqamli marketing ta'lim muassasalarining tabiatiga mos keladigan marketingning eng mos va faol shaklidir.

**Tezkor va talabga moslashuvchan.** Raqamli marketingda tizimga nisbatan tezkor fikrmulohazalarni olish mumkin. Shunday qilib, qisqa vaqt ichida samarasiz strategiyani o'zgartirish va uni yaxshirog'i bilan almashtirish mumkin. Tajriba uchun ham juda ko'p imkoniyatlar mavjud. Shunday qilib, raqamli marketing kanallari maqsadli auditoriyaga, ya'ni Facebook va Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarda yuqori faollikka ega bo'lganlarga reklama xabarini yetkazishning eng tezkor usuli hisoblanadi.

**Yuqori konversiyalar:** Raqamli marketing ta'lim muassasalariga ijtimoiy tarmoq saytlari, elektron pochta xabarlari, banner reklamalari kabi kengroq platformalarda potentsial talabalar bilan bog'lanish imkonini beradi. Bu o'z navbatida konversiya stavkalariga ta'sir qiluvchi ko'plab trafikni keltirib chiqaradi. Raqamli marketingning o'ziga xos afzalligi shundaki, u Internetning barcha sohalarini qamrab olishga qodir va shuning uchun o'quv muassasalari uchun raqamli marketingda yetakchi konvertatsiya qilish ehtimoli juda yuqori.

**Reytingni yaxshilaydi :** Agentliklar tomonidan ilmiy muassasalarni tartiblashning asosiy mezonlaridan biri bu uning talabalari, ota-onalari, o'qituvchilari, manfaatdor tomonlari va boshqalardir, va bu fikrlarga raqamli marketing tizimi orqali ta'sir qilish mumkin. Agar talabalar va boshqa manfaatdor tomonlar har qanday ta'lim muassasasi haqida ijobiy fikrga ega bo'lsalar va ular bu haqida Internetda ijobiy gapirsalar, bu ta'lim muassasasining reytingini yaxshilashga yordam beradi. **Daromadning o'sishi :** Raqamli marketing boshqa an'anaviy marketing usullariga nisbatan hamyonbop. Shunday qilib, bu yangi kelganlar yoki notijorat tashkilotlar uchun yaxshi vositadir. Raqamli marketingdan foyda ko'rmaydigan sohaning o'zi yo'q. Ta'lim sanoati eng yomon zarar ko'rgan tarmoqlardan biri bo'lib, oddiy marketing bilan omon qolish uchun mutlaqo imkoni yo'q. Talabalar o'zlarining ta'lim maqsadlariga erishish uchun ilovalar va elektron ta'lim vositalariga moyil bo'lishdi, chunki dunyoning aksariyat qismlarida universitetlar va boshqa o'quv muassasalari talabalar uchun yopiqlicha qolmoqda. Bunday vaziyatlarda raqamli marketingdan




to'g'ri foydalanish orqali mavjud tashkilotlar o'z o'rnini saqlab qolishi yoki yangi xizmat ko'rsatuvchilar bozorni yuqori ulushda egallashi mumkin.

Ta'lim muassasalarining barchasi talabalar uchun onlayn kurslarni taklif qilish uchun raqobatlashib kelmoqda, chunki talabalar ham o'z uylarida qulaylik va xavfsizlik, xushmuomalalik, ayniqsa uzoq davom etgan pandemiyadan keyin ko'proq masofaviy o'qishni tanlashmoqda. Bunday holda, **ta'lim muassasalari uchun raqamli marketing strategiyalarini** qabul qilish bugungi marketing dunyosida majburiydir. Yuqorida muhokama qilinganidek, raqamli marketing ta'lim sektori uchun ko'p foyda keltiradi, ayniqsa, to'g'ri auditoriyaga tejamkorlik bilan erishishda.

Ta'limga qamrov darajasini oshirish uchun maqsadli strategiyalarni amalga oshirish lozim. Oxirgi yillarda oliy ta'lim tizimiga qamrov boshqa davrlarga qaraganda ancha past ko'rsatkichni aks ettirmoqda va bunga talabalarning ko'plab sabablari yoki davlatning ma'lum xatoliklari va kamchiliklari sabab bo'lishi mumkin. Buni quyidagi gistogrammada ko'rish mumkin.

**1- rasm. O'zbekistonda ta'lim tizimiga turlar bo'yicha qamrov darajasi (2021-2022)**



Ko'rishimiz mumkinki, oliy ta'limda mavjud ta'lim oluvchilar reja bo'yicha qamrov darajasiga qaraganda 12% ga kam ko'rsatkichni ko'rsatmoqda. Bu jarayonda marketingning "oltin qoidasi" birlamchi deb qaralsa "Iste'molchi- bozorda qiro'l". Demak xizmat ko'rsatuvchi uning talablariga mos taklif berish orqaligina muvozanatga erishishi va ko'zlagan foydasini qo'lga kiritishi mumkin. Oliy ta'lim daromadli biznes bo'lib, bozor qiymati taxminan 568,2 milliard dollarni tashkil qiladi. Dunyo bo'ylab universitetlar o'zlarining diplom dasturlari uchun faqat eng yaxshi talabalarni jalb qilish uchun raqobatlashadilar.

Ta'lim muassasalari o'zlarining ilmiy daraja dasturlarini agressiv tarzda marketing qilishlari bilan universitetlar uchun ajralib turishi va bo'lajak talabalarni jalb qilish juda qiyin bo'lib bormoqda. Tanlovlarning ko'pligi tufayli o'quvchilar to'g'ri manzilni topishda ikkilanishadi. Agar universitet eng yaxshi talabalarni jalb qilmoqchi bo'lsa, marketing harakatlari ba'zi savollarga javob berishga qaratilishi kerak. Universitetlar Internet paydo bo'lganidan beri raqamli marketingdan foydalanmoqda. Bu oliy ta'lim muassasalariga maqsadli auditoriya bilan bir zumda bog'lanish imkonini beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Bugungi raqamli landshaftda bo'lajak talabalar maktablari, kollejlari va universitetlarni Google kabi qidiruv tizimlarida topadilar. Universitetlarning ushbu qidiruvlarda ko'rinishi SEO, Facebook reklamalari va ta'lim muassasalari uchun Google reklamalari bilan bog'liq. Agar taklif beruvchi ko'proq talabalarni jalb qilishni va universitetning onlayn ko'rinishini oshirishni istasa, universitetlar uchun raqamli marketing bo'yicha ushbu takliflar ularning maqsadiga mos keladi.

➤ **Ta'lim muassasasining ijtimoiy raqamli rolini oshirish.** Ijtimoiy media oliy ta'limda raqamli marketing uchun birinchi raqamli vositadir. Nega? Chunki talabalar amalda ijtimoiy tarmoqlarda yashaydilar.

➤ **Videomarketingdan maksimal darajada foydalanish.** Video kontenti matn yoki tasvirga asoslangan kontentga nisbatan ancha ko'proq qiymat taklif qiladi. Shuningdek u kontenti ham juda ko'p qirrali. Hozirgi kunda jahon universitetlari veb-saytlariga ko'proq tashrif buyuruvchilarni jalb qilish va ularni o'zgartiruvchi etakchiga aylantirish uchun video kontentidan foydalanmoqda. Video bo'lajak talabalarga ta'lim berish va ularni talabalar hayoti uchun tayyorlash uchun ajoyib vositadir.

➤ **Samarali qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish va kuzatish:**

Google Analytics foydali ma'lumotlarni taqdim etsa-da, veb-sayt sahifalaridagi aniqroq faollikni kuzatish uchun maqsadlarni belgilash Google Analytics avtomatik ravishda taqdim etadigan narsalardan yuqori va undan tashqari kuchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu ma'lumotlar o'quvchilarning sayt bilan qanday munosabatda bo'lishini va ular qanday harakatlar qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Maqsadlarni kuzatish orqali saytning qaysi sohalarini yaxshi ishlashini va qaysi biri yaxshilanishi mumkinligini ko'rish mumkin. Kuzatuv orqali turli segmentlardagi auditoriyani maqsad qilib olish uchun samarali qarorlar qabul qilishda bunda yordam beradigan reklama va boshqa pullik kompaniyalar uchun ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

➤ **Tezkor va qulay platformalar, ilovalar ishlab chiqish.** Davlat miqyosidagi mumkin bo'lgan sohalaridagi Oliy ta'lim muassasalari uchun online, masofaviy va gibrid ta'lim tizimida o'rinlar yaratish va imkon qadar ularda maksimal ta'lim sifatini ta'minlash. Bu orqali davlatdagi ta'lim tizimidagi qamrovni samarali kengaytirish mumkin. Buning natijasida esa talabalar tomonidan raqamli platformalarga bo'lgan ehtiyoj tabiiy ravishda oshib boradi.

➤ **Brand xabardorligini oshirish uchun xalqaro reklama displaylaridan foydalanish.** Bu orqali davlat ta'lim tizimiga dunyo talabalarini jalb qilish va ilmiy salohiyat va ta'lim sifati bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan taraqqiyot maqsadlarida belgilangan reytinglardan o'rin olish mumkin.

➤ **Professional Raqamli Marketing Agentligi bilan ishlash.** Hozirgi kunda bo'lajak talabalarning aksariyati oliy o'quv yurtlarini qidirishni onlayn tarzda boshlaydi va tugatadi. Juda kam universitetlar potentsial talabalarning e'tiborini jalb qila oladi va ularni o'z dasturlariga kirishga majbur qiladi. Universitetlar nomidan raqamli marketingamalga oshirish juda qiyin. Oliy ta'lim sohasi qanchalik daromadli ekanini hisobga olsak, katta raqobat tufayli universitetni kerakli talabalar e'tiboriga olish oson emas. Agar raqamli reklama va universitet marketing kompaniyalarini o'tkazish uchun vaqt yoki resurslar bo'lmasa va

yuqori ro'yxatlardan o'rin olish maqsadiga erishish uchun sifatli natijalarni yaratish borasida professional oliy ma'lumotli raqamli marketing agentligini yollagan ma'qul. Ta'lim

tizimini zamonaviy metodlar va texnologiyalar bilan bog‘liq ravishda rivojlantirish maqsadga an’anaviy yo‘l bilan borishga qaraganda ancha tez va samaralidir. Bu yo‘lda strategiyani to‘g‘ri tanlash va asosiysi qadamlarni o‘z o‘rnida amalga oshirish ko‘zlangan ustuvor vazifadir.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘RQ-637-сон 23.09.2020. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O‘zbekiston Respublikasi davlat Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>
4. Alan Charlesworth. Absolute essentials of digital marketing. Routledge-2020. 101 pages.
5. Philip Kotler, H. Kartajaya, I. Setiavan. Marketing 4.0 moving from traditional to digital. 2020
6. Sh. Ganijonovna. “Ta’lim sohasida innovatsion metodlardan foydalanish” JOURNAL OF MARKETING, BUSSINES AND MANAGEMENT. Volume 1 ISSUE 6, 2021 [www.jmbm.uz](http://www.jmbm.uz)
7. Erkinova N.T. “The importance and role of application of digital marketing strategies in the educational system” , SPECTRUM JOURNAL OF INNOVATION, REFORMS AND DEVELOPMENT Germany, Berlin-2023. <https://www.sjird.journalspark.org/index.php/sjird>

## **OLIIY TA’LIM TIZIMIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH JARAYONLARI TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**Zaripova Mukaddas Djumayozovna**

Termiz davlat universiteti dotsent v.b., i.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159823>

**Annotatsiya.** Maqolada probit modeli asosida, ta’lim natijalari va yutuqlari yuqori bo’lgan bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni saralash hamda ularni ta’limning keyingi bosqichida (magistraturada) o’qishini davom ettirishlari uchun tavsiya etishni yetarlicha ishonchlik bilan prognoz qilishga imkon beradigan uslubiyot taklif etilgan.

**Kalit so’zlar:** binar tanlov modellari, logit model, probit model, prognozlashtirish, o’qitish sifati, model sifati.

**Аннотация.** В статье предлагается методология, основанная на пробит-модели, позволяющая с достаточной достоверностью прогнозировать отбор талантливых студентов, обучающихся на этапе бакалавриата, имеющих высокие образовательные результаты и достижения, и рекомендовать их продолжить обучение на следующем этапе образования (в магистратуре).

**Ключевые слова:** модели бинарного выбора, логит-модель, пробит-модель, прогнозирование, качество обучения, качество модели.

**Abstract.** The article proposes a methodology based on a probit model, which makes it possible to predict with sufficient reliability the selection of talented students studying at the undergraduate stage, who have high educational results and achievements, and recommend them to continue their studies at the next stage of education (master's degree).

**Keywords:** binary choice models, logit model, probit model, forecasting, quality of training, quality of model.

**Kirish.** Ayni paytda, oliy ta’lim tizimida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha ustuvor vazifalarga muvofiq malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko’tarish hamda “oliy ta’lim – ilm-fan – ishlab chiqarish” o’rtasidagi samarali integratsiyani ta’minlash masalalariga davlat siyosati darajasida katta ahamiyat berilmoqda.

Sababi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo’yicha qo’mitasi (UNESCO) va konsalting tashkiloti (DGP Research & Consulting) hamkorligida jalb qilingan nufuzli xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan ta’lim tizimini kompleks o’rganish, respublikamizda oliy ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta’minlanmaganligi, talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o’tkazish samarali tashkil etilmaganligi, ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmi zamonaviy talablarga javob bermasligi, ta’lim muassasalarida malakali pedagog va boshqaruv kadrlarining yetishmasligi, xorijiy ta’lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yetarlicha yo’lga qo’yilmaganligi kabi kamchiliklarni o’z xulosalarida qayd etganligidadir.

Buning natijasi o’laroq oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga, yuqori malakali kadrlar (YuMK) tayyorlashga yuksak e’tibor qaratildi. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko’rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash

sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari qabul qilindi [1,2].

Shu bilan birga, respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan YuMKni o‘z vaqtida zarur ixtisosliklar bo‘yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, YuMK tayyorlash jarayoni sifatini oshirish hamda “oliy ta’lim – ilm-fan – ishlab chiqarish” o‘rtasidagi samarali integratsiyani tashkil etish bo‘yicha masalalar yechimini topish va mexanizmlarini takomillashtirish, oliy ta’lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirishga doir maqsadli qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Biroq, talabalarni ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga jalb etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish orqali YuMK tayyorlash jarayoni sifatini oshirish hamda “oliy ta’lim – ilm-fan – ishlab chiqarish” o‘rtasidagi samarali integratsiyani ta’minlashga erishish yo‘nalishida tadqiqotlar deyarli kam. Shuningdek, ekonometrik modellar – xususan, binar tanlov modellari asosida, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga, innovatsion ishlanmalarga qiziqishi hamda ta’lim natijalari va yutuqlari yuqori bo‘lgan, bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan (yoki bakalavriat bosqichini bitirgan) iqtidorli talabalarni saralash hamda ularni “tadqiqot institutlarida” yoki ta’limning keyingi bosqichida (magistraturada) o‘qishini davom ettirishlari uchun tavsiya etishni yetarlicha ishonchlilik bilan prognoz qilishga imkon beradigan uslubiyot ishlab chiqilmagan [3].

Bunday uslubiyotni mavjudligi oliy ta’lim muassasalari (OTM) uchun talabalarni ta’lim yutuqlari, iqtidori to‘g‘risidagi ma’lumotlarini qiyosiy tahlil etishga, bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlashga, o‘quv jarayoni sifatini tadqiq etishga hamda ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishlarini davom ettirishlari uchun tavsiya qilishga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. Shu bois, tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishlarini davom ettirishlari uchun tanlash va tavsiya qilishni binar tanlov modellari asosida yetarlicha ishonchlilik bilan prognozlashtirish va uslubiyotini ishlab chiqish maqsad qilib olindi.

**Tahlil va natijalar.** OTMlarida tahsil olayotgan ma’lum bir guruh talabalari ichidan iqtidorlilarini tanlash, muayyan bir qator omillarni (o‘quv jarayonida faol, mustaqil fikr-mushohada yuritadigan, o‘qitilgan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish natijalari yuqori, kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi va hokazo) hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerakligi belgilab olindi. Ammo, shu o‘rinda, tanlangan iqtidorli talabalardan qaysi biriga birinchi o‘rinda ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirishga tavsiya berilishi kerak, degan savol tug‘iladi?

Ushbu savolga asosli javobni, tanlangan har bir iqtidorli talaba bo‘yicha ta’limning keyingi bosqichida o‘qishini davom ettirishi uchun tavsiya berishning maqsadga muvofiqligini prognozli bahosini hisoblash imkonini beradigan modelni ishlab chiqish orqaligina olish mumkin. Iqtidorli talabalarni ta’limning keyingi bosqichida o‘qishini davom ettirishi uchun tavsiya qilish jarayonida qabul qilinadigan qarorni asoslash va haqiqiylikini oshirish uchun binar tanlov modellaridan foydalanish taklif etiladi.

Binar tanlov modeli – bu diskret tanlov modelining xususiy xoli bo‘lib, unda bog‘liq o‘zgaruvchi faqat ikkita qiymatni (1 yoki 0) oladi. Boshqacha aytganda, binar tanlov modellarida



bog‘liq o‘zgaruvchilar ikkilikdir. Bunday o‘zgaruvchilar uchun odatdagi chiziqli regressiya qo‘llanilmaydi, chunki u manfiy qiymatlarni ham, birdan katta qiymatlarni ham beradi.

Ikkilik o‘zgaruvchi uchun model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y_i^* = \beta_0 + \sum_{j=1}^k \beta_j x_{ij} + u_i \quad (1)$$

bu yerda,  $y_i^*$  - yashirin (latent) o‘zgaruvchi. Odatda, yashirin (latent) o‘zgaruvchi -  $y_i^*$  qiymatlariga qarab, kuzatilayotgan o‘zgaruvchi -  $y_i$  “0” yoki “1” qiymatini oladi.

$$y_i = \begin{cases} 1, \text{ agar } y_i^* > 0, \\ 0, \text{ agar } y_i^* \leq 0. \end{cases} \quad (2)$$

Taqdim etilayotgan model ehtimollik modeli deb ataladi. Ko‘pincha amaliyotda, ehtimollik modelining taqsimot turlari bo‘yicha modellari (logit, probit hamda gompit) qo‘llaniladi.

Logit model formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y_i^* = \ln \frac{P_i}{1-P_i} = \beta_0 + \sum_{j=1}^k \beta_j x_{ij} + u_i, \quad (3)$$

bu yerda,  $y_i^*$  - logit deyiladi,  $P_i$  - esa logistik taqsimot asosida hisoblanadigan bog‘liq o‘zgaruvchi  $y_i$  ning ehtimolligi bilan aniqlanadi:

$$\frac{P_i}{1-P_i} = e^{y_i^*} = e^{\beta_0 + \sum_{j=1}^k \beta_j x_{ij} + u_i}, \quad (4)$$

$$\hat{P}_i = \frac{1}{1 + e^{-y_i^*}} = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \sum_{j=1}^k \beta_j x_{ij})}}. \quad (5)$$

Probit modelida logit modeliga o‘xshab,  $P_i$  kuzatilmaydigan qiymat standart normal taqsimot funksiyasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi:

$$P_i = F\left(\beta_0 + \sum_{j=1}^k \beta_j x_{ij}\right) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{\beta_0 + \sum_{j=1}^k \beta_j x_{ij}} e^{-\frac{u^2}{2}} du. \quad (6)$$

Logit va probit modellarining  $\beta$  parametrlari quyidagi nisbat bilan bog‘liq:

$$\beta_{\logit} = 1,68 \beta_{probit}. \quad (7)$$

Amaliyotda, ushbu usullarning har qaysi turidan foydalanish mumkin, chunki modellarning empirik ma’lumotlarga muvofiqligi bo‘yicha barcha o‘lchovlari ular uchun bir xil bo‘lib chiqadi.

Shunday ekan, iqtidorli talabalarni ta’limning keyingi bosqichida o‘qishini davom ettirishi uchun tavsiya qilishning maqsadga muvofiqligini prognozli bahosini hisoblash imkonini beradigan modelni binar o‘zgaruvchilarni qo‘llash orqali ishlab chiqishga harakat qilamiz.

Tadqiq etiladigan obyekt uchun, aniq misol tariqasida, 2019-2020 o‘quv yilida Termiz davlat universiteti bakalavriat 5110700 – “Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishiga qabul qilingan, 2022-2023 o‘quv yilida 4-kursda tahsil olgan 65 nafar talaba olindi.

Modelni qurish binar o‘zgaruvchini qo‘llash g‘oyasiga asoslanganligi bois, Y: agar talaba, o‘quv jarayonida faol, mustaqil fikr-mushohada yuritadigan, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik

va texnologik ishlarga, innovatsion ishlanmalarga qiziqishi hamda ta’lim natijalari va yutuqlari yuqori bo’lsa, ekspert-o’qituvchilar guruhining baholashi bo’yicha, iqtidorli deb belgilansin  $Y=1$ ; aks holda  $Y=0$ .

Shu o’rinda, eslatib o’tish joiz, binar o’zgaruvchilar ekspert baholash usuli yordamida olinadi. Kvalimetriya qoidalariga ko’ra, guruhdagi ekspert-mutaxassislar soni 7 tadan 20 nafargacha bo’lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi [4]. Boisi, juda kam miqdordagi ekspertlar soni ishonchsiz natijalarni keltirib chiqaradi.

Ekspert-mutaxassislar guruhini shakllantirish uchun yuqorida qayd etilgan, mazkur ta’lim yo’nalishi talabalariga umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini olib boruvchi professor-o’qituvchilar tanlab olindi. Guruhdagi ekspertlar soni 12 nafarni tashkil etdi. Ularning har biri uchun so’rov varaqasi tuzildi. So’rov varaqasi ekspert-o’qituvchilar har bir talabani ma’lum bir parametr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baholash kerak bo’lgan blanka ko’rinishida taqdim etildi.

Barcha ekspert-o’qituvchilarga baholash uslubiyoti bo’yicha ko’rsatmalar berildi. Ekspert-o’qituvchilar tomonidan so’rov varaqasi to’ldirildi. Ekspert-o’qituvchilar fikriga ko’ra, iqtidorli deb tan olingan talabaga 1 ga teng bo’lgan yuqori darajaga ega rang (baho), aks holda 0 ga teng bo’lgan eng qo’yi rang (baho) belgilandi.

So’rov natijalariga ko’ra, ekspert-o’qituvchilarning barcha javoblari matritsali axborot modelida umumlashirildi. Ma’lumotlarga matematik ishlov berildi. Natijada binar o’zgaruvchilar belgilab olindi. Shuningdek, modelni qurish uchun 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar omillar sifatida tanlandi (1-jadval).

Ushbu omillarning hamda binar o’zgaruvchilarning qiymatlari, 65 nafar talaba uchun lavha 2-jadvalda keltirilgan.

Bundan tashqari, ta’limning keyingi bosqichida o’qishini davom ettirmoqchi bo’lgan, da’vogar talabalar (so’rov orqali) aniqlandi. Da’vogar talabalar ro’yhati 3-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval Binar tanlov modellarida qo’llaniladigan omillar hamda ularning shartli belgilanishi**

№	Binar o’zgaruvchi	Shartli belgi	№	Omillar	Shartli belgi
1	Iqtidorli talaba	$y=1$	1	Xorijiy tilni bilish darajasi (test natijalari asosida), ball	$x_1$
			2	Kasbiy bilim darajasi (test natijalari asosida), ball	$x_2$
2	Talaba iqtidorli emas	$y=0$	3	Malakaviy amaliyot, baho	$x_3$
			4	Kurs ishi, ball	$x_4$

**2-jadval Binar tanlov modellarini tuzishda qo’llanilgan binar o’zgaruvchi va omillar (lavha)**

№	Binar o’zgaruvchi	Xorijiy tilni bilish darajasi, ball	Kasbiy bilim darajasi, ball	Malakaviy amaliyot, baho	Kurs ishi, ball
	Y	X1	X2	X3	X4
1	1	11	12	3,5	70
2	1	12	12	4,0	68

**“RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA FAN – TA’LIM – ISHLAB  
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI”  
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
2023-yil 22-noyabr**

3	0	10	10	3,0	70
...	...	...	...	...	...
30	1	11	13	5,0	97
31	1	12	12	4,0	85
...	...	...	...	...	...
36	1	10	13	4,0	98
37	1	11	10	3,5	78
38	1	12	14	4,5	87
...	...	...	...	...	...
64	1	11	10	4,0	80
65	1	11	12	4,0	66

**Manba:** Termiz davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakultetining bakalavriat 5110700 – “Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi reyting baholarining jamg‘arma varaqalari hamda Xorijiy tilni bilish va kasbiy bilim darajasi bo‘yicha test sinovi natijalari.

Ekonometrik modelni tuzish amaliy dasturiy ta’minot sinfiga kiruvchi hamda ekonometrik tahlil va modellashtirish uchun mo‘ljallangan **gretl 2022c** dasturidan foydalangan holda amalga oshirildi.

Dastavval, binar o‘zgaruvchi va omillarni o‘zaro bir-biriga bog‘liqligini tahliliy o‘rganish maqsadida, ikkita o‘quv guruhi (65 nafar) talabalarining 2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlariga tayangan holda korrelyatsiya koeffitsiyentlari aniqlandi hamda ular korrelyatsiya matritsasida aks ettirildi.

**3-jadval. Da’vogar talabalar ro‘yxati**

№	F.I.SH.	Xorijiy tilni bilish darajasi, ball	Kasbiy bilim darajasi, ball	Malakaviy amaliyot, baho	Kurs ishi, ball
		$x_1$	$x_2$	$x_3$	$x_4$
1	Allanazarova D.F.	14	12	4,0	80
2	O‘roqova M.B.	13	12	4,0	80
3	Panjiyev A.S.	12	13	4,0	65
4	Xurramov S.SH.	11	13	5,0	97
5	Boboyeva F.A.	12	14	4,5	87
6	Botirova K.Z.	12	13	3,5	75
7	G‘aniyeva R.R.	13	14	3,5	74
8	Ibragimova M.J.	11	13	5,0	85
9	Kaxarova M.A.	14	12	3,0	60

So‘ngra, omillarning binar o‘zgaruvchiga ta’sirini hamda bog‘liqligini aniqlash uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlarining matritsasi tahlil qilindi. Yuqorida qayd etilgan omillarning ( $x_1, x_2, x_3, x_4$ ) binar o‘zgaruvchiga ( $y: y=1; y=0$ ) ta’siri aniqlandi. Natijada, binar o‘zgaruvchi (natijaviy omil) bilan kuchsizroq bog‘lanishda bo‘lgan omillar chiqarib tashlanib, **gretl 2022c** dasturi yordamida probit modeli yaratildi.

$$P_i = F(\beta_0 + \sum_{j=1}^k \beta_j x_{ij}) = F(-31,238 + 1,690 * x_1 + 1,279 * x_2) \quad (8)$$

Model sifati pseudo-R<sup>2</sup> va McFadden-R<sup>2</sup> haqiqatga o‘xshashlik munosabati (LRI) indeklari yordamida baholandi. Binar tanlov modellari uchun pseudo-R<sup>2</sup> va McFadden-R<sup>2</sup> (LRI) indeklari R<sup>2</sup> - determinatsiya koeffitsiyentining analoglari hisoblanadi. Tuzilgan model uchun ushbu indeklarni hisoblashda haqiqatga o‘xshashlik funksiyasining maksimum qiymatini  $L(\bar{\alpha})$ , shuningdek, konstantadan  $\alpha_0$  tashqari, barcha parametrlari nolga teng bo‘lgan, haqiqatga o‘xshashlik funksiyasining chegaralangan maksimum qiymatini  $L(\alpha_0)$  bilish zarurdir. E’tibor beradigan bo‘lsak, bunda chegaralangan va chegaralanmagan haqiqatga o‘xshashlik funksiyasi uchun  $L(\bar{\alpha}) \geq L(\alpha_0)$  tengsizligi bajariladi. Ushbu qiymatlar farqi qanchalik katta bo‘lsa, tuzilgan model sifati shuncha yuqori bo‘ladi.

pseudo-R<sup>2</sup> va McFadden-R<sup>2</sup> (LRI) indeklari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$R_{pseudo}^2 = 1 - \frac{1}{1 + \frac{2}{n} \cdot (L(\bar{\alpha}) - L(\alpha_0))} \quad (9)$$

$$R_{McF}^2 = 1 - \frac{L(\bar{\alpha})}{L(\alpha_0)} \quad (10)$$

bu yerda, n – tanlanmadagi kuzatuvlar soni (umumiy talabalar soni).

Bu indeks 0 dan 1 gacha qiymatlarni qabul qiladi. Indeks qiymatlari 1 ga qancha yaqin bo‘lsa, model sifati shuncha yuqori bo‘ladi.

Tadqiq etilayotgan obyekt uchun faqatgina konstantani  $\alpha_0$  hisobga olgan holda tuzilgan probit-model, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

$$P_i = F(\beta_0) \quad (11)$$

(8) formulada keltirilgan probit-model uchun haqiqatga o‘xshashlik funksiyasining chegaralanmagan maksimum qiymati  $L(\bar{\alpha}) = -8,846236$  ga, (11) formulada keltirilgan probit-model uchun haqiqatga o‘xshashlik funksiyasining chegaralangan qiymati esa  $L(\alpha_0) = -40,89586$  ga teng ekanligi aniqlandi. Bu qiymatlar chegaralangan va chegaralanmagan haqiqatga o‘xshashlik funksiyalari uchun  $L(\bar{\alpha}) \geq L(\alpha_0)$  tengsizlik bajarilganligini, ular orasida sezilarli farq borligini  $L(\bar{\alpha}) - L(\alpha_0) = 32,0496$ , hamda model sifati statistik jihatdan yuqori darajada ekanligini anglatadi.

Ushbu qiymatlar (9) hamda (10) formulalarga qo‘yib hisoblanganda, pseudo-R<sup>2</sup> indeksi (0,49651) va McFadden-R<sup>2</sup> (LRI) indeksi (0,78369) qiymatga ega bo‘lganligini ko‘rish mumkin. pseudo-R<sup>2</sup> = 0,5 hamda McFadden-R<sup>2</sup> = 0,8 qiymatlari 1 ga yaqinligi esa, model sifati yuqori ekanligini bildiradi.

Umumiy, regressiyaning ahamiyatliligi Xi-kvadrat (64,0992) va uning p-qiymati (0,0000<0,05) tomonidan tasdiqlandi.

Tuzilgan modelning prognoz qilish imkoniyatlarini baholash uchun modelning empirik ma’lumotlarga muvofiqligi o‘lchovi sifatida  $y_i$  o‘zgaruvchisi va  $P_i$  modelining nazariy qiymatlari o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Buning uchun, avvalambor, modelning nazariy qiymatlari ma’lumotlar bazasiga saqlanishi kerak. So‘ngra,  $y_i$  o‘zgaruvchisi va  $P_i$  modelining nazariy qiymatlari o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash mumkin.

Hisoblash natijalariga ko‘ra, korrelyatsiya koeffitsiyenti  $\text{corr}(Y, YR) = 0,886418 \approx 0,89$  ni, Student statistikasi (mezoni)  $t(63) = 15,1998$  ni tashkil etdi. Bu esa, korrelyatsiya

koefitsiyenti qiymati modelning empirik ma’lumotlarga muvofiqligini, Student statistikasi (mezoni) qiymati korrelyatsiya koefitsiyentining statistik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ko’p hollarda binar tanlov modellari o’zgaruvchanlikni izohlashning past darajasiga ega. Ko’rib chiqilayotgan holat uchun esa, buning aksi ekanligiga guvoh bo’lish mumkin. Bu o’z navbatida, Makfadden R-kvadrati (0,783689) va To’g’irlangan R-kvadrat (0,710332), korrelyatsiya koefitsiyentlarini yuqori qiymatlarga egaligi bilan izohlanadi.

Keyingi bosqichda,  $Y$  binar o’zgaruvchining haqiqiy qiymatlari  $P_i$  ning hisoblangan qiymatlari bilan taqqoslandi. Buning uchun, avvalambor, model qoldiqlari ma’lumotlar bazasiga saqlandi. So’ngra,  $YP$  matritsa yaratib olindi.

$Y$  - binar o’zgaruvchining haqiqiy qiymatlarini  $P_i$  ning hisob qiymatlari bilan juft-juft taqqoslash natijalari quyidagi xulosaga kelishimizga imkon berdi: 65 ta holatning 60 (92,3%) tasiga aniq prognoz qilish mumkinligini, ya’ni talabalarni ta’limning keyingi bosqichida o’qishini davom ettirishi (yoki aksincha)ga tavsiya berish (yoki bermaslik) mumkinligini ko’rsatdi.

**4-jadval Probit-modeli uchun o’rta nuqtada ta’limning keyingi bosqichida o’qishini davom ettirishi (yoki ettirmasligi) mumkin bo’lgan talabalar ehtimoliga izohlovchi o’zgaruvchilar ta’sirining chegaraviy samarasi**

№	Omillar	O’rtacha qiymat, $\bar{x}_r$	Parametr bahosi, $\alpha_r$	$\bar{x}_r \cdot \alpha_r$	Taqsimot zichligi, $f(z)$	Chegaraviy samara, $\alpha_r \cdot f(z)$
1	x1	10,877	1,6903	18,3854	0,1228	0,2075
2	x2	11,246	1,27941	14,3882	0,1228	0,1571
3	const	1	-31,2384	-31,2384	-	-
	$\Sigma$	-	-	1,5352		-

4-jadvalda keltirilgan ma’lumot chegaraviy samara to’g’risida axborot beradi. Uni quyidagicha talqin qilish mumkin. Chegaraviy samara xorijiy tilni bilish darajasi bo’yicha to’plagan ball (izohlovchi o’zgaruvchining qiymati) bir birlikka ortishi bilan talabani ta’limning keyingi bosqichida o’qishini davom ettirish ehtimoli 0,2075 birlikka, ya’ni 20,7 foizga oshishini, kasbiy bilim darajasi bo’yicha to’plagan ball (izohlovchi o’zgaruvchining qiymati) bir birlikka ortishi bilan esa talabani ta’limning keyingi bosqichida o’qishini davom ettirish ehtimoli 0,1571 birlikka, ya’ni 15,7 foizga oshishini ko’rsatadi.

So’ngra, ta’limning keyingi bosqichida o’qishini davom ettirish istagida bo’lgan da’vogar talabalar orasidan birinchi navbatda qaysi biriga tavsiya berilishi kerak bo’lganlarini tanlash uchun tuzilgan probit-modelidan foydalanildi. Natijada, 5-jadvaldagi ma’lumotlarga ega bo’ldik.

**5-jadval Probit model orqali da’vogar talabalarga tavsiya berishning ehtimollik prognozlari**

№	Da’vogar talabaning jurnaldagi tartib raqami	Da’vogar talabalarga tavsiya berish ehtimollik prognoz qiymatlari	Tavsiya pozitsiyasi



1	6	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 14 + 1,279 * 12) = F(7,77872) =$ $= 0,9999999999999996$	2
2	15	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 13 + 1,279 * 12) = F(6,08842) =$ $= 0,999999999430038$	4
3	16	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 12 + 1,279 * 13) = F(5,67753) =$ $= 0,9999999993169584$	5
4	30	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 11 + 1,279 * 13) = F(3,98723) =$ $= 0,999966583482817$	6
5	38	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 12 + 1,279 * 14) = F(6,95694) =$ $= 0,9999999999998262$	3
6	39	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 12 + 1,279 * 13) = F(5,67753) =$ $= 0,9999999993169584$	5
7	42	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 13 + 1,279 * 14) = F(8,64724) = 1$	1
8	43	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 11 + 1,279 * 13) = F(3,98723) =$ $= 0,999966583482817$	6
9	46	$P_i = F(-31,238 + 1,690 * 14 + 1,279 * 12) = F(7,77872) =$ $= 0,9999999999999996$	2

Probit model orqali hisoblangan ehtimollik prognoziga ko‘ra (5-jadval ma’lumotlari asosida), ta’limning keyingi bosqichida o‘qishini davom ettirish istagida bo‘lgan da’vogar talabalardan birinchi o‘rinda 7-raqamdagi (jurnal bo‘yicha 42), ikkinchi o‘rinda 1 (6)- va 9 (46)-raqamlardagi, uchinchi o‘rinda 5 (38)-raqamdagi, to‘rtinchi o‘rinda 2 (15)-raqamdagi, beshinchi o‘rinda 3 (16)- va 6 (39)-raqamlardagi, oltinchi o‘rinda 4 (30)- va 8 (43)-raqamlardagilarga tavsiya berish mumkinligi aniqlandi.

**Xulosa.** Shunday qilib, ekonometrik modellashtirishning yakuniy natijalari asosida umumiy xulosa chiqarishga harakat qilamiz.

Tadqiq etilayotgan obyekt uchun tuzilgan probit-model ahamiyatli va undan amaliy maqsadlarda, oliy ta’lim muassasalari talabalarini ta’limning keyingi bosqichida (magistraturada) o‘qishini davom ettirishlari uchun tavsiya etishda yetarlicha ishonchlilik bilan prognozini amalga oshirishda foydalansa bo‘ladi.

Bundan tashqari, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga, innovatsion ishlanmalarga qiziqishi hamda ta’lim natijalari va yutuqlari yuqori bo‘lgan, bakalavriat bosqichida

tahsil olayotgan (yoki bakalavriat bosqichini bitirgan) iqtidorli talabalarni saralashga ham imkon beradi.

Bu esa o‘z navbatida, “tadqiqot institutlari”ga sifatli, intellektual salohiyatli kadrlar qabul qilish jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, fikrimizcha, mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning bevosita asoschisi bo‘lgan intellektual salohiyat egalarini o‘qitish va tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarishga erishiladi.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/3171590>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/3286194>.
3. Zaripova M.D. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatining statistik tahlili va prognozlashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss... avtoref. – Urganch, 2023. – 67 b. <https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO8870fO1.file>
4. Азгальдов Г.Г., Райхман Э.П. Экспертные методы в оценке качества товаров // М.: Издательство - Экономика, 1974 г. - 151 стр.

ПРОИЗВОДСТВО ЗНАНИЙ В УНИВЕРСИТЕТАХ КАК СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД  
К НАУЧНОЙ, ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ПОЛИТИКЕ:  
ПРИМЕР УЗБЕКИСТАНА

Юнусов Алишер Рузматович

Ферганский государственный университет, Узбекистан, Доцент

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159576>

**Annotatsiya.** Maqola O‘zbekiston Respublikasi innovatsion tizimining shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan. Maqolada “fan”, “ta’lim” va “innovatsiya” kabi ilgari mustaqil bo‘lgan uchta murakkab tizimni birlashtirish muqarrarligi, innovatsion tizimning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi sabablar va omillar, muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi va tavsiflanadi. universitetlar korxonalarga qisqa va uzoq muddatda raqobatbardosh afzalliklarni taqdim etishi mumkinligi, iqtisodiyotdagi innovatsion jarayon mamlakatdagi innovatsiyalarning harakatlantiruvchi omillaridan biri hisoblanadi. Milliy innovatsion tizim yaratilishining o‘zbek modeli tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** “fan”, “ta’lim” va “innovatsiya”, “bilimlar uchburchagi”, universitetlarning asosiy vazifalari, bilimlarni uzatish tizimi, Milliy innovatsion tizim.

**Аннотация.** Статья посвящена формированию и развитию инновационной системы Республики Узбекистан. В статье анализируется и описывается неизбежность объединения трех ранее самостоятельных сложных систем "наука", "образование" и "инновации", причины и факторы, влияющие на формирование и развитие инновационной системы, проблемы и пути их решения, отмечается, что университеты могут обеспечить конкурентные преимущества предприятий в краткосрочной и долгосрочной перспективе, инновационный процесс в экономике и являются одним из драйверов инноваций в стране. Анализируется узбекская модель построения НИС.

**Ключевые слова:** "наука", "образование" и "инновации", "треугольник знаний", основные функции университетов, система передачи знаний, Национальная инновационная система.

**Abstract.** The article is devoted to the formation and development of the innovation system of the Republic of Uzbekistan. The article analyzes and describes the inevitability of combining three previously independent complex systems "science", "education" and "innovation", the causes and factors influencing the formation and development of the innovation system, problems and solutions, points out that universities can provide competitive advantages of enterprises in the short and long term, the innovation process in the economy and are one of the drivers of innovation in the country. Uzbek model of building NIS is analyzed.

**Keywords:** "science", "education" and "innovation", "knowledge triangle", basic functions of universities, knowledge transfer system, National Innovation System.

## 1. Введение

### 1.1. Инновационный Университет- ключ к наукоемкой экономике?

Основной причиной глубоких трансформационных процессов, через которые проходит сегодня большинство стран, является резко ускорившийся, особенно в течение второй половины XX в. прогресс знаний, увеличение их объема, объема информации и вследствие этого постепенный переход к новой парадигме общественного развития. Глобализация экономики, а также постоянные технологические изменения, революция в

информационных и коммуникационных технологиях и вызванный ими быстрый темп социальных перемен сопровождаются ростом мобильности труда и капитала и созданием общества, в котором особую ценность имеют знания.

Сказанное делает неизбежным объединение трех ранее самостоятельных сложных систем «наука», «образование» и «инновации». Объединение происходит на основе системных принципов, с учетом уникальности каждой системы и в их тесном взаимодействии.

Высокая степень сложности нового формирования «наука — образование — инновации» или «Треугольника знаний» заставляет задуматься о способах взаимодействия между входящими в нее подсистемами, среди которых важное место занимают университеты. Повышение их роли в период становления экономики, основанной на знаниях, отмечают многие исследователи. Perez Vico E., Schwaag Serger S., Wise E. and Benner M считают, что уникальность университетов заключается в том, что они являются производителями, распространителями, хранителями и пользователями знаний и информации, т. е. владеют ключом к наукоемкой экономике. [1]. Модель «треугольника знаний» подразумевает не только усиление образовательной, научной и инновационной составляющих, но и укрепление взаимосвязей между ними, а также масштабирование сопутствующих позитивных внешних эффектов. Unger M., Polt W. в Концепции «треугольника знаний» обосновывают связи между традиционными «базовыми» функциями вузов — преподаванием, научными исследованиями и общественной деятельностью. В рамках этой модели, реализуя образовательные программы и научные проекты, университеты генерируют знания, а многоаспектное взаимодействие с широкой общественностью помогает найти им применение в создании новых продуктов, процессов и услуг. «Треугольник знаний» формируется в результате взаимодействия трех упомянутых функций университетов за счет двунаправленного циркулирования между ними потоков знаний.[2]. Поэтому следует отказаться от традиционного представления о производстве знаний в университетах как линейном и последовательном процессе в пользу системного подхода к научной, образовательной и инновационной политике. Уникальность университетов заключается в том, что они являются производителями, распространителями, хранителями и пользователями знаний и информации, т. е. владеют ключом к наукоемкой экономике. Модель «треугольника знаний» подразумевает не только усиление образовательной, научной и инновационной составляющих, но и укрепление взаимосвязей между ними, а также масштабирование сопутствующих позитивных внешних эффектов[3]. А. Акбаров утверждает, система сотрудничества между Университетом и Промышленностью (University-Industry Collaboration) является одной из основных видов взаимодействия для обмена, развития и совершенствования между знаниями и технологиями и инновационной деятельностью. Однако, считает он, установление этой системы может быть затруднено [4 ]

## **2. Основная часть (методология, анализ, результаты)**

### **2.1 Как связать создание знаний с инновационной активностью- методология**

Благодаря своей всеохватности концепция «треугольника знаний» рассматривается как привлекательная основа для политики, задача которой — связать создание знаний с инновационной активностью. Однако она дает ограниченное представление о конкретных

способах развертывания подобных взаимодействий и управления ими ввиду различий в экономическом устройстве тех или иных стран и функциях университетов.

В развитых странах университеты и образование в целом имеют большое значение для поиска решений общих проблем адаптации к рыночной экономике и для развития научно-технологического прогресса.

Университетам Узбекистана еще предстоит найти свое место в данном процессе. От того, насколько общество способно производить новое знание и реализовывать с его помощью экономическую стратегию, зависят устойчивый экономический рост и уровень жизни населения страны. Миссии таких ведущих образовательных организаций Узбекистана как Национального Университета Узбекистана,(НУУ), Ферганского Государственного Университета( ФерГУ),Ферганского Политехнического Института (ФерПИ), Гулистанского Государственного Университета( ГулГУ), Самаркандского Государственного Университета( СамГУ), Ургенчского Государственного Университета( УргГУ), опираются на концепцию треугольника знаний и нацелены на сохранение и укрепление их роли как ведущих институтов узбекского высшего образования, осуществляющих основанную на научных исследованиях подготовку высококвалифицированных кадров, способных внести эффективный вклад в прогрессивное развитие Узбекистана; участвующих в развитии фундаментальной и прикладной науки как основ высокого качества образования и источников новых знаний и технологий для эффективного решения социальных и экономических проблем современного общества, развития культуры трансфера знаний и технологий. К настоящему времени в них сформированы необходимые институциональные предпосылки для создания системы трансфера знаний

Университеты , следуя опыту других стран, могут обеспечить конкурентные преимущества предприятий на ближайшую и долгосрочную перспективу, катализируя инновационный процесс в экономике. Для этого система образования должна играть ведущую роль в процессе преобразований, а инновации, создание новых предприятий, передача и распространение знаний должны стать первоочередными задачами высшего образования. Узбекским университетам необходимо осуществлять опережающее развитие образования и науки: использовать новые формы, механизмы, позволяющие вузу прогнозировать потребности предприятий, готовить специалистов с учетом этих потребностей и закономерностей развития предприятия, поощрять конкуренцию на пути к совершенству, развивать научно-исследовательскую инфраструктуру. Это актуальные на сегодняшний день проблемы, ибо сотрудничество между университетами и промышленными предприятиями в Узбекистане традиционно остается недостаточно эффективным, несмотря на динамичное развитие обеих сторон. В качестве основных причин, мешающих исправить существующее положение, называются:

- незаинтересованность со стороны профессорско-преподавательского состава университетов;
- разные сроки для исследования продукта: короткий и определенный срок для промышленности, продолжительный и гибкий — для университета;



- разные цели деятельности: промышленность ищет практическое применение, решает существующие проблемы, повышает качество и производительность; университет ищет новые знания, новые теории;
- соображения конфиденциальности со стороны предприятий, сталкивающиеся с желаниями университета публиковать и распространять знания;
- нехватка лабораторного и специального оборудования в университетах, которое к тому ещё уже морально устарело [5]

## **2.2.Анализ**

Узбекская модель построения НИС, исходя из существующей мировой практики и многих десятилетий формирования и развития системы фундаментальных и прикладных научных исследований, должна представлять собой что-то среднее между традиционной евроатлантической и восточноазиатской моделью, где университеты играют менее важную роль в инновационном процессе, чем например в странах указанных регионов. В нашей НИС это должны быть научно-исследовательские институты Академии Наук республики, особенно в нескольких прорывных направлениях – *электроника, физика солнца, химия и физика полимеров*. Необходима серьезная государственная поддержка для развития и внедрения исследований полупроводниковых материалов и использование научных заделов сфере нанотехнологий, учитывая перспективность исследований в данном направлении. По мнению экспертов, развитие нанотехнологии, основанное на интеграции целого ряда дисциплин: химии, физики, механики, материаловедения, электроники и т.д. затронет в ближайшие десятилетия практически все области деятельности человека.[4]

В остальных направлениях развитие носит характер имитационного типа развития или черты альтернативной модели формирования НИС, как, например, инновационное развитие Турции и Чили. Эти страны в своем инновационном развитии делают упор на подготовку высококвалифицированных кадров и развитие отраслей легкой промышленности, креативной индустрии; т.е. комплекса «креативных» технологий, объединивший свыше 10 подотраслей промышленности и услуг, связанных с промышленным и художественным дизайном. В этих странах всегда большое внимание уделялось текстильной промышленности, производству строительных материалов, а также отраслям high-hume (мода, национальная кухня( Ташкент, Нукус) национальное ремесленничество(Коканд, Ургут), международный и внутренний туризм в средневековые архитектурные сооружения в Самарканде, Бухаре, Хиве, и Шахрисябзе и др.). Именно эти отрасли на сегодняшний день являются локомотивами экономического роста.

Узбекистан, будучи центром туристической индустрии и находясь на перекрестке цивилизаций, обладает исключительными возможностями в рекреационной сфере. Данная сфера деятельности способствует зарождению необычных, поражающих западные страны формами искусства и выработкой эстетических стандартов у населения. Это интенсивно в настоящее время используется в инновационной деятельности – индустрии узбекской моды.

## **2.3.Результаты.**

***2.3.Создание инновационной инфраструктуры как главного звена в цепочке взаимодействия сферы генерации знаний и производства***

Начиная с 2005 года затраты на научно-технологические исследования в республике значительно увеличились, но по уровню финансирования НИОКР республика заметно отстает от среднемирового уровня. Большая часть научных исследований, как уже отмечалось, финансируется государством. Частный сектор фактически не участвует в инновационном процессе. В республике венчурные фонды не получили широкого развития, а малый и средний бизнес не очень охотно вкладывает средства в инновации из-за высокой рискованности инновационных проектов, отсутствия финансовых средств.

Это свидетельствует о том, что хотя в Узбекистане имеются основные компоненты национальной системы исследований и разработок, актуальной задачей является формирование инновационной инфраструктуры как главного звена в цепочке взаимодействия сферы генерации знаний и производства.

Последние несколько лет Узбекистан создает условия для развития Национальной Инновационной Системы и активно пытается внедриться в орбиту экономики знания. Обеспечение эффективного взаимодействия науки, образования и производства является важнейшим условием повышения конкурентоспособности Узбекистана на мировой арене.

В [Указе](#) Президента от 06.07.2022 г. №УП-165 «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы» утверждены:

- Стратегия инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 гг.;

- Целевые показатели реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 гг.

- Как известно, Научно- Исследовательские и Опытно Конструкторские Разработки-НИОКР включает в себя три основные группы деятельности: фундаментальные исследования; прикладные исследования; опытно-конструкторские и технологические разработки. Национальные расходы на НИОКР считаются одним из ключевых показателей научно-технического развития страны. По данным Государственного Комитета по Статистике Республики Узбекистан, доля затрат на НИОКР в ВВП Республики Узбекистан остается очень низким на уровне 0,21% от ВВП в 2016 году , 0,12% - 2018 году, 0,11% -2019 году, 0,14% -2020 году, 0,15% 2021году. , что намного ниже уровня развитых и быстроразвивающихся стран . Так, в США и Германии 2017 году доля расходов на НИОКР составила 2,8%, в Японии – 3,3%, а в Южной Корее – 4,2%.%. Самые высокие расходы на науку в 2018 году нес Израиль – 4,95% к ВВП. Далее следует Южная Корея- 4,81% и Япония – 3,26%. В принятой Стратегии инновационного развития Узбекистана на 2022-2026 годы долю затрат на НИОКР в ВВП страны предусмотрено увеличить до 0,24 %.

1-января 2021 года в Узбекистане насчитывалось 254 организации, выполнивших научно —исследовательские и опытно — конструкторские разработки. В том числе в государственном секторе — 108, предпринимательском – 79, в системе высшего образования- 65, частном некоммерческом секторе -2.

В результате реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019 — 2022 годы достигнуты большие успехи в обеспечении и стимулировании инновационного и технологического прогресса в отраслях экономики и социальной сфере, в том числе сельском хозяйстве, энергетике, строительстве,

образовании, здравоохранении. В частности: в 2021 году республика поднялась на 36 позиций по сравнению с 2015 годом в рейтинге Глобального инновационного индекса, который оценивается по 81 индикатору; Если на 2021 год Узбекистан [располагался](#) на 86-м месте из 132, то сейчас достиг 82-го. Среди стран Центральной и Южной Азии республика занимает третье место — после Индии и Ирана. Наряду с Пакистаном и Индонезией Узбекистан [вошёл](#) в число «стран, достигающих инновации» (Innovation Achievers). Показатели инновационной деятельности превышают ожидаемые при текущем уровне экономики. [7]

Индекс оценивает инновационное развитие стран с разным экономическим уровнем на основе 81 показателя, разделённых на два субиндекса.

- Субиндекс доступных ресурсов и условий для внедрения инноваций — сюда относятся уровень развития институтов, человеческий капитал, исследования, инфраструктура, состояние внутреннего рынка и бизнеса.

- Субиндекс практических результатов инноваций — в него входят развитие технологий и экономики знаний, а также результаты творческой деятельности.

В субиндексе условий для инноваций Узбекистан улучшился на 7 позиций и достиг 75-й строки. По субиндексу результатов инноваций позиция страны выросла на 18 строк, до 100-го места. Отмечается, что Узбекистан стал десятым в группе стран с уровнем дохода ниже среднего, заняв лидирующие позиции среди них по развитию человеческого капитала, уровню инфраструктуры и развитию внутреннего рынка. Первое место в рейтинге заняла Швейцария. Китай стал 12-м. Среди стран СНГ Россия стала 45-й, Казахстан — 79-м. Азербайджан расположился на 80-м месте, Кыргызстан — на 98-м, а Таджикистан — на 103-м.

### **3. Заключение и выводы**

Задачи инновационного развития государства: становление инновационного потенциала, в основе которого будут высокообразованные граждане;

- увеличение инвестиционной активности современных технологических укладов;
- модернизация экономики государства;
- создание конкурентоспособного сектора исследований, разработок и условий для его расширенного воспроизводства;
- привлечение инвестиций для развития инновационной области республики;
- разработка индикаторов инновационной деятельности и развитие системы ее мониторинга;
- привлечение ученых и молодёжи в науку республики

Таким образом, Узбекистан, который использует альтернативную модель инновационного развития, базируется на исторические, национальные особенности страны. В инновационном развитии ориентируется не только на разработку, а на заимствование новых инновационных технологий, их усовершенствование, распространение и введение в производство. Инновационная экономика государства формируется эволюционно на основе концептуальных основ проектирования, разработки, создания и внедрения инновационных технологий субъектами хозяйствования. Инновационная активность предприятий и организаций играет основную роль в выполнении основных целей развития экономики республики. Эти цели связаны с повышением конкурентоспособности экономики и благосостояния населения. Для этого необходимо создание таких условий, при

которых инновационная активность предприятий будет получать полную поддержку для выполнения их инновационной деятельности.

### **REFERENES**

1. Perez Vico E., Schwaag Serger S., Wise E. and Benner M. (2017) Knowledge Triangle Configurations at Three Swedish Universities. -[http://link.springer.com/pdf/10.1007/978-3-030-81346-8\\_10](http://link.springer.com/pdf/10.1007/978-3-030-81346-8_10) pdf
2. Unger M., Polt W. (2017) The Knowledge Triangle between Research, Education and Innovation — A Conceptual Discussion. Foresight and STI Governance, vol. 11, no 2, pp. 10– 26. DOI: 10.17323/2500-2597.2017.2.10.26] see also: M. Unger & Giulia A. Marsan & D. Meissner & W. Polt & M. Cervantes, 2020. "[New challenges for universities in the knowledge triangle](#)," [The Journal of Technology Transfer](#), Springer, vol. 45(3), pages 806-819.
3. A.Yunusov, N.Yunusov ÖZBEKİSTAN'DA ULUSAL İNOVASYON SİSTEMİNİN OLUŞTURULMASINDA KİLİT BİR UNSUR OLARAK "BİLGİ ÜÇGENİ" ÇERÇEVESİNDE ÜNİVERSİTE Ases V. International Conference On Social Sciences March 17-19, 2023, Ankara, Türkiye , s.298-306
4. [https://telegra.ph/Universitet-va-sanoat-korhonalari-hamkorligi--Universitet-40-07-14 // 22 07 2022](https://telegra.ph/Universitet-va-sanoat-korhonalari-hamkorligi--Universitet-40-07-14-//22-07-2022)
5. Национальная база данных законодательства, 07.07.2022 г., № 06/22/165/0615; 10.02.2023 г., № 06/23/21/0085; 04.07.2023 г., № 06/23/107/0441
6. [Указ](#) Президента Республики Узбекистан от 06.07.2022 г. №УП-165 «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы»,
7. <https://globalstocks.ru/wp-content/uploads/2022/10/wipo-pub-2000-2022-exec-ru-global-innovation-index-2022-15th-edition.pdf>

**IQTISODIYOT VA TA’LIM UZVIYLIGI  
TARAQQIYOT OMILI:  
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**\*\*\***

**ECONOMIC AND EDUCATIONAL  
INTEGRATION AS A DEVELOPMENT  
FACTOR: ISSUES AND SOLUTIONS**

**\*\*\***

**ЭКОНОМИЧЕСКАЯ  
И ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ  
КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ:  
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**



## **RELATIVE IMPORTANCE OF FACTORS AFFECTING SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS**

**<sup>1</sup>Sabirov Khasan Nusratovich, <sup>2</sup>Talibjanov Khurshidbek**

<sup>1</sup>Head of the Department of Industrial Management and Digital, Technologies of the International Nordic University, <sup>2</sup>Master's student of Foreign Economic Activities at the University of World Economy and Diplomacy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160206>

***Annotasiya.** Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasidagi kichik biznes sohasini barqaror rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liqlik ahamiyatini ko‘rib chiqdik va bu sohani istiqbolli ko‘rsatkichlarini ifodaladik. Ekonometrik modellashtirishda keng foydalaniladigan korrelyasion-regression tahlil usulidan hamda prognozlashtirish jarayoni uchun ARIMA modelining tarkibiy qismidan foydalanildi. Tadqiqot ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi portalidan olindi va hisob-kitob jarayonida foydalanildi. Shuningdek, ma’lumotlar tahlili jarayonida determinasiya ( $R^2$ ), korrelyasiya koeffitsiyentlari ( $r_{y/x}$ ), Darbin-Uotson testi (DW) va Fisher mezonini ( $F$ -distribution) testlardan foydalanildi.*

***Kalit so‘zlar:** kichik biznes, model, tadbirkorlik, yalpi ichki mahsulot, Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi, AR model.*

***Аннотация.** В данном исследовании мы рассмотрели важность зависимости от факторов, влияющих на устойчивое развитие сектора малого бизнеса в Республике Узбекистан, и представили перспективные показатели этого сектора. Данные исследования были получены с портала Статистического комитета Республики Узбекистан и использованы в процессе расчетов. Кроме того, при анализе данных использовались критерии определения ( $R^2$ ), коэффициенты корреляции ( $r_{y/x}$ ), тест Дарбина-Ватсона (DW) и критерий Фишера ( $F$ -распределение).*

***Ключевые слова:** малый бизнес, модель, предпринимательство, валовой внутренний продукт, производственная функция Кобба-Дугласа, AR-модель.*

➤ Biz sanoat, ta'lim va tadqiqotni integratsiyalash orqali hamkorlikda innovatsiyalar mexanizmini takomillashtiramiz va innovatsiyalar zanjiri va sanoat zanjirida ilmiy va texnologik xizmatlar o'rtasidagi samarali aloqalarni mustahkamlaymiz.

➤ Ilm-fan va texnologiyani moliyalashtirishning ilg'or rivojlanishini amalga oshirish, ilm-fan va texnologiya xizmati innovatsiyalariga bo'lgan talabni qondirish uchun institutsional tartibga solishdan boshlab.

➤ Biz barcha turdagi ilmiy va texnologik innovatsiyalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beramiz va bunday xodimlar uchun mustahkam xizmat ko'rsatish zanjirini yo'lga qo'yamiz.

Yuqoridagi xulosalar asosida ilmiy-texnikaviy xizmatlarga innovatsiyalar tizimini joriy qilish uchun kafolatlar olishimiz kerak. Ilmiy-texnologik innovatsiyalar tizimi sanoatning iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlash va dunyodagi sanoat sektorini yanada konkurensiyaga ega qilishga imkon beradi. Bu esa ishlab chiqarishni rivojlantirish, bozorlarni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishni ta'minlaydi.

### **REFERENCES**

1. W. Zhenxin, X. Xiaojing, W. Shuping. Analysis of the impact of economic growth and industrial. Web of Conferences 235, 02008 (2021) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202123502008>. China management science, 2012,20 (03): 161-166.
2. Mustafakulov S. Investment attractiveness of regions: Methodic aspects of the definition and classification of impacting factors //European Scientific Journal. – 2017. – T. 13. – №. 10. – C. 433-449.
3. <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2018/06/impact-of-science-and-technology-on-global-economic-growth-mokyr>
4. <https://vietnamnews.vn/society/1194119/science-technology-innovation-pushed-for-economic-development.html>
5. I.Normatov, Sanoat korxonalarini iqtisodiy-investitsion rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 3. – c. 42-49.



## **RAHBAR KADRLAR VA ULARNING FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

**Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li**

Toshkent moliya instituti o‘qtuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160277>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada rahbar kadrlar faoliyatini takomillashtirish, rahbar faoliyatining natijalarini baholash, ularning ish samaradorligini oshirish hamda rahbar kadrlarning faoliyat samaradorligini baholashda kutilayotgan natijalarga yo‘naltirilgan baholash mezonlar to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tashkilot rahbari, rahbar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari, rahbar samaradorligi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются критерии оценки, направленные на повышение эффективности управленческого персонала, оценку результатов управленческой деятельности, повышение их результативности, а также ожидаемые результаты при оценке результативности управленческого персонала.*

***Ключевые слова:** руководитель организации, критерии оценки эффективности управленческой деятельности, эффективность управления.*

***Abstract.** This article discusses the evaluation criteria aimed at improving the efficiency of management personnel, assessing the results of management activities, increasing their effectiveness, as well as the expected results when assessing the effectiveness of management personnel.*

***Keywords:** head of the organization, criteria for assessing the effectiveness of management activities, management efficiency.*

### **Kirish**

Respublikamizda amalga oshayotgan barcha islohotlarning samarasi boshqaruvni takomillashtirishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi. Boshqaruvning bekami ko‘stligi va mukammalligi maqsadni aniqlashtirish, faoliyatni tashkillashtirish hamda ijroni nazorat etishni nazarda tutadi. Shu sababli, boshqaruv kadrlariga bo‘lgan talablar, ularning malakasi va kompetentligini aniqlash masalasi muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Turli sohalarda rahbar kadrlarni tayinlashda nomzodlarni tanlash va ularning boshqaruv salohiyatini baholash imkonini beruvchi uslublar ilmiy asoslangan bo‘lishi va eng asosiysi – ularning prognozlik ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

### **1-jadval** Rahbarlik uslublarining xususiyatlari

<b>Uslublar</b>	<b>Avtoritar</b>	<b>Demokratik</b>	<b>Liberal</b>
Qaror qabul qilish	o‘zining fikriga tayanadi	guruh maslahatlariga tayanadi	ko‘rsatmalarga tayanadi
Qarorlarni bajaruvchilarga etkazish	buyruq, farmoyish orqali	taklif orqali	iltimos qilish orqali
Majburiyatlarni taqsimlash	butunlay rahbar qo‘lida	vakolatlariga muvofiq	bajaruvchilar qo‘lida
Qo‘l ostidagilarning tashabbuskorligiga	yo‘l qo‘yiladi	rag‘batlantiradi va foydalanadi	butunlay bajaruvchilarga

munosabati			beriladi
Xodimlarni saralash tamoyillari	kuchli raqobatchilardan qutulish	ishbilarmon, bilimli xodimlarni tanlash va ularning kar’erasiga ko‘maklashish	-
Bilimga munosabati	barcha narsani o‘zi biladi deb hisoblaydi	doimo o‘qiydi va qo‘l ostidagilardan ham shuni talab qiladi	befarq
Muloqotga munosabati	salbiy, masofa saqlaydi	ijobiy, muloqotga faol kirishadi	tashabbus ko‘rsatmaydi
Xodimlarga munosabati	kayfiyatiga qarab, teng emas	teng, samimiy, talabchan	talabchan emas
Intizomga munosabati	qattiq, rasmiy	o‘rinli	yumshoq, rasmiy
Ishga undashga munosabati	jazolash, kamdan-kam rag‘batlantirish	rag‘batlantirish, kamdan-kam jazolash	aniq yo‘nalish yo‘q

Rahbardagi mavjud boshqaruv uslubi turli vazifalar yoki munosabatlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi [6].

Ikkinchi yondoshuv – vaziyatli yondashuv. Ushbu yondashuv vaziyatni baholash va hisobga olishga qaratilgan bo‘lib, rahbarning xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi uchta omilni ilgari suradi:

- a) jamoa va rahbar o‘rtasidagi munosabatlar;
- b) vazifalarning tuzilmaviy bo‘lishligi;
- v) rahbarning lavozim vakolatlari.

Hozirgi vaqtda amaliyotda boshqaruv kadrlari faoliyati samaradorligini baholash masalasiga yagona yondashuv mavjud emas. Bu aynan boshqaruv kadrlarining ishfaoliyati va uning natijalari, ijtimoiy faoliyati, korxonada va tashkilotning iqtisodiy rivojlanishi va boshqa ko‘plab jihatlar bilan bog‘liq bo‘lgan mehnatjarayonining murakkabligi bilan bog‘liq.

Shunga qaramay, amaliyotda rahbar kadrlar ishini baholashda quyidagi yondashuv usullari qo‘llaniladi [7]:

1. Kundalik ish tartibi tuzilishining samaradorligini aniqlash usuli;
2. Ish vaqtidan foydalanishni baholash usuli;
3. Ekspert standartlashtirish usuli;
4. Ekspert baholash usuli.

Boshqaruv kadrlarining faoliyat samaradorligini baholash – rahbarning kasbiy fazilatlari darajasi, boshqaruv faoliyatining miqdoriy va sifat natijalari uning professiogramma talablariga mos kelishini taqqoslashni anglatadi. Keyingi usul natijalarini aniqlashda o‘rganilayotgan rahbarning 3 nafar bevosita yuqori turuvchirahbarlari ishtirok etdilar.

Har kuni muntazam ravishda o‘z ishini puxta rejalashtirishga 10 daqiqa vaqt sarflaydiganlar har kuni bir soatdan ko‘proq vaqtini tejashga, shuningdek muhim masalalarni aniqroq va yaxshiroq bajarishga erishadilar.

Rahbarning o‘z-o‘zini boshqarishda vaqtni rejalashtirishning afzalliklari maqsadga erishish, vaqtning ortishi va qo‘shimcha vaqt zahiraloriga ega bo‘lish, samaradorlik, stressni kamaytirish hamda rahbarning o‘z ishini nazorat qilish va takomillashtirishga imkon beradi.

### **Xulosa va takliflar**

Natija shuni anglatadiki, rahbar boshqaruv faoliyatida birinchi bo‘lib eng muhim vazifalarni amalga oshirishga kirishadi. So‘ngra istiqbolli vazifalarni hal qilishga harakat qiladi. Bu undagi kasbiy malakasi yaxshi ekanligini anglatadi. Rahbarning mukammal kasbiy malakaga ega bo‘lishi tashkilot ishining samaradorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Aynan ushbu natijalar asosida o‘rganilgan rahbarga ish vaqtdan ratsional tashkil qilish bo‘yicha ayrim tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin. Chunki, rahbarlik faoliyatida istiqbolli masalalarga e‘tibor qilish ham muhim omillardan hisoblanadi.

Rahbarning faoliyat samaradorligini oshirish uning faoliyatida bir qancha natijadorlik kasb etishi bilan birgalikda tashkilot faoliyatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Rahbar bu borada vaqtdan unumli foydalanish, o‘zi va jamoa oldiga maqsad qo‘ya olish, maqsad sari intilish, tezkor va istiqbolli qarorlar qabul qilish, strategiya va taktika ishlab chiqish hamda ularni amalga qo‘llash, eng asosiysi doimiy ravishda o‘zida boshqaruv bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun harakat qilishi lozim. Qolaversa, xodimlarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish haqida o‘ylash kerak.

### **REFERENCES**

1. Sharonin Yu.V. Sifrovые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной Smart-didaktiki k blokcheynu v selevoy podgotovke specialistov // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1
2. Abdullayev, M., Saidahrar, G., & Ayupov, R. (2020). Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 1(23).
3. У.А. Ортиков Ойбек Ҳамлетов. ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЭКО-INNOVACIY OSNOVY I OPLYT VEDUSHCHIH STRAN. «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» 2023/06/03
4. Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li, Xasanov Jaxongir Jamshidovich. KORXONA RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMI (ERP) ORQALI BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH. World of Science, 2023
5. Улуғбек Ортиқов, Жаҳонмирзо Мирзаҳалимов. КОРХОНАЛАРДА ХОДИМЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ УСУЛЛАРИ. Академические исследования в современной науке, 2023
6. УА Ортиков, СИ Қўчқоров. ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЭКО-INNOVATSIY OSNOVY I OPLYT VEDUSHCHIH STRAN. овести образования: исследование в XXI веке, 2023
7. Улуғбек Ортиқов, Суннат Эсанбеков. КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 2023

8. Ulug‘bek Ortiqov, Yulduz Nasimova. RISKNI BARATARAF ETISHDA B2B BIZNES MODELINI QO‘LLASH MEXANIZMLARI. Наука и инновация, 2023
9. Ulug‘bek Ortiqov, Ismoil Ismoilov. RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISH SHAROITIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL ETISH. Наука и инновация, 2023

## **RAQAMLI IQTISODIYOT VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI DARS JARAYONLARIDA QO‘LLASH MEXANIZMLARI**

**<sup>1</sup>Nematova Shaxlo Egamberdiyevna, <sup>2</sup>Shermatova Hilola Mirzayevna**

<sup>1,2</sup>Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchilari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160300>

***Annotatsiya.** Insoniyatning XXI asrga qadami uning barcha faoliyatlaridagi globallashuv bosqichiga to‘g‘ri keldi. Globallashuv jarayoni, insonlarni hozirgi zamon texnikasi rivojlangan hamda yangi texnologiyalar tufayli axborotning yagona muhitida faoliyat ko‘rsatishi lozimligini uqtirmoqda. Ayni globallashuv davrida har bir ta’lim muassasasi, birinchi navbatda, o‘qituvchi kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining yangi ta’lim dasturlarini ishlab chiqishi va sifatli pedagogik kadrlarni tayyorlashda to‘g‘ri yo‘llarni tanlashlari juda muhimdir.*

*Ushbu maqolada jamiyatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida ta’lim texnologiyalarining ahamiyati tadbiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** texnologiya, innovatsiya, modernizatsiya, raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish, kichik biznes.*

***Аннотация.** Шаг человечества в XXI веке совпал со стадией глобализации во всей его деятельности. Процесс глобализации учит людей тому, что современная техника должна функционировать в единой информационной среде благодаря развитым и новым технологиям. В эту эпоху глобализации очень важно, чтобы каждое образовательное учреждение, прежде всего высшие учебные заведения, готовящие педагогические кадры, разрабатывало новые образовательные программы и выбирало правильные пути подготовки качественных педагогических кадров.*

*В данной статье представлено применение образовательных технологий в процессе развития цифровой экономики в обществе.*

***Ключевые слова:** технологии, инновации, модернизация, Цифровая экономика, производство, малый бизнес.*

***Abstract.** The step of mankind into the 21st century coincided with the stage of globalisation in all its activities. The process of globalisation is making people feel the need to operate in a single environment of information, thanks to modern techniques and new technologies. In the current era of globalization, it is very important that every educational institution, first of all, the higher educational institutions that train teaching staff, develop new educational programs and choose the right ways in the training of quality pedagogical personnel.*

*In this article, the importance of educational technology in the development of the digital economy in society is introduced.*

***Keywords:** technology, innovation, modernization, digital economy, production, small business.*

**Kirish.** Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollari ochib berdi. Insoniyatning davlat vajamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar sosida tartibga solish borasidagi ilg‘or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so‘nggi yillarda umumiy tarzda “modernizatsiyalash” tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish

va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o‘tadi. Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo‘ladi. Jumladan, ta’lim sohadagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqidagi tabor va g‘amho‘rlik ko‘rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar - bizning kelajagimiz. Bu sohadagi davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish uchun yaqinda O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosatiga g‘arisida»gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Bularning barchasi bugungi kunda o‘z samarasini berib bermoqda. Yoshlarimiz biznes, ilm-fan, madaniyat, san’at, adabiyot va sport sohalarida olamshumul muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu mamlakatimiz istiqboliga, buyuk ajdodlarimiz boshlagan ezgu ishlarni kelajak avlodlar munosib davom ettirishiga katta ishonch bag‘ishlaydi”

“Globallashtirish sharoitida ta’lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi tezkor davr ta’lim oluvchilar, shu jumladan o‘quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda”. Ilmsiz, ma’rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkul. Davlatimiz rahbari tomonidan ilm-ma’rifatga alohida urg‘u berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to‘liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga qaratilgan muhim qadam ifodasidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida “2020 yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Shundan keyin fuqarolarda “raqamli iqtisodiyot” atamasi haqida ko‘plab savollar tug‘ila boshlandi.

Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashtirish jarayoni “yangi iqtisodiyot”ni vujudga keltirdi. Kam o‘rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kompaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste’molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi. Bu vaqtingiz tig‘iz paytida Internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqinligizga pul jo‘natishdan ko‘ra kengroq imkoniyatlar bo‘lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi.

“Raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga tarixiy nuqtai nazardan o‘rganib xulosa qiladigan bo‘lsak, uni tashkil etuvchi elementlar X-XI asrlardan boshlab yaratilgan hamda oxirgi XX-XXI asrlarda jadal sur‘atlarda rivojlantirildi, uning yangi qirralari, texnika, texnologiyalari ixtiro qilindi. Ushbu ibora, ya’ni “Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilk bor 1995 yilda aytilib, bugungi kunda butun jahon mamlakatlarida e’tirof etilishi bilan, 1995 yildan oldin raqamli iqtisodiyot yo‘q edi, degan tushuncha noto‘g‘ri bo‘ladi”. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlar qatori, bir qator mamlakatlarning xususan, O‘zbekiston amaliyotida ham joriy etilmoqda. Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish barcha sohalar samaradorligini oshirishga, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib, rivoj topishiga olib keladi.



**Tahlil va natijalar.** Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog‘langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. *Raqamli iqtisodiyot* – bu internet iqtisodiyoti, elektron biznes va elektron tijorat yordamida ishlab chiqilgan va sotilayotgan raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. Bu yerda tovarlar va xizmatlar elektron formada sotiladi. Raqamli iqtisodiyotda xizmatlar va tovarlar uchun to‘lovlar ko‘pincha elektron pullarda raqamli banklar orqali amalga oshiriladi. *Raqamli iqtisodiyot* - bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayotiy qulayliklarni ta‘minlaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish tizimi bo‘lib elektron tijorat shaklida rivojlanadi.

Keyingi yillarda jahon iqtisodiy adabiyotida keng tarqalgan yangi “Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot” yoki “Intellektual iqtisodiyot” tushunchasi ilmiy bilimlar majmuasi va ular (bilimlar, g‘oyalar, kashfiyotlar, texnologiyalar, chizmalar, usullar va boshqalar) yozilgan moddiy ma‘lumot tashuvchilar (disketlar, fleshkalar, internet resurslari va boshqalar) moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o‘rnatilishining asosiy omili bo‘lib qolishini anglatadi. Xuddi shu tufayli ilmiy-amaliy, ishbilarmon va professional davralarda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi nuqtai nazaridan bilimlar, ma‘lumotlar, yangiliklar va ilmiy-texnologik innovatsiyalar har tomonlama chuqur o‘rganila boshlandi. Yangi ixtirolar, g‘oyalar, ilmiy-texnik ma‘lumotlar va innovatsiyalar esa O‘zbekiston iqtisodiyoti asosiy sektorlarining raqamli iqtisodiyot nuqtai-nazardanqayta tuzilishi va rivojlanishini aniqlab bera boshladi.

Hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyotimizda biron-bir transmilliy kompaniya barpo etilmagan va dunyoga mashhur brendimiz yo‘q. Shuning uchun ham, keyingi yillarda xalq farovonligi va mamlakatning dunyo bozorida o‘rnini aniqlab beradigan ilg‘or texnologiyalar, innovatsiyalar, ta‘lim tizimi va boshqa an‘anaviy tarmoqlarda raqamli innovatsion yumushlarni amalga oshiradigan yuqori malakali kadrlarning etishmaslik holati kuzatilyapti. Ammo shunga qaramasdan, iqtisodiyot faniga va bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotning jarayonlari va qoidalari haqida tushuncha beradigan “raqamli informatsion iqtisodiyot”, yangi “bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot”, “raqamli innovatsion iqtisodiyot” va “raqamli intellektual iqtisodiyot” tushunchalariga o‘zmi-ko‘p marta‘rif berilib, ular bo‘yicha bir qancha ilmiy ishlar bajarilgan.

Raqamli iqtisodiyotga xos bo‘lgan texnologik o‘zgarishlar ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar uchun yangi bozor qoidalari va talablarini yaratish mumkin. Bunday muhitda kompaniyalar yangi raqobat strategiyalarini qidirishi va raqobat samaradorligini oshirishlari kerak. O‘tish davrida omon qolish va ayni paytda yangi sharoitda rivojlanish uchun kompaniyalar raqamli axborot texnologiyalar sohasida o‘z ko‘nikmalarini oshirishi kerak.

Yagona axborot-ta‘lim muhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Chunki yagona ta‘lim muhitini yaratishda tahliliy tayyorgarlikning yaxshi darajada bo‘lishi, mazmunning maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta‘minlash muhim sanaladi. Ta‘limni axborotlashtirishning mazmuni quyidagi yo‘nalishlar bilan asoslanadi:

AKTni joriy etish orqali talabalarga ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish. Talabaning mustaqil ta‘lim olish rolini oshirish, yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishi va qo‘shimcha ta‘lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish orqali ta‘lim sifatini oshirish imkoniyatlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘quv jarayonida mustaqil ta‘lim ulushining ortishi yangi ta‘lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi.

Yangi bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotni tushunish, uning tub mohiyatini o‘rganishdan, ya’ni oxirgi mahsulotda (yoki ko‘rsatiladigan xizmatda) aks etgan bilim yoki innovatsiyalarning mohiyatini tushunishdan boshlanadi. Zamonaviy nazariya asosida tushunilsa, innovatsiya bozorda amalga oshiriladigan, amaliyotda qo‘llaniladigan yangi yoki mukammallashtirilgan texnologik jarayon natijasida amalga oshadigan innovatsion faolityaning yangi yoki mukammallashtirilgan mahsuloti sifatidagi pirovard natijasi hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. *Hududlarda investitsion jozibadorligini oshirish va ulardagi innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosiblikni minimallashtirish, mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlash hamda inson salohiyatidan oqilona foydalanish lozim.*

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqaviy rivojlanish sohasida to‘rtta strategik vazifani belgilashni taklif qilamiz:

*Birinchi*dan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi sifatida hududlarning raqobatdoshligini oshirish va ular eksport qilayotgan tovarlar reytingini oshirish;

*Ikkinchi*dan, inson kapitali rolini oshirish;

*Uchinchi*dan, mintaqalararo hamkorlikni ta’minlash hamda mintaqalarni rivojlantirish uchun institutsional sharoitlarni yaratish.

*To‘rtinchi*dan, jarayonlarni samarali boshqarish va o‘z vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun onlayn rejimda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt darajasida moliyaviy va iqtisodiy xavfsizlikni monitoring qilish va dasturiy ta’minotni taqdim etish uchun bevosita muloqot qilish hamda aloqa tizimini yaratish kerak bo‘ladi.

Mintaqaviy darajadagi “oqilona” iqtisodiy tizimni shakllantirish barqaror iqtisodiy o‘sish nuqtalarini aniqlash, mintaqaning rivojlanish sohalari va yo‘nalishlarini nafaqat zamonaviy sharoitlarda raqamli shakllantirishni emas, balki birinchi navbatda, inson resurslarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash yo‘li bilan davlat-xususiy sektor hamkorligi asosida iqtisodiy va innovatsion rivojlanish sarmoyasi shakllantiriladi. Asosiy omillarni dasturiy ta’minotni faollashtirishga qaratilgan ommaviy axborotlashtirishni rivojlantirish, apparatni yangilash, tarmoq texnologiyalarini rivojlantirish, tranzaksion sektorning o‘sishi hisoblanadi.

**Xulosa:** Shu bilan birga, raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirishning g‘oyalarini tarqatish, axborot bozori sifatida tavsiflangan ijtimoiy - iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanishi sohasida iste’molchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar o‘rtasidagi savdosi axborot mahsulotlari bozorini shakllantiradi. Ushbu yondashuv bir qator mamlakatlarda axborot industriyasining ustunligini kuchaytiradi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi borgan sari yangi bilimga asoslangan va innovatsion g‘oya asosida rivojlanadi.

## REFERENCES

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 2015 yil, 5-bet.
2. Ergashovna, A. O., & Egamberdievna, N. S. (2022). The role of human capital in economic development. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(2), 100-106.

3. Nematova, S. (2022). Structural changes in the innovation-investment entrepreneurship of the economy of the region. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 184-187.
4. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilish istiqbollari. *Science and innovation*, 1(B8), 5-9.
5. Нематова, Ш. Э. (2023). Важные аспекты формирования инвестиционной среды в Узбекистане. *Scientific Impulse*, 1(9), 499-505.
6. Нематова, Ш. Э. (2023). Деятельность субъектов малого предпринимательства в экономике Узбекистана и вопросы их развития. *Journal of new century innovations*, 26(4), 172-178.
7. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo‘llanilishi. In *International scientific and practical conference "The time of scientific progress"* (Vol. 2, No. 5, pp. 107-113).
8. Shermatova, X.M., Maxammadjonov, J. (2023). Fan va ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 788-792.
9. Yuldasheva, G. I. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 466-468.
10. Shermatova, Z. I. L. O. L. A., & Shermatova, H. I. L. O. L. A. (2022). The role of electronic educational manuals in the field of ICT. *Интернаука*, 4(1), 46-47.
11. Sidikjonovna, I.D., & O‘rinboyevich, T.F. (2022). Axborot texnologiyalarini o‘qitish tizimiga integratsiyalash. *Miasto Przyszłości*, 29, 283-285.
12. Tojiyev, T., & Aldashev, I. (2022). The importance of primary school teachers to use act in their activities.
13. Тешабаева, О. Н., & Шерматова, Х. М. (2022). Современные информационные услуги в обеспечение конкурентоспособности коммерческих банков. *Scientific progress*, 3(1), 44-51.
14. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2023). Ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda zamonaviy texnologiyalarning tutgan o‘rni. *Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari*, 3(2), 36-38.
15. Aldashev, I. (2020). Modern information technologies in education is a new opportunity. *Economy and society*, (6 (73)).
16. Ibragimov Sh.M. (2020). Improving the effectiveness of teaching information technology in universities using the method of individualization. *Elektronnoye nauchno-prakticheskoye periodicheskoye mejdunarodnoye izdaniye «Ekonomika i sositium»*, (11-78).
17. Dovlatboyevich, D. M., & Komiljonovna, M. M. (2022). Oliy Ta’lim Muassasalrida Bulutli Texnologiyalardan Foydalanish Metodikasi. *Miasto Przyszłości*, 29, 305-308.

SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIGA RAQAMLI  
TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA TA’LIM BILAN INTEGRATIYA  
MASALALARI

<sup>1</sup>Turg’unov Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li, <sup>2</sup>Ortig‘aliyev Bunyodbek Kamoliddin o‘g‘li

<sup>1</sup>Farg‘ona Politexnika Instituti o‘qituvchisi, <sup>2</sup>Farg‘ona Politexnika Instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160321>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot tarmoqlarini yanada rivojlantirishning dolzarbligi asosiy masala sifatida qaralgan. Sanoat korxonalarini raqamlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalarni joriy etishda ta’lim bilan integratsiya holati o‘rganilgan. Yangi texnika va texnologiyalarni olib kirish raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sanoat tarmoqlarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning dolzarbligi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy etish shu orqali raqobatbardosh ustunlikka erishish muxim xisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish sanoat sohasiga joriy etish uning samaradorligini oshirish va uni ta’lim bilan integratsiya qilish uchun taklif etilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, raqobatbardoshlik raqamli texnologiyalar, bulutli texnologiyalari, ma’lumotlar bazasi, axborot texnologiyalari.

**Аннотация.** В данной статье в качестве основного вопроса рассматривается актуальность дальнейшего развития отраслей цифровой экономики в нашей стране. Изучены особенности цифровизации промышленных предприятий, состояние интеграции с образованием при внедрении цифровых технологий в эффективную организацию деятельности предприятия. Внедрение новой техники и технологий развитие цифровых технологий актуальность изменений, происходящих в отраслях, внедрение цифровых технологий хозяйствующими субъектами таким образом, достижение конкурентного преимущества является важным. Внедрение цифровых технологий в производственную отрасль предлагается для повышения ее эффективности и интеграции с образованием.

**Ключевые слова:** экономическое развитие, Цифровая экономика, цифровизация, конкурентоспособность цифровых технологий, облачных технологий, баз данных, информационных технологий.

**Abstract.** in this article, the relevance of the further development of the branches of the digital economy in our country is considered as the main issue. The peculiarities of digitization of industrial enterprises, the state of integration with education in the introduction of digital technologies in the effective organization of the activities of the enterprise are studied. The introduction of new technologies and technology the development of digital technologies the relevance of the changes taking place in industrial sectors, the introduction of digital technologies by business entities through which the achievement of a competitive advantage is highly appreciated. The introduction of digital technologies into the industrial sphere of production is being proposed to improve its efficiency and integrate it with education.

**Keywords:** economic development, digital economy, digitization, competitiveness digital technology, cloud technologies, database, information technology.

Dunyo mamlakatlarida amal qilayotgan jadal iqtisodiy munosabatlari rivojlanishining bugungi sharoitida qurilish sanoati tarmoqlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni

joriy etish orqali ishlab chiqarish sanoatida sezilarli samara olish mumkin. Faoliyatni raqamlashtirish - ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida xususan, faoliyat samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirishda, boshqaruv jarayonida to‘g‘ri qaror qabul qilishda, hamda bugungi raqobat muhitida raqobatbardosh mahsulotlar yaratilishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar inson faoliyati va iqtisodiyotning barcha asosiy sohalariga faol kirib borishi jadal sur‘atlarda davom etmoqda. Ushbu jarayonning hozirgi bosqichi “raqamli transformatsiya” ta’rifini oldi. Bu esa raqamli texnologiyalar yordamida butunlay yangi sifat bilan ajralib turadigan mahsulotlar ishlab chiqarilishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy kontsepsiyasi”ni ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini hayotga tadbqiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini berad[1].

Nafaqat iqtisodiy sohani balki ilm-fan va ta’limni ham bevosita iqtisodiyotimiz ishlab chiqarish salohiyatimiz bilan bog‘liq holatda amalga oshirish uni jahon talablarga mos ravishda shakilantrish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda integratsiya atamasi jahonda turli sohalarini, masalan, ijtimoiy, mintaqaviy, iqtisodiy, diniy, irqiy, tashkiliy integratsiya kabi sohalarini qamrab oladigan ijtimoiy tushuncha sifatida ishlatilimoqda. Aynan sanoat korxonalarini raqamli texnologiyalar bilan bog‘lashda xam ta’lim bilan integratsiya tizimini yanada takomillashtirish zarur sanaladi.

Sanoat korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot ishida ularni yanada jadallashtirish uchun ta’lim jarayoni bilan integratsiya qilish taklif etilmoqda. Ta’lim jarayoni bilan mamlakatda ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun pilot dasturni ishlab chiqishda ko‘rib chiqishni eng maqbul deb yechi sifatida e’tirof etilmoqda. Turli raqamli texnologiyalarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish, ularni amalga oshirish “mehnat unumdorligi va bandlikni qo‘llab-quvvatlash” milliy tadqiqot ishining maqsadi, ko‘rsatkichlari va natijalariga erishishga imkon beradi[2].

**1-jadval Raqamlashtirish dastur doirasida qurilish sanoati korxonalarida amalga oshirish uchun tavsiya etilgan raqamli texnologiyalar**

<b>Texnologiya nomi</b>	<b>Texnologiya tavsifi</b>	<b>Maqsad, vazifalar va natija</b>	<b>Korxonalar turi</b>
Raqamli dizayn va modellashtirish	Texnologiyalar va dasturlar to‘plami obyektlarni ishlab chiqish jarayonini avtomatlashtirish va mahsulotning 3D modelini loyihalash.	Barcha raqamli parametrlarni bog‘lashga imkon beradi kelajakdagi obyekt va uning ko‘p o‘lchovli modelida modellashtirish tashkiliy, texnik va boshqa o‘zgarishlar	Dizayn va muhandislik kompaniyalari, qurilish kompaniyalari, rivojlanish kompaniyalari

Shunday qilib, turli xil raqamli texnologiyalar sanoat korxonalarini uchun turli xil foyda keltiradi va ularni asoslashda ularni amalga oshirish xarajatlari samaradorligini baholash masalasi paydo bo‘ladi.



**“RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA FAN – TA’LIM – ISHLAB  
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI”  
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
2023-yil 22-noyabr**

Sanoat korxonalari faoliyatini samarali tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish korxonada xarajatlar tejalishidan tashqari sifat jarayonini yaxshilanishi va aniqlilik darajasini xamda sifatli boshqaruv jarayonini xam ta’minlaydi.

**2-jadval Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyasi**

<b>Ko’rsatkichlar</b>	<b>2015 y.</b>	<b>2016 y.</b>	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>	<b>2019 y.</b>	<b>2020 y.</b>	<b>2021 y.</b>
Ko’rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi (mlrd. so’mda)	5 181,5	6 306,8	8 196,7	10 332,6	10 891,7	13 852,3	17 755,1
Iqtisodiy faoliyat turi bo’yicha “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni	5689	6 370	6 427	6 403	6 975	7 901	9 517
Ko’rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi (mlrd. so’mda)	5 181,5	6 306,8	8 196,7	10 332,6	10 891,7	13 852,3	17 755,1
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo’shilgan qiymat hajmi (mlrd. so’mda)	3 876,3	4 967,7	6 377,8	7 934,0	8 701,4	11 121,8	17 738,7
Internetga ulangan korxonalar va tashkilotlar ulushi (foizda)	21,6	25,9	27,2	27,5	26,2	21,1	17,5
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo’shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (foizda)	1,9	2,1	2,3	2,1	1,8	2,0	2,6

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibiki, mamlakatimizdagi sanoat korxonalariga 2015-2021-yillar davomida ko’rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 5 181,5 mlrd. so’mdan 17 755,1 mlrd. so’mgacha ko’tarilgani. Undan tashqari axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo’shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi 1,9 foizdan 2,6 foizga ortganini ko’rishimiz mumkin.



Raqamli transformatsiyada turli xil zamonaviy texnologiyalar yordamida tegishli raqamli asosda platforma kerak. Raqamli platforma ostida raqamli ma’lumotlar modellar va vositalar, axborot va texnologik jihatdan birlashtirilgan avtomatlashtirilgan to’plam o’zaro mujassamlashadi. Sanoat korxonalarini faoliyatini raqamli shaklga almashishi uchun korxonaning raqamli transformatsiyasi zamonaviy ilg’or axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish ko’lamini oshirish zarurdir[3].

Ta’lim va sanoatning integratsiyasi hamda o’zaro hamkorligi masalasini tadqiq etish xorijiy olimlar tomonidan o’rganilib kelinmoqda. Lekin ular tadqiqotlari bilan tanishish mazkur masalaga turli yondoshuv va qarashlar mavjudligini ko’rsatadi. Moddiy mahsulotdan farqli ravishda oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoni va uning sifatini aniqlash juda ko’p o’ziga xos xususiyatlarga ega.

#### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, sanoat mamlakatimiz iqtisodiyotining ishlab chiqarish sektoridagi eng muhim tarmoqlaridan sanaladi. Shuningdek, o’ziga xos murakkab texnologik jarayonlarni mujassamlashtirgan bo’lib, uni zamonaviy ilg’or raqamli texnologiyalarni tadbiiq etmasdan turib rivojlantirish mumkin emas.

Sanoatda inson omili natijasida kelib chiqqan xatoning qiymati nihoyatda yuqori bo’lib, raqamlashtirish orqali bu qiymatni minimallashtirish mumkin. Ayni ushbu masalaga kadrlar bilan yechim topilishini inobatga olsak, ta’lim jarayonining naqadar uzviy aloqada ekanligini anglashimiz mumkin.

Sanoat mahsulotlarning dunyo maydonida raqobatbardoshligini ta’minlash zarurati barcha ishlab chiqarish, texnologik hamda biznes jarayonlariga innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

Bizningcha, sanoat tarmog’ini yangi sharoitlarda rivojlantirishni strategik qayta qurish maqsadida O’zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning quyidagi uzoq muddatli ustuvor yo’nalishlari belgilab olish zarur hisoblanadi:

- Texnologik transformatsiya - organik sintez va nanotexnologiyalarni qamrab olgan mahalliy xom ashyo resurslaridan tayyor mahsulotlarni yaratish uchun yangi quvvatlar asosida yangi qiymatlar zanjirini hosil qilish, shuningdek, xom ashyo (tabiiy gaz, sanoat tuzlari) eksporti ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish hamda uni qayta ishlashni takomillashtirish;

#### **REFERENCES**

1. <https://kun.uz/uz/news/2018/12/28/prezident-murojaatnomasi-toliq-matn>.
2. Glotko, AV, Polyakova, AG, Kuznetsova, MY, Kovalenko, KE, Shichiyakh, RA va Melnik, MV (2020). Tarmoqli raqamlashtirishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tendentsiyalari. *Tadbirkorlik va barqarorlik masalalari*, 7(3), 2181-2195. [http://doi:10.9770/jesi.2020.7.3\(48\)](http://doi:10.9770/jesi.2020.7.3(48))
3. Qurbonov T.K. (2018). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi texnologik yo’nalish iqtisodiyoti dasturi. *Zamonaviy jamiyat rivojlanishining dolzarb masalalari*, 126-132.

## **OLIV TA’LIMNI TIZIMINI JAHON STANDARTLARIGA MUTANOSIB RAVISHDA RAQAMLASHTIRISH MEZONLARI**

**<sup>1</sup>To‘raqulova Zumrad, <sup>2</sup>Abdumajidova Zarnigor**

<sup>1,2</sup>Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktab menejmenti yo‘nalishi talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10160343>

***Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o‘rganishning ahamiyati, hozirgi kunda olib borilayotgan ishlar va imkoniyatlar tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** masofaviy ta’lim, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, «EDU LINK» axborot tizimi, HEMIS dasturi.*

***Аннотация.** В статье анализируется значение цифровизации и обучения в цифровом мире в дошкольном образовании, общем среднем образовании и высшем образовании в нашей стране, текущие мероприятия и возможности.*

***Ключевые слова:** дистанционное образование, цифровые технологии, цифровизация, информационная система «EDU LINK», программа HEMIS.*

***Abstract.** The article analyzes the importance of digitization and learning in the digital world in preschool education, general secondary education and higher education in our country, current activities and opportunities.*

***Keywords:** distance education, digital technology, digitization, "EDU LINK" information system, HEMIS program.*

**KIRISH** Hozirgi paytda texnika va texnologiyalar kun sayn shiddat bilan yangilanib borayotgan davrda jamiyatni dunyoqarashi va zamonga moslashuvini tubdan o‘zgartirishi tabiiy holat bo‘lib bormoqda. Bu holatda ta’lim olish holatlarini yangilanishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassalarida masofaviy ta’limlarning yo‘lga qo‘yilishi bunga bir misol sifatida ko‘rishimiz mumkin. Masofaviy ta’lim, tabiatning o‘zgarishi (pandemiya davri) va so‘ngi texnologiyalarning ta’lim tizimiga samarali tadbiri o‘qitishni va o‘qishni o‘zgartirishga undaydi. Bu esa raqamli dunyoda o‘qitish va o‘rganish borasida ko‘plab pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF 6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko‘rib chiqish va raqamli ta’limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu farmonda ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: ta’lim pog‘onasining boshlangich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish; yagona masofaviy ta’lim platformasini kelajakda ta’limning barcha yo‘nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish; o‘quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta’lim maktablarining asosiy o‘quv dasturlariga doimiy

o‘zgartirishlar kiritish; texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o‘qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta’lim tizimiga joriy etish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq yo‘nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o‘rtacha darajada kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish; axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o‘quv jarayonlarga qatnashishini rag‘batlantirish orqali umumta’lim maktablarda informatika fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish; oliy ta’lim muassasalarida tegishli sohalarda “Buyumlar interneti”, robototexnika, sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash va o‘rganish bo‘yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy qog‘oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo‘yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash orqali ta’limda o‘quv materiallarini raqamlashtirish; raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish; go‘yalar va yangi texnologiyalar yaratishni targ‘ib qiluvchi respublika tanlovlari va tadbirlarini (xakatonlar, konkurslar, olimpiadalar va boshqalar) o‘tkazish; yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo‘nalishini ishlab chiqish va aniqlash, shu jumladan audio va video materiallarni izlash va aniqlash uchun yechimlar, axborotni qidirish va olishda semantikadan foydalanish, mashinaviy tarjima tizimidagi yangi texnologiyalar, shuningdek, mashinaviy o‘qitishning yangi algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish; robototexnika komplekslari va odamlar o‘zaro ta’sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma’lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o‘rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, “bulutli” xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta’minot yaratish bo‘yicha ilmiy ishlarni olib borish; maktabgacha, o‘rta va oliy ta’lim tizimi uchun elektron ta’lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalanishni ta’minlash; inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, ixtisoslashgan ta’limni rivojlantirish hamda IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish; maktab va maktabgacha ta’lim tizimiga raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar bo‘yicha innovatsion o‘quv dasturlarini joriy etish Mamlakatimiz maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarimizning aksariyat, ya’ni 3-6 yoshdagilari tarbiyalanadi.

**Tahlil va natijalar.** Xalqimizda bir naql bor: “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir”. Mana shu yoshda bolalarning rivojlanishi juda kuchli boladi. Atrof muhitning ta’siri va atrof-dagilarning tarbiya berishi ularning qolgan hayotiga ham ta’siri va ahamiyati kuchli hisoblanadi. Hali boshlang‘ich maktabga kirmagan bolalarning hozirgi zamon texnologiyalarning o‘rganishi va uni qo‘llay bilishi songi yillarda tezlik bilan rivojlanib kelmoqda va rivojlanib ham boradi. Dastlabki bolalalik davrida raqamli dunyoda ta’lim berish va bilim olish yo‘llarini samarali tashkil etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri. Bu muammoning nazariy yechimi tarbiyachilar, bollar va ularning ota-onalarini raqamli dunyoda o‘qitishga yangicha yondashishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Turli dasturlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar kabi bir qator yangi texnologiyalar bolalar ta’limiga yangi innovatsion investitsiyalarni joriy qilishning asosiy ta’lim vositalari vazifalarini bajaradi. Mana masalan “Moyvoqvoy va qizcha” mobil ilovasidagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishda va kreativ fikrlashida hamda noqulay vaziyatlarda qaror qilishda ahamiyati beqiyos. Xorijiy davlatlarda “Aflatot” dasturi maktabga kirmagan bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u ijtimoiy va iqtisodiy savodxonlikka asos soluvchi dastur hisoblanadi.

